

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:
Sattorov Abdusamat
Umurqulovich
Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich
Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich
Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
___. 2023.
Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnituruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi ___ nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № _.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://tisu.uz/>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Bog'ishamol" MFY,
"Farovon" massivi 4b-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Vohidov Sh.X. – t.f.d., prof. (Tojikiston)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Jo'rayev A.S. – i.f.d., prof.
Hatamov O.Q. – i.f.d., prof.
Tursunov S.N. – t.f.d., prof.
Xoliqova R.E. – t.f.d., prof.
Eshov B.J. – t.f.d., prof.
Mirsabirov M. – f.-m.f.d., prof.
Allakov I. – f.-m.f.d., prof.
Turayev E.Yu. – f.-m.f.d., prof.
Turayev X.X. – k.f.d., prof.
Qulmamatov D. – f.f.d., prof.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Raximov G'.X. – f.f.d., prof.
Umurqulov B. – f.f.d., prof.
Mahmudov Yu.G'. – p.f.d., prof.
Qodirov U.D. – psix.f.d., prof.
Otamurodov F.A. – tib.f.d., dots.
Shaydullayev Sh.B. – t.f.d., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Eshqurbonov F.B. – k.f.d., dots.
Tursunov N.N. – t.f.d., dots.
Xayrullayev I.N. – f.-m.f.n., dots.
Rasulov H.M. – s.f.n., dots.
Yormatov F.J. – t.f.n., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD)
Bazarov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattorova Ye.A. – f.f.f.d. (PhD)
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD)
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD)
Turayev Z.N. – i.f.f.d. (PhD)
Babamuratov B.E. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Turopova S.K. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xoliyorov E.Ch. – f.-m.f.n., dots.

TARIX FANLARI

ABDULLAYEV U.S.
O'rta Osiyo tarixshunosligida "sart" atamasi.....4

YORMATOV F.J.
Keksalarni ijtimoiy himoyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlarining tutgan o'рни.....9

KRAXMAL K.A.
Turon platformasi va Tyan-shan orogenning tutashgan zonasidagi tabiatning paleogeografik rivojlanishi tarixini o'rganish masalasida.....17

ESHQURBONOV S.B.
O'zbek xalqi an'anaviy xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlar va islohotlar (Surxon vohasi materiallari asosida)28

PARMONOV S.SH.
Shahrisabz bекligining Rossiya imperiyasi bosqinchiligiga qarshi kurashda tutgan o'рни34

NIGMATOV A.X.
Shanxay hamkorlik tashkilotining madaniy sohasidagi hamkorligi39

IQTISODIYOT FANLARI
JO'RAYEV X.
Mintaqada tadbirkorlik mahoratini baholash asosida ishbilarmonlik muhitini faollashtirish.....45

YARMATOV SH. CH.
Yer va suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish usullari va uning iqtisodiy ahamiyati.....49

FALSafa FANLARI
FAYZIXODJAEVA D.I.
Axloqiy qadriyatlarining dalillanishi va narrativlar.....55

TURABOVA S.K.
Qadimgi sharxalqlar tafakkur taraqqiyotida bahs fenomenining tutgan o'рни.....61

FILOLOGIYA FANLARI
ESANOV A.M.
O'zbek bolalar folklori o'yin qo'shiqlarining badiiy xususiyatlari.....68

PEDAGOGIKA FANLARI
SHODIYEV R.D., ABDUSAMATOV A.S.
Boshlang'ich ta'limda semiotik yondashuv asosida modellashtirish faoliyatini tashkil etish.....74

SALOXITDINOVA N.M., SAFARQULOVA N.O., QOBILOVA M.A.
Steam yondashuv asosida integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish metodikasi (boshlang'ich ta'lim fanlari misolida)79

JUMAYEVA G.T.
Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari.....84

TILLASHAYKOVA X.A.
Nikoh qurish yoshidagi talabalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishning ijtimoiy psixologik ahami.....92

ABDUSAMATOV A.S.
Semiotika fan sohasining chegaralari, uning funktsional parametrlari va dastlabki tushunchalari.....96

ISMOILOV B.T.
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini ko'rgazmali o'qitish metodikasi.....100

MA'RUFJONOVA R.L.
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish.....105

ISMOILOV B.T., NURULLAYEVA D.Q.
Amaliy mashg'ulotlar jarayonida geometrik shakllardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish.....112

NURULLAYEVA SH.U., BADALOV K.R.
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini imitatsion paradigma asosida pedagogik faoliyatini tashkil etish.....116

KIMYO FANLAR
ESHKARAEV S.CH.
Surxondaryo viloyati tuproqlarida pestitsidlar tarqalishining asosiy omillari.....122

ATAMURATOVA D.M., ALIKULOV P.V.
Синтез нового производного кохамина с пропаргиловым спиртом.....128

TIBBIYOT FANLARI
XUDOYQULOV B.Q., KENJAYEV Y.M.
Qorin bo'shlig'i a'zolarining og'ir aralash yopiq shikastlanishlarida zamonaviy diagnostika va davolash usullarining afzalliklari.....132

BOYQULOV T. T., XURSANDOV I.A., TOJIMURODOV M.
Covid-19 kasalligidan keyingi erkaklar bepustligini davolash xususiyatlari.....135

SULTONOV R.K.
Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda surunkali bronxit kasalligi rivojlanishidagi xavf omillarini baholash.....139

XUDOYQULOV B.Q., KENJAYEV Y.M., ХУЖАНОВ X.B.
Применение антисептика декасана в комплексном лечении у больных перитонитом.....142

KENJAYEV Y.M., ALIMUHAMEDOV D.SH.
Chiqindilarni qayta ishlash korxonalari ishchilarni salomatligini tiklashga qaratilgan profilaktik ratsionlarni optimallashtirish.....145

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
XAYRUULLAEV I.H.
Система частично-интегральных уравнений специального вида с вырожденными ядрами.....153

PSIXOLOGIYA FANLARI
NORBOSHEVA M.O.
Maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikativ qobiliyatlari va faol ijtimoiylashuvi xususida.....162

SIYOSIY FANLAR
NORMATOV O.M.
Gender tengligini ta'minlash – jamiyatning asosiy ustuvor vazifasi.....168

07.00.00

TARIX

FANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali | <https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Abdullayev Ulug‘bek Saydanovich,
tarix fanlari doktori, professor,
Andijon mashinasozlik instituti
Termiz (O‘zbekiston)

O‘RTA OSIYO TARIXSHUNOSLIGDA “SART” ATAMASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada “sart” atamasining o‘rta asrlardan boshlab, savdo bilan shug‘ullanuvchi toifaning etnik kelib chiqishi aniq bir etnos, xalqqa tegishli bo‘lmaganligi, balki Turkistonning mahalliy turkiy va so‘g‘diy etnik qatlamlari qorishuvidan tarixan tarkib topgan turkiy tilli yirik ijtimoiy toifa sifatida qo‘llanilganligi, keyinchalik XVII asrlardan, asosan eski o‘zbek tilida so‘zlashuvchi Movarounnahr va unga tutash hududlarning o‘troq aholisi etnik qatlamiga aylanganligi, ya‘ni, endi “turklar” va “o‘zbeklar” atamasi ommalashib borganligi masalasi bayon qilingan. Bu etnik jarayonlar, xususan mintaqa xalqlarida kechayotgan etnik konsolidatsiya bilan bog‘liq holda yuz bermoqda edi. Shu joyda ta‘kidlab o‘tish o‘rinliki, O‘zbekiston SSRni tashkil etilishi arafasida hali xalqimiz uchun yagona etnonim qaror topmagan bo‘lsada, o‘zbek xalqini etnik tarkibini tashkil etgan barcha subetnoslar yagona etnik yadro-o‘zbek etnik yadrosiga birlashib, “o‘zbek” degan nomni o‘z millati nomi sifatida ong sizimida e‘tirof etishi tobora kuchayib borganligi masalasi yozma manbalar va tarixiy adabiyotlar asosida o‘rganilib, tahlil qilingan. Kalit so‘zlar: “Sart”, etnik, elat, xalq, aholi, subetnos, millat, mintaqa, davlat, viloyat, shahar, qishloq, savdo-sotiq, savdogar, ishlab chiqarish, bozor.

Термин “сарт” в среднеазиатской историографии

Аннотация: В данной статье термин “сарт” используется со времен

Средневековья, поскольку этническое происхождение торгового класса принадлежит не конкретному этносу, народу, а как многочисленному тюркоязычному социальному классу, исторически сложившемуся смешения местных тюркских и согдийских этносов Туркестана, а позднее с XVII в., вопрос о том, что оседлое население Моваруннахра и прилегающих районов, говорящее в основном на староузбекском языке, превратилось в этническую группу, то есть термины “турки” и “узбеки” стали популярными. Это происходило в связи с этническими процессами, особенно этнической консолидацией народов региона. Здесь следует отметить, что хотя накануне образования Узбекской ССР единый этноним для нашего народа еще не был определен, все субэтнотсы, составляющие этнический состав узбекского народа, объединились в единого этнического ядра - узбекского этнического ядра, и признают имя “узбек” названием своей нации. Вопрос увеличения численности изучался и анализировался на основе письменных источников и исторической литературы.

Ключевые слова: “сарт”, этнический, народ, население, субэтнос, нация, регион, государство, губерния, город, село, торговец, купец, производство, рынок.

The term “sart” in Central Asian historiography

Annotation: In this article, the term “Sart” has been used since the Middle Ages, since the ethnic origin of the trading class does not belong to a specific ethnic group, people, but as a large Turkic-speaking social class, a historically established mixture of local

Turkic and Sogdian ethnic groups of Turkestan, and later from the 17th century, the question of that the settled population of Movarunnahr and surrounding areas, speaking mainly the Old Uzbek language, turned into an ethnic group, that is, the terms “Turks” and “Uzbeks” became popular. This happened in connection with ethnic processes, especially the ethnic consolidation of the peoples of the region. It should be noted here that although on the eve of the formation of the Uzbek SSR a single ethnonym for our people had not yet been determined, all sub ethnic groups that make up the ethnic composition of the Uzbek people united into a single ethnic core - the Uzbek ethnic core, and recognize the name “Uzbek” as the name of their nation. The issue of increasing numbers was studied and analyzed on the basis of written sources and historical literature.

Key words: “Sart”, ethnic, people, population, sub ethnic group, nation, region, state, province, city, village, trade, merchant, production, market.

Kirish

Etnik o‘zlikni anglash masalasi barcha davrlarda va barcha xalqlarda milliy-etnik taraqqiyotning eng asosiy omili bo‘lib kelgan. Etnik o‘zini anglash-ma‘lum bir etnosni alohida bir etnik jamoa sifatida e‘tirof etish uchun shart bo‘lgan asosiy etnik belgidir.

Uzoq etnogenetik jarayonlar natijasida mahalliy etnik asosda shakllangan o‘zbek xalqining ajdodlari Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bir necha etnonimlarni o‘z ongimizda e‘tirof etib keldi.

Ma‘lumki, miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlaridan O‘zbekiston vohalarining aholisi so‘g‘dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, chochliklar va parkanlar deb, dasht hududlarida ko‘chmanchi holda yashagan etnoslar esa sak-massagetlar nomi bilan atalgan.

Butun o‘rta asrlar davomida yurtimiz hududiga ko‘plab etnik jamoalarni ko‘chib kelishi kuzatiladi. Albatta, bu davrlarda chetdan kelgan etnoslarni turli davrlarda mahalliy

turg‘un aholi bilan etnointegratsion jarayonlar orqali assimilyatsiyalashish (qorishib ketish) holati yuz berdi. Oqibatda, mahalliy etnik asosda yangi etnik birikmalar shakllandi va xalqning katta qismi assiy etnik birlik nomi bilan yoki yashash joylari nomi bilan atalib kelindi. Demak, xalqimizga nisbat berilgan etnonim asrlar davomida transformatsiyaga uchrab, bir atama ikkinchisi bilan almashib kelingan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida ham xalqimizga nisbatan yagona etnonimni qo‘llash

hali qaror topmagan edi. Bu davrda Markaziy Osiyoning bir qator xalqlari kabi o‘zbek xalqida ham o‘zbek etnik yadrosiga konsolidatsiyalashuv (birikish) jarayoni nihoyasiga yetmagan edi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarga nisbatan berilgan etnonimlar (ushbu etnosni nomlanishi) har doim ham o‘sha xalqning ong sizimida qat‘iylashgan emas. Holbuki, ayrim xalqlarning tarixiy nomlari o‘zga yurt vakillari tomonidan qo‘llanilgan. Tarixda bunga misollar juda ko‘p. Birgina misol. Qadimgi davrlarda Markaziy Osiyoning dasht hududlarida yashagan yirik urug‘-qabila birlashmasiga nisbat berilgan massaget etnonimi, asosan yunon mualliflarining asarlarida uchraydi va shu manbalar orqali ilmiy iste‘molga kirgan.

O‘zga yurt vakillari tomonidan ajdodlarimizga nisbat berilgan ana shunday atamalardan, yana biri bu “sart” atamasidir. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga oid statistik xarakterdagi nashrlarda hamda o‘sha davr mualliflarining asarlarida “sart” atamasi ko‘p uchraydi. Mazuga oid adabiyotlar tahlili Bu davr tadqiqotchilari tomonidan bir necha o‘n yillar davomida “sart” masalasi haqida ko‘plab, fikr-mulohazalar bildirildi. Xususan, “sart” lar haqidagi ma‘lumot A.L.Kun, A.P.Somoylovich, V.P.Nalivkin, M.V.Gavrilov, V.V.Bartold, N.P.Ostroumov, N.G.Malliskiy, I.P.Magidovich, I.I.Zarubin va Ye.D.Polivanov kabi rusiyzabon olimlarning asarlarida ko‘p uchraydi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mualliflar o‘z ishlarida “sart” so‘zini etnik xususiyat kasb qilish yoki qilmaslik masalasida qarashlarini bayon qildilar. “Sart” atamasi o‘troq aholi uchun tegishliligi rus

tadqiqotchisi N.P Ostramuvovning 1890 yilda nashr qilingan “Sartlar. Etnografik materiallar” nomli kitobida qayd etib o‘tilgan bo‘lsada, biroq ushbu muallif o‘z asarida sartlar kim ekanligini, etnosni belgilovchi asosiy omillar asosida dalillab bera olmagan [1].

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida “Sart” atamasini tadqiqi va tahliliga bag‘ishlangan turli maqolalar mahalliy matbuotlarda, jumladan “Turkistanskie vedomosti”, Turkiston milliy taraqqiyparvarlarining “Oyna” jurnalining bir qator sonlarida e‘lon qilindi va qizg‘in bahs-munozara mavzusiga aylandi.

“Sart” so‘zini etimologik tahlili va uning ijtimoiy-etnik xarakteri borasidagi qarashlarning o‘zaro to‘qnashuvi, mahalliy aholi vakili Sherali Lapinning bu masala yuzasidan rusiyazabon olimlar tomonidan avval bildirilgan fikrlarga qat‘iy ravishdagi qarshi e‘tirozi bilan boshlandi. 1890 yilning oxirlarida Sherali Lapin “Orenburgskiy listok” gazetasida “Sarty i ix yazыk” (“Sartlar va ularning tili”) nomli maqola e‘lon qilib, unda sharqshunos V.V. Bartold va N.P Ostroumovlarning bu boradagi qarashlarini tanqid ostiga oldi. Yuqoridagi rus sharqshunoslaridan farqli o‘laroq Sherali Lapin “... sart degan xalq yo‘q, sart tili ham mavjud emas, sart nomi o‘zbek va tojiklarga qirg‘izlar (qozoqlar) tomonidan kamsituvchi laqab sifatida berilgan” deb qat‘iy takidlaydi [2.299].

Bungajavoban V.V. Bartold 1894 yilda “Okraina” gazetasida bir maqola chop etib, unda Lapin fikrini asossiz hisoblab “sart” atamasini etnografik lug‘atdan olishiga hech qanday asos yo‘q” deb yozadi [3. 305].

“Sart” atamasi bilan bog‘liq Sh. Lapin va V.V. Bartold o‘rtasidagi o‘zaro bahs shu bilan yakun topmaydi.

O‘z o‘rnida Sherali Lapin ham V.V. Bartoldga “Turkistanskie

vedomosti” gazetasining 1994 yilgi bir necha sonlarida chop etgan “Sart so‘zini ma‘nosi va kelib chiqishi” maqolasi bilan javob qaytardi. Sh. Lapin ushbu maqolasida o‘zbek va tojik aholi tomonidan “sart” so‘z hech qachon etnonim sifatida e‘tirof etilmagani, u ko‘chmanchi-qirg‘iz (qozoqlar) tomonidan kamsituvchi “laqab” sifatida berilganligini takrorlab o‘tdi [4].

Shundan keyin, “Turkistanskie vedomosti” gazetasida “sart” atamasini tahliliga doir V.V. Bartoldni yana “Janob Lapinga javob o‘rnida” (1894) va “Yana sart so‘zi haqida” (1895) deb nomlangan maqolalari chop etildi. Ushbu maqolalarda V.V. Bartold “Sart” atamasini evolyusiyasini kuzatib, u uzoq tarixiy ildizga ega ekanligini ko‘rsatib bergan [5].

1908 yili N.P. Ostroumovning “Sartlar” (“Sarty”) nomli kitobini uchinchi to‘ldirilgan nashri chop etildi. Asarning aynan ushbu nashrida mualliflar Bartold va Lapinning “sart”lar yuzasidan

qilgan bahsiga batafsil to‘xtalib o‘tadi. Biroq, N.P Ostroumov shu mavzuda bahslashgan tomonlarning hech birining fikrini ochiq qo‘llab-quvvatlab chiqmadi [6. 53-91].

N.P. Ostroumovning ushbu “Sartlar” (“Sarty”) nomli kitobiga taniqli sharqshunos A.N. Salaylovich 1910 yili markaziy nashrlardan biri (“Jivaya starina”)da munosabat bildirilib, “Sartlar masalasi haqida” nomli maqolasini chop etdi. U o‘z maqolasida N.P. Ostroumovning ushbu kitobiga “... mutaxassis etnograf tomonidan emas, balki davlat arbobi tomonidan yozilgan kitob” deb baho berdi [7].

1912 yilga kelib esa, “Turkistanskie vedomosti” gazetasida M.V. Govrilovning ham “Sart so‘zini kelib chiqishi” (“Proisxoждение slova “sart”) nomli maqolasi ham e‘lon qilindi. Ushbu maqolaning eng e‘tiborli jihati shundaki, unda muallif qo‘qonlik Muhammad Amin Muhammadjonovning “Vaqt” gazetasida chop etilgan xatidagi “Ma‘lum bo‘lsinki, “sart” atamasi hech qanday millatning nomi emasdir. Bu nom bizga ruslar tomonidan berilgan va hech qanday asosga ega emasdir” degan fikrni keltirib o‘tadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi :Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbashunoslik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tahlil va natijalar Xalqimizga nisbatan “sart” etnonimini qo‘llash tarixiy haqiqatga zidligi, o‘zbek xalqi hech qachon ushbu so‘zni o‘z xalqining nomi sifatida qabul qilmaganligini Turkiston milliy

taraqqiyparvarlarini mashhur namoyondasi Mahmudho‘ja Behbudiy ham o‘z davrida qat‘iy takidlagan edi. Shu o‘rinda Behbudiyning ushbu masalaga oid “Oyna” jurnalida chop etilgan “Sart so‘zi majxuldir” nomli maqolasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz [9]. Taniqli tarixshunos D. Alimova ushbu maqola haqida shunday yozadi: “Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sart so‘zi majxuldir” maqolasini biz nihoyatda muhim manba sifatida baholaymiz, ammo afsuski juda kam tarixchi va etnograflargagina u ma‘lum. Maqola o‘z zamonasi ilmiy izlanishlariga tayangan holda, aholi fikrini bilishdan tortib (dala etnografik tadqiqotlar o‘tkazib-U.A.) manbalarni ham o‘rganib, mavzuga oid qator adabiyotlarni tadqiq qilish natijasida yaratilgan ilmiy asar” [10. 17].

Darxaqiqat, Maxmudxo‘ja Behbudiyning ushbu maqolasi XIX-XX asr boshlarida o‘zbek xalqi etnik tarixini, ayniqsa bu davrda xalqimizning etnik o‘zligini anglash maqolasini to‘g‘ri yoritishda muhim manba hisoblanadi. Zero, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu davrda Turkistondagi rus aholi o‘rtasida yuqori boshqaruv doiralarining sayi-harakati oqibatida mahalliy aholini “sart” nomi bilan atash keng tarqalgan edi.

Maxmudxo‘ja Behbudiy “sart” so‘zni etimologiyasini aniqlashda va unga xalqimizning munosabatini belgilashda etnografik tadqiqot usulidan unumli foydalangan. U Turkistonning turli hududlarida yashayotgan keksa yoshdagi kishilar bilan o‘zaro suhbat qurib, bu masala bo‘yicha muhim ma‘lumotlarni qo‘lga kiritgan. Xususan, “Turkistonning qayu bir cho‘l va tog‘ yo ma‘mur yerindagi 60-70-100 ga kirgon kishidan “sart” so‘zi so‘ralsun, bilmaydur... Qari kishilar: falona aslan o‘zbek yo tojikdir, der. Aslo sart demas va sartni bilmas, sart degan qabiladan behabardir” [9] kabi dala etnografik ma‘lumotlarni Behbudiy o‘zining qarashlariga dalil - asos qilib oladi.

Maqolada M. Behbudiy “Sart” masalasi bo‘yicha o‘zigacha nashr qilingan ishlarni, chuqur o‘rganib, atroflicha tahlil qilgan. Masalan, yuqorida biz ko‘rsatib o‘tgan N.P. Ostroumovning “Sarty” kitobi haqida Behbudiy shunday yozadi: “Astro‘muf janoblari “Sartlar” isminda tahminan 300 sahifalik ruscha bir kitob tasnif qilgandirlar. Ushbu kitobga mazkur janob Sherali Lapin tarafidan bir necha e‘tiroz va bahslar bo‘lgandur. Ammo, janob Astro‘muf, sartlar kim ekanligini isbot qilib bir joyga qaror berganlari yo‘q va kitoblari har naf ixtilof va faraziyot ila to‘ladur” [9].

Bundan tashqari, Behbudiy ushbu maqolasida Vamberining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohati”, Logofetning “Buxoro xonligi”, Gayerning “Turkiston sayohatnomasi” nomli asarlaridagi “sart” masalasiga oid ma‘lumotlarni tahlil qiladi. U Gayer o‘zbek va tojiklarni “sart” atalishiga gumon ko‘zi bilan qaraganligini aytib, uning bu boradagi qarashini qo‘llab-quvvatlaydi. 1914 yilda “Sadoiy Farg‘ona” gazetasida mullo Abdullobek ismli kishini “Sart so‘zi ma‘lumdir” sarlavhali bir maqolasini chop etdi. Unda muallif “sart” so‘zini etimologik jihatdan tahlil qilishga xarakat qilib, bu so‘z “masjidlik va madrasalik”, “ozoda va madaniy” degan ma‘noga ega va bu nom bilan faxrlanish kerak, deb tushuntiradi. Chunonchi, muallif shunday yozadi: “Muhtaram azizlarga mahfiy qolmasunki, har kim bizni sart desa, bunga xursand bo‘lib faxr qilmog‘imiz darkordir. Choraki, sart degani, masjidlik va madrasalik va bozorlik va ozoda ulamoni madaniy, degani bo‘lur” [11]. Albatta, ushbu maqolada sart so‘zi haqida bildirilgan fikr ham e‘tibordan chetda qolmadi. Tez orada “Oyna” jurnalida ushbu maqolada aytilgan fikrlarga raddiya xarakterdagi “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” nomli maqola bosilib chiqdi. Aytib o‘tish kerakki, “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” nomli ushbu maqolada muallifning ismi-sharifi ko‘rsatilgan emas. Biroq, tadqiqotchilar “ifoda usuli va darajasiga ko‘ra” maqola Behbudiy qalamiga mansub ekanligini ta‘kidlaydilar [12. 27]. Unda “Sart so‘zi ma‘lumdir” nomli maqolada keltirilgan ma‘lumotlar hech qanday ilmiy asosga ega emasligi aytiladi. “Agarda, deb yozadi Behbudiy”- “sart” so‘zi ma‘lum bo‘lsa edi, ya‘ni Turkistondagi xalqlarning barchasi yoki muayyan bir qismining “sart” atalgoni daloyili tarixiy ila isbot qilingan bo‘lsa edi, ul suratda xech

kim “sart” xususida soʻz ochmas va baxs chiqarmas edi”. Muallif mullo Abdullobek qarashlarini tanqid qilib, yana yozadi “... naql va rivoyat etgan maʼlumotlari qaysi tarix kitobidan va yo qaysi ishonchlik marris soʻzidan olinganligini bila olmadik, agar bu rivoyatlari mahzi ogʻzaki xikoya va soʻzlar jumlasidan iborat boʻlsa, bu taqdirida, muning ila “sart” soʻzi maʼlum boʻldi, yoki “sart” masalasi xal qilindi, deb hukm etmoq mutlaqo durust emasdur.... Asli nomaʼlum bir rivoyat ila ulugʻ masalai tarixiyani xal etmoqlikni esa tarix haqida jinoyat sanaydurlar” [12].

X u l o s a

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yashab faoliyat koʻrsatgan milliy vatanparvar ziyolilarni vakillari oddiy xalq uchun yot, begona va beʼmani boʻlgan nomni qoʻllashni, xususan oʻzbek xalqiga nisbatan “sart” atamasini ishlatishga qatʼiy ravishda qarshi chiqdilar. Bunday eʼtirozlar yuqorida koʻrib oʻtganimizdek, Sherali Lapin va Mahmudxoʻja Behbudiy asarlarida oʻzining aniq ifodasini topgan. Etnik kelib chiqishi va tilidan qatʼiy nazar Oʻrta Osiyoning ayrim viloyatlari turgʻun aholisiga nisbatan Rus hukmron doiralari tomonidan kiritilgan ushbu “sart” atamasi asta-sekin kundalik isteʼmoldan chiqib bordi. XX asrning 20 yillaridan eʼtiboran esa “sart” atamasi toboro kam qoʻllaniladigan boʻlib, endi “turklar” va “oʻzbeklar” atamasi ommalashib bordi. Bu albatta etnik jarayonlar, xususan mintaqa xalqlarida kechayotgan etnik konsolidatsiya bilan bogʻliq holda yuz bermoqda edi.

Shu joyda taʼkidlab oʻtish oʻrinliki, Oʻzbekiston SSR ni tashkil etilishi arafasida hali xalqimiz uchun yagona etnonim qaror topmagan boʻlsada, oʻzbek xalqini etnik tarkibini tashkil etgan barcha subetnoslar yagona etnik yadro-oʻzbek etnik yadrosiga birlashib, “oʻzbek”

degan nomni oʻz millati nomi sifatida ong sizimida eʼtirof etishi tobora kuchayib bordi. Oxir-oqibat bu nom mahalliy aholi ruhiyatiga singib, “oʻzbek” atamasi butun bir xalqning etnik nomiga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Остроумов Н.П. Сарты: Этнографические материалы. Ташкент, 1890. Вып. I
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т., “Университет”, 2007.
3. Бартольд В.В. О преподавании туземных наречий в Самарканде // Бартольд В.В. Соч., М., 1964.Т. 2. ч. 2.
4. Лапин Ш. О значение и происхождение слова “сарт” (по поводу заметки В.Бартольда) // ТВ.1894 № 36, 38, 39.
5. Бартольд В.В. Вместо ответа г-ну Лапину // Бартольд В.В. Соч.Т. 2.ч.
6. Остроумов Н.П. Сарты: Этнографические материалы (общий очерк). Ташкент, 1908.
7. Самойлович А. К вопросу о сартах // Живая старина. СПб., 1910. Вип. 3.
8. Гаврилов М. Происхождение слова “сарт” // ТВ. 1912. №236.
9. Махмудхўжа Бехбудий. Сарт сўзи мажхулдир // “Ойна”, 1914, 22-сон 22-март.
10. Алимova Д.А. Рашидова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент-1999.
11. Мулло Абдулабек. “Сарт сўзи маълумдир” // Садои Фарғона. 1914. № 30
12. Сарт сўзи маълум бўлмади // Ойна, 1914, 39-сон, 19 июль.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Yormatov Faxriddin Joylovovich, *Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy- gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi. Termiz (Oʻzbekiston)*
E-mail: faxriddinyormatov73@gmail.com

KEKSALARNI IJTIMOIIY HIMOYALASHDA NODAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARINING TUTGAN OʻRNI

Annotatsiya: Ushbu maqola keksalarni ijtimoiy himoyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlarining tutgan oʻrni deb nomlangan boʻlib, mamlakatimizda nuroniy jamgʻarmasi hamda kasaba uyishmalari federatsiyasi tomonidan amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar hamda uning ahamiyati haqida soʻz yuritilgan. Maqolada nodavlat tashkilot sifatida faoliyat olib borayotgan “Nuroni” jamgʻarmasining tashkil etilish tarixi hamda oʻtgan davr mobaynida keksalarni har tomonlama himoyalashdagi oʻrni, Shuningdek jamoat tashkiloti hisoblangan kasaba uyishmalari federatsiyasining mazkur yoʻnalishdagi ijobiy faoliyati haqida maʼlumotlar keltirilgan. Mazkur maqolani tayyorlashda arxiv materiallari, mavzuga oid kitoblar va internet saytlari maʼlumotlari hamda matbuot materiallaridan foydalanildi. Kalit soʻzlar: Keksalar, ijtimoiy himoya, nuroniy jamgʻarmasi, kasaba uyishmalari federatsiyasi, xotira va qadrlash, saxovat, muruvvat yolgʻiz keksalar, nogironlar, mehr-oqibat.

РОЛЬ ИТЕЛЬСТВЕННЫХ И ОБЩЕСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация: В данной статье показана роль ипительственных и общественных

организаций в социальной защите пожилых людей, рассказывается о работе, проводимой и совершенствуемой Фондом «Нураний» и Федерацией профсоюзов в нашей стране, а также ее значимости. В статье представлена история создания фонда «Нураний», действующего как неправительственная организация, и его роль в комплексной защите пожилых людей за прошедший период, а также информация о положительной деятельности Федерации Профсоюзов, которая является общественной организацией, работающей в этом направлении. При подготовке статьи использовались архивные материалы, информация из книг и сайтов по теме, а также материалы прессы. Ключевые слова: Пожилые люди, Социальная защита, Фонд “Светлый”, Федерация профсоюзов, память и признательность, щедрость, достоинство одиноких пожилых людей, инвалидов, доброта.

THE ROLE OF NON-GOVERNMENTAL AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE SOCIAL PROTECTION OF THE ELDERLY

Abstract: This article was called the role of non-governmental and public organizations in the social protection of the elderly and discussed the work carried out and carried out in our country by the Luminous Foundation and the Federation of trade unions, as well as its importance. The article contains information about the history of the foundation “Nuraniy”, which operates as a non-governmental organization, as well as its role in the comprehensive protection of the elderly over the past period, as well as the

positive activities of the Federation of trade unions, which is considered a public organization, in this direction. In the preparation of this article, archival materials, information on thematic books and Internet sites, as well as press materials were used.

Key words: Elderly, Social Protection, Luminous Foundation, Federation of trade unions, memory and appreciation, generosity, dignity lonely elderly, disabled, kindness.

Kirish

Yoshi ulug‘, qariyalar, nuroniy ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish o‘zbek xalqining xarakteri, uning turmush tarziga bevosita taalluqlidir. Jonajon yurtimizda azaldan bu masalalarga yuksak qadriyat sifatida qaralib, hozirgi kungacha bu o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillardanoq, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoyalashga alohida e‘tibor qaratib, ularning farovon hayotini ta‘minlash va mushkulini oson qilishga xizmat qiladigan ko‘plab imtiyozlarga ega qonun hamda qarorlar qabul qilinganligini alohida qayd etish zarur. Shu bilan bir qatorda bu ezgu ishlarda nafaqat davlat balki, nodavlat va jamoat tashkilotlari ham o‘zining munosib hissasini qo‘shayotganligini alohida ta‘kidlash zarur. Ana shunday nodavlat va jamoat tashkilotlaridan hisoblangan nuroniy jamg‘armasi hamda kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tabarruk keksalarimizni ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarini o‘rganish va ilmiy tahlil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Keksalarni ijtimoiy himoyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlarining tutgan o‘rni masalalarini o‘rganishga oid bo‘lgan eng ahamiyatga molik ma‘lumotlar birinchi o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev va birinchi Prezident I.A. Karimovning asarlari, ma‘ruzalari va ko‘rsatmalarida o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami”. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at.- Toshkent: Sharq, 2006.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari davlat arxivlari Surxondaryo viloyati hokimiyatining joriy arxivi. “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limining hisobotlari, hamda kasaba uyushmalari federatsiyasi hisobotlarida ko‘plab ma‘lumotlar aks etgan. Shuningdek, tadqiqotchilar Sh. Sodiqova., B. Baxtiyorov., M. Abdullayeva., L. Xolikova., L. Tangriyev., A. Xolbekov., G. Alimova., A. Norbekov., M. Usmonova., D. Ahmedov va boshqalarning tadqiqotlarida ham ma‘lum darajada bu masalalar yoritilgan. Tadqiqot metodologiyasi Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, keksalarni ijtimoiy himoyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlarining tutgan o‘rni masalalari tadqiq etilgan. Tahlil va natijalar O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq yoshi ulug‘ qariyalarning ijtimoiy himoyasini ta‘minlashga qaratilgan bir qancha muhim hujjatlar ishlab chiqilib, o‘tgan yillar mobaynida bu yanada takomillashib bormoqda. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ota-onalarimizga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatishimiz shart ekanligi birinchi galda 2023 yil 1-maydan amal qilina boshlagan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan XIV-bobning 80-moddasida aniq-ravshan qilib belgilab qo‘yilgan. Jumladan Konstitutsiyada, “Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida

g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” [1] deyilgan. Yurtimizda davlatimiz tomonidan keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoyalashga alohida e‘tibor qaratilib, ularning farovon hayotini ta‘minlash va mushkulini oson qilishga xizmat qiladigan ko‘plab imtiyozlarni nazarda tutgan yuzlab me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi hech kimga sir emas. Shu bilan bir qatorda yoshi ulug‘ keksalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni ijtimoiy himoyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlari ham o‘zining munosib hissasini qo‘shayotganligini alohida ta‘kidlash zarur. Ana shunday nodavlat tashkilotlardan biri “Nuroniy” jamg‘armasidir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1996 yil 4 dekabrda “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi to‘g‘risida” [2] gi Farmoni e‘lon qilindi. Ushbu jamg‘arma faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlaydigan nodavlat jamoat birlashmasi sifatida tuzildi. Farmonda jamg‘armani qo‘llab-quvvatlash, uning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat hamda ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlari, tadbirkorlar, boshqayuridikshaxslar va fuqarolarning keksa avlod oldidagi farzandlik burchi, deya alohida ta‘kidlandi. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 dekabr qaroriga ko‘ra, 17 ta davlat va jamoat tashkilotlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi, “O‘zbekneftgaz” milliy korporatsiyasi, “Mahalla” xayriya jamg‘armasi, “Vatanparvar” tashkiloti va boshqalar tomonidan ta‘sis qilingan. Jamg‘arma O‘zbekiston Markaziy

Kengashidan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo‘limlari, tuman, shahar bo‘linmalariga ega. Ularning huzurida jamoatchilik markazlari faoliyat ko‘rsatdi. “Nuroniy” jamg‘armasi belgilangan tartibda ishlab chiqarish hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi [3]. Mazkur jamg‘arma oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- respublikada o‘tkazilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ayniqsa urush va mehnat faxriylari, nogironlarni e‘zozlash, ularning atrofida ehtiromli muhit hosil qilish, zarur moddiy, ma‘naviy, tibbiy yordam ko‘rsatish;
- jamiyatni yangilash va rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, faxriylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari, bor bilim va salohiyatlarini istiqloq ishiga safarbar etishlari, mustabid sovet tuzumining xalqimiz, o‘lkamiz taraqqiyotiga yetkazgan zararini chuqur tahlil etishi hamda jamoatchilikka yetkazishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- milliy qadriyatlarimiz, o‘zbekona erksevarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, totuvlik, boshqalarga izzat-ikrom xislatlarini avloddan-avlodga o‘tib, yanada boyitishga hissa qo‘shish;
- faxriylar va nogironlarning moddiy sharoitini yaxshilash, ular uchun belgilangan imtiyozlarning, nafaqa to‘g‘risidagi qonunchilikning to‘la va o‘z vaqtida amalga oshirilishida rahnomalik qilish, bu borada ijrochi hokimiyat organlariga ko‘maklashish, keksalar, yordamga muhtoj boshqa turli tabaqalarga savdo, madaniy-maishiy, tibbiy yordamlar ko‘rsatish, shu maqsadlarga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish, tijorat, noshirlik, xayriya ishlarini amalga oshirish, ommaviy tadbirlar o‘tkazish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni faxriylar, keksa fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, ular ijtimoiy faolligini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. 1996 yilda Qashqadaryo viloyatining o‘zida 707 ta boshlang‘ich faxriylar tashkilotlari faoliyat ko‘rsatdi. Shulardan 212 tashkilot mahallalarda va 495 tashkilot mehnat

jamoalarida bo'lib, ular 145942 nafaqa oluvchi nuroniylarni o'z saflariga birlashtirgan. Ushbu nafaqa oluvchi nuroniylarning 4900 nafardan ko'prog'i urush qatnashchilari va 11200 nafari esa front orti-mehnat faxriylari edi. Qashqadaryo viloyatida "Nuroni" jamg'armasi bo'limi faxriylar korxonalarini tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor bera boshladi. Xususan, 1996 yilda viloyatda 42 ta shunday korxonalar tashkil etildi. Ularda 280 nafar kishi, jumladan, 185 nafar urush va mehnat faxriylari mehnat qildilar. 1996 yilning 9 oyida faxriylar korxonalarini tomonidan 11,6 mln. so'mlik ish bajarildi. Shu jumladan, 1,3 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 8,9 mln. so'mlik qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi, aholiga 1,4 mln. so'mlik turli xizmatlar ko'rsatildi [4]. "Nuroni" jamg'armasi Surxondaryo viloyat bo'limi 1998 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan ajratilgan 38 ta nogironlar aravachalari, 35 ta eshitish apparatlari hamda 764 ta tayanch vositalari egalariga yetkazildi. Shu yilning o'zida 92 nafar nogiron faxriylar "Semashko", "Surxon" kabi sihatgohlarda o'z salomatliklarini tikladilar. "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limining tashabbusi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj nogiron-faxriylarni imtiyozli ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Unga binoan 6 ming nafar nogiron-faxriy ro'yxati tuzildi, elektr quvvati, gaz, kommunal to'lov bo'yicha ularga amaliy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, viloyatda 566 nafar nogiron-faxriylar yoqilg'i mahsulotlarini imtiyozli olish huquqiga ega bo'ldilar. Viloyatda ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining oilalarini ijtimoiy himoyalash maqsadida otaliq tashkilotlarini birlashtirib qo'yish amaliyoti joriy etildi. Masalan, Qiziriq tumanidagi otaliq tashkilotlari 1998 yilda 219 ming, Denov tumanida 562 ming, Muzrabot tumanida 110 ming so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatildi. Umuman, urush qatnashchilari, nogironlarga 2557013 so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, nogiron - faxriylarga savdo xizmatini ko'rsatish, ular sog'ligini mustahkamlashni

tashkil etish bo'yicha ham talay ishlar amalga oshirildi. 1998 yilda Surxondaryo viloyatida nogironlar uchun 8 ta savdo xizmati ko'rsatish do'konlari, 14 ta do'konda esa maxsus bo'limlar tashkil etildi [5]. Viloyatda mavjud urush qatnashchilari, front orti faxriylarini ijtimoiy himoyalashda ularni reabilitatsiya texnikvositalari bilan ta'minlash alohida o'ringa ega edi. Shuning uchun ham Surxondaryo viloyatida bu masalaga katta e'tibor berildi. Viloyat bo'yicha 1999 yilda 69 ta nogironlar aravachasi tarqatilgan bo'lsa, bu raqam 2001 yilga kelib 189 taga yetdi. Shuningdek, 1999-2001 yillarda 182 ta eshitish moslamasi, shu davr mobaynida 1318 ta qo'ltiq tayoq, 1615 ta hassa topshirildi. 2001 yilgi ma'lumotlarga binoan 933 nafar nogironlar sihatgohlarga yo'llanmalar oldilar [6]. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam bilan birga, keksalarimizga ko'pgina jamoat tashkilotlarining ham moddiy va ma'naviy ko'mak berayotgani, bunday harakat kengayib borayotgani, ayniqsa ibratlidir. Xususan, keyingi paytda birgina "Nuroni" jamg'armasi tomonidan urush va mehnat faxriylariga 125 million so'mdan ortiq yordam ko'rsatilgani ham bunga misol bo'la oladi" [7]. O'zbekiston Prezidentining "O'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalarni ijtimoiy himoya qilish haqida" gi Farmoniga binoan ro'yxatga olingan fuqarolarga 55,4 mln. so'mlik 9 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, homiylar hisobidan 30,8 mln. so'mlik moddiy va insonparvarlik yordami ko'rsatildi. Shu bilan birga muhtoj nogironlarga 153 ta nogironlar aravachasi, 282 ta hassa, 164 ta qo'ltiq tayoq, 83 ta ko'zoynak, 151 ta

eshitish moslamalari tarqatildi. 259 nafar yolg'iz pensioner turli sihatgohlarga borib sog'liklarini tikladilar [8]. Ayni paytda Qarshi shahrida nogironlarni reabilitatsiya qilish Markazi faoliyat ko'rsatib keldi. Unda nogironlarga fizioterapiya, cho'milish havzalari, jismoniy sog'lomlashtirish, igna bilan davolash, uqalash hamda dorivor giyohlar yordamida muolajalar ko'rsatildi. Markazda 2003 yilda 400 bemor davolandi [9]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 sentyabrda PQ-459-son Qarori bilan tasdiqlangan "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi dasturi ham avval qabul qilingan dasturlarning mantiqiy davomi bo'lib, uning maqsadi yolg'iz keksa pensionerlar va nogironlarning, kam ta'minlangan oilalar va boquvchisini yo'qotgan oilalarning manfaatlarini himoya qilish borasidagi respublikada amalga oshirilib kelinayotgan maqsadli ishlarni yanada chuqurlashtirish, ularning ko'lami va ta'sirchanligini oshirishdir. Dastur 3 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, unda 30 ta chora-tadbirning ijrosi ko'zda tutilgan. Shundan "Ijtimoiy xizmat tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi birinchi yo'nalishda 10 ta chora-tadbir, "Yolg'izlarni davolash va sog'lomlashtirish, gerontologik va geriatric yordamni kuchaytirish to'g'risida" gi 2 - yo'nalishda 16 ta chora-tadbir va yolg'izlarning "Uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash borasida" gi 3-yo'nalishda 4 ta chora-tadbir belgilangan. Dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi uchun jami

30144,3 million so'm ajratish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 14282,8 million so'm (rejaning 47,4 foizi) budjet mablag'idan, 15862,2 million so'mi (52,6 foizi) esa idora va tashkilotlar, homiylar mablag'laridir [10]. O'zbekiston hukumati ehtiyojmand yoshi ulug'larni ijtimoiy himoyalashni maqsadli ravishda, qat'iy reja asosida, muntazamlilik tamoyillariga amal qilgan holda olib bordi. Shu o'rinda mamlakat Prezidentining 2007 yil 17 sentyabrda "Pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Jamg'arma ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida ham arzigulik ishlarni amalga oshirdi. Misol, "Taruvsuz" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yashovchi urush qatnashchisi, 1-guruh nogironi Ko'char bobo Choriyevga, Qumqo'rg'on shahridagi M.Qoraboyev nomli mahalladan 1-guruh nogironi, mehnat faxriysi Ergash bobo Tog'ayevlarga bir boshdan sog'in sigir olib berildi. Tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga nogironlar aravachasi olish uchun jamg'arma tomonidan 180 ming so'm ajratildi [11]. Muzrabot tumanida esa Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida kam ta'minlangan 98 oilaga 29, 1 mln. so'mlik yordam ko'rsatildi. Ularning aksariyatiga bir boshdan qora mol hamda 12 mln. so'mlik imtiyozli kredit berildi. Shuningdek, 8 nafar yolg'iz keksaga 542500 so'mlik manzilli yordam ko'rsatildi. 172 nafar tuman nogiron va pensionerlari O'zbekistonning diqqatga sazovor yerlariga sayohatga bordilar [12]. "Jarqo'rg'on" ochiq aksiyadorlik jamiyati Surxondaryo viloyatidagi eng yirik sanoat korxonalaridan hisoblanadi. Jamoada 750 nafardan ortiq turli millat vakillari mehnat qiladi. Korxonada rahbariyati ishchilarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha ancha jiddiy ishlarni olib bordilar. Korxonada ma'muriyati tashabbusi bilan jamoada uzoq yillar ishlab nafaqaga chiqqan 165 nafar faxriyga 6,5 mln. so'm qo'shimcha nafaqa berildi [13]. Denov va Qiziriq tumanlarida istiqomat qiluvchi 2 nafar jahon urushi katnashchisiga "Nuroni" jamg'armasi Respublika hay'ati qarori bilan 240 million so'm qiymatga ega namunali uylar sovg'a qilindi. 15 nafar faxriylarning xonadonlarida 13,5 million so'mlik ta'mirlash ishlari olib borildi [14]. 2016 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning “O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga muvofiq, viloyatlar hokimliklari, “Nuroni” jamg‘armalari yolg‘iz keksalar, nogironlar, pensionerlarga ijtimoiy himoya siyosatini olib borishda o‘zbek xalqi mentaliteti, milliy urf-odat hamda an‘analariga rioya qilishga e‘tiborni yanada kuchaytirdilar. 365 nafar faxriyga 52 million 260 ming so‘mlik oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyim-kechaklar berildi [15]. 2015 yilning “Keksalarni e‘zozlash yili” deb e‘lon qilingani va mazkur yo‘nalishda Davlat dasturi qabul qilingani mamlakatimizda keksa avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga ehtirom ko‘rsatish borasidagi ishlarni yanada yuksak bosqichga olib chiqdi. Jumladan, “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturida mamlakatimizda yoshi ulug‘ insonlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirish hamda ular hayoti mazmuni va sifatini oshirish, pensiya ta‘minoti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini mantiqiy va izchil davom ettirish, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish belgilandi. Xususan, 2015 yil 9 may – Xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan “Kasaba uyushmalari faxriylarga” aksiyasi e‘lon qilinib, uning doirasida Pensiya jamg‘armasi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati tizimidagi 2990 nafar

1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarining har biriga 300 ming so‘mdan bir martalik pul mukofotlari topshirildi (jami 897,0 mln.so‘m). 67123 ming nafar yolg‘iz keksalarga: oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, uy-joyini ta‘mirlash, kommunal xizmatlarga haq to‘lash ko‘rinishlarida ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungacha 8 ming nafardan ortiq shu toifadagi keksalarga jami 615 mln. so‘mlik moddiy yordam berildi.

Navro‘z hamda “Xotira va qadrlash kuni” bayramlari munosabati bilan: respublikamizning barcha hududlaridagi “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashovchilar holidan xabar olish bilan bir qatorda, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilib, qariyb 55 mln. so‘mlik moddiy qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirildi. 21 ming 98 nafar urush va mehnat fronti faxriylari sog‘lomlashtiriladigan 37 ta sanatoriy ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, ularning 15 tasini kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylar tashkil etadi. Kasaba uyushmalari tizimidagi barcha sanatoriylarda 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini davlat byudjeti hisobidan sifatli va samarali sog‘lomlashtirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar, qo‘shimcha qulayliklar yaratilgan. Xususan, kasaba uyushmalari tizimidagi 15 ta sanatoriyda qariyb 11 milliard so‘mlik qurilish, rekonstruksiya va kapital ta‘mirlash ishlari amalga oshirilib, imkon qadar pastki qavatlarida va muolaja o‘tkaziladigan bo‘limlarga yaqin joylarda “Urush va mehnat fronti faxriylari bo‘limlari” tashkil etildi. Mazkur bo‘limlar eng zamonaviy yumshoq va qattiq jihozlar, tibiy asbob-uskunalar bilan ta‘minlandi. Urush va mehnat fronti faxriylari sog‘lomlashtiriladigan 37 ta sanatoriyda yaratilgan shart-sharoitlar va sifatli xizmat ko‘rsatish Kasaba uyushmalari Federatsiyasi qoshida tashkil etilgan idoralararo Respublika ishchi guruhi tomonidan doimiy nazoratga olingan. 2015 yilning 15 may holatiga ko‘ra sanatoriylarda jami 2 ming 33 nafar urush va mehnat fronti faxriylari sog‘lomlashtirildi. Bundan tashqari kasaba uyushma sanatoriylari atrofida

joylashgan mahallalarda yashovchi yoshi ulug‘ insonlar va nuroniylarni har tomonlama tibbiy tashxisdan o‘tkazish, sog‘lomlashtirish muolajalarini ambulator sharoitda o‘tkazish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Bugungacha respublikamizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan shu toifadagi insonlarni sanatoriylarda ambulator davolash uchun 10 mln. 500 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. 6 ming nafar ishlaydigan pensionerlar, mehnat faxriylari, ishlamaydigan pensionerlarni bepul va imtiyozli sog‘lomlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bugungi kungacha tizimdagi sanatoriylarda kasaba uyushmalari tomonidan qariyb 2 ming nafar shu toifadagi keksalar bepul va imtiyozli asosda sog‘lomlashtirildi. Ushbu maqsadlarga jami 1 milliard 600 mln. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan har bir hududdan 30 nafardan, jami 420 nafar keksalar va jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni 300 million so‘mlik yordamchi va texnik rehabilitatsiya vositalari, xususan, nogironlik aravachalari bilan bepul ta‘minlash ishlari olib borilmoqda. Kasaba uyushmalari tomonidan 1000 nafar keksalarning respublikamizning tarixiy shaharlariga va diqqatga sazovor joylariga sayohatlarini tashkil qilish rejalashtirilgan. Bugungacha 935 nafar otaxon va onaxonlar, urush va mehnat faxriylari uchun Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon, Shaxrisabz, Toshkent shaharlarining tarixiy va diqqatga sazovor joylariga sayohatlar tashkil etildi. Ushbu maqsadlarga 130 mln. 200 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Kasaba uyushmalari federatsiyasi “keksalarni e‘zozlash yili” davlat dasturi ijrosi uchun 73 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirdi [16]. 2017 yilning o‘zida kasaba uyushmalari tomonidan 3073 nafar mehnat faxriysi va keksaning respublikamizdagi tarixiy shaharlar hamda diqqatga sazovor joylari bo‘ylab ekskursiyasi tashkil etilgan bo‘lsa, 592 nafar yolg‘iz keksa va nogironning kommunal to‘lovlari qoplab berildi. Davlat bayramlari munosabati bilan “Muruvvat” va “Saxovat”

Jahon xo'jaligi taraqqiyoti etnik madaniyatlarning rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, umuminsoniyat sivilizatsiyasi yutuqlarining ajralmas qismi hisoblangan etnik madaniyatlarni saqlab qolish juda muhim masala hisoblanadi. Shu sababli etnoekologik atrof-muhit va xo'jalik yuritish tizimida jadal o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi davrda an'anaviy xo'jalik tizimlarini o'rganish o'ta dolzarbligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, xo'jalik faoliyatining hayot uchun kurash bilan bevosita bog'liqligi tufayli xo'jalik madaniyatini tadqiq etish va o'rganish har doim dolzarb bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda erkin bozor iqtisodiyotining qaror topishi, uning umumjahon iqtisodiy hayotiga integratsiyalashuvi qishloq xo'jaligida ham yangicha agrar munosabatlar shakllanishiga olib keldi. Xususan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaralib kelinmoqda. Shunga ko'ra qishloq xo'jaligini rivojlantirishda o'zbek xalqining an'anaviy xo'jalik faoliyatini yuritish borasidagi hayotiy boy tajribalarga asoslangan bilimlarini va an'alarini tadqiq etish, ulardan amaliy foydalanish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Surxon vohasi aholisining xo'jaligidagi an'anaviy hamda zamonaviy jarayonlar tadqiqotiga oid manba va adabiyotlarga A.Mayev, D.N.Logofet, N.F.Sitnyakovskiy, A.G.Ananyev, M.M.Krilov, A.V.Krivoshein, V.I.Masal'skiy, B.N.Kastalskiy, V.Andreyev, L.P.Potapov, M.V.Sazonova, G.P.Snesarev, N.G.Borozna, B.X.Karmisheva, K.SH.Shoniyozov, I.Hidoyatov, X.Toshev S.N.Tursunov, E.O.Qobilov, U.S.Abdullayev, A.A.Ashirov, O.Bo'riyev,

F.SH.Raxmonov, N.N.Tursunov, A.R.Qayumov va A.E.Qurbonovlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. 1954–1971-yillarda Surxon-SHerobod vohasida keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazgan B.X.Karmisheva tomonidan nashr qilingan asar va ilmiy maqolalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid voha aholisi xo'jaligi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tahlil va natijalar XX asrning boshlarigacha O'rta Osiyoda yerlar aniq chegaralanmagan joylarda meros qilib qoldirish an'anasiga amal qilingan. Dehqonchilikka tovarbop ekinlarning kirib kelishi, meros asosida yerga egalik qilishni tez rivojlanishiga va dehqonlarni tabaqalanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar ta'sirida Surxon vohasi aholisining ham xo'jalik faoliyati, yerga egalik qilish shaklida bozor munosabatlarining ta'siri natijasida o'zgarib bordi. Bu kabi o'zgarishlarga aholining yer va suvdan foydalanishdagi tartib, yerga egalik shakllari, ishchi kuchini tashkillashtirish va uni boshqarish, aholi daromadi, xo'jalikdagi foyda, sarf-xarajatlar va to'lov hamda ekin turlaridagi yangilanishlarni misol keltirish mumkin. Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi davrida Surxon vohasida yerdan foydalanish va unga egalik qilish tartibi shaxsiy (hayat, tomorqa) va jamoaviy foydalanish shaklida bo'lgan bo'lsa, 1917 yilda bolsheviklarning qishloq xo'jaligida olib borgan iqtisodiy siyosati, ya'ni yer-suv, xususiy mulkchilikni bekor qilish, jamoalashtirish kabilar yer-suv munosabatlari va dehqonchilik xo'jaliklariga jiddiy putur yetkazdi. Sovet davrida, xususan XX asrning 30-yillarida shakllana boshlagan kolxoz va sovxoz xo'jaliklari qishloqdagi aholi oziq-ovqatiga bo'lgan talabini qondira olmagan. Bunday sharoitda dehqon oilasining ixtiyorida tomorqa uchastkasi qoldirishga ruxsat berilgandi. Natijada, dehqonchilik xo'jaligining shakli o'zgargan ko'rinishi, ma'lum ma'nodagi "qoldig'i" bo'lgan shaxsiy yordamchi xo'jalik vujudga kela boshladi. Shaxsiy tomorqa egalari mavjud imkoniyatlardan eng yuqori darajada foydalanishga intilgan bir paytda juda ko'p qarshiliklarga duch keldilar. Dehqonlar uzoq yillar davomida nafaqat jamoa ishlab chiqarishida, balki o'z yordamchi xo'jaliklarida ham

to'la xo'jayin emas edilar [1, 303-317]. Dehqonlar artelga kirib, har qanday turdagi yakka tartibdagi faoliyatlaridan, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shimcha shaxsiy yordamchi xo'jaliklar yuritish, o'zlariga chetda ish haqi ishlash imkoniyatidan voz kechish talab qilindi [2, 52]. Shaxsiy yordamchi xo'jalikni kolxoz sektori doirasida qarash kerak degan fikrlar, toki 70-yillargacha saqlanib keldi. Unga nisbatan XX asr 70-yillariga kelibgina, aholining qo'shimcha daromad manbai va mehnatkashlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan manba [3, 226] deb qarash ilgari surila boshlangan. Sovet davrida aholining an'anaviy xo'jalik yuritishshakli butunlay yo'qolib ketmadi. Ming yillar davomida rivojlangan aholining xo'jalik yuritish an'anasi saqlanib qolganligini ba'zi olimlar jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarini hali yetarli darajada rivojlanmaganligini, hali "Ijtimoiylashtirish jarayoni to'la yakunlanmaganligi"ni [4, 48] uqtirsalar, ba'zi olimlar esa mehnat resurslarining doimo ortiqchaligi bilan bog'ladilar. An'anaviy xo'jalik yuritishning saqlanib qolishini bir ikkita sabab yoki omilga bog'lab bo'lmaydi, lekin asosiy sabablardan biri unda aholining shaxsiy, ijtimoiy va boshqa manfaatlar birlashadi [5, 11]. Xo'jalik yuritishning an'anaviy shakllari saqlanib qolishiga asosiy sabab, odamlarning shaxsiy manfaatidir. Inson dunyoqarashida mulkdor bo'lish hissi ancha ustun turadi. Mana shu tufayligina, o'tmishda iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tazyiqlarga qaramay xo'jalik yuritish an'analari butunlay yo'qolib ketmadi. Bundan tashqari aholini, ayniqsa, qishloq aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari davlat tomonidan to'la qondirilmadi. Kunlik iste'mol mahsulotlarning

ko'pini aholi o'zlari yetishtirib kelgan. Sovet hokimiyati davrida, uzoq vaqt an'anaviy xo'jalik yuritishning ahamiyati tanolinmadi. Bu bo'yicha ko'plab qarorlar ham qabul qilingan. Lekin bu qarorlar o'zining to'la amaliy natijasini bermadi. XX asrning 70-yillaridan boshlab, Sovet hukumati shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini rivojlantirish uchun ko'pgina chora-tadbirlarni boshlagan. Ana shu maqsadda 1977 yili SSSR KPSS MQ tomonidan "Kolxozchilar, ishchilar, xizmatchilar va boshqa grajdanlarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, kollektiv bog'dorchilik va tomorqachilik to'g'risida" qaror qabul qilindi [6]. Uzoq yillar davomida dehqonni yerdan, o'z mehnatining natijasidan mahrum qilish juda katta salbiy oqibatlarga olib keldi. Dehqonda mulkdorlik, yerga egalik hissiyoti kamayib bordi. Sovet Ittifoqi davrida dehqonning ongini o'zgartirish oson bo'lmadi va umumiy manfaat yo'lida ishlovchi yangi dehqon qiyinchilik bilan vujudga kelgan edi. Sovet davrida qishloqlari aholisining deyarli ko'p qismi xususiy mulkchilik sharoitidagi hayotdan bexabar va o'zi bexabar bo'lgan narsaga intilmagan ham va uning afzalliklarini o'ylab ham ko'rmadi. Qariyb yetmish yil davom etgan bu sharoitda "...dehqonning ham mehnatkash ham xo'jayin sifatlarini birlashtirgan noyob qobiliyati tamoman yo'qotildi..." va oqibatda u "...pirovard natijalardan ko'ra oyma-oyolib boradigan maoshidan ko'proq manfaat ko'radigan yollanma ishchiga aylantirildi" [7, 23-24]. Qishloqda xo'jaligini yuritishda tarkibiy o'zgarishlarni olib borish dehqonning mulkka, yerga, mehnatga bo'lgan munosabatini haqiqiy mulkdorlarni shakllantirish yo'li bilan o'zgartirishga, dehqonning daromadi bilan sarflagan mehnati o'rtasida uzviy bog'lanishni o'rnatib,

shu asosda xo'jalik yuritish samaradorligini oshirishga va aholining turmushini yaxshilashga e'tibor berilgan [8, 108]. A.N.Shaposhnikovning fikricha insonning xo'jalik yuritishi uchun shaxsiy mulki bo'lishi ijtimoiy ishlab chiqarishda ikkilamchi bandlik manbai, o'sib kelayotgan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalovchi vosita, shuningdek, nafaqaxo'rlarning qoldiq mehnat qobiliyatidan foydalanuvchi, uy bekalarini ish bilan band qiluvchi tarmoqdir va asosiy daromad manbalaridan biridir [9, 84]. U oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan xo'jalik yuritishning alohida shakli bo'lib, uning egalari va butun jamiyatning ehtiyojlarini qondiradi

va shu bilan birgalikda hozirgi kunda asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi" [5, 11]. Mustaqillikning dastlabki yillari O'zbekistonda mavjud bo'lib kelgan avvalgi shaxsiy yordamchi xo'jaliklari qabul qilingan "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunga asosan "dehqon xo'jaliklari" deb ataladigan bo'ldi va ularning maqomi quyidagicha belgilandi: Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va sotadilar [10]. Mulkchilik shakllarini hal qilish sovet tuzumidan so'ng bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlarda asosiy masalalardan biri hisoblanib, u yangi jamiyat va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo'ldi. "Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi",

– deb ta'kidlagan edi birinchi Prezident I.Karimov [11, 43]. Barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tasarrufidan chiqarmasdan, xususiylashtirmasdan, yerni o'z egasiga bermasdan va turli mulkchilik shakllaridagi tovar ishlab chiqaruvchilarga keng sharoit yaratmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tib bo'lmazligi aniq o'z isbotini topa boshladi [12]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi" [13, 18] deb yozilgan. Bu qabul qilingan "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunda ham belgilab berilgan [14, 30]. Mulkchilik masalasini hal qilish orqali yangi jamiyat, yangi iqtisodiy munosabatlarga asos solinadi.

O'zbekistonda mustaqillik arafasida mulkdorlar sinfini shakllantirishga keng yo'l ochib berila boshlandi. Bu paytda aholining oilaviy xo'jalik yuritishi uchun yerning mulk sifatida berilishi ham ayni zarurat edi. "Respublikada haydaladigan yerlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan, ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining to'rtidan bir qismini ishlab chiqarishmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot, poliz ekinlari, go'shtning yarmidan ko'prog'i va sutning uchdan ikki qismi ular hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, Respublika mustaqilligi arafasida qishloq aholisining turmush darajasi nihoyatda achinarli holatda edi" [15, 57]. Shuning uchun, mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillaridan tomorqa uchun yerni xususiy mulk sifatida berish ishlari boshlab yuborildi. O'zbekiston SSR Prezidentining "Jumhuriyat aholisining shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridagi mol va parrandalarni yem-xashak bilan ta'minlash hamda ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish to'g'risida"gi (1990 yil may) farmoni qabul qilinganidan so'ng o'sha paytgacha yer uchastkasi va molga ega bo'lmagan ko'pgina qishloq oilalari yer bilan ta'minlandi va chorva mollari sotib oldi. Surxon vohasida ham mazkur farmon asosida 1990 yili 4900 oilaga tomorqalar uchun 7100 gektardan iborat bo'lgan yer uchastkalari ajratildi [16, 103]. Lekin shunga qaramasdan vohada deyarli 14260 oila tomorqaga ehtiyojmand bo'lgan [17]. O'zbekiston SSR Prezidenti I.Karimov 1991 yil 12 yanvarda Markazning paxta vasvasasiga qarama qarshi tarzda paxta maydonlaridan 108.5 ming gektar sug'oriladigan yerlarni aholiga shaxsiy tomorqa uchun ajratib berishni nazarda tutuvchi qarorga imzo chekdi [1]. Bu qaror xalq farovonligi hamda qishloq aholisi turmush sharoitini yaxshilashda eng muhim qadam bo'ldi. Mazkur qaror ijrosi doirasida 1991 yilning 12 mayiga qadar Surxondaryo viloyatida 111849 oilaga 13233 gektar yer tomorqa sifatida ajratib berildi [16, 68]. Bunday tadbirlar qishloq aholisining turmush sharoitini malum darajada yaxshilanishiga va aholining shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridan oladigan daromadlarining o'sishiga sabab bo'ldi. Respublika shaxsiy yordamchi xo'jaliklar uyushmasi tashkil etilib, uning faoliyati shaxsiy tomorqa egalari yordam berish, ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratildi [15, 217]. 1992-1995 yillar davomida Surxon vohasida 22 ming gektar yer shaxsiy tomorqalar uchun ajratilib, versiz va kam verli

bo'lgan dehqonlarga berildi [19, 11]. Bu shaxsiy tomorqa uchun berilgan yerlarning katta qismi yosh oilalarga shaxsiy xo'jalikni shakllantirish uchun ajratildi. Ushbu yerlarning shaxsiy tomorqalar uchun berilishi dehqonlarning yerga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Odamlarga yer berilishi mustaqillikning dastlabki eng qiyin yillarida zarur, nihoyatda keskin muammolarni hal qilishda juda muhim rol o'ynadi. Agrar islohotlar natijasida Surxon vohasi aholisining ijtimoiy va maishiy turmushida bir qadar o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar avvalo yildan yilga voha aholisi turmush darajasining yaxshilanib borishida ko'zga tashlandi. Yangi yerlar o'zlashtirildi, aholining yashash sharoiti yaxshilandi, xo'jalik turmush tarzida yangiliklar paydo bo'ldi [11, 65-66]. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning istiqbolli uch shakli, ya'ni qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklar va dehqon xo'jaliklar tanlab olinib, "Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaliklar to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi [20]. Endilikda xo'jalik yuritishning shu shakllarini va mulkka egalikni qonun bilan mustahkamlab qo'ydi. Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan islohotlarning muhim natijalaridan biri shu bo'ldiki, dehqonlar yerga nisbatan mustaqil bo'lib, ishlab chiqargan mahsulotini bozorga erkin sotish huquqiga ega bo'ldi. Dehqonlar o'z ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar [21]. Ta'kidlash joizki, Surxondaryo viloyatining har bir tuman aholisi ma'lum bir turdagi dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan. Ixtisoslashishning bir necha omillari bor. Birinchi omil shu

mintaqada yashayotgan aholining mentaliteti, tabiiy iqlim va tuproq sharoitidir. Ikkinchi omil tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ma'lum bir turdagi dehqonchilik mahsulotni yetishtirish tajribalari va an'analari tarkib topishidir. Ixtisoslashishning uchinchi omili bu bozor talabidir. Bunga bozordagi talabga qarab mahsulot yetishtirish, uning uzoq yoki yaqinligi, mahsulotni o'sha bozorga olib borish qulayligi kiradi. Termiz, Angor, Jarqo'rg'on singari Termiz shahriga yaqin joylashgan tumanlarning aholisi xo'jaligida asosan ertachi sabzavotlar, kartoshka va rezavorlar yetishtiriladi, chunki bu tumanlar viloyat markaziga yaqin. Shuning uchun ham shahar bozorlarini mahsulotlar bilan ta'minlab turadilar. Ular uchun shahar bozorlari yaqin va mahsulot yetkazib berishga qulay. Bu tumanlarda issiqxonalar sharoitida sabzavot yetishtirish uchun ham qulay imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Xulosa

XX asrdagi jarayonlar ta'sirida dehqonchilik hamda yerga egalik shaklida yangi tuzilmalar kirib kela boshladi. Jumladan, sovet davrida olib borilgan jamoalashtirish oqibatida an'anaviy xo'jalik yuritish madaniyati siqib chiqarila boshlandi. Barcha xo'jaliklar paxta ishlab chiqarishga moslashtirila bordi. Mustaqillik yillarida esa paxta maydonlari qisqartirilib, boshqa dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilishi uchun ham imkoniyat yaratildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Abashin S. Soviet Past and Memory Policy in the Countries of Central Asia // Russland und/als Eurasien: Kulturelle Konfigurationen / Ch. Engel, B. Menzel (Hg.) Berlin: Frank & Timme, 2018 P/303-317.
2. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК, ч. III, изд. 7-е. Госполитиздат, 1984.-С.52
3. Моисеев А.В. и др. Экономический словарь-справочник: Учебная пособия для учащихся. 2-е изд. перераб.-М.: Просвещение 1985.-С.226
4. Владимирский Е.А. Личная собственность в системе производственных отношений социалистического общества (Вопросы теории и методологии): Дисс.д.э.н.-Л.:1974. С.48
5. Хасанджанов К.А., Мухтаров А.Х., Хамдамов О.Д. Проблемы развития личных подсобных хозяйств в условиях перехода к рыночным

- отношениям. Зарафшон, Самарканд, 1995 г.-С.11
6. Постановления ЦК КПСС и Совета Министров СССР от 14 сентября 1977 года N 843 О личных подсобных хозяйствах колхозников, рабочих, служащих и других граждан и коллективном садоводстве и огородничестве.
7. Петренко И.Я., Чужинов П.И. Экономика сельскохозяйственного производства. -Алма-Ата: Кайнар, 1992, - С. 23-24.
8. Копанев И.Г., Чубуков Г.В. Семейный и личный подряд на селе.-М.:Юрид. лит., 1989,-С.108
9. Шапошников А.И. Социально-экономический анализ формирования доходов сельского населения (на примере Новосибирской области).-Новосибирск, Наука, 1983.- С.84
10. Ўзбекистон Республикасининг Деҳқон хўжалиги тўғрисидаги Қонуни (ЎРҚ-680-сон, 01.04.2021 й.)
11. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. - Тошкент, 1995. - Б. 43.
12. Хусусийлаштириш хусусида // Сурхон тонги. – 1991 йил, 19 ноябрь. - №177 (15.151).
13. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2019. –Б.18.
14. "Деҳқон ва фермер хўжаликлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1998 йил, 22 апрель. Солиқ тўловчининг журнали, М 6 1998, Б.30.
15. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: "Ўзбекистон". 2011. – Б.57.
16. Бердиев Ҳ. ва бошқалар Сурхондарё тарихидан лавҳалар – Тошкент: "Нур". 1991. – Б.103.
17. Ленин байроғи. 1990 йил 26 декабрь



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Parmonov Sharofiddin Shavkatovich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi
pochta: Parmonovsharofiddin96@gmail.com

SHAHRISABZ BEKLIIGINING ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINCHILIGIGA QARSHI KURASHDA TUTGAN O'RNI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning 60-70-yillari bo'lgan davr ya'ni Buxoro amiri: Amir Muzaffar davrida Shahrisabz bekligining Buxoro amirligiga bo'ysunmasligi sabablari, ruslar bosqinchiligiga qarshi amir Muzaffarning layoqatsizligi, Abdumalik to'ra harakati, Bobobek va Jo'rabekning rus bosqinchiligiga qarshi olib brogan kurashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi, Kitob bekligi, mang'itlar, kenagaslar, ruslar siyosiy aloqalar.

РОЛЬ ШАХРИСАБЗСКОГО БЕКСТВА В БОРЬБЕ С НАШЕСТВИЯМИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация: В этой статье освещаются причины неповиновения Шахрисабзского бекства Бухарскому эмирату во время правления Эмира Музаффера, некомпетентность эмира Музаффера против русского вторжения, движение Абдумалика Тора, борьба Бабобека и Джурабека против русского вторжения.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Шахрисабзское бекство, Книжное бекство, мангыты, кенаги, русские политические связи.

THE ROLE OF THE SHAHRISABZ STATION IN THE FIGHT AGAINST THE INVASION OF THE RUSSIAN EMPIRE

Annotation: This article covers the period from the 60s to the 70s of the XIX century, namely the Emir of Bukhara: the reasons for the disobedience

of the shahrisabz station to the Emirate of Bukhara under Amir Muzaffar, the incompetence of Emir Muzaffar against the Russian invasion, the Abdumalik Torah movement, The brogan struggle of Bobobek and Jorabek against the Russian invasion.

Keywords: emirate of Bukhara, Shahrisabz station, Book station, mangyats, kenagas, Russian political relations.

Kirish

Bugungi kunda yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, inson manfaati va erkinliklarini ta'minlash maqsadida keng miqyosli islohotlar izchil davom ettirilmoqda. “Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim”[1]. Tarix ilmi umuminsoniy qadriyatlar ichida eng asosiysidir. O'zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy tumanlaridan biri Shahrisabzda XIX asrning 60-70-yillarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari o'rganish tarix fanida nisbatan tadqiq qilinmagan masalalar sirasiga kiradi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, «Xech shubhasiz, Qashqadaryo vohasining naqadar katta tarixiy va madaniy me'rosiga ega ekani haqida gapirishimiz albatta o'rinlidir. Bugun bu haqiqatni nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo tan olmoqda». Ushbu davrda Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining iqtisodiy, siyosiy hayotida katta o'rin tutgan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Ushbu maqolada XIX asrning 60-70-yillari bo'lgan davr bag'ishlangan tadqiqotlarni uch

guruhga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhni Rossiya impyriyasi harbiylari, sayyohlar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari tomonidan yozilgan estaliklar, XIX—XX asr boshlarida chop etilgan turli adabiyotlar tashkil qiladi. Ikkinchi guruhga sovet hukmronligi davrida mavzuga oid chop etilgan adabiyotlar kiradi. Uchinchi guruh mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar, amalga oshirilgan tadqiqotlardan iborat. Mavzu tarixshunosligiga oid keyingi davr tadqiqotlarida, xususan, A.X.Hamroyev, O.D.Chexovich, M.A.Abduraimov, A.Majlisovlarning nashrlarida yozma manbalar va arxiv xujjatlari taxlil qilinib, XIX—XX asr boshlarida Buxoro amirligi beklklarining yer-suv munosabatlari T.G.Tuxtametov, B.I.Iskandarov, A.R.Muhammadjonov, T.Ne'matov, A.M.Aminov, N.A.Xalfin, N.A.Kislyakov, I.K.Xidoyatov, B.X.Karmisheva, G.Yu.Astanova va boshqa olimlarning asarlarida esa iqtisodiy taraqqiyot darajasi, Rossiya-Buxoro munosabatlari, savdo iqtisodiy aloqalar, xo'jalik turlari, etnik tarkibi, aholining voha xududlari bo'ylab joylashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlari tarixining turli jihatlarini o'z aksini topgan. 1942 yilda M.Ye. Masson va G.A.Pugachenkovalar Shahrisabz va Kitob tarixiy topografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. 1948 yilda esa O.A.Suxareva Shahrisabzda etnografik tadqiqotlar olib borgan. Qashqadaryo vohasidagi arxeologik tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan keng ko'lamlil o'rganilib, 1963 yilda ToshDUning Kesh arxeologiktopografik ekspeditsiyasi (KATE) tashkil etiladi. Shu o'rinda M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova, O.A.Suxareva,

V.L.Voronina, M.K.Raximov, Ye.M.Pyeshereva, L.Yu.Mankovskaya, T.Abdullayev, N.I.Krashenninnikova, G.Ya.Dryesvyanskaya, Z.I.Usmanova va boshqalarning bu davrga oid tadqiqotlarini aloxida ta'kidlab o'tish joiz. Tadqiqot metodologiyasi Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan

Tahlil va natijalar

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib tayinlangan general Chernyayev 1866 -yil yanvar oyida Buxoro amirligining bo'yo'sndirish uchun unga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Uning qo'mondonligi ostida qo'shinlar Jizzax tomon otlandilar. Bu habarni eshitgan amir Muzaffar o'zi taxtga qayta o'tkazgan va ta'sirida deb hisoblangan. Qo'qon xoni Xudoyorga ruslarning yo'lini to'sishni buyurdi. Xudoyorxon esa Rossiya bilan to'qnashishdan qo'rqib, amir Muzaffarning farmonini bajarmadi. Rus istilochilari Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda 1866-1868-yillarda o'tkazadi. 1866-yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida amirlikning O'ratepa, Jizzax va Yangi Qo'rg'on singar hududlari Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ikkinchi harbiy mavsumda 1868-yil qirg'inbarotida esa Samarqandning olinishi, amir qo'shinlarining Zirabuloqda uzil-kesil, tor - mor etilishi sodir bo'ladi. 1866-1867-yillarda Chor qo'shinlari Jizzaxga qarshi yurish boshlagan davrda Bobobek va Jo'rabek o'zaro maslaxatlashib. Amir Muzaffarga yordam berishga, o'z qo'shinlari bilan yovga qarshi o'tlanishga ahd qiladilar. Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi Salotini Mang'itiya” asarida ko'rsatilishicha, rus qo'shini Jizzaxdan Samarqandga borish yo'lidagi Soybo'y qal'asida turganida[2], Buxoro lashkari G'ishtko'prik degan joyda jang hozirligini ko'rardi. Amir Muzaffar ish ko'rgan, aqlli sardor Shukurbiy inoqni lashkarboshi qilib tayinlaydi. Shu orada Shahrisabzdan Hakimbek Kitobdan Jo'rabek boshchiligidagi ikki ming sarboz yordamga keladi. Shahrisabz va Kitob beklari Shukurbiy inoqqa noma yo'llab, “yurtga yov kelganda amir bilan bizning ittilof qilib turishimiz to'g'ri bo'lmas, dushmanga qarshi ittifoq bo'lib jang qilaylik, bizni amir bilan yarashtirib qo'ning”, degan taklifni qiladilar. Shukurbiy inoq beklar gapini ma'qullaydi va ularga joy tayin qiladi. Biroq, ayrim

uzoqni ko'ra bilmaslar Shukurbiy inoq mavqeyining oshib ketganidan hasad qilib amirga Shahrisabz va Kitobdan kelgan yordam mohiyatini teskari tushunadilar go'yo Shukurbiy inoq kenagaslar bilan birikib, amirga qarshi fitnaga qo'l urgan emish. Kenagaslar desa yurak hovuchlaydigan bo'lib qolgan amir bu ig'voga ishonadi. G'ishtko'prikka, jangga bo'lib turgan qo'shin qarorgohiga Abdulqodir devonbegini jo'natadi. Abdulqodir devon begi bahona topib, Shahrisabz va Kitob lashkarini ortga qaytarib yuborishga muvaffaq bo'ladi. Shukurbiy inoqni esa aldab, amir o'rdasiga olib keladi. Shukurbiy inok fitnada ayblanib, hibsga olinadi [3]. Shu joyda Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlari tepadagi vaziyatga mos tushadi: Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb ichadigan mansabparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmasdan turib bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holatda ketadigan bo'lsak yaqindirki podsho istibdodi Turkistonimizni egallar". Haqiqatdan ham shunday bo'ldi Amir Muzaffar olib borgan siyosat natijasida ruslar bizning o'lkamizni osonlikcha zabt etdi[2]. 1868-yilda Rossiya qo'shinlari Buxoro amirligi sarhadlariga bostirib kiradi. Bosqinchiga Nafrat, Vatanga Muhabbat tuyg'ulari butun amirlik aholisini oyoqqa turg'azadi. Bu o'rinda Amir Temur vatani Shahrisabz yigitlari ko'rsatgan jasorat tahsinga loyiqdir. Qora tepa qishlog'idagi rus qo'shinlari bilan Shahrisabz otliqlari o'rtasidagi jang buning yorqin manumasidir. Rassom Vereshchaginana shu voqeaning shohidi bo'lgan uning so'zlariga e'tibor bering: Kavkazlik josus zobit Pistalkars

janubi-sharq tarafdan kelayotgan Shahrisabz va Kitoblik o'zbek askarlari to'dasini tig'ga tortish uchun yuborilgan edi. U avval Shahrisabzliklarni yengdi[11], ammo manziliga qarab yurishi bilanoq ular yana birlashib shunday zarba berdiki rus askarlarini Samarqandgacha quvub keldi. General Kaufman qaytib kelayotgan atiryadni kutib olish uchun otlandi. Shahardan tashqariga chiqishi bilan o'qqa tutishdi, oqibatda Fon Kaufman chekinishi bilan urush tugadi. Amir Muzaffardan yuz o'girgan Hakimbek va Jo'rabeklar Abdumalik to'raga xat yozib, ruslarga qarshi muqaddas jihod yo'lida u bilan birga bo'lishni, unga itoat etishlarini izhor etadilar. Vatan tuyg'usi amir bilan nizoda bo'lgan beklarni ruslarga qarshi jang hozirligini ko'rayotgan uning o'g'li bilan ittifoqda bo'lishni taqazo etadi[4]. Nihoyat, Abdumalik To'ra tarafdorlari yig'ilib bir necha ming kishi jam bo'lgach Hakimbek va Jo'rabeklarning birikuvi sabab, ruslarga qarshi yurish boshlanadi. Ular G'uzordan chiqib Shahrisabz orqali Samarqandga yo'l oladilar. Hakimbek va Jo'rabek o'z kuchlari bilan Abdumalik To'raga qo'shiladilar. Zirabuloq jangi davom etayotgan paytda Samarqanddagi ruslar garnizoniga hujum qilgan Abdumalik to'ra Jo'rabek, Bobobek va boshqa o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq qavmlari boshliqlarining 8-iyunga qadar urush harakatlarini davom ettirganliklarini alohida takidlash lozim. Kaufman harbiy vazirga yo'llagan ma'lumotnomasida Samarqandni qamal qilgan Shahrisabzliklarni 25 ming kishini tashkil etganini ko'rsatadi. Kaufman Samarqand gurnizonidagi yo'qotish juda katta e'tirof etishga majbur bo'ladi. Samarqandni ozod qilish ishtiyoqida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik to'ra (1848-1909 y) va erksevar beklar Jo'rabek va Bobobek hamda Sulton Sodiq bilan birga birikdilar. Birlashgan vatanparvar kuchlar Amir Temurning Oqsaroyida tantanali tarzda Abdumalikto'rani Amir deb e'lon qildilar. Muzaffarning mulozimlaridan Xudoyor, Abdulla Ibrohim va ko'pchilik ulamolar bu gapni maqullab Muzaffarni taxtdan tushurilganini tan oldilar. Vatanparvar kuchlar Shahrisabzdan so'ng Qarshini egallaydilar. Karmana Chiroqchi ham tez orada ularni qo'l ostiga o'tadi. Ruslar bilan kurashda chiniqqan Qozoq xalqining sodiq farzandi Sulton Sodiqni Amirzoda, Karmana viloyati hokimi qilib tayinladi. Amirga teskari bo'lgan Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek kabi lashkarboshilar Abdumalikto'ra e'lon qilgan g'azot yo'lida barcha elparvar kuchlarni jamlashga

urindilar[4]. Turkiston general gubernatori fon Kaufman voqealar rivojini tashvish bilan kuzatmoqda edi. U sulhga ko'ra, Buxoroning ichki ishlariga aralasha olmas shuning uchun qulay fursat va bahona izlar edi. 1868-yilning kuzida amir Muzaffarning amirlikning butun sharqiy qismini egallagan qo'zg'alonchilarga qarshi kurash uchun yordam so'rab qilgan murojati fon Kaufman uchun ayni muddao bo'ldi. Buxoroning bosib olingan hududlari hisobiga tashkil qilingan Zarafshon okrugi boshlig'i general Abramovga amirga yordam berish uchun barcha choralarni ko'rish topshirildi. Ruslarning Buxoro ishlariga aralashishiga qonuniy tus berish uchun barcha choralarni ko'rish topshirildi. Abramov katta qo'shin bilan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Garchi ostonasida Buxoro vatanparvarlari son va qurol yarog' jihatidan ustun bo'lgan dushmanga qarshi qattiq jang qildilar. Jo'rabek va Bobobek hamda Sulton Sodiq general Abramov qo'shini bilan janglarga o'zlarining mohir sarkarda ekanligini namoyish qildilar. Ammo kuchlar teng emasligi darhol bilindi. Abdumalikto'ra Shahrisabzga chekindi. Ruslar bilan birga amir Muzaffar sarbozlari vatanparvarlar egallagan hududlarni birin ketin egallay boshladilar[3]. Abdumalik to'ra bilan Sulton Sodiq Xiva xonligi tomon qochishga majbur bo'ldi[4]. Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek esa vatanparvarlik kurashini davom ettirib Buxoro amiri Muzaffar va uning homiysi rus bosqinchilariga qarshi tahdid solib turdilar. Buxoro amiri Muzaffar butun amirlikdagi vatanparvar kuchlarning darg'alari bo'lib qolgan Kitob va Shahrisabz hokimligi Jo'rabek va Bobobekka qarshi kurashda yordam so'rab, 1870-yilda fon Kaufmanga murojat qilgan edi. 1870-yilning erta bahorida talvasaga tushgan general Abramov 6 rota 200 kazak otliqlar batereyasi va raketa moslamasi divizioni bilan Zarafshonning Rus istilochilariga qarshi ko'tarilayotgan yuqori oqimidagi

aholini jazolash uchun yo'lga chiqadi va Iskandarko'l degan joyga yetib keladi. Podpolkovnik Dennet qo'mondon bo'lgan ikkinchi guruh esa Motchoh daryosi yuqori qismiga tashlandi. Zarafshon yuqori qismida xunrezliklarni 25-iyunda nihoyalagan ruslar bu joylarni rus podshohi taxti tasarrufiga o'tganligini e'lon qilib, Ko'likalon mavzesiga Shahrisabzliklar janga katta matonat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay qurollar nisbatidagi ustunlik ruslar qo'lining baland kelishiga sabab bo'ldi[7] Shahrisabz lashkari tartib bilan chekinadi. Shahrisabzliklar adabini berib qo'yish zarurati

harbiy harakatlarni davom ettirishni taqazo etadi va general Abramov otryadi tog' davonidan oshib o'tib beklarning vodiy qismiga tushadi[7]. Shahrisabz va Kitobni olish uchun amalga oshirilgan bosqinchilik urushi kundaligi bundan ancha oldin general mayor Abramov tomonidan bitilgan edi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa Shahrisabz va Kitobni istilo etish Turkiston general gubernatori Kaufmanning muntazam nazoratida bo'lib qo'mondon Abramov uni harbiy harakat rejasi, tatbiq etilish natijalari bilan batafsil tanishtirib borgan. Buning sababi shunda ediki 1868-yil yozida Shahrisabz va Kitobning 25 ming kishilik lashkari Bobobek hamda Jo'rabek boshchiligida Samarqanddagi rus garnizonini 8-iyunga qadar zir titratgan edi[9]. D.N Logofetning "General Abramovning rus qo'shinlari otryadi Shahrisabz o'lkasiga kirganda Buxoro qo'shini shaharga g'arb tomondan yaqinlashib keldi. Uch tomonlama qamal qilingan Shahrisabz Kitob va Yakkabog' olingandan so'ng Shahrisabz beklari Qo'qonga qochdi" degan so'zlari zamirida arslar bo'yi davom etib kelayotgan shaxsiy adolat, ichki nizolarning vatan, el-ulus manfaatidan ustun kelishidek qabohat pinhon yotadi[2]. Amir Muzaffar ruslarga bo'lgan vassallik imkoniyatidan har ikkala tomon uchun ham manfaatli bo'lganligi sababli hayollamay foydalanib qolgan. Shu tariqa, ikki yoqlama bosqin girdobida qolgan qadimiy shaharlar Shahrisabz va Kitob ruslar tomonidan istilo etiladi. Amir Muzaffar bu o'lkaning bosib olinishida vosita hamda faol qatnashchi bo'ladi. D.N Logofet bu haqda, Rus qurolining kuchi va ko'lab bo'lib to'kilgan rus qoni evaziga olingan Shahrisabz va Kitoblik ulkan beklar Buxoro amirligiga berildi, deb yozgan edi[5]. Tobe etilgan ikkala beklilik amir Muzaffar

ixtiyoriga beriladi. Bobobek va Jo'rabek 200 kishi hamrohligida Qo'qon sari ketadilar. Ularning maqsadi yana kuch to'plab, Shahrisabz va Kitobni ozod qilish bo'lgan. Lekin, najot istab borgan Qo'qon xoni Xudoyorxon ularni yaxshi qabul qilgan bo'lsada niyati buzuq edi. Turkiston general-gubernatorligi bilan o'chakishib qolishdan qo'rqar edi. Shu sabab, tezda Bobobek va Jo'rabekni Toshkentga ruslar ixtiyoriga jo'natib yuboradi. Turkiston general - gubernatorligi harbiy ilmi yaxshi bo'lgan hamda amir Muzaffar va Xudoyorxon bilan adovati borligini bilgan Kaufman Bobobek va Jo'rabekni xizmatga olish foydali deb hisoblaydi va ularning xalq o'rtasidagi obro' e'tiboridan foydalanmoqchi bo'ladi[10]. Ularga harbiy unvonlar beriladi, Bobobekga polkovnik darajasiga ma'qul ko'riladi. Jo'rabekga esa mayor darajasi beriladi[11].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Amir Muzaffar loqaydligi sabab ruslar Buxoro amirligi hududini bosib olishda aytarli qarshiliklarga uchramadi. Buxoro - Rossiya imperiyasi protektorati o'rnatilgandan so'ng joylarda ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vaziyat sezilarli darajada o'zgarmagan, amir siyosatidan norozi bo'lgan kishilar qatog'on qilingan. Shahrisabz va Kitob beklilari Rus bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashdilar faqat qurol yarog' va son jihatdan ustun bo'lgan ruslar g'alabaga erishdilar. Shahrisabz va Kitob bekligini o'ziga bo'ysindira olmagan amir Muzaffar ruslar yordami bilan bu o'lkaga o'z hukmronligini o'rnatdi. Shahrisabz va Kitobga qarshi rus generali Abramov juda katta tayyorgarlik ko'rdi va har bir qilgan ishini Kaufmanga yozma tarzda bayonat bergan. Chunki ruslar Buxoro amirligiga qarshi urushda

Samarqandda Shahrisabzlik jangchilarni qiyinchilik bilan to'xtatgan edi. Shuning uchun ular Shahrisabzga qarshi urushni puxta rejalar asosida olib bordilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 22 декабрь куни Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
2. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. - Б.138.
3. Равшанов П. Шахрисабз тарихи. Тошкент «Янги аср авлоди 2011. – Б. 486.
4. Одилов А.А. Бухоро амирлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи: Тарих фан. номзоди ... дис автореф. - Тошкент: Ўзму, 2003. - 115 б.
5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство подъ русским протекторатомъ.-Т.:И.С.П., 1911. - С. 274.
6. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965-1966 гг.)). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 99.
7. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – нач. XX вв.) / Под ред. А.Р.Мухаммеджанова. – Ташкент. Университет, 2001. – С.416.
8. Мавлонов У.М. Торговые и культурные связи Кашкадарьинского оазиса в XVII–XIX вв.: Автореф. дисс. канд. истор. наук. – Ташкент: ТашГУ, 1994. – 26 с
9. Қадимги Кеш – Шахрисабз тарихидан лавҳалар / Масъул муҳаррир А. Сағдуллаев. – Тошкент: Шарк, 1998. – 207 б.; Шахрисабз. Мингйилликлар мероси / Масъул муҳаррирлар Э.В.Ртвеладзе, А.С.Сағдуллаев. Тошкент: Шарк, 2002. 226 б.; Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган урни: халқаро илмий конференция маъруалари тезислари / Масъул муҳаррир М. Исхоков. – Тошкент: Фан, 2002. – 162 б
10. Тухтаметов Т.Г. Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XIX–начале XX веков // Тр. института истории АН Кирг. ССР. – Фрунзе, 1957. – Вып. III. – С. 151-183
11. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркеспублики, 1922. – 45 с.; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Н Соч. – М.: Изд-во вост. лите, 1963. – Т. П., Ч. 1. – С. 163-433.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Nigmatov Alisher Xayrulla o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi
alishernigmatov91@mail.ru

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING MADANIY SOHASIDAGI HAMKORLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarning musiqa, teatr, tasviriy san'at, kinematografiya, arxiv, kutubxona va muzey ishlari, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, xalq hunarmandchiligi, qo'l mehnati ishlari, estrada va sirk san'ati, shuningdek, ijodiy san'atning boshqa turlari sohasidagi aloqalarining hamkorlik jarayonni olib borilayotganligi haqida so'z yuritilgan.
Tayanch so'z: Deklaratsiya, musiqa, teatr, tasviriy san'at, kinematografiya, arxiv, kutubxona, muzey.

СОТРУДНИЧЕСТВО ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В данной статье говорилось о сотрудничестве Шанхайской организации сотрудничества государств в области музыки, театра, изобразительного искусства, кинематографии, архивного, библиотечного и музейного дела, охраны объектов культурного наследия, народных промыслов, рукоделия, эстрадного и циркового искусства, а также других видов творческого искусства.

Ключевое слово: декларация, музыка, театр, изобразительное искусство, кинематограф, архив, библиотека, музей.

COOPERATION OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION IN THE FIELD OF CULTURE

Annotation: This article talked about the cooperation of the Shanghai Cooperation Organization of States in the field of music, theater, fine arts, cinematography, archival, library and museum work, protection of cultural heritage, folk crafts, needlework, variety and circus arts, as well as other types of creative art.

Keyword: declaration, music, theater, fine arts, cinematography, archive, library, museum.

Kirish

ShHTni tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiyada ishtirokchi davlatlar madaniy hamkorlikni rivojlantirish zarurligi haqida ham bayonot berishdi. ShHT davlatlarning madaniyat vazirlari birinchi marta 2002 yil 12 aprelda Pekinda yeg'ilishdi. Mamlakatlar hukumatlari madaniyat kunlarini o'tkazish, badiiy jamoalar va san'at arboblarning ishtirokini faol qo'llab-quvvatladilar. O'sha vaqtdan boshlab madaniy hamkorlik asta-sekin rivojlana boshladi. ShHTga a'zo davlatlarning muhim tarixiy sanalariga bag'ishlangan umumiy tadbirlar o'tkaziladi, talabalar va professor-o'qituvchilar almashuvi amalga oshiriladi, umumiy o'quv markazlarini shakllantirishga urinishlar amalga oshiriladi [1, 2007].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tahlil va natijalar Shanxay madaniyat sohasidagi hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni saqlab qolish, madaniyat sohasidagi klassik yaqin va samarali aloqalarni hisobga olgan holda,

tenglik va davlatlarning etnik-madaniy o'ziga xosligini hurmat qilish tamoyillari asosida foydali sheriklikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga intilib, SHHT mamlakatlari 2007 yil 16 avgustda Bishkekda madaniyat sohasida birgalikda ishlash to'g'risida shartnoma imzoladilar [2, 167]. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida kelishuv ma'zmuniga ko'ra o'zaro hurmat va tenglik asosida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar xalqlari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishni istash, Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasining 2002-yil 7-iyundagi maqsad va tamoyillariga sodiqligini bildirish, Shanxay madaniyat sohasidagi hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga muhim ahamiyat berish, madaniyat sohasidagi an'anaviy yaqin va samarali aloqalarni hisobga olgan holda, qatnashchi davlatlarning teng huquqliligi va etnik-madaniy o'ziga xosligini hurmat qilish tamoyillari asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga etibor qaratildi.[3, 2007-16] Bu imzonlagan bitim 22 moddani o'z ichiga oladi. Ularda madaniy hamkorlikda quydagilar ko'rsatilgan: Shartnomaga binoan tomonlar xalqaro huquq normalariga va o'z mamlakatlarining davlat milliy qonunchiligiga muvofiq musiqa, teatr, tasviriy san'at, kinematografiya, arxiv, kutubxona va muzey ishlari, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, xalq hunarmandchiligi,

dekorativ - amaliy, qo'l mehnati ishlari, estrada va sirk san'ati, shuningdek ijodiy san'atning boshqa turlari sohasidagi aloqalarni amalga oshiradilar [4]. ShHTga a'zo mamlakatlarining madaniyat sohasidagi o'zaro hamkorligi muammolari bo'yicha axborot va normativ-huquqiy asoslarni zaruratga qarab ushbu maqsadlar uchun hamkorlikni yanada mustahkamlash va shakllantirishni qo'llab-quvvatlaydilar. Davlatlarning yagona alohida xalqaro shartnomalar va milliy Qonunchilik asosida alohida madaniyat va san'at mutaxassisliklari xodimlarini tayyorlash va

malakasini oshirish sohasida hamkorlik qiladilar, shuningdek, tomonlar davlatlarining madaniyat va san'at o'quv yurtlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydilar. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hududida bo'lib o'tadigan madaniy hayot voqealari (seminarlar, tanlovlar, konferentsiyalar, kollokviumlar, davra suhbatlari, sessiyalar, festivallar va ijodiy va ilmiy tajriba almashishning boshqa shakllari) to'g'risida ma'lumot almashadilar va o'z vakillarining ushbu tadbirlarda ishtirok etishiga hissa qo'shadilar. Davlatlar xalqaro huquq normalariga va o'z mamlakatlarining davlat qonunchiligiga muvofiq, o'z vakolatlari doirasida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hududlarida noqonuniy olib chiqish natijasida paydo bo'lgan madaniy boyliklarni ochish va qaytarish bo'yicha qo'shma ishlarni shakllantiradilar. Shuningdek madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish va olib chiqib ketishning oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar, ushbu masalalar bo'yicha ma'lumotlar va noqonuniy olib chiqilgan madaniy boyliklarning qaytishiga hissa qo'shadi. Hamkorlik jarayonida monumentlar [5] va madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, saqlash va restavratsiya qilish sohasida qo'shma ishlarni amalga oshiradilar. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning madaniyat sohasidagi xalqaro rejalarni amalga oshirish doirasida o'zaro hamkorligiga ko'maklashadilar. Hamkorlik shakllari, mutaxassislar guruhlarini rivojlantirish, faoliyat tartibi alohida xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlar bilan shakllantiriladi. Shartnomaning 6-moddasida tomonlar kinematografiya sohasida, shu jumladan o'z

mamlakatlarining davlat kino arxivlari (filmofondlari) o'rtasida birgalikda ish olib boradilar. Hamkorlik loyhasida quydagi punktlar bilan qo'llab quvatlaydi: - Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning kino distribyutorlari, shuningdek, kinematografiya xodimlari muassasalari va ijodiy uyushmalari o'rtasidagi hamkorlik; - Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar filmlari, san'at arboblari va kinematograflarining Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarda tashkil etiladigan xalqaro kinofestivallarda ishtirok etishi, ushbu festivallar reglamentiga muvofiq; - kino loyihalarini amalga oshirish va tomonlar davlatlari o'rtasida kino mahsulotlarini notijorat asosda almashish. Hamkorlar an'anaviy madaniyat va badiiy xalq hunarmandchiligi sohasidagi aloqalarga, xalq hunarmandlari ko'rgazmalarini, xalq ijodiyoti festivallarini tashkil etishga, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hududlarida o'tkaziladigan Aksiyalar, tadbirlar va xalq bayramlarida folklor jamoalarining ishtirokiga ko'maklashadilar. SHHT mamlakatlari Madaniyatshunoslik sohasidagi sheriklikni chuqurlashtirish maqsadida ikki tomonlama bitimlar asosida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning madaniyati, tarixi, geografiyasi, ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq arxiv, ilmiy va boshqa materiallarni baham ko'rishlari mumkin. Hamkorlar nashriyot jarayoni, kitoblar chiqarish, badiiy, ilmiy va maxsus adabiyotlar asarlari tarjimalari

va boshqa bosma mahsulotlar sohasida birgalikda ishlashni, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hududlarida kitob ko'rgazmalarini yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazishni rag'batlantiradi. Hamkorlik shakllari alohida xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlar bilan shakllantiriladi. Hamkorlar o'z vakolatlari doirasida va o'z mamlakatlarining davlat qonunchiligiga muvofiq mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida ma'lumotlar almashadilar. Hamkorlar yoshlar va bolalar ijodiyotini shakllantirish bilan bog'liq madaniyat sohasidagi ko'p tomonlama loyihalar va

rejalarni amalga oshirishda hamkorlik qiladilar. Bitimni amalga oshirish, muayyan voqealarni kelishish va amalga oshirish bo'yicha umumiy operatsiyalarni muvofiqlashtirish maqsadida madaniyat sohasidagi sheriklik doirasida tomonlar Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning madaniyat sohasidagi hamkorlikni shakllantirish bo'yicha ekspert ishchi guruhini tuzdilar. Ekspert ishchi guruhi yiliga kamida bir marta yoki zarur bo'lganda (ikki yoki undan ortiq davlatning iltimosiga binoan) yig'ilishlarni yakunlab, shartnomani amalga oshirish bo'yicha keyingi strategiyani shakllantirish uchun o'tkazadi [6, 2007-16]. Bishkek shahrida 2007 yil 16 avgustda imzolangan bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi uchun 2014 yil 24 aprelda kuchga kirdi. (Madaniy hamkorlik) ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashining 2016 yil 23-24 iyun kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Majlisiga tayyorgarlik doirasida Vazirlar tashkilot faoliyatining turli yo'nalishlarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollarni, uning xalqaro va mintaqaviy ishlarda o'rnini va o'rnini oshirishni muhokama qildilar. ShHT o'zaro ishonch, o'zaro manfaat, tenglik, o'zaro maslahat, madaniyatlarining xilmaxilligiga hurmat va birgalikda rivojlanish istagini o'zida mujassam etgan "Shanxay ruhi" ga tayanib, tashkil etilganidan beri 15 yil ichida o'zini zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining nufuzli ishtirokchilaridan biri

sifatida namoyon etgani ta'kidlandi. 2016-yil 2-3-noyabr kunlari Bishkek shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari (bosh Vazirlar) Kengashining o'n beshinchi Majlisi bo'lib o'tdi (keyingi o'rinlarda - SHHT yoki tashkilot) Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri B.A. Sagintaev, Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan, Qirg'iziston Respublikasi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi S.Sh. Jeenbekov, Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi D.A. Medvedev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri K.Rasulzoda va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S.Azimov [7, 2016-2-3] ishtirok etdilar. Ishtirok jarayonida SHHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari Kengashining (bosh Vazirlar) o'n beshinchi Majlisi yakunlari bo'yicha qo'shma kommyunike e'lon qildilar. Yeg'ilish jarayonida madaniy soha bo'yicha quyidagilarni ta'kidlashdilar: Hukumat rahbarlari madaniyat, ta'lim, fan va texnika, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sport, turizm, ShHT mintaqasining madaniy va tabiiy merosini o'rganish va saqlash, shu jumladan tarixiy "Buyuk Ipak yo'li" bo'ylab ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik formatlarini yanada rivojlantirish muhimligini ta'kidladilar. Hukumat rahbarlari ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimni amaliy amalga oshirishga qaratilgan ShHTga a'zo davlatlar madaniyat vazirlari yig'ilishining natijalarini ijobiy baholadilar. Hukumat rahbarlari II Butunjahon ko'chmanchilar o'yinlari o'tkazilishini (2016 yil 3-8 sentabr, Issiqko'l viloyati, Qirg'iziston Respublikasi) olqishladilar. Ular ShHTga a'zo davlatlarning o'z hududlarida o'tkaziladigan madaniy-gumanitar va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etishi, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi an'anaviy do'stona munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlarning milliy sport turlari, an'analari va madaniyatining tarixiy-madaniy qadriyatlarini

ommalashtirish amaliyotini rivojlantirish muhim deb hisoblaydilar. 2021-yil 17-sentabrda Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan ShHTga a'zo davlat rahbarlari Kengashi Majlisi yakunlari bo'yicha "Dushanbe deklaratsiyasi" [8, 2021-17] da madaniy-gumanitar rivojlantirish bo'yicha quyidagilar e'lon qilinadi: SHHT doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikni izchil rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib qolayotganiga aminlar. O'tgan davrda madaniyat, ta'lim, fan va texnika, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, turizm va sport sohalarida yuqori darajadagi hamkorlikka erishildi. SHHT doirasidagi madaniy hamkorlik xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlashning samarali omili sifatida katta salohiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, tashkilot jahon hamjamiyatiga bir-birining milliy an'analari va qadriyatlariga hurmat, bag'rikenglik munosabati, ushbu sohadagi aloqalarni rivojlantirish orqali madaniyatlarni o'zaro boyitish namunasini ko'rsatmoqda. ShHTga a'zo davlatlar musiqa, teatr va tasviriy san'at, adabiyot, kinematografiya, shuningdek, arxiv, muzey, kutubxona sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish choralari ko'radi. ShHTga a'zo davlatlarning yodgorliklari va madaniy meros ob'ektlarini birgalikda arxeologik ishlarni olib borish, muhofaza qilish va tiklash, shu jumladan ularni YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun birgalikda ariza berish va ilgari surish bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantiradilar.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, SHHT davlatlari doirasidagi madaniy hamkorlik xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlashning samarali omili sifatida katta salohiyatga ega. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarning musiqa, teatr, tasviriy san'at, kinematografiya, arxiv, kutubxona va muzey ishlari, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, xalq hunarmandchiligi, qo'l mehnati ishlari, estrada va sirk san'ati, shuningdek, ijodiy san'atning boshqa turlari sohasidagi aloqalarining rivojlanib borishi, o'z navbatida SHHT davlatlarining har tomonlama hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. SHHT tashkiloti jahon hamjamiyatiga bir-birining milliy an'analari va qadriyatlariga hurmat, bag'rikenglik munosabati, ushbu sohadagi aloqalarni rivojlantirish orqali madaniyatlarni o'zaro boyitish ekanligini bildiradi. ShHTga a'zo davlatlarning yodgorliklari va madaniy meros ob'ektlarini birgalikda arxeologik ishlarni olib borish, muhofaza qilish va tiklash, shu jumladan ularni YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun birgalikda ariza berish va ilgari surish bo'yicha hamkorliklarini amalga oshirib kelishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Васильев Л.Е., Румянцев Е.И., Шанхайская организация сотрудничества. Док - ты и материалы. - М.: ИВДРАН, 2007
2. Соглашение между правительствами стран-членов Шанхайской организации сотрудничества о совместной работе в области культуры от 16 августа 2007 года. Ратифицировано Законом КР от 25 июля 2008 года № 167. ИСС «Токтом-Юрист», 2011.

3. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Bishkek madaniyati bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, 2007 yil 16 avgust // <https://lex.uz/ru/docs/4979485>
4. https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=18147
5. Monument (lot. monumentum — yod-gorlik) — yirik tarixiy voqea, buyuk jamoat arbobi va boshqa sharafiga bunyod etilgan yirik hajmdagi yodgorlik, haykal. Odatda monument me'moriy ansamblda g'oyaviy va hajmli kenglikning asosini hosil qiladi yoki haykali me'moriy majmuaning tarkibiga kiradi
6. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida Bishkek madaniyati bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, 2007 yil 16 avgust // <https://lex.uz/ru/docs/4979485>
7. СОВМЕСТНОЕ КОММЮНИКЕ по итогам пятнадцатого заседания Совета глав правительств (премьер-министров) государств-членов Шанхайской организации сотрудничества 2-3 ноября 2016 года
8. Душанбинская Декларация Двадцатилетия. 17 сентября 2021 г

IQTISODIYOT FANLARI

FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

X.Jo'rayev
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Moliya va statistika kafedrasini mudiri

MINTAQADA TADBIRKORLIK MAHORATINI BAHOLASH ASOSIDA ISHBILARMONLIK MUHITINI FAOLLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada mintaqada tadbirkorlik mahoratini baholash asosida ishbilarmonlik muhitini faollashtirish omillari aniqlangan. Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida kichik biznes subektlari tadbirkorlik mahoratlari baholangan. Tayanch so'zlar. Hudud, raqobatbardoshlik, investitsiya, ishbilarmonlik muhiti, hududiy eksport, investitsion faollik, tadbirkorlik mahorati.

АКТИВИЗАЦИЯ ДЕЛОВОГО КЛИМАТА НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ В РЕГИОНЕ

Аннотация. В государстве рассматриваются факторы активизации бизнес-среды на основе оценки предпринимательских способностей в регионе. Оценивались предпринимательские способности субъектов малого предпринимательства городов и районов Сурхандаринской области. Ключевые слова. Регион, конкурентоспособность, инвестиции, деловая среда, региональный экспорт, инвестиционная активность, предпринимательские способности.

ACTIVATION OF THE BUSINESS ENVIRONMENT BASED ON THE ASSESSMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS IN THE REGION

Abstract. In the article, the factors of activation of the business environment are determined based on the assessment of entrepreneurial skills in the region. The entrepreneurial skills of small business entities in cities and districts of Surkhandarya region were assessed. Key words. Region, competitiveness, investment, business environment, regional export, investment activity, entrepreneurial skills.

Kirish. Jahonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholini iqtisodiy salohiyati va farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) alohida o'rin tutadi. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga asosan Yaponiya va Xitoy iqtisodiyotida KBXTning YaIMdagi ulushi 60 foiz,

Fransiyada - 56 foiz, AQSh va Buyuk Britaniyada - 51 foizni tashkil etadi" [1]. Jahon KBXT sub'ektlarini sifat jihatidan yuksaltirishda ularning iqtisodiy salohiyati, innovatsion faoliyati, investitsion jozibadorligi, raqamlashtirish mexanizmi, raqobatbardoshligi, samaradorligini oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada kichik biznes sub'ektlari ishtirokida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning institutsional asoslarini yaratish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish va boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kabi yo'nalishlardagi faoliyatlariga alohida diqqat qaratilmoqda [2]. Yangi O'zbekistonning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillargamo'ljallanganyangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmonida "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, biznes muhiti

va zarur infratuzilma yaratish asosida milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish"[3], zarurligi belgilandi. Ushbu muhim vazifani amalga oshirish uchun KBXT sub'ektlarining faoliyatida "tadbirkorlik mahorati" (business excellence, BEM) sifat aniqlovchisi va "muhim mahorat indikatorlari" (KPI) miqdoriy multiplikatorini baholash mexanizmini ishlab chiqish va ularning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish juda dolzarb hisoblanadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqalarda tadbirkorlik mahoratini baholash asosida ishbilarmonlik muhitini faollashtirishning ayrim ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari bir qator xorij va mamlakatimiz olimlari V.Kristaller, A.Lesh, U.Izard, A.Granberg, S.A.Suspitsin, R.Ya. Dosumov, A.Abdusalyamov, K.X.Abduraxmonov, D.Almatova, T.M.Axmedov, A.A.Qayumov, B.R.Ruzmetov, F.T.Egamberdiev, A.M.Sodiqov, Sh.X.Nazarov, A.M.Qodirov, A.V.Mamatqulov va boshqalarning[3] ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Shunday bo'lsada, ilmiy adabiyotlarda aksariyat holatda mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini faollashtiri, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, kompleks rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini faollashtirish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli mintaqa iqtisodiyotini kelajakda kompleks rivojlanishiga asos bo'ladigan tarmoqlarni aniqlagan holda, ularda ishbilarmonlik muhitini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish juda dolzarb hisoblanadi. Tahlil va natijalar: Ko'p yillardan beri biznes dunyosida tadbirkorlik faoliyati sifatida o'z-o'zini baholash va takomillashtirish jarayonida muvaffaqiyat bilan ishlatilayotgan

"EFQM Business Excellence" modeli mezonlariga uyg'unlashtirilgan va tadbirkorlik mahoratini baholashga moslashtirilgan model Yangi O'zbekistonda KBXT sub'ektlarining faoliyat sifatini baholash uchun qulay imkoniyat va samarali mexanizm hisoblanadi. Biznes sub'ektlari tadbirkorlik mahoratining real rivojlanganlik darajasini baholash maqsadida "Tadbirkorlik mahorati rivojlanganlik darajasi multiplikatori" hisob-kitobini quyidagi beshta bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi: 1. Tadbirkorlik mahorati rivojlanganlik darajasining etalon aniqlovchisi (determinanti)ni shakllantirish. 2. Tadbirkorlik mahoratini baholashning muhim mahorat indikatorlari (KPI) ni ishlab chiqish. 3. Tadbirkorlik mahoratini aniqlash uchun muhim mahorat indikatorlari (KPI) ning sifat holatini baholash shkalasini belgilash. 4. Qiyoslash usulida tadbirkorlik mahoratini real rivojlanganlik darajasining multiplikatorini baholash va tadbirkorning sifat maqomini tanlash. 5. Diagnostik baholash natijasida tadbirkorlik mahoratini uzluksiz oshirish to'g'risida ekspert tavsiyalarini berish[4]. Tadbirkorlik mahorati rivojlanganlik darajasining etalon aniqlovchisi sifatida "tadbirkorlik mahorati"ni tavsiya etib, uni tavsiflovchi o'n bitta quyi mezonlari ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval
Tadbirkorlik mahoratini KPI tizimi bo'yicha baholash jarayoni

Baholashning asosiy va quyi mezonlari	Tadbirkorlik mahoratning muhim indikatorlari (KPI)	Qo'yilgan ball
1	2	3
H (Hard entrepreneur skills) – Qattiq tadbirkorlik ko'nikmalari		
H1. Marketing mahorati	KPI (H1.1). Bozor, xaridor va tovarni o'rganish.	
	KPI (H1.2). Mijozlarga e'tibor qaratish va xaridorlarni maqsadli guruhlariga bo'lish (segmentlash) va tovarni o'rinish mahorati.	
	KPI (H1.3). Sotishni ko'paytirish usullarini bilish.	
	KPI (H1.4). Reklama tadbirlarining samaradorligini baholash va korxonada brendini rivojlantirish.	
	KPI (H1.5). Raqiblarni baholash usullariga ega bo'lish va narx strategiyalarini tanlay bilish.	
H2. Menejerlik san'ati	KPI (H2.1). Tashkilotchilik mahorati	
	KPI (H2.2). Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish mahorati.	
	KPI (H2.3). Muvaffaqiyatga erishishni motivatsiyalashtira bilish.	
	KPI (H2.4). Rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.	
	KPI (H2.5). Xo'jalik yuritishning samarali usullarini bilish.	
H3. Novatorlik ko'nikmalari	KPI (H3.1). Yangilikka intiluvchanlik.	
	KPI (H3.2). Yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqish mahoratiga egalik.	
	KPI (H3.3). Kitob o'qish, savol berish, kuzatib yurish va ilmiy tajribalar o'tkazib turishga moyilligi.	
	KPI (H3.4). Ijodiy fikrlash mahorati va innovatsion biznes-g'oyalarni qidirib topib, amalda qo'llash.	
H4. Tavakkal qilish mahorati	KPI (H4.1). Mo'tadil tavakkalchilik sharoitida samarali ishlay olish.	
	KPI (H4.2). Biznes tavakkallarni kamaytirish va sug'urta qilish.	

H5. Iqtisodiy savodxonligi	KPI (H5.1). Biznesga investitsiyalarni jalb qilish.	
	KPI (H5.2). Moliyaviy va soliq savodxonligi.	
	KPI (H5.3). Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.	
	KPI (H5.4). Xarajatlarni pasaytirish va foyda olishni ta'minlash.	
"H" asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-40 ball hisobida):		
S (Soft entrepreneur skills) - Yumshoq tadbirkorlik ko'nikmalari		
S1. Shaxsiy fazilatlar	KPI (S1.1). Tashabbuskorlik va mustaqil faoliyat ko'rsatish mahorati.	
	KPI (S1.2). Analitik fikrlash va ongning moslashuvchanligi.	
	KPI (S1.3). O'ziga ishonch va o'z ishiga sadoqatlik.	
	KPI (S1.4). Muvaffaqiyatga intilish va qat'iyatlik.	
	KPI (S1.5). Mehnatsevarlik va ishbilarmonlik.	
S2. Shaxslararo ko'nikmalar	KPI (S2.1). Ishbilarmonlik maktublarini yoza bilish.	
	KPI (S2.2). Odamlarni tushunish va ularni ishtirok mahorati.	
	KPI (S2.3). Muzokaralar olib borishga moyillik.	
	KPI (S2.4). Imkoniyatlarni ko'ra bilish va undan foydalanish.	
	KPI (S2.5). Vaqtdan umumli foydalana olish.	
S3. Liderlik sifatleri	KPI (S3.1). Tezkorlik bilan va samarali qaror qabul qilish mahorati.	
	KPI (S3.2). Samarali muloqot qilish mahorati.	
	KPI (S3.3). Aloqalarni o'rnatish mahorati.	
	KPI (S3.4). Bozorlar holati haqida qimmatli ma'lumotlarni topish ko'nikmasi.	
	KPI (S3.5). Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun istiqbolli imkoniyatlarni topish mahorati.	
"S" asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-30 ball hisobida):		
D (Digital entrepreneur skills) - Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari		
D1. Raqamli marketing mahorati	KPI (D1.1). Onlayn-tijorat bilan shug'ullana olish.	
	KPI (D1.2). Mijozlarni jalb qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalana bilish.	
	KPI (D1.3). Internet orqali reklama qilish ko'nikmalari.	
	KPI (D1.4). Qidiruv tizimlarida marketing ko'nikmalari.	
D2. Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari	KPI (D2.1). Raqamli kommunikatsiya vositalari (elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, o'z veb-sayti) orqali raqamli muloqot qilish ko'nikmalari.	
	KPI (D2.2). Raqamli loyiha va mahsulotlarni boshqarish.	
	KPI (D2.3). Blokcheyn texnologiyasidan foydalana olish.	
	KPI (D2.4). Dasturlash va veb-lovalarni ishlab chiqish (Networking).	
	KPI (D2.5). Raqamli dizayn va ma'lumotlarni vizualizatsiyalashtirish.	
D3. Raqamli texnologiyalardan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish ko'nikmalari	KPI (D3.1). Messenger (Internet tarmog'i) orqali xabarlarini zudlik bilan ayiribsovlash dasturlarini ishlatish.	
	KPI (D3.2). "Task-trackerlar" (vazifalarni osonroq, tezroq va samaraliroq belgilash va bajarishda yordam beradigan loyiha ishlarini avtomatizatsiyalashtirish vositalari)dan foydalana bilish.	
	KPI (D3.3). Excel dasturida ishlay olish va Power Point taqdimoti tayyorlash ko'nikmasi.	
	KPI (D3.4). Business Intelligence (BI) - vositalarini qo'llay olish.	
	KPI (D3.5). Kiberxavfsizlik asoslarini bilish.	
	KPI (D3.6). Katta ma'lumotlar (Big data)dan tadbirkorlik maqsadida foydalana olish.	
"D" asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-30 ball hisobida):		
"H", "S" va "D" asosiy o'lov mezonlari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlarining yig'ilgan jami ballari (0-100 ball hisobida):		

Biznes subyektlarining tadbirkorlik mahoratini baholashning muhim mahorat indikatorlari (KPI)ni ishlab chiqish algoritmi quyidagi jarayonlardan iboratligi asoslandi: 1. Tadbirkorlik mahoratini baholashning qattiq, yumshoq va raqamli ko'nikmalaridan iborat bo'lgan asosiy mezonlarini KPI tizimiga "H", "S", "D" lotin harflari orqali kiritish: KPI(H) - Qattiq tadbirkorlik ko'nikmalarining asosiy mezon; KPI(S) - Yumshoq tadbirkorlik ko'nikmalarining asosiy mezon; KPI(D) - Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalariga xos asosiy mezon. 2. Tadbirkorlik mahoratini baholashning asosiy mezonlarini tavsiflovchi quyi mezonlarini KPI tizimida sonlar orqali ifodalash: KPI(H) - Qattiq asosiy ko'nikmalarini 1-5 sonlar bilan ifodalash: KPI (H1). Marketing mahorati; KPI (H2). Menejerlik san'ati;

KPI(H3). Novatorlik ko'nikmalari; KPI(H4). Tavakkal qilish mahorati; KPI(H5). Iqtisodiy savodxonligi. KPI(S) - Yumshoq asosiy ko'nikmalarini 1-3 sonlar bilan ifodalash: KPI(S1). Shaxsiy fazilatlar; KPI(S2). Shaxslararo ko'nikmalar; KPI(S3). Liderlik sifatleri. KPI(D) - Raqamli asosiy ko'nikmalarini ham 1-3 sonlar bilan ifodalash: KPI(D1). Raqamli marketing mahorati; KPI(D2). Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari; KPI(D3). Raqamli texnologiyalardan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish ko'nikmalari. 3. Tadbirkorlik mahoratini baholashning asosiy va quyi mezonlarini tavsiflovchi "muhi mahorat indikatorlari" (KPI)ni ishlab chiqish va ularni asosiy va quyi mezonlariga taalluqliligini ham harf, ham sonlar bilan ifodalash. Tadbirkorlik mahoratini aniqlashning muhim mahorat indikatorlari (KPI)ning sifat holati beshta turli: eng yomon holat - 0 ball; bir oz mavjud - 0,5 ball; o'rta holat mavjud - 1 ball; biroz yaxshi holat - 1,5 ball; eng yaxshi holat - 2 ball bilan baholash shkalasi tavsiya etiladi. Baholash jarayonida KPIning tegishli ko'rsatkichiga ball hisobida baho 2-jadvalning 3-ustunida qo'yib boriladi. Tadbirkorlik mahoratining KPI tizimida ekspert usulida to'plangan umumiy ballari etalon bahosi bilan qiyoslash evaziga tadbirkorlik mahoratini real rivojlanganlik darajasining multiplikatori quyidagi formula bilan hisoblash tavsiya etiladi:

$$Rtq = \frac{KPI(H) + KPI(S) + KPI(D)}{Etq}, \quad (1)$$

Bu yerda: Rtq - tadbirkorlik mahoratining real rivojlanganlik darajasi multiplikatori (koeffitsient sifatida 0,0 dan 1,0 oralig'ida o'lchanadi); KPI(H) - qattiq tadbirkorlik ko'nikmalarining quyi mezonlarini tavsiflaydigan muhi mahorat indikatorlari (20 ta KPI)ni baholash asosida maksimal 40 ballga teng yoki undan pastroq ballar oralig'ida ifodalanadi); KPI(S) - yumshoq tadbirkorlik ko'nikmalarining quyi mezonlarini tavsiflaydigan muhi mahorat indikatorlari (15 ta KPI)ning baholash asosida maksimal 30 ballga teng yoki undan pastroq ballar oralig'ida ifodalanadi); KPI(D) - raqamli ko'nikmalarining quyi mezonini tavsiflaydigan muhi mahorat

indikatorlari (15 ta KPning baholash asosida maksimal 30 ballga teng yoki undan pastroq ballar oralig'ida ifodalanadi); Etq - tadbirkorlik mahoratini rivojlanganlik darajasining etalon indikator (50 ta KPning eng yaxshi holatini 2 ball bilan, jami 100 ballga tenglashtirilgan holda miqdoriy ifodalanadi). Tadbirkorlik mahorati real rivojlanganlik darajasi multiplikatori koeffitsienti (Rtq) asosida biznes sub'ektlariga xos tadbirkorlik mahoratining rivojlanganlik holati quyidagi uchta sifat darajasi va unga mos ravishda tadbirkorning tegishli maqomidan biriga mos kelishi tanlab olinadi:

1) 0,0 dan 0,50 ga qadar - past darajadagi tadbirkorlik mahoratiga ega "Mahoratsiz tadbirkor";

2) 0,51 dan 0,79 ga qadar - o'rta darajadagi tadbirkorlik mahoratiga ega "Salohiyatli tadbirkor";

3) 0,80 dan 1,0 ga qadar - yuqori darajadagi tadbirkorlik mahoratiga ega "Mahoratli tadbirkor".

Tadqiqotlarimiz davomida 2022 yilning may-iyun oylarida maxsus tuzilgan savolnoma vositasida Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 100 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tadbirkorlik mahorati rivojlanganlik darajasini ekspert usulida baholandi (2-jadval).

2-jadval
Surxondaryo viloyatidagi 100 ta tadbirkorlik sub'ektlarini tadbirkorlik mahorati (TQ) rivojlanganlik darajasini baholash natijalari

TQ real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq)	Tadbirkorlik sub'ektlarining TQ rivojlanganlik darajasi	TQ rivojlanganlik darajasiga xos tadbirkorlik sub'ektlari soni, birlikda	Ularning umumiy baholangan tadbirkorlik sub'ektlaridagi ulushi, %
0,0 dan 0,50 ga qadar	Past	16	16,0
0,51 dan 0,79 ga qadar	O'rta	64	64,0
0,80 dan 1,0 ga qadar	Yuqori	18	18,0
Jami:		100	100

Xulosa: Tahlillarga ko'ra, viloyatdagi 100 ta baholangan tadbirkorlik sub'ektlaridan 16 tasida tadbirkorlik mahorati real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) 0,0 dan 0,50 gacha oralig'ida qaror topib, "past" darajadagi tadbirkorlik mahoratiga ega ekanligi aniqlandi. Baholangan tadbirkorlik sub'ektlari orasida real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) holati 0,51 dan 0,79 gacha oralig'ida "o'rta" darajadagi tadbirkorlik mahoratiga egalar soni eng ko'p - 64 tani tashkil qiladi. O'rganilgan tadbirkorlik sub'ektlarning

real rivojlanganlik darajasining multiplikatori (Rtq) holati 0,80 dan 1,0 gacha oralig'ida "yuqori" darajada tadbirkorlik mahorati rivojlanganlarning soni, uncha ko'p emas, atigi - 18 taga yetgani ma'lum bo'ldi. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining diagnostik tahliliga ko'ra, tadbirkorlik mahoratining "past", "o'rta" va "yuqori" darajalarda rivojlanganlik darajasiga mos ravishda uchta-"mahoratsiz", "salohiyatli" va "mahoratli" tadbirkorlar toifasi ajratildi. Ularning salmog'ini o'rganish esa 100 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlar o'rtasida "Mahoratli tadbirkor" sifat maqomidagilar 18 foizni, "Salohiyatli tadbirkor"lar - 64 foizni va "Mahoratsiz tadbirkor"larning ulushi 16 foizni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manba: <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>. <https://www.oecd.org>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. www.lex.uz.
3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T., 2008. - 365 b.
4. Чекмарева Е.А. Оценка предпринимательской способности населения. Экономические и Социальные режимы: факты, тенденции, прогноз. № 2 (6) 2009. 89 с.



"TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Yarmatov Sharofiddin Choriyevich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
Termiz (O'zbekiston)
E-mail: sharofyarmatov1976@mail.ru

YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanishning mavjud muammolari nazariy hamda amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha muhim xulosa va takliflar berilgan. Tayanch so'zlar: yer, suv, resurslar, samaradorlik, iqtisodiy, sug'orish manbalari, ko'rsatkichlar, sug'orish tizimlari, koeffitsiyent, me'yor, meliorativ, sho'rlanish, eroziya, tuproq, ekin, namlik, daromad.

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ И ВОДНЫХ РЕСУРСОВ И ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассмотрены проблемы использования водно-земельных ресурсов в системе сельского хозяйства Узбекистана. Выявлены пути повышения экономической эффективности использования водно-земельных ресурсов. **Ключевые слова:** земля, вода, ресурсы, эффективность, экономичность, ирригационные ресурсы, показатели, ирригационные системы, коэффициент, норма, мелиорация земель, соленость, эрозия, почва, урожай, влажность, доход.

METHODS OF IMPROVING THE USE OF LAND AND WATER RESOURCES AND ITS ECONOMIC IMPORTANCE

Annotation. This article describes the problems of sustainable use of water and land resources in system irrigated agriculture in Republic Uzbekistan. In conclusion, the important suggestion is made towards improving economic efficiency of water and land use in agriculture. **Keywords:** land, water, resources, efficiency, economy, irrigation

resources, indicators, irrigation systems, coefficient, norm, land reclamation, salinity, erosion, soil, yield, humidity, income.

K i r i s h .

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida suvning ahamiyati o'ta muhim hisoblanadi. Chunki, suv dehqonchilikni rivojlantirishning eng muhim omilidir. Tuproq optimal namga ega bo'lgandagina unumdor bo'ladi va yuqori hosil olinishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslarini asrash, undan unumli foydalanish borasida keng qamrovli ishlohatlar olib borilmoqda. Zero, butun dunyoda suv tanqisligi muammosi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir vaqtda tiriklik manbai, tabiatning bebaho in'omidan besamar foydalanmaslik zarur. Prezidentimizning 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada salbiy oqibatlarining ta'sirini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Olib borilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligida suvdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tabiiy ekologik muvozanat va bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Toza suv ekotizimlarini saqlash ularning


ifloslantiruvchi moddalarni mustaqil ravishda qayta ishlash va turli xil suv organizmlarining hayotini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ta'minlaydi. Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda Har yili har bir gektar ekin maydoniga minglab tonna suv sarflanmoqda. Masalan, paxta yetishtirish uchun har gektariga 7000-9000 m³, sholi yetishtirish uchun esa 25000-28000 m³ suv sarflanyapti. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, har yili respublika bo'yicha qishloq xo'jaligi uchun 92%, maishiy xizmatga – 5,5 %, energetika sohasiga – 0,2 %, sanoat sohasi uchun – 1,5 %, baliqchilik uchun – 0,8 % suv ishlatilmoqda. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi uchun yirik tabiiy suv manbalari Amudaryo va Sirdaryo hisoblanadi.

Lekin bu yirik daryolar transchegaraviydir. Mamlakatimizga qo'shni bo'lgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari ham bu daryolardan foydalanadi. Boshqa suv manbalari singari bu daryolarda ham suv hajmi kamayib bormoqda. Shuningdek, sug'orish tizimlariga olingan suv miqdori bevosita ekin maydoniga yetguncha kamayib borayotganligi, yilning iyul-sentyabr oylarida ekinlarning rejadagi ob-hayotning yarmini ham ololmayotganligini e'tiborga olsak, yurtimizda suv resurslaridan tejab-tergab foydanish nechog'lik muhim ekanligini bilamiz. Zero, Prezidentimiz sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv resurslarini tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish,

unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish – iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini bejizga ta'kidlamagan[1].

Surxondaryo viloyati tumanlarida sug'orish mavsumida suv manbalaridan olinadigan suv miqdori, mln.m³, (2019-y.) 1-diagramma

Jami suv miqdori




- Angor
- Boysun
- Denov
- Jarqo'rg'on
- Qiziriq
- Qumqo'rg'on
- Muzrobot
- Oltinsoy
- Sariosiyo
- Termiz
- Uzun
- Sherobod
- Sho'rchi


Keyingi yillarda iqlimning o'zgarib borishi (yog'ingarchilikning kam bo'lishi, o'rtacha yillik haroratning oshishi) tufayli tabiiy suv manbalaridagi suv hajmining kamayib borayotganligi hamda Surxondaryo viloyatining asosiy suv tizimlaridan sanalgan Amu-Zang mashina kanaliga suv olayotgan nasoslarning (ayrim tashkiliy, moliyaviy, texnik va boshqa sabablarga ko'ra) to'la loyihaviy quvvat bilan ishlayotganligi sababli viloyatda yuz berayotgan suv tanqisligi yechimini kutayotgan muhim masala bo'lib qolmoqda.

Shu jumladan:


2-diagramma



3-diagramma



4-diagramma



Hozirda bu ko'rsatkich 2661,0 mln. m³ni tashkil etmoqda. O'tgan asrning 90-yillarida esa bu ko'rsatkich 4020 mln. m³ edi. Demak, viloyatda 1990–2019-yillar oralig'ida sug'orish uchun zarur bo'lgan suv manbalaridagi suv hajmi o'rtacha 1360 mln.m³ ga kamaygan. Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning samaradorligini oshirish maqsadida ertapishar ekinlardan bo'shagan yerlarda takroriy ekinlar ekilmoqda. Takroriy ekin sifatida kam suv talab qilinadigan ekinlar o'rniga ayrim hollarda sug'orish me'yori juda katta bo'lgan (masalan, sholi, gektariga 25-30 m³ suv talab qiladi) ekinlar ekilmoqda. Bu nafaqat qo'shimcha suv taqchilligini keltirib chiqaradi, balki yerlarning sho'rlanish darajasini oshiradi. Oqibatda, hosildorlik pasayib bormoqda, yerlar ekin ekishga yaroqsiz bo'lib qolyapti.

Sug'oriladigan suvdan oqilona foydalanish hozirgi vaqtda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish muammosi Gofman K.G.[2], Dmitriyev V.S.[3], Zuzik D.T.[4], Karev B.B.[5], Kovalenko B.G.[6], Nesterov P.M.[7], Xachaturov T.S.[8], Raskin G.F.[9], Sultanov A.S.[10], Umirzaqov O'.P.[10], Shlik V.I.[11], Ulanov A.P.[12] kabi ko'plab xorijiy va mamlakatimiz yetakchi iqtisodchi olimlarining asarlarida tadqiq qilingan.

Ma'lumki, yer va suv resurslaridan

foydalanishda har qanday korxonada faoliyatida bo'lgani kabi asosiy ko'rsatkich bo'lib iqtisodiy samaradorlik hisoblanadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchi olimlar asarlarida qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda turlicha yondashuvlar keltirgan.

Endilikda esa yuksak texnik va texnologik taraqqiyot davrida korxonalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblashda faqat mahsulot narxi bilan ishlab chiqarish xarajatlari va kapital mablag'larni inobatga olishning o'zigina yetarli emas. Hozirgi vaqtda har qanday taraqqiyotning atrof-muhitga bo'lgan ekologik ta'sirini hisobga olmasliklikning iloji yo'q. Xuddi shunday holatni qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanishda ham kuzatish mumkin. Boisi, mavjud yer-suv resurslaridan tejab-tergab foydalanmaslik oqibatida ayrim yerlarga rejadan ortiq suv berilmoqda. Boshqa ekin maydonlarida esa suv tanqisligi ro'y bermoqda. Har ikkala holda ham ekinlar hosildorligi pasaymoqda.

Shuningdek, ortiqcha suv berish hisobiga yerlar meliorativ holatining buzilishi, tuproq eroziyaga uchrashi, yerlar sho'rlanishi natijasida ekin ekishga yaroqsiz maydonlar yuzaga kelmoqda. Shuning uchun yer va suv resurslaridan foydalanishning yakuniy ko'rsatkichi sifatida yerdan foydalanishning ekologik-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidan foydalanish lozim. Uni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$E = SD - Z_{ro} - Z_{rk} - Z_{emx}$, so'm. [14]
 bunda:
 E – qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishning ekologik-iqtisodiy samaradorligi, so'm;
 SD – rejadagi hosildorlik bo'yicha hisoblangan sof daromad, so'm;
 Z_{ro} – sug'orish suvidan rejadan ortiq foydalanish oqibatida (ekin maydonlari sho'rlanish darajasining oshib ketishi natijasida) hosildorlikning pasayishidan keltirilgan zarar, so'm;

Zr – yetarli darajada suv berilmagan ekin maydonlarida belgilangan hosilni olmaslikdan keladigan zarar, so'm; Zemx – eroziyaga uchragan va sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini qayta tiklash uchun talab qilinadigan xarajat, so'm; Shuningdek, suv manbalaridan olingan suvning anchagina qismi sug'orish tizimlarida yo'qotilmoqda. Umuman mamlakat bo'yicha xo'jaliklararo va xo'jaliklar ichidagi sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti 0.6-0.65 ni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, sug'orish manbalaridan olingan suvning 35-40% dan ko'prog'i ekin maydoniga yetguncha yo'qolib ketmoqda. Shuning uchun sug'orish tizimlari foydali ish koeffitsiyentining o'sishi suvni tejashning muhim imkoniyatlaridan biridir. Agar barcha agrotexnik va meliorativ talablarga amal qilib sug'orish ishlari amalga oshirilsa, bu koeffitsiyentni kamida 0.85-0.9 gacha ko'tarish mumkin[13].

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sug'orish tizimlarini zamonaviy gidrotexnik inshootlari va suv o'lchagich jihozlari bilan ta'minlash, kanallarga suv shimilishiga qarshi qoplamalar o'rnatish hamda boshqa sug'orishning ilg'or usullarini qo'llash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, respublikamiz sug'orish tizimi sobiq ittifoqdan yirik inshootlar, noyob nasos stansiyalari, to'g'onlar, kanallar va boshqa inshootlarni o'z ichiga olgan katta suv infratuzilmasini, shuningdek, ushbu infratuzilmaning eskirishi, undan foydalanishning yomonlashishi, suv uzatish va taqsimlash tizimining tartibsizligi bilan bog'liq qator hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarni ham meros qilib oldi. Yaxshi va yomon, zamonaviy va eski, takomillashgan va eskirgan tizimlar shu tarzda bir-biriga zid ravishda uyg'unlashgan edi. Bu esa mamlakatimiz mustaqillikka erishganda, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi

ahvol qanday darajada ekanining ifodasidir.

O'tgan asrning 80- yillari o'rtalarida xo'jaliklar ichidagi unchalik katta bo'lmagan maydonlardan tashqari yangi yerlarni o'zlashtirish to'xtatildi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydoni hajmi taxminan 25 foizga, ya'ni 0,23 gektardan 0,16 gektarga kamaytirildi. Yerlarning eroziyaga uchrashi va suv tanqisligi natijasida haydaladigan gektar unumdorligi 23 foizga kamaygan bo'lsa, moddiy mehnat xarajatlari 23 foizga ko'paydi. Bu ahvolni islohotlarning birinchi bosqichida tuzatish oson ish emasdi. Ayni vaqtga kelib, mamlakat sug'orish tizimlarining asosiy fondi eskirishi 30-50 foizni tashkil etadi, sersuvlik o'rtacha bo'lgan yilda bir gektar yerni sug'orish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar darajasi 30-31 foiz atrofida bo'lib qolmoqda. Bular esa sug'orish tizimlaridan foydalanishda katta muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Xulosa. Mazkur maqola doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi: Tahlillardan mamlakat qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz:

- tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullaridan keng foydalanish;
- xo'jalik ichidagi sug'orish tarmoqlarida suv berish limitini ilmiy asoslangan holda qaytadan ko'rib chiqish;
- kam suv talab qiladigan takroriy ekinlar ekish;

- yer va suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda sug'orishning tuproq eroziyasi va yerlarning meliorativ holatiga ta'sirini hisobga olish;
- suv muammolari mavzusida aholi saviyasini oshirish, ularning nafaqat sug'orish, balki, uy ro'zg'or sharoitlarida ham suvni qanday tejash mumkinligini o'rganishlarini rag'batlantirish;
- aholining uy xo'jaligi va qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish talabini qondirish uchun suvni barqaror boshqarish tizimi rejalarini tuzish.

Yuqorida ko'rsatilgan takliflar qishloq xo'jalik

korxonalarida yer-suv resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi. Natijada iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligida mamlakatning eksport salohiyati oshadi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. "Xalq so'zi", 08.02.2017-y. №28.
2. Гофман К.Г. Методологические основы экономической оценки природных ресурсов. Вкн.: Экономические проблемы оптимизации и природопользования, -М.:Наука, 1993 г. 22-34 стр.
3. Дмитриев В.С. Методика определения экономической эффективности мелиорации земель. Экономика сельского хозяйства, М.:Наука,1996 г. 121-122 стр.
4. Зюзик Д.Т. Экономика водного хозяйства, М.:Колос, 1993 г. 399 стр.
5. Карев Б.Б., Шлык В.И. Экономика использования водных ресурсов в орошаемом земледелии, М.:Колос, 1979 г. 159 стр.
6. Коваленко Б.Г. Урожайность сельскохозяйственных культур в зависимости от обеспеченности орошения. В кн.:Методы системного анализа в мелиорации и водном хозяйстве, М.: Гидрометеиздат, 1993 г. 226-236 стр.
7. Нестеров П.М. Экономика природопользования. - М.:Высшая школа,1994 г. 250 стр.
8. Хачатуров Т.С. Об экономической оценке природных ресурсов. "Вопросы экономики", 1968 г. №3. 94-103-стр.
9. Раскин Г.Ф. Экономика орошаемого земледелия. М.:Колос,1995 г. 312-стр.
10. Sultanov A.S.,Umirzoqov O'P., Rashidov J.X. Suv xo'jaligi iqtisodi va menejmenti. T.: Mehnat, 2016-y. 340 b.
11. Шлык В.И. Экономическая эффективность использования оросительной воды в хлопкосеющих районах Средней

Азии. М.:Экономика,1975 г. 182 стр.

12. Уланов А.П. Экономика и организация водного хозяйства. Т.:Мехнат, 1972 г. 250 стр.
13. Мирзаев А.К. Повышение экономической эффективности водопользования в зоне хлопководства. Автореферат дисс. на соискание уч. степ. к.э.н., М.:ВНИИиГиМ,1989 г. 21 стр.
14. Mirzayev A.K., Yarmatov SH.CH. Yer va suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirishning iqtisodiy jihatlari. Biznes-Ekspert. 2019-yil 12 -son. 15-18- b.



09.00.00


FALSIFA FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Fayzixodjaeva Dilbar Irgashevna, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
O‘zMU Falsafa va mantiq kafedrası



AXLOQIY QADRIYATLARNING DALILLANISHI VA NARRATIVLAR

Annotatsiya: Axloqning narrativ tabiatiga ko‘ra, hatti-harakat axloqiy baholanishi uchun ma‘lum bir hikoyaning elementi bo‘lishi kerak. Har bir xalqning og‘zaki ijodi, badiiy adabiyoti, tele va radio eshittirishlarda voqelikning hikoya qilinishi, katta yoshdagilarning hayotiy tajribalari, diniy rivoyatlar axloqiy narrativlar bo‘lib xizmat qiladi. Axloqning hukmron madaniyatdagi narrativlarga (rivoyatlarga) bog‘liqligi axloq bilan mantiqning yaqin aloqadorlikda ekanligidan dalolat beradi. Narrativ orqali inson o‘zi tanlagan pozitsiyasini verifikatsiya va falsifikatsiya qilishi mumkin. Maqolada, jamiyatimizdagi an‘anaviy axloqiy qadriyatlarni dalillashda, narrativlarning ta‘siri bilan bog‘liq ba‘zi jihatlar tadqiq qilinadi. Kalit so‘zlar: axborotlar kelishuvi, axloqiy narrativ, axloqiy dilemma, axloqiy qadriyatlar, mantiqiy dalillash, axloqiy dilemma.

АРГУМЕНТАЦИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ И НАРРАТИВЫ

Аннотация: Согласно повествовательной природе морали, действие должно быть элементом определенной истории, чтобы его можно было оценить с моральной точки зрения. Устное творчество каждого народа, художественная литература, повествование о реальности в теле- и радиопередачах, жизненный опыт взрослых, религиозные повествования служат моральными нарративами. Зависимость морали от нарративов в доминирующей культуре является признаком того, что мораль

тесно связана с логикой. С помощью нарративов человек может подтвердить или сфальсифицировать выбранную им позицию. В статье исследуются некоторые аспекты, связанные с влиянием нарративов в аргументации традиционных моральных ценностей в нашем обществе.

Ключевые слова: информационное соглашение, моральный нарратив, моральная дилемма, моральные ценности, логический аргумент, моральная дилемма.

ARGUMENTATION OF MORAL VALUES AND NARRATIVES

Abstract: According to the narrative nature of morality, an action must be an element of a certain story so that it can be evaluated from a moral point of view.

The oral creativity of each nation, fiction, the narration of reality in television and radio broadcasts, the life experience of adults, religious narratives serve as moral narratives. The dependence of morality on narratives in the dominant culture is a sign that morality is closely related to logic. With the help of narratives, a person can confirm or falsify his chosen position. The article examines some aspects related to the influence of narratives in the argumentation of traditional moral values in our society. **Keywords:** information agreement, moral narrative, moral dilemma, moral values, logical argument, moral dilemma.

Kirish

Ijtimoiy hayotning dunyoviy tamoyillarining rivojlanishi va axloqshunoslikda ilmiy

bilimlarning o'sishi tufayli hayotning ma'nosini topish muammosi yangicha tarzda paydo bo'ladi. Bu sof nazariy va falsafiy muammo bo'lsa ham, lekin u zamonaviy axloq holatiga ham ta'sir qiladi. Globallashuv tendensiyalarining kuchayishi bilan axloqning o'zgarish muammolari chambarchas bog'liq. Avvallari "Odam o'z vatanini himoya qilishi kerakmi?", "Ota-onasi qariganda ularga g'amho'rlik qilishi zarurmi?"-degan savollarni berish bema'nilik deb, hisoblangan. Har bir risoladagi axloqli inson uchun Vatanga sadoqat, ota-onaga g'amho'rlik asosiy fazilatlaridan biri bo'lgan. Zamonaviy dunyoda ma'lum bir mamlakatda, ma'lum bir mintaqada tug'ilishga tasodifiy hodisadek qaralmoqda. Natijada yashash uchun boshqa davlatlarga ko'chish, aholi migratsiyasi yildan yilga ko'paymoqda. O'z yurtini tashlab ketish, ota-onasini "qariyalar uyi"ga topshirish shaxs qadriyatlar pog'onasidagi o'zgarishlar natijasida sodir bo'lmoqda. Qadriyatlar pog'onasida "men" birinchi o'ringa chiqmoqda va bu holat ko'pchilik tomonidan ma'qullanmoqda, milliy qadriyatlarining transformatsiyasi kuzatilmoqda. Bu ko'p vektorli hodisa bo'lib, biz uning faqat bir jihatini, axloqiy qadriyatlarni argumentlashda narrativlarning o'rnini imkon darajada tadqiq qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi Axloqqa oid masalalarning argumentlanishi turli tadqiqotlarda muayyan darajada o'rganilgan. Narrativlarning bir ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodining, xususan maqollarning aksiolingvistik jihatlari filologlar tomonidan o'rganilgan. [7; 11.] Maqollarning argumentlash jarayonida ishonch e'tiqodni

shakllantirishda qo'llanishi ham ma'lum darajada tadqiq qilingan [Averina., Kulkova M.A.]. Bu tadqiqotlarda tadqiqot obyektini maqollar tashkil etadi. Ularda maqollar axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq xolda o'rganilmagan va axloqiy qadriyatlarni argumentlashda qo'llanishi alohida tadqiq qilinmagan. Axloqiy argumentlash (eticheskaya argumentatsiya) Ye.N. Viktoruk, D.Uolton kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ye.N.Viktoruk ta'rifiga ko'ra, axloqiy argumentlash ma'naviy va amaliy, ochiq va yashirin, verbal va noverbal usullar orqali ma'lum bir xulq-atvor stereotiplari va qadriyatlarining chinligiga ishonitirish bo'lib, bu orqali 1)insonning aniq hatti-harakatlari; 2)insonning - axloq sub'ektining o'z xulqi, qilgan ishlari haqidagi tasavvurlari; 3) boshqa odamlarning xulqi, qilgan ishlari haqidagi baholari aniqlanadi. Bu ta'rifda argumentlash usullari (ma'naviy va amaliy, ochiq va yashirin, verbal va

noverbal) va argumentlashning maqsadi ko'rsatilgan. Lekin, axloqiy argumentlashning axloqiy qadriyatlar bilan aloqadorligi maxsus o'rganilmagan. D. Uoltonning asarida axloqiy argumentlash shaxsning axloqiy tajribasi (qadriyatlar) bilan bog'liq holda amaliy jihatdan tadqiq qilingan. Biz shu kabi boshqa tadqiqotlarni tahlil qilish asosida axloqiy argumentlash tushunchasini qo'llashdan voz kechdik. Bu termin o'rniga axloqiy qadriyatlar va ularning argumentlanishi, degan tushunchani qo'llashni ma'qul ko'rdik. Chunki axloq sohasidagi argumentlashning turlari va usullari din, siyosat, huquq va b. sohalaridagilar bilan bir xil. Ular o'rtasidagi farq qadriyatlar tizimi va baholash mezonlaridadir. Axloqiy qadriyatlarni argumentlanishda narrativlarning o'rnini masalasini tadqiq qilish uchun axloqiy qadriyatlar tushunchasining ta'rifini aniqlashtirib olishimiz zarur. Biz bu masalada respublikamizning taniqli axloqshunos olimi A. Sherning "Axloqshunoslik" bo'yicha yozgan darsliklariga asoslanamiz [3,]. Aytish joizki, bu manbada ham axloqiy qadriyatlar tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shuningdek, "Falsafa qomusiy lug'atida", "Ma'naviyat: tushunchalarning izohli lug'atida" va "Qadriyatlar falsafasida" ham axloqiy qadriyatlar tushunchasiga ta'rif berilmagan. P.Ye.Matveevning "Axloqiy qadriyatlar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining avtoreferatida "Axloqiy qadriyatlar ob'ekt va sub'ektlarning yagonaligi, birligi va olamdagi o'rnini ezgulik va yovuzlik nuqtai nazaridan

xarakterlovchi maxsus xususiyatidir", deb ta'rif berilgan [9, C.23]Muallif bunda qadriyat tushunchasiga bergan ta'rifiga asoslanadi. Uning ta'rifiga ko'ra, "qadriyat bu obyektlar va subyektlar bilan bog'liq bo'lgan va ularni yagonaligi, birligi va umumiy aloqadorlikdagi o'rnini tavsiflovchi maxsus sifat" [9, C.23.]. Fikrimizcha, P.Ye.Matveevning bergan ta'riflarida mazkur tushunchalarning mazmuni to'liq ochib berilmagan. Qadriyatlar baholash bilan bog'liq. Ta'rifda shu jihat e'tiborga olinmagan. Shuningdek, narrativlarning argumentlash jarayonidagi o'rnini ham yetarli o'rganilmagan. Tahlil va natijalar Biz mavzuimizni tadqiq qilish uchun avvalo "axloqiy qadriyatlar" va "axloqiy qadriyatlarining argumentlanishi" tushunchalarining mazmunini aniqlab oldik. Qadriyat va axloq tushunchalarining ma'no va mazmunidan kelib chiqqan holda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berdik: axloqiy qadriyatlar - shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyatning atrof voqelikdagi ob'ektlarga nisbatan inson manfaatlarini va ehtiyojlariga mos munosabatlarning qamrab olinishini axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarda aks ettirib, ijobiy va salbiy qiymatini belgilaydigan baholash mezonini ifodalovchi tushunchadir. Ta'rifda axloqiy qadriyatlarining ijtimoiy xarakterga ega ekanligi, uning ob'ekti, ob'ektiga bo'lgan munosabati va bu munosabatning axloq kategoriyalarida ifodalanishi va baholash bilan bog'liqligi aks etgan. Biz axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq faqat bir masalani, ularning qanday argumentlanishini tadqiq qilganimiz bo'is, axloqiy qadriyatlarini argumentlash tushunchasini quyidagicha ta'rifladik: axloqiy qadriyatlarini argumentlash

umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, shaxsiy axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarning baholanishiga nisbatan auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish orqali ularni shu baholarning haqqoniyligiga ishonitirish, qabul qilishlariga va amaliy faoliyatda qo'llashlariga erishishdir. Bu ta'rifda inson manfaatlarini va ehtiyojlarini doirasiga qamrab olinadigan ob'ektlar qatoriga insonning o'zi ham kirishi ko'rsatilgan. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarining sub'ekti shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat ekanligi, axloqiy qadriyatlarining tarkibini axloqiy norma, axloqiy ideal, axloqiy talab, axloqiy maqsad tashkil etishi qayd etilgan. Axloqiy qadriyatlarining baholash bilan bog'liqligi, baholar ijobiy va salbiy bo'lishi ham ushbu ta'rifda aks etgan. Inson faoliyat turlari, o'ziga xos kasbiy va predmetli belgilangan munosabatlari imperativ-qadriyatli mazmunga ega. Insonning axloqi, faoliyatining ijtimoiy-madaniy sharoitlari va ular orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy institutlar axloqiy rejimning samaradorligini ta'minlaydi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi biron bir masala yuzasidan axborotlar kelishuvining mavjudligi axloq bilan bog'liq umumiy tasavvurlarni shakllantiradi. Masalan, boshqalarni hurmat qilish haqidagi axborotlar kelishuvi (har bir tanqidiy fikrga nisbatan boshqalarning nuqtai nazarini e'tiborga olish talabi) konsepti boshqaning insoniy qadr - qiymatini e'tirof etilishini bildiradi. Axborotlar kelishuvi konseptining ilmiy muomalaga kiritilishi insonlar o'rtasidagi axloqiy aloqalarni tushunishga yangicha yondashuvni shakllantirdi. Axloqiy munosabatlarni o'rganishda urg'u kommunikatorlardan kommunkantga (qabul qiluvchiga) o'tdi va axloqqa oid mulohazalarning asosiy mavzusini shaxslararo munosabatlar tashkil etadigan bo'ldi. Axloqning hukmron madaniyatdagi narrativlarga (rivoyatlarga) bog'liqligi axloq bilan mantiqning yaqin aloqadorlikda ekanligidan dalolat beradi. Narrativ orqali inson o'zi tanlagan pozitsiyasini verifikatsiya va falsifikatsiya qilishi mumkin. Axloqning narrativ tabiatiga ko'ra hatti-harakat axloqiy baholanishi uchun biron bir hikoyaning elementi bo'lishi kerak. "Hatti-harakatlarim axloqqa muvofiqmi?", degan savolga javob olish uchun "mening holatim qaysi hikoyaga to'g'ri keladi?", degan savolga javob berish kerak. Har bir xalqning og'zaki ijodi, badiiy adabiyoti, tele va radio eshittirishlarda voqelikning hikoya qilinishi, katta yoshdagilarning

hayotiy tajribalari, diniy rivoyatlar axloqiy narrativlar bo'lib xizmat qiladi. Shunday narrativlardan biri Zumrad va Qimmat haqidagi o'zbek halq ertagidir. Bu ertak jahon halqlarining og'zaki ijodida turlicha aytilsa ham, ularning mazmuni bir xil. Ertakning mazmuniga ko'ra, o'gay ona va uning qizi (qizlari) yovuzlik timsoli, yetim qiz (Zumrad, Zolushka) esa ezgulik timsolidir. Bu ertakni eshitib (filmni ko'rib) katta bo'lganlar hayotda o'gay ona va yetim qiz munosabati haqida ertakdagi andoza bo'yicha fikrlaydilar. Mantiqning Ayniyat qonuniga muvofiq har bir konkret voqea, hodisaga ma'lum vaqt va munosabat doirasida fikr, mulohaza bildirilsa, bu fikr o'z-o'ziga teng (to'g'ri) bo'ladi. Demak, turmushdagi shu kabi holatlarga duch kelganda, ertakdagi andoza bo'yicha fikrlash nafaqat mantiqiy xatolarga, balki axloqiy munosabatlarning noto'g'ri baholanishiga ham sabab bo'ladi. Chunki, o'gay ona va yetim qiz o'rtasidagi munosabatlar ezgulik asosida qurilishi, yoki har bir oilada bo'lgani kabi yaxshi va yomon munosabatlarning almashinib turishi mumkin. Bu ertakdagi axloqiy baholash bilan

bog'liq yana bir jihat axloqiy muammolarning uchinchi shaxs tomonidan hal qilib berilishidir (kampirning Zumradga sandiqda boylik berishi, Zolushkaning shahzodaga turmushga chiqishi). Muammoning bu kabi yechimlari boshqa ertaklarda ham uchraydi. "Ur to'qmoq" ertagida kambag'al kishi turnaga yaxshilik qilgani uchun, turna unga "ochil dasturxon," "qaynar xumcha" va "ur to'qmoq" ni beradi. Kambag'al kishining iqtisodiy muammosi uning yaxshiligi evaziga yechim topadi. Bu kabi ertaklarda axloqiy va iqtisodiy muammolar birlashib ketadi, "yaxshilik qilgan insonlar yaxshi insonlardir va ular yaxshi yashaydilar", degan fikr uqdiriladi. Xuddi shunday tushunilgan rivoyat har bir davr va madaniyatning axloqiy ongi asosida yotadi. Shu o'rinda bugungi kunda, jamiyatimizda qanday narrativ hukmron ekanligi haqida savol paydo bo'ladi. Aytish mumkinki, kompyuter o'yinlari, teleseriallar, jangari filmlar va fantastik multfilmlardagi voqealar bugungi kunning narratividir. Jamiyatimiz a'zolarining juda katta qismi shu reallikda yashaydilar, ularning ongini shu reallik shakllantirmoqda, virtual olam jamiyatimizning axloqiy ideallari, normalariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy jamiyat imperativlari asta

sekin o'z o'rnini zamonaviy jamiyat imperativlariga bo'shatib bermoqda.

Darhaqiqat, insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining hozirgi davrdagi o'zgarishi uning qadriyatlar dunyosini ham o'zgartirib yubordi. Inson "men"ning birinchi o'ringa qo'yilishi, "bu mening hayotim, unga hech kimning aralashishga haqqi yo'q" degan g'oyaning jamiyatda keng tarqalishi natijasida an'anaviy axloqiy imperativlarning "zamonaviy" axloqiy imperativlarga transformatsiyasi amalga oshmoqda. Maishiy hayotni hikoya qiluvchi turfa seriallar, ijtimoiy tarmoqlardagi videoroliklarda an'anaviy axloqqa xos bo'lgan kamtarlik o'rniga o'zini reklama qilish, halollik o'rniga uddaburonlik, xushmuomalalik o'rniga gapga chechanlik, beg'araz yaxshilik o'rniga manfaatdorlik ustun qo'yilmoqda. Ijtimoiy sohada takomillashish, yuqori darajalarga ko'tarilish uchun an'anaviy axloqiy imperativlarga deyarli amal qilinmayapti. Hozirgi kunda jamiyat ilgari hech qachon tan olmagan insonning xudbin xulq-atvor huquqi zamonaviylik sifatida e'tirof qilinmoqda va buni tasdiqlovchi turli virtual narrativlar taqdim qilinmoqda. Bu o'z navbatida zamonaviy shaxs oldiga ko'plab axloqiy dilemmalarni qo'ymoqda. Axloqiy dilemma bu odam har qanday holatda axloqiy va/yoki boshqa ko'rsatmalarni buzadigan tanlov qilishi kerak bo'lgan vaziyatdir. Oddiy qilib aytganda, bu insonning qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlar ziddiyatga kirishadigan tanlovdur. Axloqiy dilemma mavzusi rohib-huquqshunos Gratsianning "Dekret" asarida birinchi marta bayon qilingan [6, C. 172.]. U qiyin tanlov qilish kerak bo'lgan vaziyatlarga tushib qolgan odam yomonligi kamroq bo'lgan yo'lni

tanlashi kerak, deb hisoblagan. Undan so'ng axloqiy dilemmalar ko'plab faylasuf axloqshunoslar tomonidan tadqiq qilindi. Bugungi kunda ham inson kasbiy majburiyatlari yoki hayotidagi holatlar tufayli axloqiy dilemmalarga duch keladi. Axloqiy dilemmalarning yechimini topishda narrativlarga asoslanish insonga qarorining to'g'ri ekanligiga ishonch xosil qilishiga va ma'lum darajada shubhalarini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Axloqiy dilemmalar boshqa tanlov bilan bog'liq holatlardan shunisi bilan farq qiladiki, u qanday qaror qabul qilishidan qat'iy nazar, qarorda axloq normalariga bilan shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat saqlanib qoladi. Axloqiy dilemmaning "shox"laridan chiqib ketish imkon qadar kam zarar keltiruvchi qaror qabul qilishni yoki dilemmaning boshqa yechimini topishni talab qiladi. Axloqiy dilemmalar hamma vaqt ham o'z yechimini topmaydi. Inson ma'suliyatni bo'yniga olib, qaror qabul qilishga majbur bo'lgan qiyin vaziyatga (axloqiy dilemmaga) duch kelganda, ba'zan unda o'ziga xos "psixologik himoya" ishga tushadi. Muammoni yechishni xohlamasa, muammoni sezmaslikka, uni hal qilishni kechiktirishga, vaziyatni muhokama qilishdan voz kechishga harakat qiladi. Bu bilan muammo yo'q bo'lmaydi, uning yechimi kechikadi, xolos. Agar inson haqiqatan ham muammoni imkon qadar tezroq hal qilmoqchi bo'lsa, psixologik himoyani "o'chirib qo'yishi" kerak bo'ladi. Axloqiy dilemmani hal qilishda quyidagi algoritm bo'yicha fikrlash talab qilinadi:

- muammoli axloqiy dilemmani aniqlash;
- dilemmaning sabablarini topish;
- muammoning boshqa yechimlarini qidirish;
- muammo yechimlaridan har birining foydasiga argumentlarni tanlash;
- tanlangan yechimning ijobiy va salbiy tomonlarini solishtirish;
- qaror qabul qilingan taqdirda nimadan voz kechish kerakligini aniqlash;
- tanlangan yechimni axloq qonunlari talablariga mos bo'lishi nuqtai nazaridan baholash;

Axloqiy dilemmalarni o'rganish jarayonida, ularni keltirib chiquvchi asoslar bo'yicha, quyidagicha tasniflashga qaror qildik: Majburiyat dilemmasi: axloqning burch kategoriyasi bilan bog'liq bo'lib, raqobatdosh majburiyatlardan birini

tanlash bilan bog'liq vaziyatlarda vujudga keladi. Majburiyat dilemmasi ko'pincha oilaviy mojarolar bilan bog'liq. Bu kabi dilemmalarning yechimiga ba'zi farzandlarning o'z ota-onalarini qariyalar uyiga topshirishi misol bo'ladi. Ta'qiqlash dilemmasi: axloqning "mumkin" va "mumkin emas" normativ talabi bilan bog'liq. Bu dilemma insonga qandaydir harakatlarni bajarish ta'qiqlangan vaziyatlarda vujudga keladi, ammo u ta'qiqga rioya qilmaydi. Masalan, "o'g'irlik qilish, qasddan yolg'on gapirish mumkin emas" kabi ta'qiqlar shular jumlasidandir. Inson ta'qiqqa rioya qilmaganda o'z harakatini o'zi uchun va boshqalar uchun oqlash maqsadida dalillar topadi: "Bir marta ta'qiqni buzsam hech narsa qilmaydi" yoki "Boshqalar ham shunday qilayaptiku." Sukut saqlash dilemmasi: inson biron bir masala bo'yicha qimmatli ma'lumotlarga yoki o'z shaxsiy fikriga ega bo'ladi, lekin bu haqda gapirmasdan (ko'proq o'z havfsizligi uchun) jim turishni ma'qul ko'radi. Bunda ham narrativlarga asoslanadi. E'tiqod dilemmasi inson o'z e'tiqodi va tashqi kuchlar o'rtasidagi tanlov natijasida shakllanadi. Bunda diniy narrativlar asos, argument vazifasini bajaradi. Maqsad va vosita o'rtasidagi dilemma maqsadga erishish vositalari axloqiylikka zid bo'lgan holatlarda yuzaga chiqadi. Masalan, qonunda belgilanganidek, tanlovda ishtirok etish va g'olib bo'lish yoki pora berib g'olib bo'lish. Masalaning yechimi shaxs qaysi narrativga amal qilishiga bog'liq bo'ladi. Afzalliklar dilemmasi: inson o'zi uchun qadrlil bo'lgan holatlardan birini tanlash bilan bog'liq bo'lgan holatda

vujudga keladi va ko'proq vaqt faktori bilan bog'liq bo'ladi. Tanlanadigan holatlarning qaysi biri afzalroq bo'lsa, shunisi birinchi o'ringa o'tadi [1, P. 264]. Masalan, avval kar'era, keyin oila.

Yuqoridagi dilemmalarda "eng kam zarar keltirishi" hisobga olinib, qaror qabul qilinadi, ya'ni tanlov sub'ektning qadriyatlar tizimi ierarxiyasiga (yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalari va manfaatiga) asoslaniladi. Bu axloqiy tanlovdur. Bunday tanlovlar narrativlarga, ya'ni qaror qabul qiluvchining bu kabi tanlovlar bilan bog'liq qanday hikoyalarni (real yoki to'qima) dan xabardor ekanligiga ham bog'liq.

Xulosa

Axloqiy qadriyatlarning argumentlanishida narrativlarning o'zni masalasini imkon qadar tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

1. Axloqiy qadriyatlarni narrativlar vositasida argumentlovchi diskursning strukturasi:
 - Bayon qiluvchi va baholovchi;
 - Tushintiruvchi va baholovchi;
 - O'rgatuvchi va baholovchi mulohazalardan iborat bo'ladi.
2. Axloqiy qadriyatlarning argumentlanishida narrativlarning tanlanishi va baholanishi sub'ektning shaxsiy tajribasi, manfaatlari, bilimi va ruhiy holatiga bog'liq.
3. Narrativlarning tanlovi ko'proq aqlga emas, hissiyotlarga asoslanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Tanlov qanday amalga oshirilishidan qat'iy nazar, sub'ekt o'z qarorining to'g'ri ekanligiga ishonadi.
4. Axloqiy dilemmalarning yechimi ko'pincha subyekt qanday narrativlar ta'sirida ekanligiga bog'liq bo'ladi.

5. Axloqiy qadriyatlarni narrativlar vositasida argumentlashdan maqsad baholarning chinligiga, maqbulligiga adresatni ishontirishdir. Muloqot jarayonida qabul qilinayotgan axborotning chinligi va ishonchliligi doimo yangi narrativlarning yaratilishi bilan to'g'rilanib, to'ldirilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Armsrtrong W.S. Moral Realism and Moral Dilemmas // Journal of Philosophy, 84 (5), (1987), P. 264.
2. Walton D. Ethical argumentation. 2003.
3. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Дарслик. Т. 2007.
4. Аверина С.Н. Пословично-поговорочные парамии как аргументативные средства языка. Автореферат диссертации кандидата филологических наук. 2005.
5. Викторук Е.Н. Неклассические модели этической аргументации. Монография. - СПб.: Изд-во РГПУ, 2003.
6. Грациан И. Согласование несогласованных канонов (Декрет) Антология мировой правовой мысли, Т.2. Москва: Мысль, 1999. С.172.
7. Комилова Г. Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати Тошкент – 2022
8. Кулькова М.А. Коммуникативные стратегии убежденияиспособыеереализациииваргументационных текстах паремий // Филология в полиэтнической и межконфессиональной среде: состояние и перспективы. Сборник научных статей. – Казань: РИУ, 2009. С.129-138.
9. Матвеев П.Е. Моральные ценности. Автореферат на соиск. уч. степени доктора филос.наук.М., 2007. С.23.
10. Разин А.В. Моральные дилеммы // Вестник РУДН, серия Философия, 2014, № 2. С.78.
11. Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2020.



"TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Turabova Sevara Kattaqulovna, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: turabova.sevara@mail.ru

QADIMGI SHARQ XALQLARI TAFAKKURI TARAQQIYOTIDA BAHS FENOMENINING TUTGAN O'RNINI

Annotatsiya: Bahs-munozara rivojlanayotgan intellektual fenomen sifatida o'zining vujudga kelish, shakllanish va o'zgarish bosqichlarini bosib kelmoqda. Shunga muvofiq u tadrijiy va inqilobiy yangilanish jarayonlarini o'z boshidan kechirdi. Tabiiyki, bahs mohiyatini tadqiq etish uning diaxronikasini, ya'ni tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyotini tahlil etishni taqozo etadi. Chunki, bahs yuritish madaniyatining ko'p qirrali muammolarini diaxroniya yondashuvlari asosida tadqiq qilish muhim evristik natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: bahs-munozara, eristika, isbot, haqiqat, bahs san'ati, muloqot, mantiq, dialektika, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, falsafiy g'oya.

РОЛЬ СПОРА В РАЗВИТИИ МЫШЛЕНИЯ НАРОДОВ ДРЕВНЕГО ВОСТОКА

Аннотация: Как развивающееся интеллектуальное явление, феномен дискуссия проходит стадии возникновения, формирования и изменения. Соответственно, дискуссия прошла эволюционные и революционные процессы обновления. Естественно, исследование сути дискуссии

требует анализа её диахронии, то есть её исторического развития как источника исследования. Потому, что исследование многогранных проблем культуры спора на основе диахронических подходов дает возможность получить важные эвристические результаты.

Ключевые слова: спор, эристика, доказательство, истина, искусство спора, диалог, логика, диалектика, социально-исторические условия, философская идея.

THE ROLE OF DISPUTE IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF THE PEOPLES OF THE ANCIENT EAST

Abstract: As a developing intellectual phenomenon, the phenomenon of discussion goes through the stages of emergence, formation and change. Accordingly, the discussion has gone through evolutionary and revolutionary processes of renewal. Naturally, studying the essence of the discussion requires an analysis of its diachrony, that is, its historical development as a source of research. Because the study of multifaceted problems of maintaining a culture of dispute based on diachronic approaches makes it possible to obtain important heuristic results.

Keywords: discussion, eristics, evidence, truth, art, debate, dialogue, logic, dialectics, socio-historical conditions, philosophical idea.

Kirish

Bahs mohiyatini tadqiq etish uning diaxronikasini, ya'ni tarixiy-epistemik tahlilini amalga oshirishni taqozo etadi. Chunki bahs epistemologiyasining ko'p qirrali muammolarini diaxroniya yondashuvlari asosida tadqiq qilish muhim evristik natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatini beradi. Bahs rivojlanayotgan intellektual fenomen sifatida o'zining vujudga kelish, shakllanish va o'zgarish bosqichlarini bosib kelmoqda. Shunga muvofiq u tadrijiy va inqilobiy yangilanish jarayonlarini o'z boshidan kechirdi. Ma'lumki, bahs – bu tafakkur jangidir. Shuning uchun qadimdanoq har qanday hodisa zaminida qarama-qarshi asoslarning mavjudligi nazarda tutilgan holatda bilish tabiati ham qarama-qarshilik va dialoglikdan iboratdir, deb hisoblangan. Bahs yuritish san'ati Qadimgi dunyoda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit taqozosi ostida shakllangan bo'lib, u keyinchalik "eristika" nomi bilan ataladigan maxsus ta'limot uchun asos bo'lib xizmat qildi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili "Eristika" (qad.yunon. yeridzo-bahslashaman, eristike techne – bahslashish san'ati) tushunchasi "bahs yuritish san'ati" [14, C. 9.] degan ma'noni anglatib, bu san'at turi yunonlar tomonidan e'tirof etilgan bahs va tortishuvlarni keltirib chiqaruvchi Erida, Eris ma'budasi nomi bilan atalgan. "Qadimgi Gretsiya afsonalariga ko'ra Erida ziddiyat va janjallar ma'budasi bo'lib, u tun ma'budasi Nikitaning qizi, Xaosning nevarasi va ochlik ma'budasi Limesning onasi hisoblangan. Erida nafaqat bahs, nizo, kurash, raqobat ma'budasi balki ayni bir paytda mehnat ma'budasi

ham hisoblangan. Gesiodning «Teogoniya» (qad.gr.-Θεογονία) 10;11 poemasi aytilishicha Erida ikki xil sifatga ega ma'buda bo'lib, ulardan biri insonlarni mehnatga chorlab ularga foydasi tekkan bo'lsa ikkinchisi esa dushmanlik va nafratni qo'zg'atib urush janjallarni keltirib chiqargan. Erida shuningdek eng go'zal ma'budalar Afina, Gera va Afroditalar o'rtasidagi ziddiyatning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lib, oqibatda bu ziddiyat Troya urushini keltirib chiqargan" [Gomer. Iliada].

Avvaliga "eristika" bahs-munozara yo'li bilan haqiqatni topish vositasi sifatida paydo bo'ldi; ko'p o'tmay dialektika va sofistika bo'linib ketdi. Dialektikani Suqrot uz metodida rivojlantirdi. Sofistika esa munozarada muxolif ustidan faqat g'alaba qozonishga intilib, eristikani shunday usullar yig'indisidan iborat qilib qo'yidiki, bu usullar yordami bilan har qanday fikrni bab-baravariga isbot qilish

ham, rad qilish ham mumkin edi. Shu sababli, "Aristotelning o'zi ham eristika bilan sofistika farq qilolmay qolgan edi" [3, B. 464.]. Biroq bugungi kunga kelib eristika atamaning ma'nosi biroz o'zgargan bo'lib, masalan A.P. Skovorodnikovning tavsifiga ko'ra eristika deyilganda "muloqot jarayonining murakkab usullaridan biri bo'lgan bahs-munozaraning turli tavsiflarini (ahloqiy, ritorik, mantiqiy, pedagogik, semiotik, psixologik va hokazo) o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yo'nalishi" [12, C. 792.] tushuniladi. Eristikani "bahs orqali haqiqatni izlab topish usuli sifatida paydo bo'lishi notiqlik san'atining dialektika va sofistika bo'linishidan oldin sodir bo'lgan" [N.V.Blajevich, N.V., A.P. Selivanov.] degan qarashlar bir qancha olimlarda mavjud. Xususan, I. Tamrazovanning fikriga ko'ra "Eristika dastlab Dialektikaga notiqlik strategiyasi sifatida ad absurdum metodi ya'ni, "qarama-qarshilikning o'zini chuqurlashtirish orqali uni bartaraf etish usuli sifatida tegishli bo'lgan" [12, C.113.] degan fikri o'rindir. Dastlab, eristika shubhasiz, o'z ma'nosiga muvofiq konstruktiv bahs orqali haqiqatni izlab topish misolidagi evristik imkoniyatlarni aks ettirgan bo'lsa, keyinchalik dialektikadan uzoqlashib ketdi (F. Hegel va boshqalar). Shunday qilib, eristikaning tadqiqot obyekti bahs-munozara hisoblanadi. Bahs-munozara

haqida gap ketganda uning tarixiy ildizlari juda uzoqqa borib taqalishini ta'kidlab o'tish lozim. Bahs nazariyasi va amaliyoti juda qadimiy an'analarga va qiziqarli tarixga ega. Xatto qadimgi mutafakkirlar ham kishilik muloqotida bahs-munozaraning o'rnini va rolga alohida e'tibor qaratishgan. Ular bahs-munozaralarning turli xil usullarini o'rganish, ularni yuritishdagi asosiy qoidalarni belgilash, bunda uchraydigan xato va hiyla - nayranglarni aniqlashga harakat qilishgan. Hususan, haqiqatni bahs-munozaralar va ommaviy muhokamalar yordamida izlab topish Qadimgi Hindiston, Xitoy va Gretsiya sivilizatsiyalarini xarakterlaydigan xususiyatlardan biri va shu bilan birga o'sha davr hayotining ijtimoiy-siyosiy talab-ehhtiyojlaridan kelib chiqqan hodisa hisoblanadi. Bu xalq saylovlari va sudlardagi chiqishlar (Gretsiya), hokimiyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida ibodatxonalar va maktablar o'rtasidagi kurashlar (Hindiston, Xitoy) bilan ham asoslanadi. Bahs-munozaraga oid ayrim falsafiy g'oyalarni Qadimgi Misr va Qadimgi Bobilning adabiy yodgorliklarida ham topish mumkin. Masalan, o'sha davr Misr yozma manbalaridagi "oxiratning mavjudligiga shubha ko'rinishida ifodalangan diniy hurfikrlikning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yodgorligi bo'lgan "Arfist qo'shig'i", "Hayotidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat(bahsi)", "Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat"da [11, C. 44] "Yer yuzida abadiy hech narsa yo'q. Hamma o'tib ketadi, hatto yerdagi xudolar ham, o'z piramidalarida qo'nim topadigan fir'avnlarni ham. Biroq, odamzod tomonidan qurilgan hamma narsa qulab tushgani singari xatto piramidalar ham qulab tushadi. Faqat donishmandlarning so'zlarigina qoladi, lekin qabrlari yo'qoladi" kabi bitiklarda bahsga oid bo'lgan fragmentlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, ajdodlarimizning eng qadimiy ma'naviy yodgorliklaridan biri, "Hayot yo'riqnomasi" deb nom olgan "Avesto" kitobida ham "qarama-qarshiliklar, tartib va tartibsizliklar o'rtasidagi o'zaro kurash aks etgan g'oyalarni uchratish mumkin" [2, B.217]. Unda yorug'lik va zulmat, ezigulik va qabohat kuchlari

o'rtasidagi bahs va kurash masalalari yorqin ko'rsatib berilgan. Ammo bu falsafiy qarashlar Qadimgi dunyo ilmi va tafakkurining keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ham tarixiy sabablarga ko'ra, yaxlit falsafiy maktablar tashkil etish, ularda bahs yuritish muammolarini maxsus tekshirish obyekti sifatida alohida muhokama etish darajasiga ko'tarila olmagan. Ommaviy va falsafiy bahs-munozaralar Qadimgi Hindistonning ijtimoiy hayotida keng tarqalgan edi. Qadimgi Hindistonda bahs shartlari ba'zan bahslashayotgan tomonlar uchun juda shafqatsiz bo'lgan va ko'plab manfaatdor shaxslarni o'ziga jalb qilib kelgan. Mashhur sharqshunos olim, buddizm tadqiqotchisi V.P.Vasilyev Qadimgi Hindistondagi bahs-munozaralar haqida shunday fikrni bildiradi: "Qadimgi Hindistonda jamiyat va hokimiyatning yagona bir g'oya yoki dinga doimiy birikib, qotib qolish holatini unchalik ko'p kuzatilmaydi. Ular uchun ruhoniylari o'z g'oyasining ustuvorligini ko'rsata olgan va isbotlay olgan dinlargina ustunlikka ega bo'lgan va e'tirof etilgan" [5, C.67.]. Ya'ni, agar kimdir kelib hozirga qadar noma'lum bo'lgan g'oyalarni targ'ib etsa, u ta'qib ostiga olinmagan. Aksincha, targ'ibotchi barcha e'tirozlarga qanoatli javob bera olib, eski g'oyalarni rad eta olsa, uning g'oyasini tan olishga tayyor bo'lishgan. Bunday holatlarda maxsus raqobat maydonlari barpo etilib, hakamlar belgilab olingan va bahs doimiy ravishda shohlar, zodagonlar va omma guvohligida aniq belgilab qo'yilgan talablar bo'yicha o'tkazilgan. Keyinchalik bahslar faqat shaxslararo suhbatlar bilan chegaralanmaganligining ham guvohi bo'lamiz. Masalan, butun boshli maktab va ibodatxonalar uzoq

muddatli faoliyatiga qaramay, mabodo, qo'qqisdan bahsda mag'lubiyatga uchragudek bo'lib qolsa, oqibatda maktab yoki ibodatxona sifatida tugatilishi ham mumkin edi. Chunki maktab-ibodatxonalarining mavjud bo'lishi va gullab-yashnashi shu disputlarga bog'liq bo'lgan. Zero, Hindistonda notiqlik va mantiqiy isbotlash huquqi shu darajada rad etib bo'lmas holat ediki, hech kimning o'zini bahsga chaqirilishidan chetga tortishiga haqqi yo'q edi.

Hind dialektikasining asoschisi hisoblangan Akshapada Goautamaning "Nyaya-sutra" asarida bahsning bir qancha turlari va turli xil usullari bayon etilgan. "Akshapada Gautama (miloddan avvalgi 2-asrda tug'ilgan) — hind mutafakkiri, nyaya tizimining asoschisi, "Nyaya-sutra" risolasining muallifi hisoblanadi. Nyaya-sutra» 5 kitobdan iborat bo'lib, unda to'g'ri bilishning vosita va usullari, bahs munozara elementlari haqida so'z boradi. Akshapada Gautama o'z ta'limoti bilan Qadimgi Hind mantig'iga asos soldi, bahslashish amaliyotini umumlashtirdi va mutafakkirlar e'tiborini haqiqat, yolg'on asoslar, sofistika kabi mavzularga qaratdi. Bahs nazariyotchisi va ajoyib polemikachi Dxarmakirtining "Ilmiy dasturlar haqida

o'gitlar" asarida esa bahs yuritish madaniyatiga alohida e'tibor qaratiladi, diskussiya va disputlarda qanday qatnashish haqida tavsiyalar beriladi. Bunday manbalarning guvohlik berishicha, Qadimgi hind bahs san'atining muhim an'analari qatoriga raqib qarashlariga, u ilgari so'rgan tezisga hurmat bilan yondashish, raqib argumentlariga quloq solish, ularni tushunib yetmasdan, chuqur o'ylab ko'rmasdan turib inkor etish mumkin emasligi va shu kabi o'gitlar sirasiga kirgan. Tadqiqot metodologiyasi maqolada belgilangan maqsadga erishish jarayonida ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish, obektivlik, analiz va sintez, analogiya, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan bo'lib, qadimgi sharq xalqlari tafakkuri taraqqiyotida bahs fenomenining

tutgan o'rne masalalari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar

Qadimgi Hind bahsining e'tiborli jihati shunda ediki, bu yerda falsafiy matnlar diniy matnlardan farqlanib, ular sof mantiqiy tamoyillarga asoslangan holda tuzilar edi. Hindshunos olim V.G. Lisenkoning e'tirofi etishicha "qoidaga ko'ra, avval tezis ilgari surilib, keyin shunga muvofiq opponent o'z nuqtai nazarini (purvapaksha) ifodalaydi. Undan so'ng, inkor bayon etilib, bahs yakunida esa tezisni tasdiqlaydigan xulosa (sidxanta) beriladi" [8, C. 14].

A. Makovelskiyning qayd etishicha, Qadimgi Hind bahsining ijobiy an'analari sifatida: "raqibning g'oyalariga jiddiy va mushohadali munosabatda bo'lish, raqibni rad qilishdan avval uning nuqtai nazarining mohiyatini yaxshi va to'g'ri tushunib olishga harakat qilish" [9, C. 14] kabi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

A. Makovelskiyning ta'kidlashicha Qadimgi Hindistonda bahs-munozaraning natijasiga va unda ko'zda tutilgan maqsadga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois bahsda quyidagi uch maqsad ajratilib ko'rsatilgan:

1. Avvalo, mazkur bahs, munozara biror foyda keltirish mumkinmi yoki yo'qmi degan savolga javob izlanadi. Agar bahslashuvdan hech bir naf bo'lmasa, bunday bahslashuvdan voz kechiladi;
2. Bahs ishtirokchisining halol va holis ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Agar bahs ishtirokchisining halol va holisligiga ishonch bo'lmasa, bunday bahsdan yahshi bir natija chiqmaydi;
3. Bahslashuvchilarning bahs doirasidagi zarur bo'lgan bilim va qobiliyatga ega ekanliklari aniqlanadi. Agar bahs ishtirokchilarining birortasi bu xususiyatlarga ega bo'lmasa, u holatda ham bahs foydasiz hisoblangan.

Rossiyalik xindshunos olim S.YE. Kryuchkova [7, C.282] an'anaviy

disputlarda buddaviylik maktablari vakillari (ular jami 30 ga yaqin bo'lgan) juda xavfli raqib hisoblanishganligi, chunki ular Nyaya maktabining mantiqiy metodlaridan samarali foydalana olganligini alohida e'tirof etadi. Ma'lumki, "Nyaya maktabining o'zi, bahs-munozaralar o'tkazishning usul va uslublarini umumlashtirish jarayonida vujudga kelgan" [7, C.39] eng qadimgi falsafiy maktab xisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi Hind falsafiy tafakkurida Sharq xalqlariga xos an'anaviylik mavjud bo'lgan bo'lsa-da, biroq dogmatik qotib qolish uncha ko'p kuzatilmaydi. Shu sababli, hatto muqaddas manbalarga nisbatan bo'lgan munosabatda ham yakdillik kuzatilmaydi, ya'ni ba'zi maktablar Vedaning muqaddasligini tan olishgan bo'lsa, ba'zilari esa tan olishmagan. Eng muhimi ularning ko'pchiligi o'zlarining munosabatlarini ratsional argumentlar bilan asoslashga harakat qilishgan. Qadimgi Xitoy madaniyatida ham bahs yuritish bilan bog'liq juda ko'plab masalalar o'rganilganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, bahs yuritish shart-sharoitlari, usullari, psixologik jihatlari yaxshi tadqiq etilgan. Xususan, Qadimgi Xitoy faylasufi Mo-Szi (Mo Di) (m.a. 480-400) qarashlari uning shogirdlari tomonidan to'plangan «Mo-byan» (Mo-szining mulohazalari) kitobida jamlangan bo'lib, ushbu asarda bahs-munozarali masalalar bo'yicha fikrlar almashinishga doir tavsiyalar yozilganligini kuzatish mumkin. Bu maktab vakillarining fikricha, "bir predmet yuzasidan turli xil fikrlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgandagina bahs xosil bo'ladi. Agar bahs predmeti turlicha bo'lsa, unda bahs olib borish va biror bir xulosaga kelish mumkin bo'lmaydi. Bahs chin nuqtai nazarni himoya qilib chiqqan kishining g'alabasi bilan tugaydi. Bahs faqat bir holatda cheksiz bo'lishi mumkin: agar undagi har ikkala mulohaza ham chin bo'lmaydigan bo'lsa" [Bikov F., Yan Xinsun.1962, 80]. "Mo-byan"da tezis va mulohazani isbotlash, xulosa chiqarish, analogiya, bahs-munozaralar olib borish qoidalari masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Traktatda ko'rsatilishicha, haqqoniy bilimning uch xil manbai bor bo'lib, bular: 1) "sinsji" (bevosita bilim), u har bir odamning individual tajribasini qamrab olgan; 2) "venchji" (eshitilgan bilim) bivosita boshqa odamlardan olingan bilim; 3) "shochju" (aqliy bilim), – tushunchalar, hukmlar va xulosalarda ifodalanadi" [10, C.175]. Ta'kidlash kerakki, Qadimgi Xitoy mantig'i turli xil siyosiy doktrinalar va ma'naviy-axloqiy konsepsiyalarning kuchli bosimi ta'siri ostida mavjud bulib kelgan. Natijada Qadimgi Xitoydagi

mantiqiy konsepsiyalar Qadimgi Gretsiyadagiga qaraganda ancha ertaroq shakllangan bo'lsa-da, biroq ilk Sin davridan so'ng bu taraqqiyot so'nib qolganligini qayd etib o'tish lozim. Buni Sin davrining ilk va so'nggi bosqichiga qadar rasman faqat konfutsiylik ta'limoti tan olinib Qadimgi Xitoydagi "yuzta maktab"ning boshqa barcha vakillari esa asossiz ravishda rad etilib kelinganligi bilan asoslash mumkin.

Xulosa

Bahs-munozara qarama-qarshi fikrlarni isbotlashning maxsus shakli, shuningdek, masalaning to'g'ri yechimini izlashning maqbul usuli sifatida insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridayoq muayyan ijtimoiy va siyosiy vaziyat ta'siri ostida yuzaga kela boshlagan. Bahs-munozaralar taraqqiyotining muhim sababi qadimdan mutafakkirlarning tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning ichki dialektik xususiyatini yaxshi anglab yeta boshlaganligida edi. Shu tarzda, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy hayotning amaliy talab-ehtiyojlari, ikkinchi tomondan esa, obektiv moddiy jarayonlar va hodisalarning tushunchalar mantig'ida aks etishi va buning natijasida tabiat va jamiyat hodisalariga oid turli qarashlarning vujudga kelishi, bir pozitsiyani isbotlash va boshqasini rad etish qobiliyati sifatida dialektikaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davronov Z. Barkamollikka da'vat maktublar. –T.: “Tamaddun”, 2017. – B. 60.
2. Ergasheva M. “Avesto”da tartib va tartibsizlik o'rtasidagi kurash g'oyasi //Imom al-Buxoriy saboqlari. 2012, 3-son. – B. 217.
3. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2004. – B. 464.
4. Блажевич, Н.В., Селиванов Ф.А. Эристика / Н.В. Блажевич, Ф.А. Селиванов. Курс лекций. – Тюмень: Тюменский юридический институт МВД РФ, 1999. – 224 с.
5. Васильев В. П. Буддизм, его догматы, история и литература. – С. Пб.: Рипол Классик, 1857, Ч. I. – С. 67.
6. Крючкова С.Е. Институт Древнеиндийского диспута: нормативный аспект. // Вестник университета (Московский государственный университет управления) – № 11. М. 2014. – С. 282.
7. Крючкова С.Е., Храпов С.А. — Аргументативный дискурс в коммуникативном пространстве современной культуры: проблемы теории // Философская мысль. – 2017. – № 6. – С. 36 – 50
8. Лысенко В.Г. Как я понимаю индийскую философию // Философский журнал. – 2010. – № 1. – С. 5-17.
9. Маковельский А. О. История логики. — М.: Кучково поле, 2004. — С. 5-30.
10. Пан Шимо. Логика Древнего Китая // Философские науки. — 1991. — №11. — С. 174-178
11. Синило Г. История мировой

- литературы. Древний Ближний Восток. — Минск: Вышэйшая школа, 2017. — С. 44
12. Сковородников, А.П. Эффективное речевое общение (базовые компетенции): словарь-справочник / А.П. Сковородников. – Красноярск, 2014. – С. 792
13. Тамразова И. Эристика как когнитивно-семиотическая модель девиантной дискурсивной риторики. дис. доктор наук. «Адыгейский государственный университет». 2021. – С. 113.
14. Хоменко І.В. Эристика: Підручник. – К.: Центр учбової літератури, 2008. – С. 9

10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI





O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI O‘YIN QO‘SHIQLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada bolalar folklorining mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlaridan “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Yomg‘ir yog‘oloq” kabi o‘yin-qo‘shiqlarining poetikasi, syujeti, genezisi, lokal belgilari, ijrochilari va ijro xususiyatlari haqida ilmiy tahlillar berilgan. Bolalar mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlari xalqimizning tarixi, turmush tarzi kabi ma‘naviy qadriyatlarni o‘zida ifodalagan ma‘naviy qadriyatlardandir. Tayanch so‘zlar: mavsum, o‘yin, qo‘shiq, shamol, yomg‘ir, animistik, totemistik, fetishistik, syujet, genezis
ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИГРОВЫХ ПЕСЕН УЗБЕКСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. В статье дан научный анализ поэтики, сюжета, генезиса, локальных признаков, исполнителей и особенностей исполнения игровых песен детского фольклора, таких как “Белый тополь, голубой Тополь”, “идет дождь” из сезонных игровых песен. Детские сезонные игры-песни являются одними из тех духовных ценностей, которые воплощают в себе такие духовные ценности, как история, образ жизни нашего народа. Ключевые слова: время года, игра, песня, Ветер, дождь, анимистический, тотемистический, фетишистский, сюжет, Генезис.

ARTISTIC FEATURES OF GAME SONGS OF UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE

Annotation. The article provides a scientific analysis of the poetics, plot, genesis, local features, performers and features of the performance of children's folklore game songs, such as “White Poplar, Blue Poplar”, “it's raining” from seasonal game songs. Children's seasonal song games are one of those spiritual values that embody

such spiritual values as history and the way of life of our people. Keywords: season, game, song, Wind, rain, animistic, totemic, fetishistic, plot, Genesis. Kirish. Xalq og‘zaki ijodini bolalar og‘zaki ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Bolalar folklori xalqimiz og‘zaki ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Uning o‘zi topishmoq, tez aytish, hukmlagich, ovutmachiq, sanamachiq, tegishmachiq kabi ko‘p janrlardan tashkil topgan. O‘zbek bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bolalar folklorining tarkibiy jihatdan rang-barangligi bilan ajralib turuvchi mavsumiy o‘yin-qo‘shiqlari xalqimizning tarixi, turmush tarzi kabi muhim ma‘lumotlarni ifodalagan ma‘naviy qadriyatlardandir. Tadqiqot metodologiyasi: Turkiy xalqlar bolalari o‘rtasida keng tarqalgan o‘yinlardan biri “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yini asosida ham ibtidoiy insonlarning animistik, totemistik va fetishistik tasavvur-tushunchalari, daraxt kultiga bo‘lgan e‘tiqodiy qarashlari yotganligi jihatidan diqqatni tortadi. Bu hatto ushbu o‘yinning nomi va mazmunini tashkil qilgan motivlardan ham anglashilib turibdi. Yana uning oq va ko‘k terak deya, ranglar orqali ifodalanayotgani shu tusdagi

daraxtlarga topinchni yanada bo‘rttiradi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Qadim zamonlardan bolalar repertuarida yashab kelayotgan turli xildagi o‘yin-qo‘shiqlarning syujeti, genezisi, lokal belgilari, ijrochilari va ijro xususiyatlari, badiiyati haqida dastlab XIX asrning II yarmida rus o‘lkashunoslari erotin N. va M.Nalivkinlar qisqacha ma‘lumot berishgan. Ulardan so‘ng XX asrning boshlarida elshunos YE.M.Peshcherova bu o‘yinni rus bolalarining “CHyu dushu jelayete?” nomli o‘yini bilan qiyoslab o‘rgangan. Tatar folklorshunos R.Yag‘farov “Oq terakmi, ko‘k terak”, o‘yining tarixiy ildizlari daraxt kultiga bog‘liqligini aytadi. Buni u turkiy xalqlar yashaydigan ko‘p joylarda “terak” nomi bilan bog‘liq toponimlar borligi bilan izohlashga harakat qiladi. Perm o‘lkasining “Berezovka” tumanida “Boyterak” ovuli, O‘zbekistonning Toshkent shahri yaqinida “Oq terak” va “Ko‘k terak” deb ataluvchi mavzular borligini eslatib o‘tadi. Masalan, bahorda daraxtlar uyg‘onib, tollar kurtak chiqarganda – “Tolbargak”, dala gullari ochilganda – “Gul o‘yin”, “Loyla sayli”, “Qizg‘aldoq gulladi” kabi tabiat bilan inson ruhiyati uyg‘onganda o‘ziga xos qo‘shiq – raqsli, tez harakatli “Yomg‘ir yog‘oloq”, “Oq terakmi – ko‘k terak” kabi o‘yinlarni vujudga kelishida zamin yaratilgan. Yozda faslida salqin joylarda, daraxtlar soyasida, soy va ariq bo‘ylarida kam harakat qilinadigan o‘yinlar o‘ynalgan. Ayniqsa, suvda cho‘milish vaqtida “Suvda quvlashish”, (“Quvlashmachiq”) “Tez suzish”, “Suv ostida o‘zish”, “Suv ostida urish”, suvda turli raqsli harakatlarni bajarish (misol uchun tik sakrab turish, qo‘llarni yoygan holda aylanish, chalqancha suzish, qo‘l va oyoq harakatlarini bir meyor –

ritmda harakatlantirish) kabi o‘yinlar avjiga chiqqan. Yoz oxiri, kuz boshi- pishiqchilik, to‘qchilik vaqtida danak, yomg‘oq o‘yinlari, arg‘imchoq uchishlar sevilib o‘ynalgan. Kech kuz-qishda yog‘ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o‘yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda “Qorxat”, “Qorbo‘ron”, yomg‘ir yoqqanda “Yomg‘ir yog‘oloq”, kuchli shamol yesganda “Bo‘ron -bo‘ron” kabilarni o‘ynash ananaga aylangan. Sovuq o‘z kuchini ko‘rsatganda barcha sandal atrofiga yig‘ilib: “Topishmoq top”, “Tez aytish”, “Kim aytdi”, “Oyog‘ingni tort” kabi o‘yinlar o‘ynalgan. Barchaga ma‘lum bo‘lgan “Uloq” ham hamma vaqt o‘ynalmagan.

U kech kuzda to bahor o‘rtalarigacha o‘tkazilgan. Respublikamizning ko‘pgina xududlarida otda uloq chopish aynan urfdir. Bolalar esa 1,5 – 2 metr keladigan xivchin cho‘pdan ot qilib, o‘zaro kim o‘zarga o‘ynashgan. Biroq, Surxondaryo viloyatining tog‘li Boysun va boshqa hududlarida avvallari ham hozir ham yosh o‘spirin bolalar eshakda uloq chopishadi. Bu o‘yin tarzda amalga oshiriladi. Masalan, uloq sifatida eshakning xurjinini yoki chobog‘anlardan

biri choponini bog‘lab tashlaydi. Ushbu o‘yinda ham bokavil (ular orasidan yoshi kattasi) tanlanadi. O‘yin tartibi uloq tartibiga xos tarzda o‘tkazilgan. O‘zlaricha turli buyumlarni zot sifatida bahsga qo‘yishgan. Yozning issiq kunlarida yer o‘ta qattiq holatga keladi. Bunday holda ko‘pkari ishtirokchilari yiqilsa juda qattiq tan jarohati oladi. Shu sababdan hamda chobog‘on ham, ot ham, eshak ham issiqqa chidam bera olmaydi. Shu va boshqa shu kabi o‘yinlar bahorda yoki kuz faslining oxirgi yomg‘ir mavsumlarida o‘ynalilgan. Ot yoki eshakda uloq chopadigan kishini Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida yerlik aholi tilida chobog‘on deb aytishadi. Yozda esa bollar chilik o‘yini xush ko‘rib o‘ynashgan.

Yozning issiq pasaygan, salqin kechada bolalar “Oq suyak” o‘ynaganlar. “Oq suyak”ni nafaqat kechasi, balki qorong‘u tunda ham o‘ynash mumkin bo‘lgan. Tahlil va natijalar: R.Yag‘farovning fikricha, “Oq terakmi, ko‘k terak”

o'yinida shu nomdagi joylarda yashovchi ikki qabila, ikki xalq obrazi mujassam. O'yinda ular o'rtasidagi o'zaro oldi-berdi, muomala-munosabatga ishora qilinadi. Jumladan, shu hudud aholisining janglarda tutqun (asr)larni, savdoda tovar-mahsulotni ayirboshlashi, quda-andachilikda qiz yo kuyov olish voqealari badiiy aks ettirilgan. Shundan kelib chiqib, olim o'yin jarayonida ijro qilinadigan qo'shiqni bir vaqtlar "to'y qo'shig'i" bo'lgan bo'lishi mumkin, – deb faraz qiladi. O'zbek folklorshunosligida bu o'yin haqida ilk bor G'.Jahongirov to'xtalib, uning tarixiy-estetik ildizlariga nazar tashlagan. Uning fikricha, ushbu o'yining kelib chiqishi qabilachilik davridagi kishilarning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, o'sha vaqtdagi jang qoidalari uning yaratilishiga ta'sir ko'rsatgan.


O'zbek folklorshunosi O.Safarov "Oq terakmi, ko'k terak" o'yinining o'nlab variantlarda yaratilganligini, ularning lokal xususiyatlarga egaligini dalillaydi. Sobir Ehsan Turk Xorazmdan yozib olib e'lon qilgan "Oydarak" o'yin-qo'shig'i "Oyterak" bo'lib, unda aynan urushda asir olish yoki asir berish, asirlarga tovon to'lash voqealari gavdalantiriladi. Qo'shiq "Oq terakmi ko'k terak" o'yini kabi "Bizdan sizga kim kerak?" mazmunidagi savolga javob kutiladi. N.Safarovning ushbu qo'shiq genezisi haqidagi fikrlari ham aynan shularga yaqin. Olimaning fikricha, qadimgi tasavvur va tushunchalar silsilasida quyosh – erkak, oy esa ayol timsolida obrazlantirilishi nuqtai nazaridan qaralsa, go'yo o'yinning qiz va o'g'il bolalar tomonidan birgalikda o'ynalishi ramziy mohiyatga ega. Zero, qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda kuchsizroq bo'lgani bois o'yinda raqib tarafdin o'g'il

bolanimi yoki qiz bolanimi chaqirishlari ramziy tilda so'ralayotgandek tuyuladi. Bunda terak obrazi ramziy ma'noda o'yin ishtirokchilarining o'ziga teng deb qaraladi. Demak, "Oq terakmi, ko'k terak" o'yinida "terak" so'zi "bola", "inson" tushunchasiga tenglashtiradi. O'yin jarayonida bolalar terak obrazida o'yin maydonga kiradilar. Slavyan xalqlari marosim folklorida "Terak" nomli ritual o'yin bor. Bunday o'yin qirg'iz bolalari repertuarida ham uchraydi. O'yinda terak behudaga "oq" va "ko'k" sifatlari bilan keltirilmayapti. Bunda, birinchidan, oq terakning bo'shroq, ko'k terakniki esa unga nisbatan qattiqroq, chidamliroq bo'lishi e'tiborga olinayotgan bo'lsa,

ikkinchidan, ibtidoiy isonlarning "oq" rangni baxt, yaxshilik, sog'lik-salamatlik, tinch hayot ramzida, "ko'k" rangni esa mangulik, o'lim ramzida tushunganliklariga oid tasavvurlari nazarda tutilayotganga o'xshaydi. "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini mohiyatiga ko'ra, "Oq terak – raqib safi tomon ketgan bolaning sog'-salomat, yaxshilik va g'alaba bilan qaytishiga, "Ko'k terak" esa raqib safi tomon ketgan bolaning qaytib kelmasligiga, begonalar qatorida qolib ketishiga ramziy ishora qilinadi. Xalq olqishlarida bejiz "Qatorimizda xato bo'lmasin" jumlasini aytilmaydi. Bu bilan "hayotimizda o'lim, yo'qotish bo'lmasin" degan g'oya ifoda qilinadi. Qadimda O'zbekiston hududida umumxalq – hamma biladigan qiziqarli o'yinlar bilan muayyan joyga xos o'yinlar mavjud bo'lib, o'sha o'yin o'sha hududni o'ziga xosligini aks ettirishga xizmat qilgan. Sohaga oid tadqiqotlardan shu narsa ayonki, tarixiy rivojlanish jarayonida bir joyda ma'lum o'yinlar boshqa xududlarda noma'lum bo'lgan. Tadqiqotchilar tomonidan ko'plab bolalarga xos bo'lgan harakatli o'yinlar to'planib, yozib qoldirilgan. Shulardan "Chumchuq tushdi boshimga", "Botmon-botmon", "Qo'shiqning boshi", "Kapan", "Do'ppi tashlar", "Pari tegdi", "Shayton-shayton" va boshqalarni tilga olish mumkin. Shahar va qishloq o'yinlari bir-birlaridan o'zlarining o'ynalish shart-sharoitlari va holatlari yuzasidan farq qiladi. Agar qishloq o'yinlarining ko'pchilligi keng dalalarda o'tkazilsa, shahar o'yinlari kichikroq maydonlarda o'tgan. Masalan, Toshkentlik qizlar orasida joyda aylangan holda koptok o'ynash, yerda chizib qo'yilgan to'rtburchak chiziq orasida sakrash, arqonda

sakrab o'tish, tosh o'yin kabi o'yinlar keng tarqalgan bo'lsada, Surxondaryo xududida besh tosh, quvalashmachoq, yoshinmachoq, bayroqcha, o'rtaga tushar, chopqir (kim o'zar) kabi qator o'yinlar keng tarqalgan. O'yinlar juda qadim zamonlarda vujudga kelgan shunday o'yinlardan biri o'g'il bolalar repertuarida uchraydigan "Ot" o'yinidir. Bu o'yinda bir necha bolalar daraxt novdasini "ot" qilib minib, quyidagi qo'shiqni aytganicha u yoqdan bu yoqqa toychoqdek yeladilar: Haybatim bor – bodim bor, Tut novdadan otim bor. Qarab turing, yangajon. Qochsa uring, yangajon. Yuqoridagi qo'shiqda novdaning aynan qaysi daraxtdan olinganligi alohida ta'kidlanmoqda. Bolalar o'yinlari orasida kuz fasli bilan bog'liq "Lanka" o'yini ham borki bu asosan milliy bolalar o'yinidir. U mavsumiy bo'lib, asosan kuz faslida o'ynaladi. Lanka shunchaki oddiy o'yin emas, u bolani ham jismonan, ham ruhan tarbiyalaydi. Chinakam ma'nodagi xalq o'yini. Lanka o'ynagan bola to'g'ri nafas olishni o'rganadi. Natijada tanasi kimsalordga to'yinadi. Yurak faoliyati yaxshilanadi. Yegan ovqati oson hazm bo'ladi. Shu tariqa organizm chiniqadi. Eng asosiysi lanka tepayotganda ovoz chiqarib sanash diqqatni jamlashga o'rgatadi. YUNESKO lankani eng foydali o'yinlardan biri deya baholagan. U jahon bolalari o'yinlari ro'yxatiga kiritilgan. Bahor kelishi bilan tabiatda juda ko'p o'zgarishlar yuz beradiki, ularning hech biri bolalar e'tiboridan chetda qolmaydi. Yosh bolalar orasida keng tarqalgan bahoriy harakatli o'yinlardan "Assalom, jiyda-bodom"da eng birinchi gullaydigan bodom va eng oxir gullaydigan jiyda daraxtlarining nomiga alohida urg'u beriladi. O'yin mazmuni va verbal qismi ham shunga mos bo'lib, bolalar uni bir-birlarining qo'lidan ushlagan holda doira hosil qilib, u yoqqa-bu yoqqa chayqalib, har safar chayqalgandan keyin doira markaziga ta'zim

qilgan holatda o'ynaydilar. Bolalarning bu xatti-harakati orqali tabiatda vaqtningaylanma holatda kechishiga ramziy ishora qilinadi. Ma'lumki, o'yinning insonni shakllanishida va yoshlik, bolalik davri rivojlanishida o'ta muhim o'rin tutishi hammaga ayon. O'yinga ehtiyoj va qiziqish bola tabiatida bor. Bolaning birinchi "faoliyati" o'yin bilan boshlanadi. Umuman olganda inson hayotida o'yinning ahamiyati juda katta. Asosan o'yin yosh bollarning asosiy mashg'uloti hisoblanadi. O'yinlar nafaqat bolalar, balki katta yoshdagilar hayotida ham muhim o'rin tutadi. Katta yoshdagilar uchun o'yin bo'sh vaqtlarini mazmunli va qiziqarli o'tkazish, xordiq chiqarish, kuy-qo'shiqlar ohangida o'yinga tushish va boshqa tomashabin musobaqa, tadbir sifatida tashkil qilinadi. Agar insoniyatning jinsi (o'g'il yoki qiz)ga xos xususiyatlari nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo'la boshlaydi. Ular asosan taxminan 13 yoshdan so'ng qizlar va yigitlar alohida o'ynashadi. Bu davrda yigit va qizlar orasida ko'proq so'z, raqs, qo'shiqli o'yinlarni o'ynashlari odat bo'lgan. Vositali o'yinlar. Bu o'yin (raqs) larning ikkiga bo'lishi mumkin: Birinchi turi moddiy vositalar bilan bajariladigan o'yinlarda to'p, tosh, tayoq (oshiq), arqon, belqars (belbog'), qo'lro'mol va boshqa shu kabi buyumlardan keng foydalanilgan holda o'ynalangan. Mahalliy aholi ayrim o'yin (raqs) larga ushbu buyum nomini bergan. Masalan, "Ko'za o'yini" (raqsi), "Tayoq o'yin" (raqsi) va hokazo. Ikkinchi o'yin asosiy vosita o'yin hisoblanib, asosan raqs harakatlarining asosiy mazmun mohiyatini, shakli - shamoyilini belgilab beradi. Shu sababli, ifodali vositali o'yinlar ichida so'zli, qo'shiqli, teatrlashgan raqsli o'yinlar alohida o'rin tutadi. O'yinning kelib chiqishini izohlovchi afsona ham bor. Unda aytilishicha, o'yin nomini ifodalovchi "O'g'uloq" so'zi bir kampirning ismi bo'lib, u tut pishig'i davrida tut yeyman deb daraxtga



chiqishda ehtiyotsizlik qiladi. U arilarga talanib, tutdan sakraydi va mayib bo'lib o'ladi. Uning sadr marosimida aytilgan marsiya keyinchalik o'yin qo'shig'iga aylanganligi aytiladi. Bunda aslida kampirning o'limi qish faslining tugashi, "ramziy o'lishi" tushunchasini o'zida ifodalaydi. Bu o'yin, odatda, tut pishig'i davrida o'ynaladi. Shu bilan bolalar tut terib yeyish uchun tut daraxtiga chiqishda ehtiyotkor bo'lishlari lozimligi eslatiladi. O'yinni ko'pincha qizlar o'ynaydi. Bunda ular tut daraxti ostiga to'planib, tuproqdan odam shaklini yasab yoki yerga, tut daraxti yaqin o'sgan tomga odam suratini chizib, uning atrofida aylangancha, sadrga tushadilar. Bahorda o'ynaladigan mavsumiy o'yinlardan yana biri "Olmacha do'm-do'm" dir. Olma pishiqlik davrida ko'pincha olmalarda o'ynaladigan bu o'yinni o'g'il va qiz bolalar aralashiga o'ynashadi. Bunda bolalardan biri olma sotuvchi, qolganlar haridor bo'lib, ular orasida shunday aytishuv aytiladi: Olmacha do'm-do'm, Kilosi bir so'm. Olmangizdan bitta bering? Folklorshunos Sh.Turdimov ta'kidlaganidek, olma bilan bog'liq motivlar dunyodagi ko'pchilik xalqlar folklorida uchraydi. O'zbek folklorining aksariyat janrlarida ham olma muhim badiiy detal bo'lib keladi. Olma aksariyat hollarda oila, farzand g'oyalarini o'zida ifoda etib kelishi sababidan ham bu obraz bolalar o'yin folklorida keng tarqalib ommalashgan. Bolalar o'yinlari orasida "Akkol", "Lanka" "Beshqarsak", "Cho'pon o'yin", "Xo'sh-xo'sh", "Qoshiq", "Tegirmon", "Gupi", "Arg'amchi", va boshqalarni tilga olish mumkin. Shuni a'lohida ta'kidlash kerakki vositali o'yinlar ko'pincha sof holda uchramaydi, ular boshqa o'yinlar bilan aralash holda, ya'ni turli yoshlilar, turli jinsdagi kishilar orasida yilning turli davrlarida ham o'ynaladi. Xalq hayotida minglab rang-barang o'yinlar mavjud bo'lib,

ular ming yilliklar ichida boyib borgan va ajdodlarimizning ma'naviy va jismoniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ko'p asrlar davomida xalq raqslari o'yinlar avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan. Ular ajdodlarimizni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo'lishida xizmat qilgan. Shunday qilib, ming yilliklar davomida xalq o'yinlari ajdodlarimizning jismoniy, ma'naviy, ruhiy va aqliy rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib kelgan. Xulosa. Xulosa sifatida shuni e'tirof etish lozimki, xalqimiz og'zaki ijodining tarkibiy qismini tashkil etuvchi xilma-xil bolalar mavsumiy o'yin-qo'shilari "Oq terakmi, ko'k terak", "Yomg'ir yog'oloch", "Akkol", "Lanka", "Beshqarsak", "Cho'pon o'yin", "Xo'sh-xo'sh", "Qoshiq", "Tegirmon", "Gupi", "Arg'amchi" kabi qo'shiqlar rang-barangligi, ijrochilari va ijro xususiyatlari, badiiyati bilan bolalar hayotida muhim ahamiyat kasb etganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения. – Ферганы. Казан, 1886. – С. 245.
- 2.Покровский Е.А. Детские игры, преимущественно русские. – Спб. 1894.
- 3.Ягфаров Р. Шигрийат чимшэлэре. – Казан: Татарстан китап нешрияты, 1985. – Б.158.
- 4.Жаҳонгирова Ф. Ўзбек болалар фольклори. –Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б.102.
- 5.Бойчечак. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. Кўп томлик. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров ва К.Очилов. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 336 б.
- 6.Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати. – Т.: Фан, 2008. – Б.42-46.
- 7.Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати. – Т.: Фан, 2008. – Б.46.
- 8.Она тили ва ўқиш саводхонлиги. 1-қисм. Умумий ўрта таълим мактабларининг 1-синфи учун дарслик. – Тошкент.
9. Сафаров О. Ўзбек халқ болалар ўйинлари. – Т.: Шарқ, 2011. – Б.131.
10. Турдимов Ш. Бирнинг минг жилваси. – Б.87.

13.00.00

PEDAGOGIKA

FANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali
<https://lib.tisu.uz>
 ISSN 2992-9016

Shodiyev Rizamat Davronovich Qarshi davlat universiteti “Boshlang’ich ta’lim” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc.), professor
 Abdusamatov Alisher Sobirovich Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Pedagogika” kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) Termiz (O‘zbekiston) E-mail: aabdusamatov912@gmail.com

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA SEMIOTIK YONDASHUV ASOSIDA MODELLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. Bugungi kunda hayotni axborot bilan to‘ldirish muammosi tobora aniq bo‘lib bormoqda. Shubhasiz, o‘quv ma’lumotlarini vizualizatsiya qilish va uni o‘rganishga texnologik yondashuv nuqta nazaridan ilmiy asoslash bo‘yicha to‘plangan tajribani tizimlashtirish zarurati mavjud. Semiotik kompetensiyani o‘zlashtirish doirasida belgi-ramziy faoliyatni tashkil etish qobiliyati o‘qituvchi uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki u bir vaqtning o‘zida ko‘rinadigan, “siqilgan” formatda katta hajmdagi ma’lumotlarni taqdim eta oladi.
Tayanch so‘zlar: vizualizatsiya, semiotik, kompetensiya, o‘quv faoliyat, kognitiv faoliyat, ta’lim, axborot, raqamli.

ОРГАНИЗАЦИЯ МОДЕЛИРУЮЩЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ СЕМИОТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Сегодня проблема наполнения жизни информацией становится все более очевидной. Несомненно, существует необходимость систематизировать накопленный опыт научного обоснования с точки зрения технологического подхода к визуализации образовательных данных и их изучению. Умение организовывать символическую деятельность в рамках овладения семиотической компетенцией имеет большое значение для педагога, поскольку он может одновременно представить в наглядном, «сжатом» формате большой объем информации.
Ключевые слова: визуализация,

семиотика, компетентность, учебная деятельность, познавательная деятельность, образование, информация, цифровое.

ORGANIZATION OF MODELING ACTIVITIES ON THE BASIS OF A SEMIOTIC APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. Today, the problem of filling life with information is becoming more and more obvious. Undoubtedly, there is a need to systematize the accumulated experience in scientific substantiation from the point of view of the technological approach to the visualization of educational data and its study. The ability to organize symbolic activities within the framework of mastering semiotic competence is of great importance for the teacher, because he can present a large amount of information in a visible, "compressed" format at the same time.
Key words: visualization, semiotic, competence, educational activity, cognitive activity, education, information, digital.

Kirish.

Ta’lim jarayonida vizualizatsiya “o‘quv va kognitiv faoliyatning faollashishi o‘qituvchi va o‘quvchining nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki ushbu assimilyatsiya qilish usullariga, fikrlash usullariga e’tibor qaratishlari bilan bog‘liq. O‘rganilayotgan obyektlar orasidagi aloqalar va munosabatlar, shuning uchun shaxsni bir butunlikda bog‘lash. Ta’lim axborotining vizualizatsiyasi - bu quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olgan tizim:
 - ta’lim bilimlari majmuasi;
 - ularni ko‘rsatishning vizual usullari;
 - axborot uzatishning vizual va texnik vositalari;
 Ta’lim jarayonida vizual fikrlashni qo‘llash va rivojlantirishning psixologik usullarini ta’lim [1]. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: O‘quv materialini vizualizatsiya qilish texnologiyasi

XX - asr oxirida paydo bo‘lgan vizual savodxonlikning pedagogik kontsepsiyasiga mos keladi. 60-yillar XX asr AQShda. Vizual idrok inson uchun dunyoni va undagi o‘rnini bilish jarayonida ayniqsa muhimdir, idrok etish va tushunish jarayonlarida tasvirning roli etakchi rol o‘ynaydi. “Vizualizatsiya” dunyosi va axborot yukining ortishi sharoitida inson ongini tasvirlar, belgilar va belgilar bilan ishlashga tayyorlash zarurati tobora ortib boradi [2]. Osmolovskaya “raqamli avlod” psixologik sohasidagi aniq o‘zgarishlarni, o‘quvchilarning “klip tafakkuri”, tasvirlarda fikrlash, cheklangan ma’lumotlarning bir martalik o‘zlashtirilishi va buning natijasida uzoq vaqt davomida idrok eta olmasligini takidlaydi. Axborotni qayta ishlash va tartibga solishning samarali usuli - uni “siqish”, ya’ni. ixcham, foydalanish uchun qulay shakl data taqdimot. O‘quv ma’lumotlarini siqish tamoyillari, mazmunli umumlashtirish nazariyasini ham o‘z ichiga oladi. Davydov (1930–1998), didaktik birliklarni kattalashtirish nazariyasi P.M. Erdnieva. Axborotni «siqish» deganda uni umumlashtirish, mustahkamlash, tizimlashtirish va umumlashtirish tushuniladi. P.M. Erdniyevning ta’kidlashicha, “dastur materialini o‘zlashtirishda eng katta kuchga o‘quv ma’lumotlari bir vaqtning o‘zida to‘rtta kodda taqdim etilganda erishiladi, rasmi, raqamli, ramziy, og‘zaki” [1]. Vizualizatsiyaning uslubiy asosi tamoyillardir tizimni kvantlash va kognitiv vizualizatsiya. Tadqiqot metodologiyasi: Tizimni kvantlash turli xil belgilar tizimlari bilan ifodalangan inson aqliy

faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi: - lingvistik, ramziy, grafik. Matnni o‘rganish, o‘zlashtirish, o‘ylash - bu ongda diagrammalarni tuzish, materialni kodlash. Agar kerak bo‘lsa, odam butun matnni qayta tiklashi, “kengaytirishi” mumkin, ammo uning sifati va kuchi xotiradagi ushbu sxemalarning sifati va kuchiga, ular talaba tomonidan yoki o‘qituvchi tomonidan intuitiv ravishda yaratilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu juda murakkab intellektual ish va talaba bunga doimo tayyor bo‘lishi kerak. Ma’lumotni o‘zlashtirishda eng katta samaraga, agar qayd qilish usullari miyaning ma’lumotni qanday saqlashi va qayta ishlab chiqarishiga mos keladigan bo‘lsa erishiladi. Bu nutq yoki yozuvga o‘xshash chiziqli, ro‘yxatda emas, balki so‘zlarning belgilar, tovushlar, tasvirlar, his-tuyg‘ular bilan o‘zaro bog‘lanishida sodir bo‘ladi (P.K. Anoxin, D.A. Pospelov). Tizimli kvantlash quyidagi qonuniyatlarni hisobga olishni o‘z ichiga oladi: katta hajmdagi o‘quv materialini eslab qolish qiyin [3]. Muayyan tizimda ixcham joylashgan ma’lumotlar yaxshiroq qabul qilinadi; Samarali yodlash uchun o‘quv materialida semantik tayanchlarni, yodlashning “yadrolarini” (kristallanish markazlari) ajratib ko‘rsatish kerak. Kognitiv vizualizatsiya, ta’lim bilishning psixologik naqshlarini hisobga olgan holda, “majoziy” huquqni assimilyatsiya jarayoni bilan bog‘laydi. So‘zlariga ko‘ra, Z.I. Kalmykova, mavhum o‘quv materialini, birinchi navbatda, konkretlashtirishni talab qiladi. Maqsad turli xil ko‘rinishlarga mos keladi - ob’ektivdan juda mavhum, an’anaviy ramziylikgacha. Har bir mavzuda “vizual” fikrlash mavjud, ya’ni vizual operatsiyalar orqali fikrlash (A.R. Luriya (1902-1977)) [4]. Tahlil va natijalar: Har bir shaxs (talaba) taqdim etilgan ma’lumotlarning o‘ziga xos tasvirini yaratishga qodir va o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan tasvirlarni har doim ham tushuna olmaydi. Vizualizatsiya shakli har doim sub’ektiv shakllanishdir. O‘qituvchi idrok etishga yordam berishi kerak, lekin so‘zlar bilan emas, balki rasmni tuzish, o‘quv materialining mazmunli elementlarini belgilar, diagrammalar yoki chizmalar ko‘rinishida yozib olish. Mavjud o‘quv ma’lumotlarini faol idrok etish o‘quv materialini taqdim etishning maxsus tashkiliy va puxta o‘ylangan usullarini talab qiladi [5]. Ta’limga yondashuvlarda g‘oyalar tobora

dolzarb bo'lib bormoqda neyrolingvistik dasturlash (NLP): - odamda bir nechta vakillik tizimlari mavjud bo'lib, ular ma'lumotni taqdim etishning dominant modalligining tabiati asosida vizual - ko'rish ustunligi bilan tasvirlar shaklida bo'linadi; - eshitish - eshitish ustunligi bilan tovushlar va so'zlar shaklida; - vosita ustunligi bilan kinestetik hissiyotlar; -multimodal,umumlashtirilganustunlik bilan bog'liq g'oyalar, fikrlash jarayonlari. "Vizuallar", yodlash va eslash, aniq tasvirlarni ko'rish, ular o'qiganlarini tom ma'noda ko'rishga harakat qilish. Tashqi tomondan ular faollik bilan ajralib turadi imo-ishoralar, badiiy mahorat, xaritalar, grafiklar, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish shaklida taqdim etilgan ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirish. O'quv topshirig'ini bajarishda "vizual" talaba aniq va aniq ko'rsatmalarga muhtoj. Ular uchun notalar va darsliklar og'zaki nutqdan yaxshiroqdir. Shuni inobatga olish kerakki, yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar asosiydan tashqari yana bitta qo'shimcha axborotni saqlash tizimiga ega bo'ladilar, past natijali o'quvchilar esa qo'shimcha tizimlardan foydalanmaydilar. Shuning uchun, agar bilimlarni uzatish usuli ushbu talabaga mos keladigan usuldan farq qilsa vakillik tizimi, keyin u qabul qilingan ma'lumotni tanish shakl yoki uyushmaga "tarjima qilish" uchun qo'shimcha vaqt kerak [7]. Haqiqiy ta'lim jarayonida bunday vaqtinchalik tanaffuslar talabalarga berilishi kerak. Vizualizatsiya texnologiyasi o'quv materialini taqdim etishning intellektual mavjudligi tufayli o'quvchilarning tabiiy imkoniyatlaridan to'liqroq va faol foydalanishga

qaratilgan. Vizual tasvirning, yozma matnning yoki o'qituvchining aniq tushuntirishining kombinatsiyasi o'quvchini stereoskopik idrok etishga olib keladi, bu kompyuterning imkoniyatlaridan foydalanishda sezilarli darajada yaxshilanadi. Polissensor ta'lim ma'lumotlarini idrok etish nafaqat har kimga o'zi uchun eng qulay, organik tizimda o'qish imkonini beradi, balki, asosan, ma'lum bir talaba uchun ikkinchi darajali vakillik idrok tizimini rivojlanishini rag'batlantiradi. Vizual tasvirlash uchun grafiklar, o'quv elementlarining spetsifikatsiyalari, matritsalar, kontur diagrammalar va boshqalar kabi shakllardan foydalaniladi, ular bir-biri bilan birlashtirilishi mumkin. Har bir shakl didaktik kontekstda o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega, ammo birgalikda foydalanilganda ular bir-birini sezilarli darajada to'ldirishi mumkin. O'quv materialining mazmunini tuzish asosiy ta'lim elementlarini aniqlash va ular o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishdan boshlanadi. Ta'lim elementi (E) - o'rganish kerak bo'lgan mantiqiy to'liq ma'lumot: - tushuncha, fakt, hodisa, jarayon, naqsh, printsip, harakat usuli, ob'ektning xarakteristikasi, ta'rifi. xulosa yoki natija. Tushunchani ifodalash usuli (formula, grafik) ta'lim elementi bo'lmasligi muhimdir. Vizual ma'lumotni idrok etishda harflar va belgilarning rangi va fonning rangi alohida ahamiyatga ega. Obyekt tasvirining atributi sifatida rang hissiyot va his-tuyg'ularga bevosita ta'sir qiladi va diqqatni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oq rangdagi qora shrift eng o'qilishi mumkin, undan keyin har qanday ochiq rangli fonda qora shrift (och yashil, och sariq, och pushti). O'qish eng qiyin - oq fonda sariq va aksincha. Rangni ishlatishning asosiy qoidalari quyidagilar: - bir varaqda uch yoki to'rt dan ortiq rang ishlatmang; - raqamlar (mos yozuvlar signallari) va fon o'rtasida yaxshi kontrastni ta'minlash; - ba'zilar kabi qizil va sariq ranglarning kombinatsiyasidan saqlanib o'quvchilar ularni farqlay olmaydilar; - tushunchalarning bir xil qoidalari va belgilarini bir rangda tasvirlash; - talab qilinadigan ko'rsatmalarni ajratib ko'rsatish uchun ranglar assotsiatsiyasi va hissiy xususiyatlardan foydalaning, masalan, qizil yoki to'q sariq majburiy

va qora - salbiy yoki salbiy oqibatlarini. Rang yangi va ma'lum bo'lgan narsalarni ta'kidlash yoki keng tarqalgan xatoni ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin. Odatdagi xatolarni ko'rib chiqishda, noto'g'ri konstruksiyani kesib tashlash kerak, shunda u chizilgan holda vizual tarzda eslab qolinadi. Chiziqni rangli chiziq bilan kesib tashlash kerak, aks holda bu muhim belgi noto'g'ri yozuvni shunchaki kesib tashlash uchun xato bo'lishi mumkin. Rang sxemasini tanlashda o'qituvchi mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini boshqaradi. Asosiysi, o'quvchilarning diqqatini rangni eslab qolishga qaratmaslik kerak, rang yordam berishi va o'quv jarayoniga to'sqinlik qilmasligi kerak. Svetofor prinsipidan foydalanish eng maqbuldir, eng muhim narsalarni qizil, sariq - kamroq muhim, yashil - yordamchi materialda ajratib ko'rsatish. Yana bir variant ham mumkin, asosiy kontseptsiyani qizil rangda, uning tomonlarini ko'k rangda va tomonlarning xususiyatlarini pushti rangda ajratib ko'rsatish. Ko'pincha o'qituvchilar o'rganilayotgan obyektning mazmun xususiyatlariga tayanadilar [8.] Masalan, materialshunoslik kursida material xossalari yashil rangda, kompozitsiya ko'k rangda, ilovalar esa jigarrang rangda ta'kidlangan. Ba'zi obyektlar siz o'rganayotgan obyektlarning tabiiy ranglariga rioya qilish imkonini beradi, masalan, yer jigarrang, havo ko'k, suv yashil. Slaydlar yoki kompyuter dasturlarini yaratishda ranglarni tanlash ko'proq e'tiborga loyiqdir. Mutaxassislar quyidagi qo'shimcha ranglardan foydalanishni tavsiya qiladilar: - qizil - yashil; - sariq -binafsha; - ko'k - to'q sariq. Ranglarning bu kombinatsiyasi bilan yangi soyalar paydo bo'lmaydi, faqat to'yinganlik va yorqinlikning o'zaro oshishi. Misol uchun, qizil harflar yashil fonda to'yinganroq ko'rinadi va yashil harflar qizil fonda to'yinganroq ko'rinadi. Agar harflar qora kontur bilan chizilgan bo'lsa, rang kontrasti yaxshilanadi, lekin oq kontur bilan chizilgan bo'lsa, zaiflashadi. Rangning ruhiy farovonlikka ta'sirini hisobga olish muhimdir. Ma'lumki, yashil rang insonga

tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Moviy va sariq ranglar ham sanguinek va xoleriklarni tinchlantiradi, lekin flegmatik odamlarni uyquga keltiradi. Qizil va qizil ranglar markaziy asab tizimining barcha turlariga ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ammo qizil rangning melankolik odamga ta'siri o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Ta'lim ma'lumotlarini kodlashda hayotiy vaziyatlar misollari, qisqartmalar, mantiqiy zanjirlar va umumiy qabul qilingan belgilar kabi maxsus mnemonik usullar qo'llaniladi. Tezlik qaydlari bo'yicha maxsus adabiyotlarda mavzu bo'yicha doimiy qisqartmalar ro'yxatiga 10 ga yaqin tushunchalarni kiritish va keyin har bir mavzu uchun yana 2-3 ta yangi belgi kiritish tavsiya etiladi. Tezlik qaydlarini olish bo'yicha tavsiyalardan ba'zi qisqartirish usullarini ham olishingiz mumkin. Modellash va sxemalashtirish bo'yicha o'rgatish [3; 4] Maktab o'quvchilarini sxematishtirishga o'rgatish diagrammalarni "o' - belgilar ortidagi o'quv materialining mazmunini ko'rish; - mavhum va moddiy ob'ektlarni shartli belgilar bilan almashtirgan holda diagrammalar yaratish; - sxemalarini ularning funktsional maqsadiga muvofiq ishlaydi. Sxemalarning quyidagi modifikatsiyalari ajralib turadi: - tushunishni tashkil etishni osonlashtirish (kognitiv shakllantirish: tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, umumlashtirish, tasniflash, sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish va boshqalar): - ob'ektiv ontologik sxemalar; - muloqotni tashkil etishga ko'maklashish kommunikativ

ta'lim faoliyatini shakllantirish; - suhbatdoshni tinglash, dialog o'tkazish, muzokaralar olib borish va boshqalar), rahbarlar; - faoliyatni tashkil etishga ko'maklashish (tartibga solish nazorati tizimini shakllantirish, mustaqil ravishda maqsadlar qo'yish, faoliyatni rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish va mulohaza yuritish). Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki bugungi tez sur'atlarda rivojlanayotgan axborot asri ishtirokchilarga ma'lumotlarni vizualizatsiya shaklida so'zlar bilan emas, balki rasmni tuzish, o'quv materialining mazmunli elementlarini belgilar, diagrammalar yoki chizmalar ko'rinishidayozi bolishnitaqozoetmoqda. Bu esa mavjud o'quv ma'lumotlarini faol idrok etishda o'quv materialini taqdim etishning maxsus tashkiliy va puxta o'ylangan usullarini, hamda o'qituvchida semiotik tajribani, ya'ni bir vaqtning o'zida ko'rinadigan, "siqilgan" formatda katta hajmdagi ma'lumotlarni taqdim eta olish kompetentsiyasini rivojlantirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lavrentyev, G.V., Lavrentyeva, N.B., Neudaxina N.A. 1. Kasbiy tayyorgarlikda innovatsion o'qitish texnologiyalari ([Elektron resurs] qismi. – URL:innov/Part2/ mutaxassislar) http://www2.asu.ru/cppkp/index.files/ucheb.files/ ch8/glava_8.html) (Kirish sanasi 14.12.2018)
 2. Rus pedagogik entsiklopediyasi: 2 jildda [Matn] / ch. ed. V.V. Davydov. – M.: Buyuk rus ensiklopediyasi, 1993. – T.2. – 608 b.
 3. Ivolgina. L.I. Maktab o'quvchilarini sxematiklashtirish va modellashtirishga o'rgatish. 5–9-sinflar [Matn] / L.I.

Ivolgina. - Volgograd: O'qituvchi: IP Grinin L.E., 2015. - 103 p.
 4. Ivolgina L.I. O'qituvchiga sxemalar haqida [Matn] / L.I.Ivolgina. -Krasnoyarsk: Kroopsioso, 2008. - 128 p.
 5. Kolpakov V.M. Boshqaruv usullari // Katta kutubxona. 2006-2011. [Elektron resurs]: URL: http:// biglibrari.ru/category38/book114/part27//. (Kirish sanasi 20.12.2018)
 6. Gardner G. Aqlning tuzilishi: ko'p intellekt nazariyasi: Tarjima. ingliz tilidan. – M.: MChJ "ID Uilyams", 2007. – 512 b.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

https://lib.tisu.uz ISSN 2992-9016

Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi, dots.v.b.pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz (O'zbekiston) e-mail: saloxitdinovanavruza@gmail.com.
 Safarqulova Nasiba Olimjonovna Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi magistranti, Termiz (O'zbekiston)
 Qobilova Maftuna Abdurasulovna Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi magistranti, Termiz (O'zbekiston)

STEAM YONDASHUV ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

(Boshlang'ich ta'lim fanlari misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar"ning o'zaro fanlararo bog'liqligi ifoda etilgan. Ya'ni, "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" o'zaro qay tartibda bir-biri bilan integrativ jarayonga kirishishi va fanlararo aloqadorlik STEAM yondashuv asosida qanday yoritilishi bayon etilgan. Tabiiyki, ishlab chiqarishda texnika va texnologiya sohasiga oid bo'lgan turli xil muammolar ko'plab uchrab turadi va ularni bartaraf etmasdan turib ishlab chiqarishning samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Bu jarayon esa, albatta "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" bog'liqligini namoyon etadi.

Tayanch so'zlar: texnologiya, Tabiiy fanlar, integratsiya, texnika, fanlararo bog'liqlik, STEAM. МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА STEAM (В случае предметов начального образования)

Аннотация. В этой статье описываются междисциплинарные отношения между технологиями и естественными науками в начальном образовании на основе подхода STEAM. То есть объясняется, как технологии и естественные науки вступают друг с другом в интегративный процесс и как освещается междисциплинарная связь на основе STEAM-подхода. Естественно, что в производстве существует множество технических и технологических проблем, без устранения которых невозможно повысить эффективность производства. Этот процесс, безусловно, показывает связь между «Технологии» и «Естественными науками».

Ключевые слова: технология, естественные науки, интеграция, техника, междисциплинарность, STEAM.

METHODOLOGY FOR IMPROVING INTEGRATED EDUCATION BASED ON THE STEAM APPROACH

(In the case of primary education subjects)

Abstract. This article describes the interdisciplinary relationship between technology and natural sciences in primary education based on the STEAM approach. That is, it is explained how technology and natural sciences enter into an integrative process with each other and how the interdisciplinary connection is illuminated based on the STEAM approach. Naturally, there are many technical and technological problems in production, and it is impossible to increase the efficiency of production without eliminating them. This process certainly shows the connection between "Technology" and "Natural Sciences". **Key words:** technology, natural sciences, integration, technology, interdisciplinarity, STEAM.

Kirish.

Ma'lumki, yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo'lib kelgan. Xuddi shuningdek bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi,

desak – ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda [1; 488-b.]. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi – Ijtimoiysohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan ma'ruzalari va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas". Mamlakatimizda ma'lumki "Ta'lim to'g'risida" va Milliy o'quv dasturlarining mohiyatida jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yilgan. Jumladan hozirda ta'limning asosiy maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan

mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda ta'lim sifati talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo'lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo'llashga ehtiyoj tug'ilmoqda. Xususan bugungi kadrlarni yetishtirishda bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga moslasha oladigan, raqobatdosh, faol shaxslarni, ya'ni mutaxassislarni shakllantirishdan iboratdir. Bu masala boshqa fanlar qatori "Texnologiya" fanini o'qitishda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifa mazmuni esa, fikrimizcha "Tabiiy fanlar" bilan o'zaro aloqadorlikda yanada oydinlashadi. Hamda bu fanlar orasidagi aloqadorlikni STEAM yondashuv asosida shakllantirilsa, o'quvchilar tushunishi yanada qiziqarliq kasb etadi. STEAM bu—S — science, T — technology, E — engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslanganligi mutanosiblikda maqsadimizni oqlaydi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharqning buyuk mutaffakkirlari, allomalari o'zlarining ilmiy-tarbiyaviy asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy me'roslarida halol, yaratuvchan, ijodiy mehnatni, kasb-hunar egallashning muqaddasligi va zarurligini ta'kidlagan va ulug'lagan edilar. Jumladan, Ahmad al-Farg'oni, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Shayx Najmiddin Kubro, Burxoniddin Marg'inoniy, Mahmud Chag'miniy, Baxovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar o'z asarlarida ijodiy

ishni, yaratuvchan mehnatni, kasb-hunarni o'z asarlarida ifoda qilganlar [11; 156-b.]. Yangi qurilmalarga oid ixtirolar yaratish borasida ayniqsa, Ahmad al-Farg'oni (IX asr), Abu Rayhon Beruniy (IX-X asrlar) hamda Mahmud Chag'miniylar (XII-XIII asrlar) ijodini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Al-Farg'oniyning bu sohadagi yirik asarlaridan biri astronomik kuzatish asbobi – asturlob yasashga bag'ishlangan "Kitob fi sa'ha al-asturlob" (Asturlob yasash haqida kitob) asari bo'lib, alloma unda stereografik proyeksiyalash, astrolyabiya yasash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar jadvallari, shimoliy va janubiy asrolyabiyani yasash bo'yicha o'z tavsiyalari misolida yangi texnik yechimlarni ishlab chiqishga oid g'oyalarini bayon qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo hududida paydo bo'lgan yangi ma'rifatparvarlik oqimining M.Behbudiy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy kabi namoyandalari o'zlarining yangi usuldagi maktablarida ilk bor yoshlar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning evristik usullarini tatbiq qildilar. Jumladan Fitrat aqliy tarbiya o'qish-o'rganish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi va bunda tabiatan in'om etilgan fikriy va ilm vositasida hosil bo'luvchi kasbiy (komil) aqlni ajratib ko'rsatadi [10; 271-b.]. Ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida bu masalalar atroflicha o'rganilgan. Vatanimiz pedagog olimlari A.I.Vorobyev, K.Davlatov, R.Mavlonova, P.T.Magzumov K.Mirsaidov, N.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, M.O.Ochilov, J.Ramizov, N.S.Sayidahmedov, O'.Tolipov, Sh.S.Sharipov, O.Eshonov, A.R.Xodjaboyev, E.T.Choriyev, N.Shodiyev, O.Qo'ysinov, O.H.Hayitov va boshqalar tomonidan yoshlarni kasbga yo'naltirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarni amaliy-pedagogik faoliyatning turli sohalarini, jumladan, talabalar va o'quvchilar ijodiy faoliyatini samarali boshqarish muammolari yoritib berilgan. Bu tadqiqotlar zamirida texnologiya va tabiiy fanlar fanlararo aloqadorligi ta'minlangan bo'lsa-da, aynan boshlang'ich ta'limda bu fanlarning o'zaro bog'liqligi STEAM yondashuv orqali shakllantirish jarayoni to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola uchun o'qitishning samarali metodlari (muammoli, mantiqiy, og'zaki bayon etish, kuzatish, tajriba o'tkazish) asosida boshlang'ich ta'limda texnologiya va tabiiy fanlar integratsiyasi mazmuni STEAM yondashuv asosida tadqiq qilingan. Tahlil va natijalar. Ma'lumki, qadimdan ota-bobolarimiz o'z farzandlarining ta'lim-tarbiya olishi, hunar o'rganishiga alohida e'tibor qaratganlar. Binobarin, har bir ota-onaning o'z farzandlari oldida burchlari bor, jumladan, yaxshi nom qo'yish, xat-savod o'rgatish, kasb-hunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish. Qadimdan ota-bobolarimiz bu naqlga amal qilib kelishgan. Ular hech bo'lmaganda o'zlarining hunarlarini avlodlariga meros qilib qoldirishgan. Ana shu tufayli bizning milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, milliy hunarmandchiligimiz asrlar osha rivojlanib sayqal topib kelmoqda. Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishgan davrdan boshlab o'zbek o'g'il-qizlarini zamonaviy o'quv muassasalarida, zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda, malakali mutaxassislar qo'lida ta'lim-tarbiya topishlari uchun ta'lim tizimida tubdan islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar barcha fanlarni o'qitilishida bir qator vazifalarni maqsad qilib qo'ymoqda. Shu bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" darslarini o'qitishni va o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarini yanada yaxshilash uchun bir qancha amaliy ishlarni amalga oshirish zarurligi yaqqol ko'rinmoqda. Ayniqsa, kasb-

hunarga yo'llash masalalari esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslarini o'qitishni yaxshilashga katta ahamiyat qaratishni talab qilsa, "Tabiiy fanlar" orqali esa, har bir kasbning faqat kasb-hunar egalarini emas, balki mustaqil fikrlay oladigan va ishlaydigan shaxslarni tarbiyalashni bog'liqlikda ifoda eta oladi. Chunki, bu fanlar negizida tabiat va hayot o'rtasidagi bog'liqlikni bola tushunadi va ang'ayolishiga yordam beradi. Shularni hisobga olgan holda mustaqil fikrlay oladigan va ishlay oladigan shaxsni tarbiyalash masalasini maktablarda o'tiladigan "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" mashg'ulotlarining asosiy mezonini qilib belgilab olishimiz ayni maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fanining asosiy maqsadi – maktab o'quvchilariga texnologik ta'lim qirralarini singdirishdan iboratdir. Ya'ni bu – texnologiya fani o'qituvchisi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularni mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohada ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir [3; 4; 5; 6]. "Tabiiy fanlar" darslarida esa, o'quvchilarning amaliy ishlarini, shu jumladan mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etish bevosita o'qituvchining shu sohaga oid bilimi hamda pedagogik mahoratiga bog'liqligini ko'rsatadi. Odatda bunga oid tushunchalar o'quvchilarga "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" va "Geografiya fanini o'qitish metodikasi" fanini o'qitish jarayonida beriladi. Ya'ni texnologiya fanini o'qitish metodikasi umumlashtiruvchi fan bo'lib, bunda talabalarga maktablarda texnologiya fani darslarini tashkil etish shakllari va usullaridan foydalanish ishlari umumiy tarzda o'rgatiladi [7; 52-b.]. Bunda o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalaridan, xususan, interfaol metodlardan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga ayni hozirgi darsliklarda alohida ahamiyat berilgan. Shundan kelib chiqib, Bu o'quv fanlari o'zaro uyg'unlikda ta'limning uzviy bir qismi vazifasini ham o'taydi.

"Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" da fanlararo aloqadorlikni STEAM yondashuv asosida amalga oshirsak, mazmunda nima o'zgarishlar yuz beradi? STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi? Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar". STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'lalilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. STEAM ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya,

muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir-oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham. So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Xulosa. An'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Bu jarayonni bevosita "Texnologiya" va "Tabiiy fanlar" uyg'unligida amalga

oshishini ta'kidlash joiz. Chunki STEAM dasturi tarkibida bu fanlar hamohanglikda mavjud holatda bir-biriga tayanadi. Fikrimizcha, bu kabi ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi, shuningdek, universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

Chunki, boshlang'ich sinflarda integratsion yondashuvni yanada samarali yo'lga qo'yish o'quvchilarda texnologiya va tabiiy bilimlarni o'zlashtirishga yanada qiziqish uyg'otishi, ularning ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni mustahkamlashga yordam berishi ta'kidlanadi. Buning uchun bunday

tadqiqotlar doirasida boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish, o'z faoliyatini tahlil qilish va loyihalash, mustaqil izlanish, kasbiy muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. -Toshkent. "Ilm Ziyo", 2009. -192 b.
3. Miraxmedova D., Shamsiyeva Z., "Texnologiya" 1-sinf uchun darslik. T.: Respublika ta'lim markazi, 2021- 72 b.
4. Sanakulov X., Abdiyeva D., "Texnologiya" 2-sinf uchun darslik. T.: Respublika ta'lim markazi, 2021- 80 b.
5. Sanakulov X., Abdiyeva D., "Texnologiya" 3-sinf uchun darslik. T.: Respublika ta'lim markazi, 2022- 80 b.
6. Mannopova I.A., Sayfurov D.M., "Texnologiya" 4-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi" NMU, 2020- 112 b.
7. Saloxitdinova N.M. "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish" Uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Tamaddun", 2021. B.52.
8. Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi "Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences)" // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. P.221-225. Special Issue-7 (2021).
9. Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish texnologiyasi "Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў" ilmiy metodik jurnali. Nukus. O'zbekiston Pedagogika fanlari ITI Qorqalpog'iston filiali– 2022. 6/7-son. – B.68-73. (13.00.00 №20).
10. Saloxitdinova N.M., Erdanayev R.X. "Raqamli dunyo sharoitida ta'limga innovatsion yondashuvning pedagogik asoslari" Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021/10/06. B. 271-274
11. Saloxitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi ilmiy-uslubiy jurnal №1/2023. ISSN 0000-0000. B. 150-156.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz (O'zbekiston)
E-mail: jumayeva.gulnora@mail.ru

MAKTAB O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va nazariy asoslari, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi qadrlash, reflektiv va ijodiy fikrlash, qiymat-gnoseologik va faoliyat-ijodiy tahlil qilinadi. tuzilmalar, tarkibiy qismlarning mazmuni ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy qismlari ko'rsatilgan. **Tayanch so'zlar:** kasbiy madaniyat, kasbiy faoliyat, aks ettirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, psixologik, pedagogik.

ПРОФЕССИЯ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры содержимое компонентов подсвечивается. Также в статье представлены психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей. **Ключевые слова:** профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическая, педагогическая.

PROFESSION OF SCHOOL TEACHERS DEVELOPMENT ISSUES CULTURES

Annotation: This article analyzes the relevance and

theoretical foundations of the problem of developing the professional culture of teachers, the process of developing the professional culture of school teachers, self-control, self-esteem, reflective and creative thinking, value-epistemological and activity-creative structures, the content of the components is highlighted. The article also presents the psychological and pedagogical features and components of the development of the professional culture of school teachers. **Key words:** professional culture, professional activity, reflection, self-control, self-assessment, psychological, pedagogical.

Kirish.

Mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning jahon pedagogik amaliyotida o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so'ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan "pedagogik dunyoqarash" (pedagogical worldview) muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini

va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish orqali ularning dunyoqarashini, ma'naviy-axloqiy tafakkurini boyitish va rivojlantirishning ilmiy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbalar hamda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan D.O.Ximmataliyev, M.Ochilov, R.Mavlonova, K.Zaripov, O.Musurmonova, A.Xoliqov va boshqalar pedagogik faoliyat mazmuni, o'qituvchi mahoratini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy madaniyati to'g'risidagi ilmiy asoslangan fikrlari bilan maqsad, vosita va xususiyatlarini yoritib bergan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastenin, YE.V.Bondarevskaya, O.S.Matveyeva, L.V.Benin, YE.V.Bondarevskoylar tomonidan mutaxassis kasbiy madaniyati mazmunini aniqlashtirish, kasbiy professiogrammani ishlab chiqish, o'qituvchining kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlarda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha Arnold, Jason Diamond (Arnold, Jeyson Daymond), Chris Watling Erik Driessen (Erik Drissen), James Gerard (Pirs, Jeyms Jerard), Szeto, Elson (Szeto, Elson) kabi mutaxassis olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. O'zbekistonda maktab o'qituvchilarining kasbiy

madaniyatini aniqlash mezonlari tahlili qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyati sifatini baholash bo'yicha yondashuvlar o'rganildi. Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, "kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar" sifatida belgilangan. Bu esa, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi [1]. Kasbiy madaniyatga oid qarashlar qadimgi qo'lyozmalarda, diniy va didaktik manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Avesto"da kasb-hunarga hurmat, kasbga sadoqat, mehnatsevarlik, xushmuomalalikka undovchi hikmatlar, Islom dini ta'limotida mehnat qilish va uning ortidan topilgan boyliklardan zakot berilishi, har bir musulmon kishi o'z kasbining orqasidan halol yo'l bilan rizq topishi kerakligi haqidagi o'gitlar odamlarda kasbiy madaniyat rivoji odob-axloq qoidalariga bog'liq ekanligi asoslangan. XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi hafida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqiy Muhsiniy" asarida quyidagi fikrni keltiradi: "O'qituvchi bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning

narsani bildiradi, masalan, tana harakatlari ruhning belgilari bo'lib xizmat qiladi". Atoqli zamonaviy olim Frensis Bekon (16-asr oxiri — 17-asr boshlari) ham so'z va narsalarning ma'nosini so'zlarning yordamisiz yoki vositachilisiz ifodalovchi belgilarini ajratadigan belgilarni o'rgangan. Narsaning belgilari, uning fikricha, ikki xil bo'ladi: birinchi holda, belgi narsaning unga o'xshashligi (ieroglif va imo-ishoralar) asosidagi ma'noni ifodalaydi, ikkinchisida, belgi butunlay shartli (masalan, Xitoyda ishlatiladigan "haqiqiy" belgilar va harflar va so'zlarni emas, balki narsalar va tushunchalarni ifodalaydi. 17-18-asrlarning Jon Lokk (1632-1704), Rene Dekart (1596-1650) va Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646-1716) kabi mashhur olimlari ham belgilar bilan qiziqdilar, ammo ular nazariyani ishlab chiqishga urinmadilar. belgilar tizimlari. Biroq, Jon Lokk o'zining mashhur "Inson tushunchasi to'g'risida insho" (1690) asarida bu murakkab muammoni "intelektual faoliyatning uchta katta tarmog'i" dan biri "belgilar ta'limoti" darajasiga ko'tarib, allaqachon mavjud bo'lgan konsepsiyani qo'llagan. "semiotika". Dekart ong va tananing asosiy bo'linishini taqdim etishda antik davrning asosiy mavzularini kiritganida (aniqroq aytish kerak) gnoseologik jihatdan ular orasida asosiysi reprezentativizm (vakillikka tayanish) edi - unga ko'ra, aqliy obyektlar narsalarni ifodalaydi. dunyo ongidan tashqarida, fikrlash esa bu g'oyalarni manipulyatsiya qilishni nazarda tutadi. Bunday dualizm (ikkilik) jiddiy muammolarni ko'tardi, uning muhim natijasi vakillik skeptitsizmi edi: vakilliklarning tasvirlangan narsa bilan zaruriy aloqasi yo'q. Xulosa: Shunga ko'ra, tilning tashqi olam bilan munosabatini "mantiqiy" yo'nalishda tahlil qilish, til vositasida ifodalangan

bilimlarimiz tashqi olam haqidagi bilimlar, shu bilim va tilga nisbatan transsendental, degan farazga asoslanadi. Shunday qilib yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi: 1. Til faqat fikrni ifodalash va ifodalash vositalarining berilgan va o'zgarmas tizimi sifatida faoliyat ko'rsatishi nuqtai nazaridagina o'z samarasini beradi. 2. Semiotikaning predmeti aloqaning barcha turlarining belgilari, belgi tomonlari ekanligini atroflicha tahlil etgan holda. Umumiy semiotikaning predmeti alohida semiotika natijalarini taqqoslash, qiyoslash va umumlashtirish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arzamastseva I.V. Semiotika: "Nazariy va amaliy tilshunoslik" ixtisosligi talabalari uchun ma'ruza darslari uchun darslik [Matn] / I. V. Arzamastseva. – Ulyanovsk: Ulyanovsk davlat texnika universiteti, 2009. – 89 b.
2. Komarova Z. I. Tilshunoslikda ilmiy tadqiqot metodologiyasi, metodikasi, metodikasi va texnologiyasi: darslik. nafaqa / Z.I. Komarova. - Ekaterinburg: UrFU nashriyoti, 2012. – S. 184.
3. Elmslev L. Til nazariyasiga prolegomena / L. Elmslev. -Xorijiy tilshunoslik. I. M., 1999. – B. 131–256.
4. Stepanov, Yu. S. Semiotika [Matn] / Yu. S. Stepanov. – M., 1971. – 168 b.
5. Pospelov D.A., Osipov G.S. Amaliy semiotika // Yangiliklar sun'iy intellekt. 1999 yil. y 1.
6. Ageev V.N. Semiotika. / V.N. Ageev. M.: "Ves Mir" nashriyoti, 2002. - 256 b.
7. Danesi, M. So'zboshi: Edusemiotics. I. Semetskiyda (Ed.), Semiotiucs ta'lim tajribasi (vii-xi bet). Rotterdam: Sense nashriyoti.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Ismoilov Bobur Toxirovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: 19boburtoxirovich93@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI KO'RGAZMALI O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 5 ta masalaning yechim metodikasini qurish jarayoni tajriba-sinov tariqasida tadqiq etildi. Tahlil etilgan masalalar zamiriga boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning ko'rgazmalilik usuli singdirilgan. Tahlil etilgan birinchi va ikkinchi masalalarda shakllar berilgan bo'lib, masala shartiga ko'ra mazkur shakllarni teng qismlarga ajratish so'ralgan. Shuningdek, har bir masalaning yechimini boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qalamlar vositasida tasvirlashi mumkinligi takidlab o'tilgan. Uchinchi masalaning yechimini yoritishda qo'l va barmoqlarning loyihaviy konstruksiyasidan ko'rgazmalilik vosita sifatida foydalanilgan. To'rtinchi masala yechimi boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga moslashtirilgan. Beshinchi masala yechimi induksiya usuliga tayanilgan holda izohlangan. Kalit so'zlar: ko'rgazmalilik tamoyili, shaklni teng qismlarga taqsimlash, matematik kompetentlik, matematika o'qitish metodikasi.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ С ВЫСТАВКОЙ

Аннотация. В данной статье экспериментально исследован процесс построения методики решения 5-х задач. В основе анализируемой проблемы лежит демонстрационный метод обучения математике в начальных классах. В анализируемых первой и второй задачах были даны формы и по условиям задачи эти формы предлагалось разделить на равные части. Также было отмечено, что ученики младших классов могут описать решение каждой задачи, используя цветные карандаши. Проект построения кистей и пальцев использовался в качестве демонстрационного средства для объяснения решения третьей задачи. Решение четвертой задачи адаптировано к возрасту учащихся младших классов.


Решение пятой задачи поясняется на основе метода индукции. Ключевые слова: принцип доказательности, деление формы на равные части, математическая компетентность, методика преподавания математики.

METHODOLOGY FOR TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY CLASSES WITH AN EXHIBITION

Annotation. In this article, the process of constructing a methodology for solving 5 problems is experimentally studied. The problem under analysis is based on a demonstration method of teaching mathematics in primary school. In the analyzed first and second problems, forms were given, and according to the conditions of the problem, these forms were asked to be divided into equal parts. It was also noted that elementary school students can describe the solution to each problem using colored pencils. The project construction of hands and fingers was used as a demonstration tool to explain the solution to the third problem. The solution to the fourth problem is adapted to the age of primary school students. The solution of the fifth problem is explained based on the method of induction. Key words: the principle of demonstrability, dividing the form into equal parts, mathematical competence, mathematics teaching methodology. **Kirish:** Dunyo oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash

muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim kontsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilanib, bu esa sifatli ta'lim berish, o'zlashtirish darajalarini baholash usullarini takomillashtirish va talabalar intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Yevropada o'qitish tizimlarining amaliyotga joriy qilinishi talabalar qobiliyatlarini rivojlantirish, didaktik, kreativ, integrativ, ijodiy, kasbiy bilimlardan samarali foydalanish texnologiyalarini hayotga tadbiiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati kuzatilmoqda. Jahonda bo'lajak o'qituvchilarning matematik kompetentligini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish oliy ta'lim tizimining asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida innovatsion metodik yondashuvlardan kengroq foydalanish, interfaol o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish asosida matematik kompetentlikni rivojlantirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish zaruriyatini belgilaydi [5; 5-b.]. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Talabalarda matematik tafakkurni va matematik kompetensiyalarni rivojlantirish, matematika fanini

o'qitish metodikasini takomillashtirish, matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, bo'lajak matematika fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlash masalalari respublikamiz olimlaridan B.Abdullayeva, M.Jumayev, D.Aduvaliyeva, D.N.Abdullayeva, G.Artiqova, M.Saidovalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, talabalarda muammoli masalalar orqali mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish, bo'lajak matematika va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning pedagogik, metodik, didaktik jihatlari bo'yicha D.Maxmudova, J.Ergashev, M.S.Berdiboyev, F.Raxmatova, M.I.Toshpo'latovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, N.U.Bikbayeva, M.I.Djumayev, M.K.Mamadjonova, M.A.Mirzaahmedovlarning ilmiy-metodik o'quv adabiyotlarida boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish metodikasi, talabalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish, matematika darslarida nostandart masalalardan foydalanishning ahamiyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan [2, 6, 10, 12]. Biroq, boshlang'ich sinf matematika darslarining o'qitilishida aksariyat masalalarning ko'rgazmalilik yechim metodikasi tadqiq etilmagan. Shu sababli ham mazkur turdagi masalalarning ko'rgazmalilik yechimiga to'xtalib o'tamiz. Quyidagi tajriba masalalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika fanini ko'rgazmalilik o'qitishlarida metodik ko'rsatma sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada 5 ta tajriba masalasi tahlil etildi. Har bir masalaning yechimini qurishda ko'rgazmalilik tamoyilidan foydalanildi. Birinchi va ikkinchi tajriba masalalari yechimi AKT imkoniyatlari orqali ranglar asosida shakllantirildi. Uchinchi tajriba masalasining yechimini taqdim etishda qo'l va barmoqlarga ishora beruvchi konstruksiya yaratildi. Qadimiy masala yechimi boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga moslashtirildi. Beshinchi tajriba masalasining yechimiga erishishda ko'rgazmalilik tamoyiling ahamiyati ochib berildi. Tahlil, natijalar va mulohaza: Quyida tahlil etilgan barcha tajriba-sinov masalalarning yechimini qurishda ko'rgazmalilik tamoyiliga asoslanilgan. 1-tajriba masalasi. Berilgan shaklni 4 ta bir xil qismga shunday ajratingki, har bir qismda bittadan nuqtacha joylashsin.



Berilgan shakl Yechim (1-usul) Yechim (2-usul)


Masalaning ko'rgazmali yechimida kuzatish mumkinki mazkur boshqotirma javobi ikki xil usulda tasvirlangan, haqiqatdan har bir yechim teng to'rt qismga ajratilgan hamda tanlangan qismlarda bittadan nuqtacha joy olmoqda. 2-tajriba masalasi. Berilgan shaklni teng 3 qismga ajrating.

Masalaning ko'rgazmali yechimi:



Berilgan shakl Yechim

3-tajriba masalasi. O'quvchi o'ng qo'lidagi barmoqlarini shunday sanay boshladi: 1-chi – bosh barmoq; 2-chi – ko'rsatkich barmoq; 3-chi – o'rta barmoq; 4-chi – nomsiz barmoq; 5-chi – jimjiloq; 6-chi – nomsiz barmoq; 7-chi – o'rta barmoq; 8-chi – ko'rsatkich barmoq; 9-chi – bosh barmoq; 10-chi – ko'rsatkich barmoq va hokazo [2; 45-b.]. Bunday hisoblashda 100-chi bo'lib qaysi barmoq sanaladi? 2016-chi bo'lib-chi? Masalaning ko'rgazmali yechimi:



1-rasm. Qo'l va barmoqlar konstruksiyasi.

1-rasm. Qo'l va barmoqlar konstruksiyasi. 1-rasmda tasvirlangan metodik yo'riqnomadan ko'rish mumkinki, 100-chi bo'lib nomsiz barmoq sanaladi. Chunki, 4gakaralibarchasonlar (4,12,20, ..., 100, ...) ushbu barmoqda sanalmoqda. 2016-bo'lib esa, ko'rsatkich barmoq sanaladi. Ushbu o'rinda ham yuqoridagi yondashuvdan foydalanamiz. Ko'rinib turibdiki faqat 8 ga bo'linuvchi sonlar (8, 16, 24, ..., 2016, ...) ko'rsatkich barmoqdan o'rin olgan, 2016 esa 8 ga karrali. 4-tajriba masalasi (qadimiy masala).


Qo'nishmoqchi bo'lishdi,
Gul shoxiga bulbullar.
Bir shoxga ikki bulbul,
Qo'nib aylasa navo,
Ortib qolar bitta shox,
Bulbullarsiz chekar u oh,
Bitta shoxda bir bulbul
Yolg'iz aylasa nola
Bir bulbulga yetmas shox,
Ilg'ab olgin jon bola.
Nechta edi bulbullar?
Va atirgul shoxlari?
Fikr qilib yecha qol,
Mayli sinab topa qol [4]!

Yechim rejasi:

Shoxlar soni x ta bo'lsin,
1) "Bulbullar 2 tadan qo'nganida 1 ta shox ortib qoladi" jumlasiga e'tibor bering. Bu esa, x-1 ta shoxga bulbullar qo'nishini anglatadi. Bunga ko'ra bulbullar soni 2(x-1)=2x-2 ga teng bo'ladi.
2) "Bulbullar 1 tadan qo'nganda 1 ta bulbulga joy qolmaydi" jumlasiga e'tibor bering. Bunga ko'ra bulbullar soni 1-x+1=x ga teng bo'ladi.
1) va 2) mulohazalarga tayangan holda umumiy tenglama yaratiladi. Tenglamasi 2x-2=x+1 ga teng
Shoxlar soni x=3 ta.


Bulbullar soni $x+1=2x-4=4$ ta.

Masalaning ko'rgazmali yechimi:



Bulbullar 2 tadan qo'nganida 1 ta shox ortib qoladi
Bulbullar 1 tadan qo'nganida 1 ta bulbulga shox yetmay qoladi


5-tajriba masalasi. Mazkur shakldan 47 ta uchburchakni toping.



Masalaning ko'rgazmali yechimi: Ushbu turdagi masalalar yechimini qurishda bir xil shakldagi uchburchaklarni sanash uchun ranglardan foydalanish tafsifiya etiladi. Namuna. Aynan shunday shakldagi uchburchaklar soni 6 ta ekan



Keltirilgan numuna asosida, berilgan shakldagi 47 ta uchburchak quyidagicha aniqlanadi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini samarali natijalar kafolatlangan yo'l xaritasi orqali o'qitish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasidadir, shu bois ham ularning matematik

kompetentligi rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Haqiqatdan ham tahlil etilgan tajriba-sinov masalalarining yechimini qurishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik kompetentligi rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Boshlang'ich sinf matematika darsliklarini o'qitish asosan, muammoli masalalar yechimining o'quvchi yoshiga munosib shaklda loyihalashtirilishi bilan izohlanadi. Shu bois ham, yuqorida tajribadan o'tkazilgan har bir masalaning metodik loyihasi boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga munosib tanlangan holda tahlil etildi. Bugungi kunda yaratilayotgan yangi avlod darsliklari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining sifatli va mazmunli ta'lim olishlariga qaratilgan bo'lib, fanlarning nostandart o'qitilishiga asoslanib tayyorlangan. Shu sababli ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur darsliklar borasida keng qamrovli tayyorgarlik holatiga ega bo'lishlari lozim. Ushbu tadqiqot ishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematika fanini samarali o'qitishlari yuzasidan taklif, tavsiya va metodikalar ishlab chiqishga urg'u berdik. Sir emaski, sog'lom matematik tafakkur va raqobatbardosh yoshlarimiz sonini ko'paytirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi asosiy komponenta sifatida gavdalanadi. Xulosa va takliflar: An'anaviy o'qitish metodikasi asosida ta'lim olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi aksariyat hollarda o'rganishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni eshitadi, ko'radi, qisman eslab qoladi, faqatgina ushbu bilimlarini takrorlaydi va yoddan aytib beradi, biroq adabiyotlar bilan kam ishlaydi, kritaiv fikrlashni hohlamaydi, xorijiy boshlang'ich sinf matematika darsliklari bilan deyrli qiziqmaydi. Mazkur muammolar kelajakda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bois ham mazkur maqolada matematika fanini o'qitish jarayonining ko'rgazmalilik tamoyiliga asosan olib borilishiga urg'u berildi. Uchinchi Renessans poydevorini qurishga asoslangan zamonaviy ta'lim talabaga aniq bilimlar ko'lamini emas, balki o'qitmoqchi bo'lgan o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olishni, uning har qanday noaniqlik sharoitlarida ham kasbiy faoliyatni amalga oshirishga

tayyorligini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy baholash va bashorat qilish qobiliyatini ta'minlaydigan kompetensiyalar majmuasini taqdim etishi kerak. Har bir ilm beruvchi maskan, har bir auditoriya zamonaviy ta'limning pirovard maqsadini bilimdan kompetensiyaga olib chiqishi kerak. Bu shuni anglatadiki, Uchunchi Rennans davrida zamonaviy ta'limning pirovard maqsadi, bilimli, mustaqil fikrli, raqobatbardosh, vataniga sadoqatli, yangi dunyoga moslashuvchan yoshlarni tarbiylashni nazarda tutadi. Shu o'rinda muxtaram prezidentimizning fikrlarini takidlashimiz joiz, "Yangi O'zbekistonimizni -yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z -Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni -tarbiyalash orqali erishamiz" [1]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik kompetentligi o'z kasbining shaxsiy-ijtimoiy ahamiyatini his qilishi, insonparvarlik tamoyiliga tayanish va ilmiy-gumanistik dunyoqarashga egalik, matematika oid bilimlarni o'zlashtirish shakllari va metodlarini hamda ularning evolyutsiyasini bilishi, jamiyat taraqqiyotida matematika fanining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunishi, axborotlarning zamonaviy qidiruv, qayta ishlash va foydalanish metodlarini o'zlashtirganligi, axborotni talqin qilish hamda moslashtirishni bilishi, shuningdek, matematik bilimlarni fanlararo sohalarda amaliy qo'llashga psixologik va metodik jihatdan tayyorligi bilan belgilanadi. Matematik kompetentsiya bu umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarning ajralmas qismi sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'zlashtirilgan matematik bilim va usullardan samarali foydalanish imkonini beruvchi shaxsiy va kasbiy (qadriyatli-fikriy yo'nalganlik, matematik bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyatlar) fazilatlarimajmuini o'zida aksettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020 yildagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4708 son qarori.
2. Artiqova G. Matematikadan amaliy mashg'ulotlar metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida takomillashtirish: Ped. fan.bo'yicha (PhD). ... diss. – Toshkent: 2020. – 95 b.
3. Boboyev O.P., Shamsiyeva G.F. Matematikadan qo'shimcha

- masala, mashq va misollar(Ixtisoslashtirilgan maktablarning 2 – 4-sinf o'quvchilari uchun). – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2017. – 75-b.
4. Guliyeva N. Qiziqarli matematika. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2003. – 47 b.
 5. Ismoilov B.T. Nostandart masalalarni yechish metodikasi / o'quv qo'llanma. – Termiz. "TerDU NMM", 2023. – 160 b.
 6. Ismoilov B.T. Yangi O'zbekistonning barpo etilishida matematik kompetentlik tushunchasining ahamiyati//TDPU axborotlari 2022/4-son, 296-b.
 7. Ismoilov, B. T. (2020). METHODOLOGY OF TRANSFER FROM A BALL TO A CUBE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(12), 6-10.
 8. Jumayev M.E., Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi(o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: "ILM ZIYO", 2017. – 7-b.
 9. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: "fan va texnologiya", 2005. – 5-b.
 10. Mamadjanova M.K. Mantiqiy, kombinatorik va nostandart masalalar (o'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 24-30 b.
 11. Mirzaahmedov M.A. Matematikadan masalalar va testlar to'plami: olimpiada masalalari. T.: "Nurafshon business", 2019.
 12. Raxmatova F. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematik tafakkurini takomillashtirish: (PhD).dis. – Chirchiq: 2019. – 66-90 b.
 13. Ismoilov, B. T. (2022). Обучение будущих учителей начальных классов решению конструктивных задач по технологии счетчика воды. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 867-872.



"TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali

https://lib.tisu.uz ISSN 2992-9016

Ma'rufjonova Rohila Lutfulla qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: marufjonovarohila69@gmail.com

МАКТАБГАЧА YOSHDAГI BOLALARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish orqali ularda, atrofdagi dunyo ob'ektlari va hodisalariga qiziqishni rivojlantirish, qiziqishni rivojlantirish va ilmiy faoliyatga motivatsiyani shakllantirish, ularning xususiyatlari (shakli, rangi, o'lchami, tuzilishi, tovushlilik va boshqalar) haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, vaqt va makonga yo'naltirish, munosabatlarni o'rnatish, zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash uchun ijobiy motivatsiya yaratish, qiziquvchanlikni, kuzatishni rag'batlantirish, turli asboblardan ishlash malakasini shakllantirish haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, faoliyat, muloqot, ijodkorlik, qobiliyat, psixik jarayonlar, kognitiv faoliyat, rivojlanish markazlari, tajribalar.

РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В статье через развитие исследовательской деятельности у детей дошкольной образовательной организации, развитие интереса к предметам и явлениям окружающего мира, развитие интереса и формирование мотивации к научной деятельности, первичные сведения о их характеристики (форма, цвет, размер, структура, звук и т.п.) формирование представлений, развитие умственных способностей, анализ, сравнение, обобщение, классификация, ориентация во времени и пространстве, установление связей, создание положительной мотивации к самостоятельному поиску необходимой информации, стимулируя любознательность, наблюдательность, различные инструменты, говорится о формировании умений работать.

Ключевые слова: исследование, деятельность, общение, творчество, способности, психические процессы, познавательная деятельность, центры развития, переживания.

DEVELOPMENT OF RESEARCH ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: In the article, through the development of research activities in the children of the preschool educational organization, the development of interest in the objects and phenomena of the world around them, the development of interest and the formation of motivation for scientific activity, primary information about their characteristics (shape, color, size, structure, sound, etc.) it is stated about the formation of ideas, development of mental abilities, analysis, comparison, generalization, classification, orientation in time and space, establishment of relationships, creation of positive motivation for independent search of necessary information, stimulation of curiosity, observation.

Keywords: research, activity, communication, creativity, ability, mental processes, cognitive activity, development centers, experiences.

Kirish.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish

bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi Toshkent shahrida kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasi «Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q», – dedi Shavkat Mirziyoyev (15.10.2022 yil Toshkent shahrida bo'lib o'tgan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasida so'zlagan nutqidan). Maktabgacha yoshdagi bolalarning eksperimentlarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik shartlarni nazariy jihatdan asoslash, ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinovdan o'tkazish. Muammoga oid ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik manbalarni o'rganish. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi ahvolini o'rganish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eksperiment o'tkazishda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularni amalga oshirish usullarini, vositalarini ishlab chiqish. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan talim tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlarda bola tarbiyasi uning aqliy va ahloqiy rivojlanishi birgaligidan iborat bo'lishi haqida o'z asarlarida ko'rsatib o'tgan. Yosh avlodga har tomonlama talim-tarbiya berish maqsadida B.Adizov, P.Jo'rayev, S.G'oziyev, O.Jamoldinova, M.Inomova, O.Musurmonova, M.Quronovlar Z.Ismoilova, U.Mahkamov, tomonidan ijtimoiy– pedagogik, antropologik va akmeologik masalalar ilmiy darajada o'rganib chiqilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshen, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safaev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi – Kuzatish metodi, suhbat metodi, eksperiment metodi, bolalar ijodini o'rganish

metodi, sinov tajriba metodi asosida bolalardagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish tadqiq qilingan. Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublarni innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi. Shuning uchun ham maktabgacha talim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish bugungi kunning asosiy vazivasiga aylanib bormoqda Bugunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy ishlar amalga oshirilib kelindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyati bolaning ushbu faoliyat sub'ekti sifatida faol transformatsion o'rni bilan tavsiflanadi [14, B. 56]. Kognitiv faoliyatning tuzilishi tizimning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir usuli sifatida belgilanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:



1-jadval. Kognitiv faoliyatning tuzilishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning to'liq kognitiv rivojlanishi bolaning mustaqil yoki birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga asoslanadi. Yosh bosqichlarida kognitiv jarayonlarning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagi aqliy kognitiv jarayonlar o'zboshimchalik bilan xarakterlanadi. Bolalar o'zlari, atrofidagi dunyo haqida bilim oladilar, ma'lumotni maqsadli ravishda o'zlashtiradilar, tahlil qilish, umumlashtirishga murojaat qilishlari mumkin. Kognitiv faollik shakllanish jarayonida, bolaning kelajakdagi rivojlanish darajasini belgilaydi. Maktabgacha tarbiya bosqichiga qanchalik ko'p e'tibor berilsa, maktab hayotida bolalar uchun osonroq bo'ladi. Bola mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. Bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgarib boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi [7, B. 43]. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikaning rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning

koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi [6, B. 144]. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi. Ushbu yoshda bolada bir qator psixologik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari uchrashi mumkin. Diqqat. Maktabgacha yosh davriga kelib bolada ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi [12, B. 96]. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin. Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi [12, B. 106]. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatliyligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi.

Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o'rgatish mumkin. Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantiqini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyliigi mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha bo'lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi. Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o'ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu faqat yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantazyani rivojlantirish uchun o'ta muhimdir. Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'la boradi. So'z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot

qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3 000 ta so'z gacha boyib boradi. Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejasini" ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Bolaning o'z-o'zini anglashida "Men" obrazini anglashi refleksiv qobiliyatini belgilaydi, ya'ni, tahlil qilishi, o'z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o'z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma'nan rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "Men qila olaman" motivlarining anglanishi "Men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi. O'z "Men"ini anglash va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo'lishi yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – "maktab o'quvchisi o'rnini"ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi [13, B. 266]. 6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy "Men" ini anglash paydo bo'ladi. O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi

bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqlivayoqimsizbolalargaajralibqolishlarianiqnamoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarini o'zlashtirishni va uni amalga oshirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar. O'yinlar murakkablasha boradi, ba'zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo'ladi. Bunda bolalar butun o'yin maydonini to'la kuzatib turishga, o'yindagi barcha ishtirokchilarni ko'rib turishga va zaruriy o'yin harakatlariga bog'liq bo'ladigan o'z xulq-atvori yoki rolini o'zgartirib turishga qodir bo'ladilar. Bola hissiyotlarning beshta turi bilan atrof muhitni o'rganadi. Nima uchun ko'plab bolalar dunyo va tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishni yo'qotadilar? Ehtimol, bizdan - kattalardan so'rash yaxshiroqdir. Bolaning dunyoni kashf etish istagiga biz odatda qanday javob beramiz? "Qumga tegmang, ko'lmakka kirmang, uloqtiring, tegmang, iflos bo'lasiz. Biroz vaqt o'tgach, katta yoshli bola boshqa bolalar bilan ham gaplashadi va u endi nima uchun qor yog'ayotgani yoki yomg'ir yog'ayotgani, shamol qayerdan esayotgani, nega barglar kuzda tushayotgani bilan qiziqmaydi. Ehtimol, biz - kattalar, atrofimizdagi dunyoga qiziqishni yo'qotganmiz, shuning uchun endi o'rganmaymiz va kuzatmaymiz. Shuning uchun, bizning bolalarimiz ushbu kashfiyotchilik qobiliyatini saqlab qolishlari uchun ularni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Dunyoni o'rganish paytida kiyimlar ifloslanishi, tutqichlar ifloslanishi muhim emas - bularning hammasini o'z holiga qaytarish mumkin, ammo yoshga qarab yo'qolgan dunyoga bo'lgan qiziqishni tiklab bo'lmaydi. Bolalarning qiziqishi - bu bolaning normal holati. Bolaning atrof-olamdagi o'zgarishlar, hodisalardan ta'sirlanib, hayratlanib savol berishi juda yaxshi holat sifatida qaraladi [10, B. 88]. Bunday vaziyatda tarbiyachi – pedagoglar hamda ota-onalar bolalarning "nega" degan savollariga javob berish kerak, yaxshisi bolalar uchun tushunarli bo'lgan tilda va undan ham ko'proq o'rganish istagi uchun maqtash kerak. Ammo bolani paydo bo'lgan savollarga mustaqil ravishda

javob topishga yo'naltirsak yaxshi bo'ladi: empirik yoki entsiklopedik usul. Har bir bola o'rganish uchun turli xil narsalarni juda oson topishi mumkin. Bolalar uchun atrofimizdagi olam tajribalar uchun ulkan laboratoriya. Bola tadqiqotchi, ota-onalar va o'qituvchilar ko'magi bilan, ajoyib kattalar tadqiqotchisi bo'lib o'sadi. Bunday odam nafaqat aqlli, balki juda kuzatuvchan, mantiqiy fikrlash va xulosalar chiqarishga qodir bo'ladi. Bunda kattalar atrofida juda ko'p g'ayrioddiy va qiziq narsalarni topadi, u atrofidagi hamma narsadan xursand bo'lishi va chin dildan hayratga tushishi mumkin. Shunday qilib, bolaning rivojlanishida o'yin faoliyati bilan bir qatorda tadqiqot faoliyati juda katta rol o'ynaydi. Bu xotirani kengaytiradi, fikrlashni faollashtiradi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, bolaning ufqini kengaytiradi. Kuzatish, o'rganilayotgan sub'ektlar bilan bevosita aloqada bo'lish, tajribalar olib borish maktabgacha yoshdagi bolalarda kuchli bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotlarga qiziqish shakllanadi, eksperimental harakatlar uchun motivatsiya rivojlanadi. Bolalar bog'chasida tadqiqot faoliyatini tashkil etishdan maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir [17; B. 80]. Bugungi kunda maktabgacha talim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, xohishi, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad,

bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va yozishi ya'ni uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad quydagilarda o'z ifodasini topgan. Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash orqali fikrlash jarayonida boladagi va kognitiv qiziqishni faollashtirish hamda rejalashtirish va uning nazoratini bolaga topshirishdan iborat. Bundan tashqari, nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish, tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish, bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish orqali vizual idrok (yorqin taassurot natijasida paydo bo'ladigan aniq ichki sezgi) ni rivojlantirish hamda psixik jarayonlar bo'lgan diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, fikrlash, tasavvurni rivojlantirib borishdan iborat.

Kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini hamda jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish bolalarda tadqiqotchilik qobiliyati va kognitiv faoliyatini rivojlantirish istiqbollari kengaytirib borish orqali bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish vazifalarini o'z oldiga qo'yadi [12; B. 106]. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir [7; B. 35].

Rivojlanish markazlari funksiyalari

ta'lim,	rivojlantiruvchi,	rag'batlantiruvchi,	kommunikativ
---------	-------------------	---------------------	--------------

2-jadval. Rivojlantirish markazlar funksiyalari

Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida faoliyat markazlarini tashkil etish orqali bolada mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak. Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi lozim. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak [12; B. 107]. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamalik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi hamda tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalar bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi. Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi: har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallari. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatisatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan "Sartarosh", "Kasalxona" va "Do'kon" o'yinlari atributlari. Til va nutq markazi: didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblarikutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit

harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari. Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallar, "Tabiat va odam" rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo'yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'yin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar ko'rgazmalari bilan jihozlanadi. San'at markazi: tasviriy faoliyat zarur jihozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari bilan jihozlanadi. Markazlardagi bolalar faoliyati o'yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, samarali, musiqiy, badiiy rolli tarzda tashkil etiladi [7; B. 15]. Rivojlanish markazlarida o'quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o'qish ensiklopedik adabiyotlarni o'qish, ko'rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish pedagogning mohirlik bilan faoliyat olib borishidan dalolatdir. Xulosa va takliflar: Ta'limning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini Maktabgacha yoshdagi bolada bilish jarayonini rivojlanishi jadallik bilan amalga oshadi. Ushbu jarayon orqali bolada intellektual-anglash malakalari rivojlanadi bu jarayonda bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi. Bilish jarayonini rivojlanishi orqali bolada atrof-olam haqida mustaqil ma'lumot izlash, kuzatuvlar asosida xulosa qilish va umumlashtirish, yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytish, rasmlar bo'yicha ketma-ketlikni saqlagan

holda fikr yuritish, o'z mamlakati va uning ramzlari, o'z xalqining ayrim milliy an'analari va odatlarini bilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shunday qilib yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi: 1. Katta va tayyorlov guruhlarida "Ilm-fan va tabiat" markazida 6-7 yoshlilarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish. Tabiiy tajribalarni tizimli ravishda amalga oshirildi. 2. "Ilm-fan va tabiat" markazi qoshida bolalarni tabiiy fanlarga qiziqishini orttirishga xizmat qiluvchi tajriba maydonchalarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. 3. Mashg'ulot so'ngida o'zini namoyon qilishga undaydigan va bilim saviyasini namoyon qiladigan turli o'yinlar hamda kayfiyatini oshiruvchi psixotrening mashqlar, psixologik treninglardan foydalangan holda faoliyat ko'rinishida o'tkazish samarali natija beradi. 4. Pedagog tarbiyachilar o'rtasida "Tadqiqotchi tarbiyachi" tadbirlar tashkil etish va faoliyatning keyingi bosqichlarini tashkil qilish ta'lim jarayoniga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ 4312-son qarori. 43-60 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ 2707-son qarori 20-bet
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 3032-son 03.07.2018 1-7 bet
4. "Ilk qadam" MTM ning davlat o'quv dasturi 2018-yil Toshkent. 106-107bet
5. Umumiy psixologiya P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Toshkent 2008 73-74 b
6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi (o'quv qo'llanma) Sh.A. Sodiqova, M.A. Rasulxo'jaeva Toshkent, 2013. 43-bet
7. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent "Ilm ziyo" 2012.
8. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi darslik B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva Toshkent, 2018. 70-bet
9. Innovatsion ta'lim jarayonida bolalarda ekologik tushuncha va tasavvurlarini shakllantirish Pulatova D.T maqola "Zamonaviy ta'lim" 2016-yil. 44-bet
10. Maktab yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish masalalari: Boboyorov R.O, Babayorova G.N. maqola zamonaviy ta'lim 2015.
11. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" T O'qituvchi 1993.
12. Umumiy psixologiya E.G'oziev T 2002.
13. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. Tadqiqot.uz T. 2020



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Ismoilov Bobur Toxirovich Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: 19boburtoxirovich93@gmail.com
Nurullayeva Dinora Qoziboy qizi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi magistranti, Termiz (O'zbekiston)
E-mail: dinoranurullayeva30gmail.com

AMALIY MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN FOYDALANIB BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada geometrik shakllar orqali masalar tuzish hamda 3 ta masalaning yechim metodikasini qurish jarayoni tajriba-sinov tariqasida tadqiq etildi. Tahlil etilgan masalalar zamiriga boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning geometrik shakllar orqali o'quvchini kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasi singdirilgan. Tahlil etilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi masalalarda geometrik shakllar berilgan bo'lib, masala shartiga ko'ra mazkur shakllar nomlarini boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchisi ko'magisiz ayta olishlari, ushbu shakllardan foydalanib turli kombinatsiyalarni yasashlari hamda yasalgan kombinatsiyalar orqali masalalar tuzishlari so'ralgan. Shuningdek, har bir masalaning yechimini boshlang'ich sinf o'quvchilari kuzatish orqali rangli qalamlar vositasida tasvirlashi mumkinligi takidlab o'tilgan. Masalaning yechimini yoritishda loyihaviy konstruksiyasidan ko'rgazmali vosita sifatida foydalanilgan. Masala yechimi boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga moslashtirilgan. Masala yechimini qurish jarayoni, yasash, kuzatish va tasvirlash usullariga tayanilgan holda izohlangan.

Tayanch so'zlar: geometrik shakl, shakllardan masala tuzish, matematik tasvir, kuzatish metodikasi.

ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФОРМ В ПРОЦЕССЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ

Аннотация. В данной статье экспериментально исследован процесс создания задач с использованием геометрических фигур и способ решения 3-х задач. В основу анализируемых вопросов заложена методика преподавания математики в начальных классах, обучающая учащихся творчески мыслить


посредством геометрических фигур. В анализируемых первой, второй и третьей задачах даны геометрические фигуры, и по условию задачи учащиеся младших классов могут без помощи учителя произносить названия этих фигур, составлять с использованием этих фигур различные комбинации, решать проблемы через сделанные комбинации. Также было отмечено, что учащиеся младших классов могут путем наблюдения описать решение каждой задачи с помощью цветных карандашей. Конструкция конструкции использовалась как наглядный инструмент для пояснения решения проблемы. Решение задачи адаптировано к возрасту учащихся младших классов. Объясняется процесс построения решения проблемы на основе методов изготовления, наблюдения и описания. Ключевые слова: геометрическая форма, решение задач из фигур, математическое представление, методика наблюдения.

TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS IN CREATIVE THINKING USING GEOMETRICAL FORMS DURING PRACTICAL LESSONS

Abstract. In this article, the process of creating problems using geometric shapes and the method of solving 3 problems was researched experimentally. At the core of the analyzed issues, the methodology of


teaching mathematics in elementary grades, teaching students to think creatively through geometric shapes, is embedded. In the analyzed first, second and third problems, geometric shapes are given, and according to the condition of the problem, elementary school students can say the names of these shapes without the help of the teacher, make various combinations using these shapes, and solve problems through the combinations made. were asked to make. It was also noted that elementary school students can describe the solution of each problem with the help of colored pencils through observation. The design construction was used as a visual tool to clarify the solution of the problem. The solution to the problem is adapted to the age of primary school students. The process of building a solution to a problem is explained based on the methods of making, observing and describing. Key words: geometric shape, problem solving from shapes, mathematical representation, observation methodology. Kirish: Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev matematika fani haqida shunday degan edilar, “Matematikani yaxshi bilgan bola aqilli, keng tafakkurga ega bo'ladi va istalgan sohada ishlab keta oladi [1]. Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Umum ta'lim maktablari ta'lim tizimi bir muncha murakkablashib matematika darsliklarida yosh kesimida oziga xos misol masalalar bilan boyitilgan. O'quvchilar intellektual salohiyati, kreativ fukrlashi hamda dunyo qarashini rivojlantirish uchun ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish lozim. Samaradorlikka erishish uchun uzviy ravishda boshqa fanlar bilan bogliqligini oshirish kerak. Umumta'lim maktablarida matematika darsliklari o'quvchilarning yoshiga nisbatan fanni o'zlashtirishni qiyinlashtiruvchi murakkab masalalardan iborat va boshqa fanlarda o'tiladigan mavzular bilan uyg'unlashtirilmagan [2]. Muhtaram prezidentimizning matematika darsliklari yuzasidan bildirgan ushbu fikrlari mutlaqo to'g'ri bo'lib, tadqiqot ishimizda o'quvchilar yoshiga mos, ularning matematik qiziqishlarini oshiruvchi topshiriqlar keltirildi Ta'limning barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish,

xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tadqiqot ishimizda, matematika fanini o'quvchilarimizga chuqurroq yoritish yo'llarini ko'rsatish masalasi ilgari surildi. **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Matematika fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning matematik tushunchalarni o'zlashtirish (Alixonov S, Mamatov M.Sh., Potoshnik M.M., Sultonova X.A., Toshpo'latova M, Djumayev M.I); mantiqiy matematik tafakkurini rivojlantirish (Abdullayeva B.S., Andervud D, Ataxonov R, Talzina N.F); muammoli ta'lim (Davidov V.V., Zimniya O.V., Mamatov M.Sh., Mahmudova D.M., Marshal H); modulli o'qitish (Boysalov D.U., Izetayeva G.K); masalaviy yondashuv (Genendenko B.V., Gaybullayev N.R., Kolodochka T.N., Poya D, Raxmonov I.Y., Ismoilov B.T) masalalari tadqiqot muammolari sifatida o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi: Ko'rgazmali o'qitish; boshlang'ich sinf o'quvchilarning tasavvur etish doirasini kengaytirish; boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatish. Tahlil, natijalar va mulohaza: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga undovchi masalalar: 1-masala. O'ngda berilgan shakllar orqali, chapda tasvirlangan shaklning turli tomonlardan ko'rinishlari aks ettirilgan. Berilgan shaklga qaysi tomondan qaralganda, o'ngdagi shakllarni ko'rish mumkin?



Quyida beriladigan topshiriq o'qituvchi tomonidan bir marotaba bajarib ko'rsatilgandan so'ng o'quvchilarga taqdim etiladi berilgan a shaklning o'ngdan qaralgandagi shakli topish uchun bolani kuzatishga va tafakkur qilish o'rgatish mumkin bundan tashqari o'quvchilarga ushbu geometrik shakllarni yasashni o'rgatish mustaqil ravishda kub, to'g'ri to'rtburchaklarni yasay olish malakasini rivojlantirishga o'rgatish mumkin. O'quvchilar bilan birgalikda yasagan geometrik shakllardan yuqoridagi kabi masalalar tuzish hamda savol qo'yishga o'rgatish bu bilan oquvchilarda kuzatish, kuzatish orqali yasay olish, masalalar tuza olish, masalarni kuzatish orqali joylashishini tafakkur etishga o'rgatish mumkin bundan erishadigan maqsadimiz o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1-topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchi geometrik shakllarni amalda o'zi qog'ozdan yasab ko'rish bilan uning bu shakllar haqidagi ilmiy yuqori darajada mustahkamlanadi. Quyida beriladigan topshiriq o'qituvchi tomonidan bir marotaba bajarib ko'rsatilgandan so'ng o'quvchilarga taqdim etiladi yuqorida keltirilgan metoddan foydalanish o'quvchining diqqatini bir joyga jamlashi bilan bir qatorda yaxshi o'zlashtiruvchi balki matematika fanini o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarda ham qiziqish uyg'otadi. Endi 2-masalaga bino sifatida qaraydigan bo'lsak: masalan bolalar kutubxonasi.

2-masala. Binoning o'ng, chap, orqa, old va tepadan ko'rinishini aniqlang?




Mushohada yuritish. Faraz qilaylik bolalar kutubxonasi binosi oldidamiz, sariq rangli bino bolalar uchun ertaklar bo'limini, qizil rangli bino bolalar uchun ensiklopediyalar bo'limini, yashil rangli bino esa, bolalar uchun badiiy


adabiyotlar bo'limini anglatirsin. Ushbu farazga tayanib, o'quvchilarga quyidagicha savollar bilan yuzlanishimiz mumkin:

Endi aytingchi, binoning chap tomonidan ko'rinishi qanday bo'ladi? Binoning ustki qismida qarasaq qanday ko'rinishda boladi? Binoning o'ng va chap tomlaradan ko'rinishini toping? Binoning old tomondan ko'rinishi qanday?


Masalaning ko'rgazmali yechimi: Binolarning old, o'ng va chap tomlardan ko'rinishi:




O'quvchiga ko'rinuvchi tasvirlar:



Binolarning orqa, past va tepa tomlardan ko'rinishi:




O'quvchiga ko'rinuvchi tasvirlar:



3-masala. Berilgan geometrik shakllarning turli tomondan ko'rinishini daftaringiz katalari va rangli qalamlardan foydalanib aniqlang?




Berilgan shakl



3-masalaning metodik yechimi:

Yechim:



Xulosa va takliflar: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan metoddan foydalanish o'quvchining diqqatini bir joyga jamlashi bilan bir qatorda yaxshi o'zlashtiruvchi balki matematika fanini o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarda ham qiziqish uyg'otadi Mazkur metoddan foydalanish orqali siz o'quvchingizning nazariy bilimlarni amaliyotda tasavvur etish qobiliyatini rivojlantirgan bo'lasiz, bu esa sizning o'quvchingizni PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga munosib javob berishga qo'shgan muallimlik hissangiz hisoblanadi. Zero, PIRLS Progress in International Reading and Literacy Study – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan [3]. Ushbu xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etilgan ta'lim

tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qigan matnini tushunish, uni sharxlashi mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keying bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi. Komenskiyning fikricha eshitish va ko'rish orqali olingan bilimga qaraganda, amalda bajarib ko'rish bilan olingan bilim mazmunliroq bo'ladi. Har bir ilm beruvchi maskan, har bir auditoriya zamonaviy ta'limning pirovard maqsadini bilimdan kompetensiyaga olib chiqishi kerak. Bu shuni anglatadiki, Uchunchi Renessans davrida zamonaviy ta'limning pirovard maqsadi, bilimli, mustaqil fikrli, raqobatbardosh, vataniga sadoqatli, yangi dunyoga moslashuvchan yoshlarni tarbiylashni nazarda tutadi. Shu o'rinda muxtaram prezidentimizning fikrlarini takidlashimiz joiz, "Yangi O'zbekistonimizni -yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z -Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni -tarbiyalash orqali erishamiz" [7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020 yildagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708 son qarori.
2. Ismoilov B.T. Nostandart masalalarni yechish metodikasi / o'quv qo'llanma. – Termiz. "TerDU NMM", 2023. – 160 b.
3. Ismoilov B.T. Yangi O'zbekistonning barpo etilishida matematik kompetentlik tushunchasining ahamiyati//TDPU axborotlari 2022/4-son, 296-b.
4. Ismoilov, B. T. (2020). METHODOLOGY OF TRANSFER FROM A BALL TO A CUBE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(12), 6-10.
5. Jumayev M.E., Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: "ILM ZIYO", 2017. – 7-b.
6. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: "fan va texnologiya", 2005. – 5-b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020 yildagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708 son qarori.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali
<https://lib.tisu.uz>
 ISSN 2992-9016

Qarshi davlat universiteti professori,
 Pedagogika fanlari doktori (DSc) Sh.U.Nurullayeva
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi K.R.Badalov
 kamoliddinb24@gmail.com

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI IMMITATSION PARADIGMA ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining immitatsion paradigma asosidagi faoliyatlari hamda, pedagogik faoliyatni tashkil qilish va uning mazmun mohiyati haqidagi fikr mulohazalardan iborat.

Tayanch so'zlar: Psixologiya, faoliyat, o'qituvchi, ko'nikma, motiv, harakat, maqsad, imitatsion, taqlidiy, kumer.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИМИТАЦИОННОЙ ПАРАДИГМЫ

Аннотация: В данной статье речь идет о деятельности будущих учителей начальной школы, основанной на подражательной парадигме, а также организации педагогической деятельности и ее содержания.

Ключевые слова: Психология, деятельность, педагог, умение, мотив, действие, цель, подражательный, подражательный, кумер.

ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITIES OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS BASED ON THE IMITATION PARADIGM

Annotation: This article is about the activities of future elementary school teachers based on the imitation paradigm, as well as the organization of pedagogical activity and its content.

Key words: Psychology, activity, teacher, skill, motive, action, goal, imitative, imitative, kumer.

Kirish.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi haqida gapirganda, shuni aytish kerakki, faoliyatning barcha tarkibiy qismlari yoki funksional turlari har qanday mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ishida namoyon bo'ladi. Ularni amalga oshirish o'qituvchidan maxsus ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Psixologiyada ko'p bosqichli tizim sifatida qabul qilingan, tarkibiy qismlari maqsadlar, motivlar, harakatlar va natijalar bo'lgan faoliyatni tushunishdan farqli o'laroq, pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, uning tarkibiy qismlarini nisbatan mustaqil funksional turlari sifatida aniqlash ustunlik qiladi. o'qituvchining faoliyati.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: O'qituvchi faoliyatining asl kontseptsiyasi A.K.Markovaning asarlarida ishlab chiqilgan.[2.75-76-b]. O'qituvchi ishining tuzilishida u quyidagi tarkibiy qismlarni aniqlaydi;

- 1) kasbiy psixologik-pedagogik bilimlar;
- 2)kasbiy pedagogik mahorat;
- 3)o'qituvchining kasbiy psixologik pozitsiyalari va munosabatlari;
- 4) kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyat tarkibida o'zaro bog'liq bo'lgan uchta komponentni aniqladi: konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ. O'quv faoliyatining ushbu funksional turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko'nikmalarda namoyon bo'ladigan tegishli qobiliyatlar talab qilinadi. [1. 18-23-b]

Tadqiqot metodologiyasi.Tashkiliy faoliyat talabalarni turli faoliyat turlariga jalb qilish, jamoani yaratish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakatlar tizimini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.Kommunikativ faoliyat o'qituvchi va o'quvchilar, boshqa maktab o'qituvchilari, jamoatchilik vakillari va ota-onalar o'rtasida pedagogik jihatdan mos munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan.

O'qituvchining konstruktiv faoliyati, o'z navbatida, konstruktiv-mazmunli (o'quv materialini tanlash va tuzish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va qurish), konstruktiv-operativ (o'z harakatlari va talabalar harakatlarini rejalashtirish) va konstruktiv-material (loyihalash)ga bo'linadi. pedagogik jarayonning o'quv va moddiy bazasi).

Tashkiliy faoliyat talabalarni turli faoliyat turlariga jalb qilish, jamoani yaratish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakatlar tizimini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ faoliyat o'qituvchi va o'quvchilar, boshqa maktab o'qituvchilari, jamoatchilik vakillari va ota-onalar o'rtasida pedagogik

jihatdan mos munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan.

O'qituvchining pedagogik vazifasi o'quv jarayonini bolaning rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga mos keladigan o'z ruhiy kuchlarining tabiiy va organik namoyon bo'lishiga yordam beradigan tarzda tashkil etishdir. Bu ish tizimli va izchil bo'lishi kerak, shuning uchun pedagogik rejalashtirish zarur. "Rejalashtirish - bu tashkiliy rejani ishlab chiqish, miyada modelni (tizimni) shakllantirish, keyinchalik faoliyatni boshqaradigan jarayon". Talabaniing axloqiy va estetik tarbiyasini rejalashtirishda quyidagi bosqichlarni hisobga olish kerak.

Avvalo, pedagogik vaziyatni axloqiy-estetik tarbiyaning oliy maqsadlari: insonparvar, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash nuqtai nazaridan baholash zarur. Umumiy maqsad shaxsiy maqsadlar uchun amalga oshirilishi kerak. Maqsadlarni shakllantirish faoliyatni bashorat qiladi va ishning borishi va natijalarini ko'rish imkonini beradi. Xususiy maqsadlar tizimini belgilash harakatlar tizimini shakllantirish va ular uchun mos usul va vositalarni tanlashni osonlashtiradi. Agar umumiy maqsad aniq maqsadlarga bo'linmasa, bu aqliy va amaliy faoliyatni murakkablashtiradi va uni o'z-o'zidan paydo bo'lishiga olib keladi.

Rejalashtirishning juda muhim bosqichi - bu vaqt va makonda ishni hisoblash. Rejalashtirish jarayonida nafaqat alohida qismlardan (topshiriqlardan) yaxlit tizim yaratish, balki uning hajmini ma'lum bir ramka bilan cheklash, vaqt va makon bo'yicha ishni hisoblash, barcha mumkin bo'lgan faktlarni hisobga olish, tortishish muhim ahamiyatga ega. talabalar imkoniyatlari va kuchli tomonlari, ularning bilimlari, uslubiy va tashkiliy imkoniyatlari, talabalar tayyorgarlik darajasi va boshqalar. Shuningdek, bilimlarni tizimlashtirish va o'zlashtirishda zarur bo'lgan hisob va nazorat tizimini unutmashimiz kerak.

Rejalashtirishda maktab o'quvchilarining individual va yosh imkoniyatlarini, ularning salohiyatini hisobga olish kerak. Kichik yoshdagi o'quvchilar amaliyotdan nazariyaga o'tishsa, materialni osonroq o'rganishadi. Biroq, nazariy asosni butunlay e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Amaliyot va nazariya bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak, shunda bilim va bevosita taassurot bir-birini mustahkamlaydi.

Pedagogik dizayn - bu talabalar va

o'qituvchilarning kelgusi faoliyatining asosiy tafsilotlarini oldindan ishlab chiqish. "Dizayn" atamasi pedagogikaga texnik bilimlardan kelib chiqqan. U yerda bu haqiqiy hayotda nima bo'lishining oldinga proektsiyasini yaratishni anglatardi. Dizayn sizga o'qituvchining faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Pedagogik dizayn har qanday o'qituvchining vazifasi bo'lib, u tashkiliy, gnostik (talabalar bilan o'zaro munosabatlarning mazmuni, usullari va vositalarini izlash) yoki kommunikativdan kam emas. Dizayn tufayli maktabdagi o'quv jarayoni texnologik jihatdan ilg'or bo'ladi. Pedagogik loyihalashning asosiy ob'ektlari pedagogik tizimlar, pedagogik jarayonlar va pedagogik vaziyatlardir.

Pedagogik tizim inson taraqqiyotining belgilangan maqsadlariga erishishga yordam beradigan barcha omillarning uzviy birligidir. Pedagogik tizim inson taraqqiyotining rivojiga yordam beradi.

Pedagogikada "tizim" atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, pedagogik hodisalarning sifat holatini ko'rsatish. Demak, pedagogik jarayon, o'quvchi shaxsi, o'qituvchi faoliyati tizimli ekanligi, chunki ular tizimli xarakterga ega ekanligi haqida gapirdik. Ikkinchidan, bu atama muayyan pedagogik shakllanishlarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, biz ta'lim tizimida ishlaymiz

Pedagogik tizimlar maxsus tuzilmalardir.

Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- * ular doimo maqsad - o'quvchilar va o'qituvchilarni rivojlantirish va ularni atrof-muhitning salbiy ta'siridan himoya qilish;
- * bu tizimlarda yetakchi bo'g'in doimo talaba hisoblanadi;
- * ularning har biri ochiq tizim sifatida qurilgan va ishlaydi, ya'ni tashqi ta'sirlar ta'sirida o'zgarishga va hatto bu ta'sirlarni qabul qilishga, ularni yumshatishga, mustahkamlashga yoki tekislashga qodir.

Tizimlar ichida pedagogik jarayonlar yaratiladi. Darhaqiqat, pedagogik

tizimlar pedagogik jarayonlar uchun qulay sharoitlar yaratish uchun shakllantiriladi. Pedagogik jarayon o'qituvchi uchun loyihalashning asosiy ob'ektidir. Pedagogik jarayon - bu o'quvchilar va o'qituvchilarning bevosita o'zaro ta'sirida rivojlanishiga hissa qo'shadigan tarkibiy qismlarning (omillarning) yagona yaxlitligiga birlashishi.

Pedagogik vaziyat loyihalash ob'ekti sifatida doimo qandaydir pedagogik jarayon doirasida va u orqali - ma'lum bir pedagogik tizim doirasida mavjud bo'ladi. Pedagogik vaziyat ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'lum bir vaqt va makondagi holatini tavsiflaydi.

Vaziyatlar har doim o'ziga xos bo'lib, ular dars, imtihon, ekskursiya davomida yaratiladi yoki yuzaga keladi va qoida tariqasida darhol hal qilinadi. Pedagogik vaziyatlarni loyihalash jarayonning o'zini loyihalash tarkibiga kiradi. Pedagogik tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlarni loyihalash murakkab ko'p bosqichli faoliyatdir. Dizaynning uch bosqichi (bosqichi) mavjud:

I bosqich	-	modellash
II bosqich	-	dizayn
III bosqich	-	dizayn

Pedagogik modellash (model yaratish) - bu pedagogik tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlarni yaratish maqsadlari (umumiy g'oyalari) va ularga erishishning asosiy usullarini ishlab chiqish. Pedagogik loyihalash (loyiha yaratish) - yaratilgan modelni yanada rivojlantirish va uni amaliy foydalanish darajasiga etkazish. Ta'limni loyihalash shakllari - bu turli darajadagi aniqlik bilan pedagogik tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlarni yaratish va ishlatishni tavsiflovchi hujjatlar.

Pedagogik dizayn (konstruksiyanı yaratish) - bu yaratilgan loyihani yanada batafsil takomillashtirish, uni ta'lim munosabatlarining haqiqiy ishtirokchilari tomonidan muayyan sharoitlarda foydalanishga yaqinlashtirish.

Shunday qilib, biz ushbu bobni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin: Pedagogik faoliyatning konstruktiv komponenti ichki o'zaro bog'langan analitik, prognostik va projektiv funksiyalar sifatida taqdim etilishi mumkin.

O'qituvchining pedagogik faoliyatining xususiyatlaridan, uning harakatlarining mantiqiy shartliligi va ketma-ketligidan, uni amalga oshirish operatsiyalaridan kelib chiqqan holda, pedagogik vazifalarning quyidagi ikkilik guruhlarini ajratish mumkin:

- analitik-refleksiv - yaxlit pedagogik jarayon va uning elementlari, sub'ekt-sub'ekt munosabatlari, yuzaga keladigan qiyinchiliklar va boshqalarni tahlil qilish va aks ettirish vazifalari;
- konstruktiv - prognostik - kasbiy pedagogik faoliyatning umumiy maqsadiga muvofiq yaxlit pedagogik jarayonni qurish, pedagogik qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish, qabul qilingan pedagogik qarorlarning natijalari va oqibatlarini bashorat qilish vazifalari;
- tashkiliy va faoliyatga asoslangan - pedagogik faoliyatning turli turlarini birlashtirgan pedagogik jarayonning optimal variantlarini amalga oshirish vazifalari;
- baholash va axborot - pedagogik tizimning holati va rivojlanish istiqbollari, uni ob'ektiv baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash vazifalari;
- tuzatish-tartibga solish - pedagogik jarayonning borishi, mazmuni va usullarini tuzatish, zarur aloqa aloqalarini o'rnatish, ularni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash vazifalari va boshqalar.

O'qituvchining faoliyati ichki jihatdan qarama-qarshidir. Bir tomondan, u ta'limning me'yoriy belgilangan maqsadlariga bo'ysunishi kerak, bu esa uni o'quvchilar bilan pedagogik o'zaro munosabatlarning barcha elementlarini tizimli va maqsadli loyihalash jarayoni sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Boshqa tomondan, har qanday o'qituvchining faoliyatida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarning xilma-xilligi va ularni hal qilishning yuqori dinamikasi tufayli doimo oldindan aytib bo'lmaydigan element mavjud [3. 2,4-b]. Shu sababli, bevosita pedagogik o'zaro ta'sir jarayonida tug'iladigan va uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bunday faoliyat

elementlari haqida gapirish mumkin.

Tahlil, natijalar va mulohaza: Bugungi kunda yoshlarimizning kitob o'qishga o'z ustida ko'proq ishlab kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun avvalambor o'zining oldiga quyidagi savollarni qo'yishi lozim deb o'ylayman. Men kimlar avlodidanman?, men bugun o'xshashga harakat qilayotgan insonlar mening havas qilishimga arziydimi? Bu fikrlarni aytishimizga sabab shundaki inson yetuk shaxs bo'lib yetishishi uchun birinchi navbatda o'ziga yaxshi ustoz tanlashi va shu insonni "kumer" deb qabul qilishi muhim jarayon hisoblanadi.

Xulosa va takliflar: Yoshlarimiz orasida avsuski har xil "ommaviy madaniyat", turli xildagi ijtimoiy tarmoqda har kun har sharmandali, millatimizni shanini qora qilayotga "yulduzlar"ga havas qilib, ularga muxlislik qilib, ular qilayotgan axloqsiz harakatlarni qaytarishga urinayotganlari ham uchrab turishi dilimizni hira qiladi. Bularning hammasi o'zligini anglamaslik oqibatidir. Agar bugun yoshlarimizning barchasi Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy (sanasak ado bo'lmaydi) kabi bobolarimizning axloq odob, insoniylik, mardlik, kuch-qudratda tenggi yo'qligini bilganlarida har xil saviyasi past you tube, instagram, facebookdagi vinechilarga havas qilmay o'zligini anglab yurtimizga, o'ziga manfaatli ish bilan shug'ullangan bo'lardi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyalashda huddi shu taqlidiy jarayonlarda to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish yurtimiz kelajagi uchun foydadan holi bo'lmaydi degan xulosaga keldik.

Albatta qo'shimcha qilib shuni ayta

olamizki yoshlarimiz yuqorida nomlari sanab o'tilgan ajdodlarimizning hayot yo'li buyuklik, ilm olish yo'lida chekkan mashaqqatlari haqida ko'proq bilar ekan ularga munosib farzand bo'lishga intila boshlaydi va bobolarida boshqa insonlarni o'zlariga kumer deb bilishmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. V. Kuzmina. Pedagogik faoliyatni tadqiq qilish usullari.[18-23-b]
2. Markova A.K. Professionalizm psixologiyasi / A.K.Markova. A. M.: Znanie, 1996 yil.[75-76-b].
3. Badalov K. R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik shart sharoitlari. «Муғаллим ҳам зликсиз билимлендириў» № 2/2 Нукус — 2023.
4. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. Journal of Universal Science Research, 1(10), 160-165.
5. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A conceptual approach to the development of the didactic-methodical competence of the future primary school teacher. World Bulletin of Social Sciences, 21, 160-164.
6. Badalov, K. (2023). Developing the creativity of a primary class teacher. open Access Repository, 4(02), 141-148.
7. Kamoliddin, B. (2023, January). Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni organish mantiqiy konikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari. In E Conference Zone (pp. 35-39).
8. Badalov, K., & Xolmurodova, N. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirish. Conferencea, 63-66.
9. Badalov, K. (2022, April). Tools for helping to develop the logical skills of primary school students in the teaching of geometric materials. In E Conference Zone (pp. 214-217).
10. Тожиев, Х. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). Особенности некоторых методов, которые применяет начальный класс в изучении

родного языка. образование наука и инновационные идеи в мире, 33(2), 3-9.

11. Baxtiyorovich, T. H., Javohir G'aybullo o'g, Z., & Rahmat o'g'li, B. K. (2023). Boshlang'ich sinf o 'quvchilarining informatika darslarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirish usullari. Journal of new century innovations, 40(2), 66-70.
12. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Talabalarining ratsional faoliyatlarini tashkil etish yo'llari. Journal of new century innovations, 40(2), 71-75.
13. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligishakllantirish.obrazovanienuka и инновационные идеи в мире, 33(1), 178-182.
14. Saloxitdinova N. (2021). Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). Общество и инновации, 2(7/S), 221-225.
15. Salohiddinova, N. (2022). Integration of exact and natural sciences concepts (On the example of exact and natural sciences). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 158-165.



02.00.00

KIMYO FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Eshkaraev Sadriiddin Choriyevich,
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
e-mail: esadir_74@rambler.ru

SURXONDARYO VILOYATI TUPROQLARIDA PESTITSIDLAR TARQALISHINING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining janubiy hududi bo'lgan Surxondaryo viloyati tuproqlarida pestitsidlar (asosan DDT va GXSG) ning tarqalish yo'llari, ko'chishi, tuproqdan tabiiy suvlar, atmosfera havosi, o'simliklar, hayvonlar va insonlar organizmiga o'tish yo'llari haqida so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar atroflicha tahlil qilingan. Tuproqdagi pestitsidlarning ortishiga ta'sir etuvchi omillar tajriba yo'li bilan o'rganilgan. Pestitsidlar miqdorini kamaytirish usullari tajriba yo'li bilan tasdiqlangan va qishloq xo'jaligida tuproqdagi pestitsidlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Kalit so'zlar: tuproq, pestitsid, gerbisid, rekultivatsiya, qishloq xo'jaligi, zararlash darajasi, radionuklidlar, tuproq unumdorligi, mineral o'g'itlar, agrokimyo, agrokimyoviy tahlil.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ПЕСТИЦИДОВ В ПОЧВАХ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В статье рассмотрены пути распространения пестицидов (в основном ДДТ и ГХЦГ) в почвах Сурхандарьинской области, которая является южным регионом Республики Узбекистан, обсуждаются их перенос из почвы в природные воды, атмосферный воздух, растения, животных и человеческие тела. Исследования, проведенные в последние годы экспериментально изучены факторы, влияющие на увеличение содержания пестицидов в почве. Опытным путем проверены методы снижения количества пестицидов и даны рекомендации по снижению содержания пестицидов в почве в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: почва, пестицид, гербицид, рекультивация, сельское хозяйство, уровень вредности, радионуклиды, плодородие почвы, минеральные удобрения, агрохимия, агрохимический анализ.

THE MAIN FACTORS OF THE DISTRIBUTION OF PESTICIDES IN THE SOILS OF SURKHANDARYA REGION


Abstract: In the article, the distribution paths of pesticides (mainly DDT and GXSG) in the soils of the Surkhandarya region, which is the southern region of the Republic of Uzbekistan, their transfer from the soil to natural waters, atmospheric air, plants, animals and human bodies are discussed. The research conducted in recent years about. Factors affecting the increase of pesticides in the soil were studied experimentally. Methods

for reducing the number of pesticides has been proven by experience and recommendations for reducing pesticides in the soil in agriculture have been given.


Key words: soil, pesticide, herbicide, recultivation, agriculture, damage level, radionuclides, soil fertility, mineral fertilizers, agrochemistry, agrochemical analysis.

Kirish: Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyati bo'lib, iqlimi keskin kontinental hisoblanadi. Tuprog'i shimoliy tumanlarda (Sho'rchi, Denov, Oltinsoy, Uzun va Sariosiyo) asosan bo'ztuproq, janubiy cho'l tumanlarida esa qumli tuproq hisoblanadi. Yo'g'ingarchiliklar kam bo'lganligi bois, tuprog'i yetarli namga ega bo'lmaydi. Viloyat sug'oriladigan yerlarining 23% kuchli sho'rlangan tuproqlar hisoblanadi. So'nggi yillardagi radiologik va toksikologik tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, viloyat ekin maydonlarining 18% radionuklidlar va pestitsidlar bilan zararlangan [1]. 2010 yildan buyon o'tkazgan tadqiqotlarimizga asosan viloyat tuprog'ining pestitsidlar bilan zararlanishi 2021 yilga kelib 34% ga ortgan [2]. Tuproqdagi pestitsidlarning miqdorini kamaytirish bo'yicha choratadbirlarni belgilash uchun, tuproqdagi pestitsidlarning tarqalish manba'lari, ko'chishi, tuproqdan atmosfera havosi, tabiiy suvlar, o'simliklar, hayvonlar va inson organizmiga o'tish yo'llarini aniqlash zarur. Ushbi tadqiqotlarning asosiy maqsadi - Surxondaryo viloyati tuproqlarida pestitsidlarning tarqalish yo'llari, ko'chishi va atrof-muhit ob'ektlariga o'tish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tuproqning pestitsidlar bilan ifloslanishi ilmiy adabiyotlarning tahliliga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri agrokimyoviy ishlov berish paytida ham, ishlov berilgan urug'larni

ekish paytida ham, ishlov berilgan o'simliklarni yuvish natijasida, ularni sug'orish paytida va tuman hamda yog'inlar natijasida ham sodir bo'lishi mumkin [3]. Masalan, tumandagi pestitsidlarning konsentratsiyasi gaz fazasidagi konsentratsiyasidan 3000 baravar ko'p bo'lishi va qisqa muddatli yomg'irlar uzoq muddatli yomg'irlarga qaraganda ko'proq ifloslanishga olib kelishi aniqlangan (1dm³ yomg'ir suvida 11 xil pestitsidlar topilgan) [4]. Shuningdek, pestitsidlar ishlab chiqarish, tashish va saqlashning turli bosqichlarida tuproqqa tushishi mumkin. Tajriba qismi: Surxondaryo viloyati tuproqlarida asosan 2 turdagi pestitsidlar boshqa pestitsidlarga nisbatan ko'p miqdorda aniqlangan. Bulardan birinchisi - dixlorodifeniltrioksetan (qisqacha DDT) bo'lib, xalq tilida DUS yoki Bit dori deb ataladi. Uning brutto formulasi C₁₄H₉Cl₅ bo'lsa, tuzilish formulasi quyidagicha:



IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomi 1,1'-(2,2,2-trixloroethan-1,1-di) bis (4-xlorobenzen) bo'lib, chivinlarga, paxta zararkunandalariga, soya, yeryong'oqlarga qarshi ishlatiladigan insektitsid. Chigirtkalarga qarshi juda samarali vositalardan biri bo'lgan xlorbenzolning hosilasi hisoblanadi. O'tgan asrning 90 yillarida hayvonlar, odamlar tanasida to'planishi mumkinligi va inson organizmining ovqat hazm qilish tizimida og'ir kassaliklarni keltirib chiqaruvchi ta'siri sababli ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda foydalanish taqiqlangan. Ikkinchi pestitsid esa, geksaxlorosiklogeksan (qisqacha GXSG) C₆H₆Cl₆, tuzilish formulasi quyidagicha:



Bu pestitsid ham asosan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashishda qo'llanilgan va XX asrning 90-yillarida zaharliligi sababli qo'llanilishi ta'qiqlangan. Boshqa pestitsidlarning miqdori viloyat tuproqlarida topilmagan

yoki ularning miqdori juda kam bo'lgan [5]. Pestitsidlarni qo'llash ta'qiqlangan bo'lsa, viloyat tuproqlarida pestitsidlar miqdorining oshishiga sabab nima? 2016 yildan beri viloyat tuproqlarining radionuklidlar bilan zararlantirish darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, o'tgan asrning 60-80 yillarida respublika qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi sababli va paxtadan ko'proq hosil olish uchun yuzlab tonna turli pestitsidlar (asosan DDT va GXSG) qo'llanilgan. Buning uchun viloyatimizda 52 ta qishloq xo'jaligi aerodromlari tashkil etilgan hamda shu yillar davomida taxminan 12700 tonna DDT va 8900 tonna GXSG ishlatilgan. XX asrning so'nggi dekadasi bu pestitsidlarni qo'llash ta'qiqlangan bo'lsa-da, ishlatilmay qolgan taxminan umumiy hisobda 3400 tonna DDT va 1600 tonna GXSG zararsizlantirilmagan va bugungi kungacha sobiq aerodromlar hududi tuproqlari bilan aralashib ketgan va bugungi kungacha yer osti suvlari, atmosfera yog'inlari, shamol va antropogen ta'sirlar tufayli sug'oriladigan yerlarni zararlantirib kelmoqda. Ba'zi hududlarda ularning ko'chishi 15-20 km gacha yetib borgan [6]. Pestitsidlarning tuproqdagi barqarorligi tuproq tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, pestitsidlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati, mikro va makroorganizmlar tomonidan o'zlashtirilishi, shuningdek, iqlim sharoitiga bog'liq [7]. Yuqori bug' bosimiga ega bo'lgan geksaxlorotsiklogeksan tuproq yuzasidan nisbatan oson bug'lanadi. Yiliga 2,38 kg geksaxlorotsiklogeksan va 0,014 kg dixlorodifeniltri-xloroetan 30 ° C haroratda bug'lanishi mumkinligi hisoblab chiqilgan. Yuqori qaynash nuqtasiga qaramay, turli tuproq maydonlarida dixlorodifeniltri-xloroetanning tarkibi juda katta farq qilishi mumkin va miqdori 0,3 dan 8500 mg/m³ gacha yetishi mumkin. Bug'lanish tezligiga tuproqning tarkibi, g'ovakligi va tuproq yuzasidagi havo harakati ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 1-jadvalda turli tuproq namunalardan DDT va GXSG pestitsidlarining bug'lanish tezligi keltirilgan:

1-jadval
Surxondaryo viloyati tuproqlarida pestitsidlar bug'lanish tezligining tuproq tarkibiga bog'liqligi
(*t*_C=32°C, nisbiy namlik 45%, shamol tezligi 12m/s)

T/r	Tuproq namunalari	Tuproq tarkibidagi minerallar miqdori, mg/kg					Bug'lanish tezligi, mg/m ³
		Fosfor (V) oksid, P ₂ O ₅	Azot oksidlari, umumiy NO _x	Kaliy oksidi, K ₂ O	gumus	suv	
1	Qumli tuproq (Angor tumani)	12,5	6,7	40,4	24,5	120	203
2	Bo'z tuproq (Denov tumani)	45,0	11,4	170,4	56,0	93	151
3	Bo'z tuproq (Boysun tumani)	32,8	8,5	30,0	28,8	75	124
4	Qumli tuproq (Muzrabot tumani)	14,6	4,3	220,5	12,4	64	236
5	Sho'r tuproq (Termiz tumani)	13,5	9,5	335,2	8,6	45	73
6	Oq tuproq (Oltinsoy tumani)	24,7	8,8	124,8	9,2	82	54

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, qumli tuproqlarda tuproqning sorbsion qobiliyati past bo'lishi tufayli pestitsidlarning tuproq yuzasidan bug'lanishi yuqori bo'larkan. E'tiborli jihati shundaki, tuproq tarkibida mineral moddalar miqdori kam bo'lsa, pestitsidlarning sorbsiyalanishi yuqori bo'ladi. Tuproqning sorbsion qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, undan pestitsidning bug'lanishi shunchalik sekin bo'ladi [8]. Pestitsidlar minerallarning kristall panjaralariga o'tirib qolishi natijasida bug'lanishi qiyinlashadi. Sorbsiya tezligi tuproqning turiga, fizik-kimyoviy va gidrodinamik xususiyatlariga [9], mikroiklim sharoitlariga, fotolizning mavjudligi va intensivligiga, o'simlik qoplaminig xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Odatiy iqlim sharoitida pestitsidlar tuproq kolloidlari tomonidan yaxshi adsorbsiyalanadi va tuproqdagi konsentratsiyasi ortib ketadi. Pestitsidlar yig'indisining yuqori konsentratsiyasi (geksaxlorotsiklogeksan, daxlorodifeniltri-xloroetan va ularning metabolitlari) loy tuproq, gumus va mineral moddalarga boy tuproqlarga xosdir.

2-jadval
30 ° C haroratda turli tuproqlardan DDT ning uchuvchanligi

Tuproq	Organik uglerod tarkibi, %	Loy tarkibi, %	Bug' konsentratsiyasi (mg/dm ³) har xil namlikda	
			100% namlikda	50% namlikda
Bo'z tuproq	0,18	16,5	155	1,5
O'rtacha qumli tuproq	0,21	67,7	201	2,7
Loyli tuproq	0,59	18,6	54	0,8
Kuchli qumli tuproq	1,64	10,2	36	0,3
Yog'li tuproq	2,43	33,7	33	0,5

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, mineral o'g'itlarga boy bo'lmagan tuproqlarda tuproq namligi 60% dan yuqori bo'lganda pestitsidlar 300C dan yuqori haroratda 14 kun ichida deyarli 90% gacha bug'lanishi tasdiqlandi. 3-jadvalda 14 kun ichida tuproqdan topilgan DDT va GXSG pestitsidlarning miqdori keltirilgan.

3-jadval
Tuproq tarkibidagi pestitsidlarning miqdori

№	Pestitsidlar	Tuproq turlari	Pestitsidlar topilgan tuproq chiqirli, m	Topilgan pestitsidning miqdori, mg/kg	Sorbsiya darajasi, %
1	DDT	Qumli tuproq	1,1	20,0	95%
		Bo'z tuproq	0,35	11,6	75%
		Oq tuproq	0,57	18,5	87%
2	GXSG	Qumli tuproq	1,0	14,6	93%
		Bo'z tuproq	0,30	9,4	72%
		Oq tuproq	0,42	6,7	91%

Qumli tuproqda 14 kunlik muddat uchun pestitsid DDT ning sorbsiya darajasi yuqoriligi bo'is (95%), faqat 1,1 m chuqurlikgacha sorbsiyalanadi va uning miqdori 20,0 mg/kg ga teng bo'ldi. 12 oy davomida qo'llanilgan DDTning taxminan 92% i 1 metr chuqurlikdagi tuproq qatlamida topilgan. Tuproqning 30 sm gacha chuqurligida DDT pestitsidi topilmagan, pestitsidning taxminan 16% i havoga uchib ketgan bo'lsa, qolgan qismi 1,0 chuqurlikdagi ichki qismlarga ko'chib o'tgan. Qumli va bo'z tuproqlarda 1 metr chuqurlikdan pastda DDT miqdori 3% gacha va oq tuproqlarda undan ham kam bo'lgan. GXSG pestitsidi asosan gumus bilan boyitilgan tuproqda qolishi 15 oy davomida olib borilgan tajriba yo'li bilan isbotlangan. Shu bilan birga, pestitsidlarning parchalanish jarayonlari, nafaqat ularning zaharlilik

xususiyatlarini yo'qolishiga, balki tuproqdagi turli qo'shimchalar ta'sirida zaharlanishi va tashqi ta'sir (quyosh radiyasiyasi, tuproqdagi radionuklidlar miqdori, muhit pH) ga ham olib kelishi mumkin. Juda og'ir sharoitlarda, harorat 500C dan ortganda pestitsidlarning tuproq yuzasidan bug'lanishi 95-100 % gacha tasdiqlandi. Bu sharoitda bug'lanish hattoki gumusga boy bo'lgan tuproqlardagi GXSG pestisida ham taxminan 80 % ga teng bo'larkan. Jumladan, 2020 yil 28-30 iyun kunlari Muzrabot va Termiz tumanlarining qumli tuproqlaridagi olib borilgan tadqiqotlar tuproqning 50 sm chuqurlikdagi DDT va GXSG pestitsidlari keskin kamayganligi tasdiqlangan.

Tuproqdagi pestitsidlarni kamaytirish usullari. Tuproqqa gumus, temir tuzlari, sirt faol moddalar, tabiiy sorbentlarni kiritish orqali pestitsidlarning sorbsiya samaradorligini oshirish mumkin [9]. Bundan tashqari, tuproqdagi namlik ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni pestitsidlar nam yetarli bo'lgan muhitda oson gidrolizlanadi. DDT pestitsidi tuproq suv bilan to'yinganida va yuqori haroratda nisbatan tez parchalanadi hamda zararsiz kimyoviy birikmalarga aylanadi. Ayniqsa, DDT ning aromatik xalqasida alkil, alkoksil va sulfid guruhlari mavjud bo'lgan gomologlari tez parchalanadi. Lekin namlik yetarli bo'lganda pestitsidlar uzoq vaqt o'z zararli ta'sirini saqlab qoladi va tirik organizmlarga o'tishi osonlashadi. Bunday hollarda pestitsidlarni drenaj suvlari bilan tozalash eng samarali usul hisoblanadi.

Drenaj usulida pestisidlarning tuproqdan tozalanish ketma-ketligi quyidagi qatorda ortib boradi:

α -geksaxlorotsiklogeksan-diklordifeniltri-xloroetan-tiofos-aldrin-dioldrin. Tuproqdagi pestisidlarni bartaraf etishning yana bir usuli o'simliklar organizmiga o'tkazishdir. Ma'lumki, ba'zi o'simliklar pestisidlarni ildiz to'qimalarida to'plashga qodir va ular tuproqni pestisidlar bilan ifloslanishdan tozalash uchun ishlatilishi mumkin [10]. Surxondaryo viloyati "Agrokimyoviy tahlil" laboratoriyasining tajriba maydonida 2021 yili turli o'simliklarning pestisidlarni tuproqdan tozalash qobiliyatini o'rganish uchun sinovlar o'tkazildi. Tajriba natijalariga ko'ra, qovoq va ismaloqning ildizida DDT pestisidi kam to'planishi (taxminan 5-7%), ko'p miqdorda bu o'simliklarning barglarida (taxminan 42-45%) va oz miqdorda mevalarda (12-14%) to'planishi aniqlandi. GXSG esa makkajo'xori ildizida 20% gacha, turp va sholg'om ildizlarida 18% gacha to'planishi aniqlandi. Barg va mevalarida esa 5% dan kam yig'ilishi tasdiqlandi. Demak, pestisidlar bilan zararlangan tuproqlarda asosiy ekin sifatida makkajo'xori, takroriy ekin sifatida esa turp, sholg'om va qovoq ekish 2 yilda tuproqlagi pestisidlarni 45-65% gacha kamaytirishi mumkin ekan. 4-jadvalda ba'zi qishloq xo'jaligi ekinlarining DDT va GXSG pestisidlarini qancha miqdorda to'plashi keltirilgan.

4-jadval

Ba'zi qishloq xo'jaligi ekinlarida DDT va GXSG pestisidlarining miqdori, mg/kg

Qishloq xo'jaligi ekinlari	tuproqda		O'simliklarda	
	DDT	GXSG	DDT	GXSG
Qovoq	14,8	3,4	5,3	0,9
Sholg'om	14,8	3,4	4,5	0,75
Turp	14,8	3,4	4,3	0,45
Makkajo'xori	14,8	3,4	8,6	0,34
Karam	14,8	3,4	2,1	0,31
Kartoshka	14,8	3,4	1,8	0,21

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pestisidlarni eng ko'p miqdorda qovoq, sholg'om va turp to'plar ekan. Asosiy ekinlar (paxta va g'alla) ekilgandan so'ng, takroriy ekin sifatida ushbu ekinlar ekilsa va bu jarayon kamida 3 yil takrorlansa, tuproqdagi pestisidlar miqdorini sezilarli kamaytirishga erishiladi. Tavsiyalar. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bilan shug'ullanayotgan fermerlar va dehqonlar tuproqdagi pestisidlar miqdorini kamaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarga amal qilishsa, hosildorlikni oshirishga omil bo'ladi:

- 1). Dastlab tuproqdagi pestisidlar miqdorini ekin ekishdan oldin hududiy "Agrokimyoviy tahlil" laboratoriyalarida tekshirtirish;
- 2). Pestisidlarning qaysi turi tuproqda belgilangan me'yyordan ortiq ekanligini aniqlash;
- 3). Ekin ekishdan oldin yer maydonini xuddi sho'r yuvish kabidek, agrotexnik tadbirlar o'tkazish (Yerni pol qilib, tuproqning yuzidan 10-12 sm balandlikda suv to'ldirish va kamida 24 soat saqlash lozim). Bunda suvda eruvchan pestisidlar erib ketisa, suvda erimaydigan pestisidlar namlik yuqori bolganligi bois, bug'lanadi. Natijada tuproqdagi pestisidlar 30-35% gacha tozalanadi;
- 4). Asosiy ekin turini ekishdan oldin yerni yaxshilab shudgor qilish kerak. Bu jarayon tuproqning sorbsion qobiliyatini oshiradi va pestisidlar tuproqning quyi qatlamiga o'tishiga olib keladi;
- 5). Tuproqni yetarli darajada mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirish. Bu tadbir natijasida ham tuproqning sorbsion qobiliyati ortadi;

- 6). Tuproqning namini qochirmaslik, ya'ni tuproq qaqrab qolmasligi kerak;
- 7). Asosiy ekin yig'ishtirib olingach, takroriy ekin sifatida qovoq, turp, sholg'om va makkajo'xori ekish. Bu tadbirni kamida 3 yil amalga oshirish. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo viloyatida tuproqdagi pestisidlarni 3 yilda 50-60% kamaytirish mumkin bo'ladi. Tashakkur. Ushbu maqolani tayyorlashda o'zlarining amaliy yordamlarini berishgan Surxondaryo viloyati "Agrokimyoviy tahlil" laboratoriyasi xodimlariga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Xulosa. Maqolada Surxondaryo viloyati tuproqlarida DDT va GXSG pestisidlarining asosiy to'planish manbalari chuqur tahlil qilingan. 2018-2022 yillar davimoda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, tuproqdagi pestisidlarning to'planishi, ko'chishi va tuproqni pestisidlardan tozalash usullari o'rganilgan hamda tegishli xulosalarga kelingan. Tadqiqotlar natijasida fermerlarga tuproqdagi pestisidlarni bartaraf etishning oson, xavfsiz va samarali usullari tavsiya etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshkarayev, S. C., Babamuratov, B. E., Khaydarova, Z. E., Bobomurotov, N. N., & Normamatov, N. D. (2021). Ways of plant definition of radio nuclear-located soils of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (101), 517-522. <http://T-Science.org>.
2. Sadridin Eshkoraev, Khait Turaev, Samariddin Eshkoraev. Influence of Pesticides on Increasing Soil Radioactivity. World Journal of Applied Chemistry. 2021; 6(4): 49-54. <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/wjac>. doi: 10.11648/j.wjac.20210604.12. ISSN: 2637-5966 (Print); ISSN: 2637-5982 (Online)
3. Vrochinskiy K.K., Makovskiy V.N. Primenenuyey pestisidov I oxrana okrujayushey sredi. Ukraina, Kiyev: Visshaya shkola. 1979., 208 s.
4. Galiulin R.V., Galiulina R.A. Degidrigennaya aktivnost pochvi kak kriteriy dlya

osenki yeyo zagreznaneiya pestisidami: Materiali IV Ros. Bioxim shkoli «Geoximicheskaya ekologiya I biogeoximicheskoye izucheniye taksonov biosferi». M.: Nauka. 2003. S. 114—115.

5. Bralimi Fauchon S., Cotc-Bene/et M.. Gatel D.. Cavard J. Evolution de la contamination des cours d'eau par les pesticides en Ile-de-France // Techn. sci. meth. 2002. N. 3. P. 35-42.
6. Sadridin Eshkoraev1, Khait Turaev1, Samariddin Eshkoraev2. Influence of dichlorodiphenyltrichloroethane (DDT) on the increase of radioactivity in soils. 49 p.
7. Cupplcs Alison M., Sims Gerald K., Hultgrcn Ryan P., Hart Steven E. Effect of soil conditions on the degradation of cloransulam-methyl // J. Environ. Qual. 2000. V. 29. N. 3. P. 786-794.
8. Gamble Donald S., Lindsay Elspeth. Bmccolcri Aldo G., Langford Cooper H., Leves Gregory A. Chlorothalonil and its 4-hydroxy derivativ e in simple quartz sand soils: A comparison of sorption processes // Environ. Sci. and Technol. 2001. V. 35, N. 11. P. 2375-2380.
9. Hung H., Halsall C.J., Blanchard P., Li H.H., Fcllin P., Stern G., Rosenberg B. Temporal trends of organochlorine pesticides in the Canadian arctic atmosphere // Environ. Sci. and Technol. 2002. V. 36, N. 5. P. 862-868.
10. Hung H., Halsall C.J., Blanchard P., Li H.H., Fcllin P., Stern G., Rosenberg B. Temporal trends of organochlorine pesticides in the Canadian arctic atmosphere // Environ. Sci. and Technol. 2002. V. 36, N. 5. P. 862-868.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 0000-0000

Атамуратова Дилором Маматмуминовна,
Аликулов Рустам Валиевич,
Термезский государственный университет,
E-mail: rv_aliqulov@rambler.ru

СИНТЕЗ НОВОГО ПРОИЗВОДНОГО КОЛХАМИНА С ПРОПАРГИЛОВЫМ СПИРТОМ

Аннотация: Синтезировано производное колхамина с пропаргильным спиртом. Строение синтезированного соединения подтверждено данными ИК- и ПМР-спектров. В ИК-спектрах соединений со сложноэфирной группировкой проявляются полосы поглощения карбонильной группы (1735-1730 см⁻¹), а в спектрах гидроксильной группы карбинолов (3400-3450 см⁻¹).
Ключевые слова: колхамин, пропаргильный спирт ИК-спектроскопия.

PROPARGIL SPIRT ISHTIROKIDA KOLXAMINNING YANGI HOSILASINI SINTEZ QILISH

Annotatsiya: Kolxaminning propargil spirti bilan hosilasi sintez qilindi. Sintezlangan birikmaning tuzilishi IQ va PMR spektrlari bilan tasdiqlangan. Ester guruhi bo'lgan birikmalarning IQ spektrlarida karbonil guruhining (1735-1730 sm⁻¹), gidroksil guruhining karbinol spektrlarida (3400-3450 sm⁻¹) yutilish zonalarida paydo bo'ladi. Kalit so'zlar: kolxamin, propargil spirti IQ-spektroskopiyasi.

SYNTHESIS OF A NEW DERIVATIVE OF COLCHAMINE WITH PROPARGYL ALCOHOL

Abstract: A derivative of colchamine with propargyl alcohol was synthesized. The structure of the synthesized compound was confirmed by IR and PMR spectra. In the IR spectra of compounds with an ester group, absorption bands of the carbonyl group (1735-1730 sm⁻¹) appear, and in the spectra of the hydroxyl group of carbinols (3400-3450 sm⁻¹).
Key words: colchamine, propargyl alcohol IR spectroscopy.

Введение. В мире алкалоиды - растительные основания, имея совершенно разнообразные химические строения и физиологическую активность составляют один огромный класс органических соединений. Глубокое исследование их строения и физиологической активности внесло


огромный вклад в развитие теоретической органической химии и медицинской практики. В то же время интерес к их исследованию не ослабевает, принося науке и практике все новые результаты. Установление особенностей их строения имеет особое значение. В мире лекарственных средств созданных на основе алкалоидов групп трополона ш и р о к о м а с т а б н о используется в практике медицины и органического синтеза. К группе алкалоидов относятся трополоновые, продуцентами которых являются безвременники (*Colchicum L.*) и близкие им растения семейства Лилейных. Структурное разнообразие их алкалоидов, важные физиологические свойства и нахождение все новых их представителей был проведен ряд исследовательских работ. В нашей стране с целью развития химической промышленности разрабатываются эффективные методы извлечения лекарств из растений, отвечающих современным требованиям,

особое внимание уделялось выделению эффективных способов растительных лекарственных веществ, были достигнуты определённые успехи в создании лекарственных препаратов. Меры, предпринятые в этом направлении, привели к определенным результатам, в том числе, принимаются обширные меры по выделению физиологически активных веществ из лекарственных растений, по синтезу их малотоксичных продуктов, а также по изучению состава, структуры и свойств синтезированных соединений, для определения зависимости их физиологической активности от структуры. В связи с ростом и развитием разных отраслей хозяйства возрастает потребность в новых классах соединений, особенно содержащих углерод-углеродную тройную связь. Поэтому химическая продукция, полученная на основе ацетиленов и его производных, в последние годы стала объектом широкого исследования синтетической химии. Особый интерес к этой проблеме объясняется высокой реакционной способностью и большими перспективами практического использования таких синтетических продуктов, на основе которых возможно получение физиологически активных веществ [1, 2] ингибиторов коррозии металлов [3] и прочее. Основное исходное соединение для проведения синтеза – колхамин - был выделен из растения *Colchicum luteum baker*, произрастающего в степях Сурхандаринской области Республики Узбекистан [4]. Замечено, что введение в молекулу лекарственных веществ групп, содержащих ацетиленовую связь, заметно снижает их токсичность. В работе синтезированы производные колхамина со 2-метил-5-этинилпиридином. Экспериментальная часть Синтез производных колхамина с пропаргильным спиртом. Навеску

1,0 г колхамина растворяли в 17 мл свежеперегнанного и высушенного диоксана, в полученный раствор добавляли 0,12 г параформа, 0,01 г гидрохинона и 0,03 г однохлористой меди. Затем добавляли эквимолекулярное количество пропаргильным спиртом. Содержимое в колбе тщательно перемешивали [5-7]. Реакцию конденсации колхамина с ацетиленовыми соединениями проводили по Манниху, в эквимолекулярных соотношениях реагентов. Полученные вещества представляют собой порошок светло-желтого цвета. Методом тонкослойной хроматографии установлено, что продукты синтеза имеют близкие значения R_f. В то же время по хроматографической подвижности они сильно отличаются от исходного колхамина, имея высокие значения R_f. Вследствие алкильного (а не ацильного) характера вводимых в аминогруппу заместителей, полученные производные сохраняют, в некоторой степени, основность (особенно с пиридиновым кольцом), что затрудняет отделение примеси колхамина от продуктов реакций. Поэтому для этой цели прибегли способу хроматографирования на окиси алюминия (элюенты - смеси эфир-ацетон, ацетон и ацетон-метанол). Результаты и их обсуждение

Строение синтезированных соединений подтверждены данными методов ИК- и ПМР-спектроскопии. В ИК-спектрах соединений со сложноэфирной группировкой проявляются полосы поглощения карбонильной группы (1735-1730 см⁻¹), а в спектрах карбинолов гидроксильной группы (3400-3450 см⁻¹). Колхаминный фрагмент синтезированного соединений в-ПМР-спектрах существенно

не различается: сигналы N-метильной группы проявляются при 2,20-2,22 м.д., метоксильных групп - 3,56-3,60 (при C-1) и 3,82-3,85 м.д. (при C-2, C-3 C-10), протона Н-4 - при 6,44-6,51 м.д., Н-8 - 7,90-7,96 м.д., Н-11 - 6,68-6,75 м.д. и Н-12 - 7,17-7,22 м.д. Полученное соединение исследовали спектральными методами и подтвердили, что оно имеет следующую структуру.



Выводы:

1. Синтезировано новое производное колхамина с пропаргиловым спиртом
2. Методами ПМР и ИК спектроскопии подтверждены состав и структура синтезированного соединения

Список литературы:

1. Желдебовская Г.А., Гранин Е.Ф., Куценко О.И., Чаруйская Л.Б., Комаров Н.В. Синтез, свойства и фунгицидная активность ненасыщенных полуфункциональных соединений // Тезисы докладов к Всесоюзной конференции по химическим средствам защиты растений. - УФА, 1982. - С.112-113.
2. Уралов А.У., Абидов У.А., Махсумов А.Г. // Синтез и биологическая активность ацетиленовых кислот // Тезисы докладов в Всесоюзной конференции по химии сред. Защ. растений секция IV. - 1982. - С.175-176.
3. Авторская свидетельство СССР № 239751. Способ замедления коррозии углеродистой стали / Курбанов Ф.К., Махсумов А.Г., Сафаев А.С., Кучкаров А.Б., Абидов У.А., Садыков К.М. - 1969.
4. Аликулов Р.В., Кенжаев Д.Р., Нормуродов Б.А., Маулянов С. Алкалоиды Colchicum Luteum Baker // Ўз МУ хабарлари. - 2015 - №3/1. - 219-б.
5. Аликулов Р.В. Алкалоиды Colchicum kes-

selringii Rgl. и Merendera robusta Bge. строения новых гомопроропориновых и гомопроропориновых алкалоидов // Дисс.... канд. химических наук. - Ташкент, 1993. - С. 86-90.

6. Аликулов Р.В. [и др.]. Синтез новых производных колхамина и колхамина с пропаргиловым эфиром α -фенил- β -циан акриловой кислоты // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. - 2019. - № 8 (62). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/7688>.

7. Аликулов Р.В. [и др.]. Синтез нового производного колхамина с пропенилэтинилкарбинолам // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. - 2019. - № 12 (66).

8. Alikulov R.V., Kenjaev D.R., Umbarov I.A., Normurodov B.A., Alimnazarov B.X., Geldiev Yu.A. Vydelenie alkaloids from klubnelukovits bezvremennika jyoltogo. IV Republican scientific-practical conference "Actual problems of analytical chemistry", Termez May 1-3, 2014

9. Alikulov R.V., Alimnazarov B.Kh., Geldiev Yu.A., Ruzieva B.Yu. The structure of the new homoprotoporphine alkaloid 12-demethyl-luteine // Universum: Chemistry and biology electron. scientific. zhurn. 2018. No. 3 (45)

10. Alikulov R.V., Alimnazarov B.Kh., Nuraliev G.T., Geldiev Yu.A. The structure of the new homoprotoporphine alkaloid regecolquine // Universum: Chemistry and biology electron. scientific. zhurn. 2019. No. 2 (56)



14.00.00

TIBBIYOT FANLARI



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali
<https://lib.tisu.uz>
 ISSN 2992-9016

Xudoyqulov Boboqul Qorjovovich,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti t.f.n., v.b. dotsent.
 Kenjaev Yodgor Mamatqulovich,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot kafedrasasi assistenti
 pochta: yodgortmatb@gmail.com

QORIN BO'SHLIG'I A'ZOLARINING OG'IR ARALASH YOPIQ SHIKASTLANISHLARIDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH USULLARINING AFZALLIKLARI

ANNOTATSIIYA: Qorin bo'shlig'i a'zolarining yopiq shikastlanishi kutilmagan vaziyatlarda tasodifan ro'y berib, tashqi zarbaning kuchiga insonning holati zarbaga qarshilik ko'rsatishiga hamda himoyalinishiga bog'liq. Bunda qorin old devorining lat eyishi, qon tomir, mushaklar ezilishi, gematomalar paydo bo'lishidan to ichki a'zolarining (parenximatoz va kovak a'zolarining, yorilishi) kabi asoratlarga olib keladi. Ushbu a'zolarining yirtilib, titilib ketishi, safroli axlatning yoki ko'p qon yo'qotishlar sababli tiklanmas asoratlar kuzatilishi mumkin, bu esa zamonaviy tibbiyotdan tez va aniq taktika va diagnostikani hamda davolashni talab qiladi. Aksariyat holda esa, og'ir bemorlar ahvolini qisqa vaqtda yomonlashtiribgina qolmay, balki diagnostika yoki operatsiya qilishgacha, hatto o'lim holati kuzatilishigacha boradi.

Kalit so'zlar: Laparotomiya, qon ketish, travmatik asoratlar, parenximatoz a'zolar yorilishi, o'tkir jarohatlar, a'zolarining shikastlanishi, videolaparoskopiya.

ПРЕИМУЩЕСТВА СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ПРИ ТЯЖЕЛЫХ СМЕШАННЫХ ЗАКРЫТЫХ ТРАВМАХ ОРГАНОВ БРЮШНОЙ ПОЛОСТИ

АННОТАЦИЯ: Закрытые повреждения органов брюшной полости возникают случайно в неожиданных ситуациях, в зависимости от силы внешнего толчка положение человека сопротивляется и предохраняет от толчка. В этом случае это приводит к таким осложнениям, как разрывы передней стенки живота, сосудов, сдавление мышц, гематомы и внутренние органы (parenхиматозные и пористые органы, разрывы). Могут наблюдаться непоправимые осложнения вследствие разрывов и разрывов этих органов, желчного кала или обильной кровопотери, что требует быстрой и точной тактики и диагностики и лечения со стороны современной медицины. В большинстве случаев состояние тяжелых больных не только ухудшается в короткие сроки, но доходит до диагностики или операциии, вплоть до наблюдения летального исхода.

Ключевые слова: лапаротомия, кровотечение, травматические осложнения, разрыв parenхиматозного органа, острые травмы, органное повреждение, видеолaparоскопия.

ADVANTAGES OF MODERN DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR SEVERE MIXED CLOSED ABDOMINAL INJURIES

ABSTRACT: Closed injuries to the abdominal organs occur accidentally

in unexpected situations; depending on the strength of the external push, the person's position resists and protects against the push. In this case, this leads to complications such as ruptures of the anterior abdominal wall, blood vessels, muscle compression, hematomas and internal organs (parenchymal and porous organs, ruptures). Irreparable complications may occur due to ruptures and ruptures of these organs, bile stool or excessive blood loss, which requires quick and accurate tactics and diagnosis and treatment by modern medicine. In most cases, the condition of seriously ill patients not only deteriorates in a short time, but leads to diagnosis or surgery, even to death.

Keywords: Laparotomy, bleeding, traumatic complications, rupture of a parenchymal organ, acute injuries, organ damage, video laparoscopy.

Кирish:

Qorin bo'shlig'i a'zolarining o'tkir jarohatlanishlarida zamonaviy diagnostika (laparosintez, videolaparoskopiya) rivojlanishiga qaramasdan, davolashda muommolar etarlicha, jahon bo'yicha o'lim ko'rsatkichlari esa – 35% tashkil qiladi, tirik qolganlarning – 40% gacha nogiron bo'lib qolmoqda. O'tkir og'ir aralash shikastlanish bilan davolangan bemorlarda shok holati, kech murojaat qilish, mastlik kabi vaziyatlar, hayotiy zarur bo'lgan shoshilinch diagnostikaning murakkablashishiga hamda klinik belgilarning o'zgarishiga zarurat paydo bo'ladi, bu esa o'z o'rnida xirurgik amaliyotning kechiktirilishiga va uzoq samarasiz natijalarni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, og'ir aralash shikastlanishlarda shoshilinch ravishda operatsiya o'tkazilganda aniq va to'g'ri, yakuniy diagnoz interoperatsion jarayonda qo'yiladi, ya'ni klinik,

ultratovush va boshqa barcha tekshiruvlardan so'ng jigar, taloq, buyrak, o't qopi va siydik qopi hamda bachadon a'zolarining shikastlanish belgilari bo'lgan holatlarda jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi. Qorin bo'shlig'i a'zolarining har qanday yopiq shikastlanishlarida vaqtni yuqotmasdan bemorga tez va qisqa fursatda ham diagnostika, ham operatsiya bajarib inson uchun xavf tug'dirgan barcha holatlarni bartaraf qilish bilan bir qatorda uning hayotini saqlab qolish uchun keng va katta imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialida 2010-2022 yillar davomida 297 ta og'ir aralash shikastlanish bilan xirurgik amaliyot o'tkazilgan. Shular jumlasiga, 71 nafar (23,91 %) – bemorda jigar a'zolarining turli xil jarohatlanishi, 43 (14,48 %) nafar – qora taloqning yorilishi, 45 (15,15 %) – oshqozon osti bezi va me'da ichak tizimining travmatik yorilishi, 86 (28,96 %) nafar – ingichka va yo'g'on ichak tutamining hamda parda orti bo'shlig'ining kengaygan gematomasi - 47 (15,82%) nafar – siydik qopi va bachadon a'zolarining yorilishi, 5 (1,68 %) nafar – diafragma yorilishi tashhisi bilan bemorlar davolangan. Tadqiqotlardan ma'lumki, exoskopik tekshiruvlarning 3,7 % sohta natija beradi.

Tahlil va natijalar: Bunday holatlarda videolaparoskopik diagnostikani qo'llash maqsadli samara beradi va interoperatsion tayyorlash shokka qarshi chora tadbirlar qo'llash bilan birgalikda amalga oshirish bir vaqtning o'zida echimini topadi. Shuningdek, qorin bo'shlig'ini to'liq hamma sohalarini ko'ribgina qolmay undagi o'ta xavfli holatlar katta qon tomirlardan profuzli qon ketish, safroli yoki axlatli peritonit, kichik ko'rinmas joylardagi qorin orti pardasi a'zolarining shikastlanishini ham aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, ichaklar atrofi sohasi gematomalarida hamda siydik qopi va bachadon a'zolarining har qanday shikastlanishlarini ikkilanmasdan aniq ko'rish va to'g'ridan - to'g'ri laporoskopik operatsiyani bajarish uchun qo'l keladi. Diagnostika va davolash jarayoniga zamonaviy videolaparoskopik usulni qo'llash bilan qorin bo'shlig'i a'zolarining har qanday murakkab shikastlanishlarni hamda yuqoridagi yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etishda aniq va juda qulay mukammal imkoniyatlar yaratadi. Bunday holatlarda, videolaparoskopiya usulini qo'llash qisqa vaqt ichida qorin bo'shlig'ini batafsil ko'rish va taftish qilish hamda a'zoning shikastlanish o'chog'ini, gemoperetioniumni baholash, peritonit turi va tarqalishini aniqlash, to'qimalar shikastlanishini, ya'ni ichki a'zolarini ko'rib to'liq baholash va taktik davolash usulini aniqlashda qulaylik yaratadi.

Eng muhimi, jarrohlik usulni to'g'ri tanlashda samara beradi. Bundan tashqari, og'ir operatsiya o'tkazgan bemorlarda videolaparoskopik tekshiruvni qo'llash operatsiyadan so'nggi asoratlarni erta aniqlabgina qolmay, balki ular sonining kamayishiga ham xizmat qiladi. Jarrohlik bo'limida davolanagan 3 nafar bemorni ichaklar parezi tashhisi bilan jarrohlik amaliyoti olib borilganda, ichak tutamiga mikroirrigatorlar o'rnatish va 2 nafar bemorda ichaklararo aniqlangan absess tashhisi qo'yilib, asoratlarni o'z vaqtida bartaraf etishga erishildi. Shuningdek, videolaparoskopiyaning yana bir afzalligi keksa yoshdagi bemorlarda ichaklar tutami trombozi va o'sma kasalliklarini, qorin bo'shlig'i a'zolarining hosilalaridan gistologik tekshirish uchun biopsion materiallar olishda, tashxis qo'yishda, aniq taktik to'g'ri usul tanlashda samara beradi va davolashda qo'l keladi. Shunday qilib, ichki a'zolarining yopiq shikastlanishida keng laparatomiyani qo'llashga asoslangan ko'rsatmalarni diagnostik videolaparoskopiya yordamida tashxislashdan tashqari, davolashda va og'ir aralash shikastlanishlarda operatsiya taktikasini aniqlashtiradi hamda operatsiyadan keyingi kutilmagan asoratlarni ichak parezlarini aniqlashda yoki ichak anastomozlar etishmovchiligini ko'radi. Shuningdek, qon ketishda, absess bo'shliqlarni bartaraf etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Laproskopik usulida 20-30% bemorda laparotomiya bajarmasdan ichki qon ketishni bartaraf etish yoki ichki shikastlanishni aniqlash hamda asoratlarni oldini olishda bebaho vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z - o'zidan nogironlik va o'lim sonining kamayishiga olib keluvchi diagnostik vosita bo'lib xizmat qiladi.

X u l o s a l a r :

1. Parenximatov a'zolarining shikastlanishlarida UTT - 40-50 % gacha aniqlash imkonini beradi, 80-90% bemorlarda esa zamonaviy tekshirishlarning eng qulay turlari, ya'ni videolaparoskopiya bilan to'ldirish aniq va bebaho hulosaga beradi.
2. Ichki a'zolarining gemotomasi va kichik yorilishlardan qon ketish hollarida relaparotomiya

qilmasdan, videolaparoskopiya yordamida bartaraf etib, ishonchli natija olsa bo'ladi.

3. Og'ir aralash shikastlanishlarda keng laparotomiya bajarishga asoslangan ko'rsatmalarni, videolaparoskopiya yoki laparotsentez yordamida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хаджибоев А.М., Атаджанов Ў.Қ., Арипов У.О., Махмудов И.С., “Роль лапароскопии и лечения острых хирургических заболеваний и травм органов брюшной полости. Вестник хирургии 2014 г. 165:3:58-60.
2. Туйчиев Б.А., Хожиев Х.М., Туракулов М.А., “Место видеолaparоскопии в диагностики и лечения повреждений печени” Вест. Экст. Мед. 2016 №4 416-19 стр.
3. Хаджибоев А.М., Ризаев К.С., “Острый панкреатит современные аспекты диагностики и лечения”. Экст. Мед. 2016 №1 10-17 стр.
4. Хаджибоев А.М., “Показанию экстренной медицинской помощи (клинические протоколы)”. 2016 г. И-11-Том.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 2992-9016

Boyqulov To'rabek Temirovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tabiiy fanlar kafedrasining assistenti, turabekboyqulovo@gmail.com;
Xursandov Ilyos Ahmedovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tabiiyot kafedrasining assistenti Tojmuradov Mansur, TTA Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasining assistenti.

COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI ERKAKLAR BEPUSHTLIGINI DAVOLASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. So'nggi 20 yil ichida bepusht nikohda erkak omilining ulushi 30% dan 50% gacha o'sdi. Ushbu holatning rivojlanishining sabablari turli xil kasalliklar va patologik jarayonlar, shu jumladan virusli infeksiyalar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Maqolada SARS-CoV-2 ning erkak jinsiy tizimiga ta'sir mexanizmlari, ular orasida moyak to'qimalarining hujayralarida bo'lishi mumkin bo'lgan 2-turdagi angiotensinga aylantiruvchi fermentga S oqsilini biriktirish orqali hujayraga SARS-CoV-2 kirib borishi natijasida moyak to'qimalarining shikastlanishi muhokama qilinadi. Bundan tashqari, nafaqat virusning o'zi, balki viruslarga qarshi ishlatilgan dori vositalari ham erkaklarning reproduktiv funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, oksidlovchi stressni kuchaytirishi va gonadotoksik ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Bunday isitma bilan kechadigan tizimli yallig'lanish jarayonida antioksidantlarni tayinlash: eng ko'p o'rganilgan androdoz antioksidant komplekslaridan birining samaradorligini tasdiqlovchi tadqiqot natijalari keltirilgan. Bu eyakulyatsiyaning sifat tarkibini sezilarli darajada yaxshilaydi va oksidlovchi stress tufayli erkaklarning bepushtligi uchun tavsiya etilishi mumkin. Kalit so'zlar: COVID-19, SARS-CoV-2, erkaklarning bepushtligi, gematotestikulyar to'siq, oksidlovchi stress, antioksidantlar.

ОСОБЕННОСТИ ЛЕЧЕНИЯ МУЖСКОЙ БЕСТЕРИЛЬНОСТИ ПОСЛЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ COVID-19

Аннотация. За последние 20 лет доля мужского фактора в бесплодных браках выросла с 30% до 50%. Причины развития этого состояния могут быть вызваны различными заболеваниями и патологическими процессами, в том числе вирусными инфекциями. В статье обсуждаются механизмы воздействия SARS-CoV-2 на мужскую репродуктивную систему, в том числе повреждение ткани яичек в результате проникновения SARS-CoV-2 в клетку путем присоединения белка s к ангиотензинпревращающему ферменту типа 2, который может присутствовать в клетках ткани яичек. Кроме того, не только сам вирус, но и лекарства, используемые против вирусов, могут отрицательно влиять на мужскую репродуктивную функцию, усиливать окислительный стресс и оказывать гонадотоксическое действие. Назначение антиоксидантов при системном воспалительном процессе, сопровождающемся такой лихорадкой: представлены результаты исследований, подтверждающие эффективность одного

из наиболее изученных комплексов антиоксидантов андроза. Он значительно улучшает качественный состав эякулята и может быть рекомендован при мужском бесплодии из-за окислительного стресса.
Ключевые слова: COVID-19, SARS-CoV-2, мужское бесплодие, гематотестиккулярный барьер, окислительный стресс, антиоксиданты.

TREATMENT CHARACTERISTICS OF MALE STERILITY AFTER COVID-19 DISEASE

Annotation. Over the past 20 years, the share of the male factor in infertile marriage has grown from 30% to 50%. The reasons for the development of this condition can be caused by various diseases and pathological processes, including viral infections. The article discusses the mechanisms of action of SARS-CoV-2 on the male reproductive system, among them damage to testicular tissue caused by SARS-CoV-2 penetration into the cell by attaching protein S to a type 2 angiotensin-converting enzyme that may be present in testicular tissue cells. In addition, not only the virus itself, but also drugs used against viruses can negatively affect male reproductive function, increase oxidative stress, and have gonadotoxic effects. Appointment of antioxidants in the systemic inflammatory process accompanied by such a fever: the results of a study confirming the effectiveness of one of the most studied androdisia antioxidant complexes are presented. This significantly improves the quality composition of ejaculation and can be recommended for male infertility due to oxidative stress.

Keywords: COVID-19, SARS-CoV-2, male infertility, hematotesticular barrier, oxidative stress, antioxidants.

Kirish.

Bepushtlik muammosi zamonaviy dunyoda eng dolzarb va ahamiyatli masalalardan biridir. Turli ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda juftliklarning 15% dan 25% gacha duch keladi. Yordamchi reproduktiv texnologiyalar (EKU)ni joriy etish ma'lum darajada bepusht nikohlar sonining kamayishiga yordam berdi, shunga qaramay, er-xotinlarning taxminan 5 foizi davolanishdan keyin ham farzandsiz qoladi. Shu bilan birga, so'nggi 20 yil ichida bepusht nikohda erkak omilining ulushi 30% dan 50% gacha o'sdi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, bepushtlik bilan og'rikan erkaklarning yarmidan ko'pi g'ayritabiiy eyakulyatsiya ko'rsatkichlariga ega. Bundan tashqari, ularning 80% dan ortig'ida reproduktiv patologiya reaktiv kislorod turlarining

ortiqcha shakllanishi bilan bog'liq. Reaktiv kislorod hujayra metabolizmi jarayonida doimiy ravishda hosil bo'ladi va fiziologik miqdorda ular konsepsiya uchun zarurdir. Me'yoridan ortiq reaktiv kislorod tananing antioksidant himoya tizimi orqali inaktivlanadi. Agar ularning ishlab chiqarilishi organizmning himoya qobiliyatidan oshsa, oksidlovchi stress rivojlanadi, bu lipidlar, oqsillar, hujayra membranalar va sperma DNK molekulalariga zarar yetkazadi. Ushbu holatning rivojlanishining sabablari nafaqat jinsiy, balki tananing boshqa tizimlariga ham ta'sir qiladigan turli xil kasalliklar va patologik jarayonlar bo'lishi mumkin. 2020-yilning muhim voqealaridan biri yangi koronavirus infeksiyasi (COVID-19) pandemiyasi bo'ldi. Hozirgi vaqtda 684 milliondan ortiq kasallik aniqlangan va ulardan 6.8 milliondan ortig'i vafot etgan. Koronavirus infeksiyasi o'tkir respirator virusli kasallik bo'lib, yuqori nafas yo'llarining asosiy shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Bunga CORONAVIRIDAE oilasiga mansub BETACORONAVIRUS jinsiga mansub RNK o'z ichiga olgan SARS-CoV-2 virusi sabab bo'ladi. Odamdan odamga yuqadigan ushbu oilaning yettinchi a'zosi. So'nggi 20 yil ichida koronavirus bilan bog'liq uchta pandemiya e'lon qilindi, ular orasida 2002 va 2003 yillarda SARS va 2012 yilda MERS yaqin Sharq respirator sindromi. Ushbu pandemiya ma'lumotlari SARS-CoV-2 epidemiologiyasi va patogenezini tushunishni tezlashtirdi. Biroq, o'tgan yil davomida turli xil davolash usullarini baholash bo'yicha 500 dan ortiq klinik tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, COVID-19 dan o'lim darajasini pasaytirish uchun aniq va asosli terapevtik strategiya hali ishlab chiqilmagan.

COVID-19 pandemiyasi barcha darajadagi sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va sog'liqni saqlash jamoalari uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu muammolardan biri SARS-CoV-2 ning erkaklarning reproduktiv salomatligiga salbiy ta'siri ehtimoli edi. Bundan tashqari, bir qator mualliflar COVID-19 pandemiyasining dunyoda tug'ilishga ta'siri haqida xavotir bildirishdi. SARS-COV-2 ning tarqalishi EKV dasturlarini amalga oshiruvchi klinikalar faoliyatini to'xtatishga olib keldi. Pandemiya davrida ushbu dasturlarda qatnashmaslik bo'yicha ko'rsatmalar deyarli barcha xalqaro reproduktiv jamoalar tomonidan potentsial bemorlar va donorlarga birinchi navbatda tibbiy xizmatlarni yengillashtirish maqsadida berilgan. Biroq, keyinchalik insonning ko'payish uchun ajralmas huquqi masalasi ko'tarildi va shu munosabat bilan professional tashkilotlarning xavflarni tahlil qilish va shaxsiy himoya vositalari va ijtimoiy ajratish choralarini qo'llashning eng yaxshi amaliyoti bo'yicha tegishli tavsiyalari e'lon qilindi. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, reproduktiv xizmatlarning to'xtatilishining demografik oqibatlari pandemiyaning o'zi bilan bog'liq yo'qotishlar bilan taqqoslanishi mumkin. SARS-CoV-2 ning erkaklarning reproduktiv tizimiga ta'siri. SARS-CoV-2 tarkibida to'rtta asosiy tarkibiy oqsil borligi ma'lum: nukleokapsid (N), boshqoq (S), mayda membranalar (SM) va membranalar (M). SARS-CoV-2 ning hujayraga kirib borishining asosiy yo'li S oqsilining moyak to'qimasi hujayralarida bo'ladigan 2-tur angiotensinga aylantiruvchi fermentga (AAF-2) birikmasidir. U Leydig va Sertolli hujayralarida ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Qonda virusning mavjudligi musbat sperma namunalari asosiy sabablaridan biri sifatida qaraladi. Gematotestikulyar to'siq mukammal to'siq emas, ayniqsa tizimli yoki mahalliy yallig'lanish sharoitida. Moyaklarda viremiyani keltirib chiqaradigan kamida 11 ta virus mavjud. Ba'zilar erkaklarning reproduktiv

traktida ko'payadi, boshqalari hujayralarda yoki sekretsialarda uzoq vaqt davomida erkin zarralar sifatida saqlanishi mumkin. Biroq, OIVDA bo'lgani kabi, eyakulyatsiyada SARS-CoV-2 ni aniqlash uchun ma'lum bir virusli chegarani yengib o'tish kerak. Shuningdek, moyak to'qimalariga virus bilan bog'liq yallig'lanish shikastlanishi (immun orxit) va erkaklarning immunologik bepushtligiga olib keladigan antispermal antitelalari (ASAT) paydo bo'lishi masalasi ham aniqlandi. O'limdan keyingi gistologik to'qima namunalari virusning moyakka salbiy ta'sirini aniqlagan bir qator SARS-CoV tadqiqotlariga ko'ra, aynan orxit ushbu virusli infeksiyaning namoyon bo'lishidan biri bo'lishi mumkin. Bir tadqiqotda bemorlarning 19 foizi moyak og'rig'idan (orxit) shikoyat qilgan. Biroq, boshqa bir ishda sperma namunalari va yuqtirgan erkaklarning moyaklarida virusning to'liq yo'qligi ko'rsatilgan. Albatta, bu masala qo'shimcha o'rganishni talab qiladi. Bundan tashqari, nafaqat virusning o'zi, balki u keltirib chiqaradigan patologik

o'zgarishlar, shuningdek virusga qarshi davolash preparatlari reproduktiv funksiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SARS-CoV-2 bilan 20 kungacha davom etishi mumkin bo'lgan isitma bilan kechadigan tizimli yallig'lanish jarayoni oksidlovchi stressni kuchaytirish orqali spermatogenezga ta'sir qilishi va gonadotoksik ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash ta'sir antibiotiklar va SARS-CoV-2 uchun ishlatiladigan boshqa vositalar bilan terapiya fonida ham paydo bo'lishi mumkin. Fiziologik sharoitda oksidlanish-qaytarilish muvozanati fermentativ va fermentativ bo'lmagan tizimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Viruslar bu muvozanatni buzadi, oksidlovchi stressni keltirib chiqaradi, bu virusning hayot aylanishining

ma'lum bosqichlarini osonlashtiradi va yallig'lanish reaksiyasini faollashtiradi. Ushbu mexanizmlar DNK va RNK viruslariga xosdir. Oksidlanish stressining natijasi eyakulyatsiyaning asosiy parametrlarining o'zgarishi, sperma funksiyasi va morfologiyasining buzilishi, membrana va DNKning shikastlanishi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, antioksidantlarni qo'llash reproduktiv funktsiyani saqlash nuqtai nazaridan oqlanishi mumkin. SARS-COV-2 sabab bo'lgan buzilishlarni tuzatish imkoniyatlari. Eng ko'p o'rganilgan antioksidant komplekslardan biri Androdoz® bo'lib, uning tarkibiga L-arginin, l-karnitin, L-karnozin, koenzim Q-10, glisirrizin kislotasi, rux, selen, A vitamini, E vitamini kiradi. Androdoz qismlari sinergiyani namoyon qiladi-kombinatsiyada ular sezilarli darajada kuchliroq harakat qilishadi va alohida qo'llanilgandan ko'ra aniq ta'sirga erishadilar. Ushbu kompleksning samaradorligi ko'plab klinik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan Masalan, E. S. Dendeberov va boshqalar. Androdoz ni 3 oy davomida qabul qilgan 104 bemorni o'z ichiga olgan tadqiqot natijasida, eyakulyatsiya hajmining 45,7% ga, sperma konsentratsiyasining 18,5% ga, umumiy harakatchanlikning 33,7% ga, faol harakatchanlikning 38,4% ga va normal morfologiyaga ega sperma sonining 50% ga oshishini aniqladi. A. A. Proskurin va boshqalar Androdoz qabul qilgan erkaklarda konsentratsiyaning 1,53 baravar, harakatchanlikning 7,43 baravar, morfologik jihatdan normal shakllarning ulushi 6,75 baravar va eyakulyatsiya hajmining 1,95 baravar oshishini qayd etdi. A. A. Kamalov va boshqalar tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, spermatogenezi buzilgan va immunologik infertillik omili bo'lgan 64 (88%) bemorda 3 oy ichida. Androdozni qabul qila boshlagandan so'ng, eyakulyatsiya hajmining oshishi, sperma konsentratsiyasi, hayotiy va progressiv harakatlanuvchi sperma soni, shuningdek normal morfologiyaga ega bo'lgan sperma ulushi aniqlandi. Terapiyaning ijobiy ta'siri 3 oydan keyin ham saqlanib qoldi. Xulosa. Hozirgi vaqtda COVID-19 pandemiyasi va mavjud demografik muammolar sharoitida, COVID-19 infeksiyasidan keyin reproduktiv kasalliklarga murojaat qilgan bemorlarga alohida e'tibor berilishi kerak. Adabiyotda keltirilgan qarama-qarshi ma'lumotlarga va SARS-CoV-2 virusining erkaklarning reproduktiv tizimiga ta'sir qilish mexanizmlarini aniqlash uchun katta hajmdagi tadqiqotlarning yetishmasligiga qaramay, moyak

shikastlanishi va keyingi bepushtlikning rivojlanishi uchun nazariy imkoniyat mavjud. SARS-CoV-2 ning reproduktiv funktsiyaga uzoq muddatli ta'sirini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar ham zarur. Shunga qaramay, kasallik fonida rivojlanayotgan oksidlovchi stress erkaklarning reproduktiv holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda antioksidantlarni qo'llash reproduktiv funktsiyani saqlash nuqtai nazaridan oqlanishi mumkin. Androdoz antioksidant terapiya sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan samarali va xavfsiz vosita sifatida o'zini namoyon qildi. Bu ko'plab tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan eyakulyatsiyaning sifatli tarkibini sezilarli darajada yaxshilaydi va oksidlovchi stress tufayli erkaklarning bepushtligi uchun tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andrologik urologiya bo'yicha klinik tavsiyalar. P.A. Shcheplev. M.: Medforum; 2016 yil.
6. Gamidov S.I., Ovchinnikov R.I., Popova A. va boshqalar. Yordamchi reproduktiv texnologiyalar dasturida bepushtlikning erkak omilining roli. Andrologiya va genital jarrohlik. 2017
7. Alayev Yu.G., Grigoryan V.A., Chaly M.E. Erkaklarda jinsiy va reproduktiv funktsiyalarning buzilishi. M.: Litterra; 2006 y.
8. Dohle G.R., Colpi G.M., Hargreave T.B. et al. For European Association of Urology. Guidelines on male infertility. Eur Urol. 2022
10. Gromenko D. S., Galimov Sh. N., Shemagonov D. V. Erkak infertilligini shakllantirishda reaktiv kislorod turlarining roli. Qozon tibbiyot jurnali. 2007;
11. Plessis S.D., Agarwal A., Halabi J., Tvrdá E. Contemporary evidence on the physiological role of reactive oxygen species in human sperm function. J Assist Reprod Genet. 2015;
12. Sabeti P., Pourmasumi S., Rahiminia T. et al. Etiologies of sperm oxidative stress. Int J Reprod Biomed (Yazd). 2016



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://lib.tisu.uz>
ISSN 0000-0000

Sultonov Ravshan Komiljonovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
pochta: ravshansultonov606@gmail.com

BIR YOSHGACHA BO'LGAN CHAQALOQLARDA SURUNKALI BRONXIT KASALLIGI RIVOJLANISHIDAGI XAVF OMILLARINI BAHOLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda bronx-o'pka tizimida surunkali bronxit kasalligi kelib chiqish va rivojlanish, xavf omillarini, sabablari o'rganildi. Ayniqsa tadqiqotimizda Surhondaryo viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida surunkali bronxit tashxisi qo'yilgan bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlardan 50 nafar bemor bolalar o'rganilgan bo'lib, tez-tez respirator kasalliklar, immunitet pastligi, organizmning allergik xolati, surunkali infeksiya o'choqlarining mavjudligi, qaytalanuvchi bronxit surunkali bronxit rivojlanishiga sabab bo'lishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Bolalar, surunkali bronxit, surunkali tonzillit, pnevmoniya, sinusit, otit, mikobakteriya.

ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ ХРОНИЧЕСКОГО БРОНХИТА У ДЕТЕЙ

Аннотация: В данной статье изучены происхождение и развитие, факторы риска, причины хронического бронхита в бронхо-легочной системе у детей. Специально в нашем исследовании были изучены 50 больных детей из числа младенцев в возрасте до одного года с диагнозом хронический бронхит в детском многопрофильном медицинском центре Сурхондарьинской области, показавшие, что частые респираторные заболевания, низкий иммунитет, аллергическое состояние организма, наличие очагов хронической инфекции, рецидивирующий бронхит вызывают развитие от хронического бронхита.

Ключевые слова: Дети, хронический бронхит, хронический тонзиллит, пневмония, синусит, отит, микобактерии.

RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CHRONIC BRONCHITIS IN CHILDREN

Annotation: This article studied the origin and development, risk factors, causes of chronic bronchitis

in the bronchi-lung system in children. Especially in our study, 50 sick children from babies under one year old diagnosed with chronic bronchitis in the children's multidisciplinary medical center of the Surhondarya region were studied, showing that frequent respiratory diseases, low immunity, allergic state of the body, the presence of foci of chronic infection, recurrent bronchitis cause the development of chronic bronchitis.

Keywords: Children, chronic bronchitis, chronic tonsillitis, pneumonia, sinusitis, otitis, mycobacteria.

Kirish: So'nggi yillarda bronx-o'pka tizimi kasalliklari ayniqsa surunkali bronxit kasalligi shakllanishi va rivojlanishini oldini olish dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSSST) ma'lumotlariga ko'ra, «Dunyoda har olti kishidan biri nafas olish tizimi kasalligi bilan xastalangan, o'pka-bronx kasalliklarining barcha turlari orasida, ayniqsa bolalar populyatsiyasida surunkali bronxit ulushining ko'payishi tendensiyasi saqlanmoqda»[1]. «Birlamchi surunkali bronxit ko'p holatlarda 7 yoshdan katta bolalarda tashhislanmoqda, o'smirlarda esa katta yoshdagilardek 5-7% holatlarda kuzatilmoqda.

Oxirgi 10 yillikda bolalarda nafas olish tizimi kasalliklari, ayniqsa atipik va og'ir kechuvchi klinik shakllari bilan kasallanish va o'lim darajasi ko'rsatkichlari ortishi kuzatilmogda»[2]. Bugungi kunda bolalar o'limi darajasi 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarda 15,6% to'g'ri kelishiga qaramasdan bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi juda past, yani 9,1% tashkil qilmoqda [4-5] Bolalarda surunkali bronxit bilan kasallanish ko'rsatkichining yuqoriligi o'z navbatida, uni erta tashhishlash va davolash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bronxitlar bronx-o'pka tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan xisoblanadi. Xozirgi davrda surunkali bronxit aloxida kasallik bo'lib ajratilgan, unga mahalliy pnevmoskleroz kuzatilmaganda bronxlarning diffuz zararlanishi xos. Surunkali bronxit avj olish davrida bronxlar bo'shlig'i ajralmasida qo'zg'atuvchilardan gemofil tayoqcha 15-70%, pnevmokokk 11-77% hollarda topilishi aniqlangan. Surunkali bronxit bilan og'irgan bemorlarning 20-30% ida allergenlarga nisbatan yuqori sezuvchanlik kuzatiladi [3]. Kasallik rivojlanishidagi yetakchi bo'g'inini nafas olish tizimi asosiy himoya mexanizmi bo'lgan mukotsiliar apparat eskalator funksiyasining buzilishi tashkil qiladi (Nonikov V.E., 2011). Statistik ma'lumotlar bo'yicha pulmonologiya bo'limiga tez tibbiy yordam bilan keltirilgan bolalarning 40% gacha bo'lgan qismi bronxoobstruktiv sindromli bemorlar bo'lib hisoblanadi. Bo'g'ilish xurujlari, nafas chiqarishni cho'zilishi, kam balg'amli yo'tal, ba'zida nafas yordamchi mushaklarini jalb etilishi bilan shovqinli va xushtakli nafas bilan tavsiflanuvchi umumiy klinik belgilarga qaramasdan bronxoobstruktiv sindrom geterogen kasalliklarni yuzaga keltiradi[6-7-8-9]. Tadqiqot maqsadi: Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda surunkali bronxit kelib chiqishi sababi omillarini baholash. Tadqiqot metodologiyasi: Bizning kuzatuvimizda tadqiqot uchun 2020-2022-yillar davomida Surhondaryo viloyati bolalar ko'p tarmoqli

tibbiyot markazida surunkali bronxit tashxisi qo'yilgan bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlardan 50 nafar bemorlar olinib, bemorlarda klinikada yil mobaynida 2-3 marta kasallik xuruji, uzoq muddatli produktiv yo'tal kuzatilgan. Tashxisni tasdiqlash uchun bemorlarga laborator-instrumental tekshiruvlar, ya'ni rentgenologik va bronxologik tekshiruv, pulmonolog-ftiziatr konsultatsiyasi, zarur xolatlarda o'pkani kompyuter tomografiyasi o'tkazilgan. **Tahlil va natijalar:** Anamnezida barcha chaqaloqlarda tez-tez o'tkir respirator kasalliklar bilan kasallanish kuzatilgan (tez-tez kasallanuvchi bolalar guruxi), 5ta bemor bolada xayotining birinchi yilida pnevmoniya klinik ko'rinishining og'ir darajasi namoyon bo'lgan. 36 nafar (72%) bolada surunkali infeksiya o'chog'i (surunkali tonzillit, sinusit, kariess) bo'lgan, 30 nafar (60%) bolaga yil mobaynida har yili kuz-qish oylarida kuchayib boruvchi residivlanuvchi bronxit tashxisi qo'yilgan, 28 nafar (56%) bolalar allergik kasalliklarga nasliy moyillik kuzatilgan bo'lib, kasallik kechishida vaqti-vaqti bilan terida allergik o'zgarishlar kuzatilgan. Dinamikada tekshiruv va kuzatuvda surunkali bronxit tashxisi 6 nafar (12%) bolalarda tasdiqlangan bo'lib, ulardan 2 nafar (4%) bolalarda tekshiruv natijasida o'pkaning tug'ma anomaliyalari, o'pka gipoplaziyasi va Kartagenera sindromi (ichki organlarning qarama qarshi joylashuvi, sinusit, otit, respirator tizimning zararlanishi) aniqlangan. Qolgan bolalarda residivlanuvchi bronxit tashxisi isbotlangan.

Bir yoshgacha chaqaloqlarda bronxit kasalligi tashhisotida infeksiya manbai



Tadqiqotimizdagi bemor bolalarda laborator tahlil natijalariga kura bakteriologik tekshiruvda pnevmokokk 65%, stafilokokk

23%, E-coli, Klebsiella, protey 1% va boshqa mikobakteriyalar sababchi ekanligi aniqlandi. Xulosa: Bolalarda tez-tez o'tkir respirator kasalliklar, immunitet pastligi, yoshlikda o'tkazilgan pnevmoniyalar, organizmning allergik xolati, surunkali infeksiya o'choqlarining mavjudligi, residivlanuvchi bronxit surunkali bronxit kasalligi rivojlanishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. O'tkir bronxit ko'proq ona suti bilan oziqlanuvchi chaqaloqlarda 68,7%, surunkali bronxit esa faqat qushimcha ovqat maxsulotlari bilan oziqlanuvchi chaqaloqlarda 68,1% uchrashi aniqlandi. Kamdan kam xolatlarda ikkilamchi surunkali bronxit o'pkaning tug'ma anomaliyalari natijasida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Машарипова М.С., Мусаходжаева Д.А., Файзуллаева Н.Я. Состояние иммунного статуса у детей больных хроническими бронхитами различной этиологии // Журнал теоретической и клинической медицины. – Ташкент, 2017. – №6. – С.58-61. (14.00.00; №3).
2. Masharipova M.S., Fayzullaeva N.Ya. Surunkali va o'tkir bronxit bilan kasallangan bolalarda immun statusni qiyosiy baholash // Tibbiyotda yangi kun. – Tashkent, 2019. – №2 (26). – S.209-213. (14.00.00; №22).
3. А. А. Визель, И. Ю. Визель. Хроническая обструктивная болезнь лёгких — от истоков к современности:// Туберкулез и болезни лёгких. — 2019. — Т. 97, № 2 (март). — С. 42—49.
4. Sul'tonov Ravshan Komiljonovich. Ilk bolalik davrida o'pka o'zani va bronx daraxti taraqqiyoti, o'ziga xos tuzilishi // Tibbiyotda yangi kun. - Buxoro, 2021, № 4(37). – B. 48-50.
5. Sul'tonov Ravshan Komiljonovich. Bir oylik chaqaloqlarda nafas yo'llari devorining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axbortnomasi jurnali. Toshkent, 2022, № 8– B.174-177.
6. Sadiqova Z.Sh., Sul'tonov R.K., Yusupova Sh.A., Kamolova G.B. Bir yoshda bo'lgan chaqaloqlar o'pka ichi bronxlari devorlari morfologiyasining morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish // Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. tom 2 № 13 (2022): B. 162-167.
7. Sul'tonov R.K., Sadiqova Z.Sh. Bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda o'pka bronxlarining postnatal ontogenetik rivojlanish ko'rsatkichlari. Uslubiy tavsiyanoma. Toshkent, 2022, B. 32.
8. Simpson SJ, Logie KM, O'Dea CA, Banton GL, Murray

C, Wilson AC, Pillow JJ, Hall GL. Altered lung structure and function in mid-childhood survivors of very preterm birth. // Thorax. 2017 Aug;72(8):702-711.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali
<https://lib.tisu.uz>
ISSN 0000-0000

Худайкулов Бабакул Каржовович, Термезский университет экономика и сервиса Кандидат медицинский наук, и.о. доцент.
1. Mattis D. The few-body problem on a lattice //Rev. Modern phys. 58(1986), 361-379.
2. Mogilner A.I. Hamiltonians in Solid-State Physics as Multiparticle Discrete Schrodinger Operators.// Advances in Sovet Mathematics. V.S.(1991),139-194.
3. Abdus Salam. Fredholm Solutions of Partial Integral Equations. Proc. Cambridge. Philos. Soc. 49(1952), 213-217.
4. Stefan Fenyo. Beitreg Sur Theorie der Linearen Integral-gleichungen. Publs, mat 1955. no; 1,2. P.98-103.
5. Лихтарников Л.М. Дифференциальные уравнения. //1975, 11, N6, С. 1108-1117.
6. Лакаев С.Н., Соатов У.А. "О решении частично интегрального уравнения для функций трех переменных" ДАН РУз, 1997, N11.





MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOMMUNIKATIV QOBILİYATLARI VA FAOL IJTIMOYILASHUVI XUSUSIDA

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalar shaxsining muloqot sub'yekti sifatida ijtimoiy-psixologik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish uchun L.Krasilnikova tomonidan ishlab chiqilgan «Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq-atvor darajasini aniqlash» metodikasidan olingan natijalar tahlili yoritilgan. Bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda bolalar ota-onalar bilan pozitiv munosabatlar o'rnatishlari, topshiriqlar mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib yetishi va bola kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishini kattalar tomonidan tushunib olishi, ulardagi o'rganilgan natijalardan ma'lum bo'ldi. Bolalardagi kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishi ota-onalar bilan munosabatlarning ijobiy ravishda bog'langanligi bilan belgilanadi. Kattalar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ijobiy muloqotning shakllanganligi, bolaning xohish-istaklarini kattalar inobatga olishi, tarbiyalanuvchilarning muloqot xususiyatlari, ularning psixologik maydonda bemalol muloqot faoliyatini yuritishini belgilaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, bolalar, shaxs, muloqot, sub'yekt, ota-onalar, pozitiv munosabatlar.
Аннотация: В статье освещен анализ результатов методики «Установление коммуникативного контакта с ребенком и определение уровня произвольного поведения», разработанной Красильниковой для изучения особенностей социально-психологического развития личности дошкольников 5-6 лет как субъекта общения.

О том, что при установлении отношений между ребенком и взрослым дети могут устанавливать позитивные отношения с родителями, правильно понимать содержание заданий и понимать развитие коммуникативных способностей ребенка со стороны взрослых, стало известно из изученных на них результатов. Развитие коммуникативных способностей у детей определяется положительно скрепленными отношениями с родителями. Формирование позитивного общения между взрослыми, родителями и воспитанниками, учет желаний ребенка взрослым, особенности общения воспитанников определяют их способность вести неторопливую коммуникативную деятельность в психологической сфере.

Ключевые слова: дошкольный возраст, дети, личность, общение, субъект, родители, позитивные отношения.

Annotation: The article highlights the analysis of the results of the methodology "Establishing communicative contact with a child and determining the level of arbitrary behavior", developed by Krasilnikova to study the features of the socio-psychological development of the personality of preschoolers 5-6 years old as a subject of communication. The fact that when establishing a relationship between a child and an adult, children can establish positive relationships with their parents, correctly understand the content of tasks and understand the development of the child's communicative abilities on the part of adults, it became known from the results studied on them. The development of children's

communicative abilities is determined by a positively bonded relationship with their parents. The formation of positive communication between adults, parents and pupils, taking into account the wishes of the child to adults, the peculiarities of communication of pupils determine their ability to conduct unhurried communicative activity in the psychological sphere.

Keywords: preschool age, children, personality, communication, subject, parents, positive relationships.

Kirish.

Mamlakatimizda yuksalish va taraqqiyot yillarida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar samarali amalga oshirilmoqda. «Bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emosional ko'nikmalari rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish» muhim vazifalar sifatida belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiylashuv va muloqotning shakllanishi muammosi bo'yicha qator o'zbek, rus va xorij psixologlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G'.Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, M.Rasulova, Sh.Do'stmuxamedova, R.Sunnatova, O'.Shamsiyev, L.Nazirova, Sh.Bekovalar tadqiqotlarida shaxs shakllanishida muloqotning o'zni, ijtimoiy muhit, oila va oilaviy munosabatlar, shaxsning ijtimoiylashuvi masalalari, shaxs xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar ta'siri va kommunikativ qobiliyatlarning roli o'rganilgan. Rossiyalik qator psixolog olimlar V.Davidov, D.Elkonin, A.Petrovskiy, A.Bodalev, L.Bojovich, V.Muxina, M.Gamezo, V.Gerasimova, L.Orlova, M.Lisina, A.Asmolov, T.Dumitrashku, G.Tagiyeva, A.Setinina, A.Kosheleva, R.Muxamedraximovlar tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bolada o'zligini anglash,

ehtiyoj va motivlarni yuzaga kelishi va ijtimoiylashuvi masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Jahonda shaxsning shakllanishi, o'zini anglash muammolari psixologiyaning turli yo'nalishlari vakillari asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, bu qatorda K.Rodgers, A.Adler, E.Erikson, R.Berns, K.Xorni, Ch.Kuli, D.Mid, I.S.Kon, A.Leontyev, S.Rubinshteyn, V.Petrovskiy M.Kun, T.Makpartlend, V.Stolin, A.Bodalev, A.Orlov, I.Chesnokova va boshqalarning ilmiy izlanishlari metodologik material sifatida foydalanildi. Tahlil, natijalar va mulohazalar. Bizning mazkur ilmiy maqolamizda olib borilgan tadqiqotimiz, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlarini o'rganish uchun L.Krasilnikova tomonidan ishlab chiqilgan «Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq-atvor darajasini aniqlash» metodikasi va undan olingan natijalar yoritilgan. Quyida tadqiqot natijalarining tahlili sifatida Termiz shahridagi tarbiyalanuvchi bolalar kommunikativ qobiliyatlarining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish, ixtiyoriy xulq-atvor va kommunikativ imkoniyatlar o'rtasidagi korrelyasiya ko'rsatkichlari (Pirsonning r-korrelyasiya koeffitsienti bo'yicha)

Termiz shahri MTT tarbiyalanuvchilari

To'g'ri savollar	Noto'g'ri savollar	-0,898**
	Betaraf savollar	0,662**
	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,294*
Noto'g'ri savollar	To'g'ri savollar	-0,898**
Harakat vaziyatlarini bilmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,309*
	Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	0,565**
Harakat vaziyatlariga mos tushmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,879**
Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,357*
Kattalarga bo'lgan munosabatni nisbatan biladigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,833**

Termiz shahridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari bilan kommunikativ aloqalarni o'rganishga oid metodika natijasiga ko'ra umumiy o'rtacha ko'rsatkich 19,70 ni tashkil etdi. Bu esa, tarbiyalanuvchilar taqdim etilgan savollarni to'g'ri tushuna olgani, kattalar bilan aloqa o'rnatishda olishi, muloqotda yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tishi va bolalarda kuzatilayotgan munosabatlarni ota-onalar yaxshi anglab yetishidan dalolat beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ikkinchi savolga bergan javobiga ko'ra, ular kommunikativ aloqalarni kattalar bilan o'rnatishda to'siqlarga duch kelmasligi, bolaning imkoniyatlarini ota-onalar to'g'ri tushunib yetishi va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda yetarlicha xususiyatlar mavjudligi kuzatilgan. Tarbiyalanuvchi berilgan uchinchi savolga bolalar taqdim qilingan savollarni yosh darajasiga muvofiq ravishda berilganligini anglab yetganligi namoyon bo'ldi.

Bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda bolalar ota-onalar bilan bemalol aloqaga kirishishlari, savollar mazmunini to'g'ri idrok etayotganligi va bola kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishini kattalar tushunib yetishi natijalardan ma'lum bo'ldi. Bolalardagi kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishi ba'zan individual psixologik xususiyatlar oqibati ham bo'lishi mumkin. Bolalardagi aqliy qobiliyatlarining yuqoriligi, ularning atrofdagilar bilan aloqaga kirishishga imkoniyat borligi bilan belgilanadi. Tarbiyalanuvchi bolalar berilgan

uchinchi savolga deyarli quyi natija bilan javob berishgan. Tadqiqot natijalaridan shuni kuzatish mumkinki, berilgan betaraf savollarni bolalar to'g'ri topa olgan va yoshga muvofiq savollarga ijobiy darajada javob berishi, kommunikativ qobiliyatlarining shakllanganligidan dalolat beradi. Bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda bolalar ota-onalar bilan pozitiv munosabatlar o'rnatishda olishlari, topshiriqlar mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib yetishi va bola kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishini kattalar tomonidan tushunib olishi, ulardagi o'rganilgan natijalardan ma'lum bo'ldi. Bolalardagi kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishi ota-onalar bilan munosabatlarning ijobiy ravishda bog'langanligi bilan belgilangan bo'lishi mumkin.

2-jadval

Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish, ixtiyoriy xulq-atvor va kommunikativ imkoniyatlar o'rtasidagi korrelyasiya ko'rsatkichlari (Pirsonning r-korrelyasiya koeffisienti bo'yicha)

Sherobod tumanidagi MTT tarbiyalanuvchilari

To'g'ri savollar	Noto'g'ri savollar	-0,898**
	Betaraf savollar	0,662**
	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,294*
Noto'g'ri savollar	To'g'ri savollar	-0,898**
Harakat vaziyatlarini bilmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,309*
	Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	0,565**
Harakat vaziyatlariga mos tushmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,879**
Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,357*
Kattalarga bo'lgan munosabatni nisbatan biladigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,833*g'

Sherobod tumanidagi maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlar shakllanish darajasi bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish metodikaci natijalariga ko'ra, bolalarning kattalar bilan kommunikativ aloqa o'rnatishi 17,52 ni tashkil etdi. Bu holat bolalarning taqdim qilingan savollar mazmunini to'g'ri anglab yetganligidan darak bepadi. Shuningdek, bolalar ota-onalar bilan aloqaga kirishishlarida yuzaga

keladigan to'siqlarni osonlik bilan hal etishlari va kattalar bolalarning orzu-istaklarini inobatga olishlari bilan alohida xarakterlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ikkinchi savolga bergan javobi 4 tani tashkil etgan. Bu esa, yuqoridagi guruhlariga nisbatan pastroq ko'rsatkichni tashkil etadi. Lekin shunga qaramasdan tarbiyalanuvchilarning natijalari berilgan savollar miqdoriga nisbatan yuqori ekanligini qayd etish mumkin. Berilgan savollar mulohazalar miqdori bilan differensiasiya qilinganda, to'g'ri savollarga nisbatan juda quyi natijalarni ko'rsatishi, bolalardagi kommunikativ qobiliyatlarining normal holatda rivojlanganligini anglatadi. Shu bilan birgalikda ota-onalar va kattalar bilan munosabatga kirishishda kommunikativ aloqalarning mustahkam darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalardagi kommunikativ qobiliyatlarining shakllanishi savollar mazmunini to'g'ri idrok etishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishganda namoyon bo'ladigan muloqotdagi qiyinchiliklardan oson chiqib ketadigan psixologik xususiyatlardan dalolat beradi. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning uchinchi savolga bergan javoblari darajasi 3tani tashkil qilgan. Bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda bolalar ota-onalar bilan negativ munosabatlarning passiv darajada kuzatilishi, topshiriqlar mazmun mohiyatini to'g'ri anglab yetishi va bola kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishini kattalar to'g'ri idrok eta olishini

qayd qilingan mulohazalardan kuzatish mumkin.

3-jadval

Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish, ixtiyoriy xulq-atvor va kommunikativ imkoniyatlar o'rtasidagi korrelyasiya ko'rsatkichlari (Pirsonning r-korrelyasiya koeffisienti bo'yicha)

Qarshi shahridagi MTT tarbiyalanuvchilari

To'g'ri savollar	Noto'g'ri savollar	-0,898**
	Betaraf savollar	0,662**
	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,294*
Noto'g'ri savollar	To'g'ri savollar	-0,898**
Harakat vaziyatlarini bilmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,309*
	Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	0,565**
Harakat vaziyatlariga mos tushmaydigan	Harakat vaziyatlarini biladigan	0,879**
Kattalarga bo'lgan munosabatni bilmaydigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,357*
Kattalarga bo'lgan munosabatni nisbatan biladigan	Kattalarga bo'lgan munosabatni aniq biladigan	0,833**

Qarshi shahridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari bilan kommunikativ aloqalarni o'rganishga oid metodika natijasiga ko'ra umumiy o'rtacha ko'rsatkich 19,70 ni tashkil etdi. Bu natijalar esa, tarbiyalanuvchilar taqdim etilgan savollarni to'g'ri tushuna olgani, kattalar bilan aloqa o'rnatishda olishi, muloqotda yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tishi va bolalarda kuzatilayotgan munosabatlarni ota-onalar yaxshi anglab yetishidan dalolat beradi. Bolalardagi muloqotga kirishuvchanlikning rivojlanishi ota-onalar bilan munosabatlarning ijobiy ravishda bog'langanligi bilan belgilangan bo'lishi mumkin. Sinaluvchilar betaraf savollarning aniqlik darajasini to'g'ri tushunib etgan. Xulosa. Umuman olganda, sinaluvchilarning savollarga bergan javoblaridan shuni kuzatish mumkinki, kattalar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ijobiy muloqotning shakllanganligi, bolaning xohish-istaklarini kattalar inobatga olishi, tarbiyalanuvchilarning muloqot xususiyatlari, ularning psixologik maydonda bemalol muloqot faoliyatini yuritishini belgilaydi. Shu bilan birgalikda, bolalardagi kommunikativ

qobiliyatlarning shakllanishi savollar mazmunini to'g'ri idrok etishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishganda namoyon bo'ladigan muloqotdagi qiyinchiliklardan oson chiqib ketadigan psixologik xususiyatlardan dalolat beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishi ularning faol ijtimoiylashuvini ta'minlovchi muhim determinantlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кошелева А.Д. Эмоциональное развитие дошкольников: учебное пособие: для студентов фак. дошк. образования высш. пед. учеб. заведений. Москва: Академия, 2003. - 246 с.
2. Кун М., Макпарланд Т. Эмпирическое исследование установок личности на себя. -М.: Астрель. 2005, - 234 с.
3. Лисина М.И., Силвестру А.И. Психология самопознания у дошкольников. - Кишинев: Штиинца, 1983. - 112 с.
4. Лисина М. И. Формирование личности ребенка в общении. – СПб.: Питер, 2009. – 320 с.
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. o'quv qo'llanma.—t.:«Turon-iqbol» nashriyoti, 2006.
6. Норбошева М. Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида муломотнинг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар 9 (3), 7
7. Норбошева М.А. Мактабгача ёшдаги боланинг муломот субъекти сифатида ижтимоий-психологик ривожланиш хусусиятлари. Психол.фан. б.фалс.доктори (PhD) дисс. автореф. УДК: 159.922.7-053.4:316.77. <http://library.ziyounet.uz/uz/book/124233>



23.00.00

SIYOSIY FANLAR



GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH – JAMIYATNING ASOSIY USTUVOR VAZIFASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tajribasida gender tengligi masalasi, uning tarixi, rivojlanishi, xususan ayollar huquqlarining ta'minlashga oid olib borilayotgan islohotlar haqida qisqacha so'z yuritiladi. Bundan tashqari O'zbekistonda mustaqillik yillarida gender tenglikka erishish yo'lida amalga oshirilgan juda katta ishlar, shuningdek, oilaning ijtimoiy muhofazasi, onalik va bolalik muxofazasiga qaratilgan masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

КАЛИТ СО'ЗЛАР: inson, huquq va erkinliklar, qonun, huquqiy demokratik davlat, gender, adolatli fuqarolik jamiyati, gender tenglik, xotin-qizlar huquqlari.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА – ГЛАВНАЯ ПРИОРИТЕТНАЯ ЗАДАЧА ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье кратко рассматривается проблема гендерного равенства в мировом опыте, ее история, развитие, в частности, проводимые реформы, связанные с обеспечением прав женщин. Кроме того, уделяется внимание большой работе, проделанной в Узбекистане за годы независимости по достижению гендерного равенства, а также вопросам социальной защиты семьи, охраны материнства и детства.

Ключевые слова: человек, права и свободы, право, правовое демократическое государство, гендер, справедливое гражданское общество, гендерное равенство, права женщин.

ENSURING GENDER EQUALITY IS THE MAIN PRIORITY TASK OF SOCIETY

Annotation: This article briefly examines the problem of gender equality in world experience, its history, development, in particular, ongoing reforms related to ensuring women's rights. In addition, attention is paid to the great work done in Uzbekistan over the years of independence to achieve gender equality, as well as issues of social protection of the family, protection of

motherhood and childhood.

Key words: human, rights and freedoms, law, rule of law democratic state, gender, fair civil society, gender equality, women's rights.

Кирish

Darhaqiqat, gender tengligini ta'minlash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishning ulkan imkoniyatlari yaratilib, shiddatli islohotlar davom etmoqda. Yurtimizni rivojlanishning yangi bosqichiga qat'iy qadam qo'yg'anligini anglatadigan 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning asosiy maqsadi – inson, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng yuksak qadriyat sifatida tan olinadigan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdir. Bu jihatdan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasidagi yangi O'zbekistonni buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, mehnatkash, azmu shijoatli, adolatni qadrlaydigan xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz hamda islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz zarur, degan so'zlari bugungi davr talabini aks ettirishini

alohida ta'kidlash lozim. “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotganligi va unga tayanib ish ko'rilishi zarurligi ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha o'zgarishlar siyosiy sohaga ham ta'sir qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha, milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Xotin-qizlarning gender tengligini himoya qilish bo'yicha komissiya tuzildi. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi tashkil etildi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xotin-qizlarning deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishida 30 foizlik kvota belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini qo'llab -quvvatlash hamda oila va xotin- qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

5938-sonli Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi[2] va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi[3] qonunlarining kuchga kirgani bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, ketma-ketlik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tahlil va natijalar Yangi O'zbekistonni siyosiy tizimda shaxs va davlatning o'zaro munosabatlariga ustivorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog'liq. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirishning asosiy mexanizmi – bu, demokratiya, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha fuqaro va aholining huquqlarini kafolatlashtirishga qaratilgan. O'zbekistonda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehniyat, xalqning tarixan tarkib topgan an'analari, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etilmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati deyilganda, xalqaro tajribadan o'tgan va insoniyatning ko'pchiligi tanlab olgan taraqqiyot tamoyillari, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishiga va inson kapitali oshishiga xizmat qiladigan, uning manfaatlarini, huquq va erkinliklarini maksimal darajada ro'yobga chiqishga ko'maklashadigan, qonun ustuvorligi va adolat mezonlari tantana qilgan ijtimoiy makon tushuniladi. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, bunda birinchi navbatda inson manfaatlarini, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo'lib qolishiga asosiy e'tiborni qaratmoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarida gender tenglikka erishish choralari ro'yobga chiqarish yo'lida juda katta ishlar amalga oshirildi. Oilaning ijtimoiy muhofazasi, onalik va bolalik masalalariga mas'ul bo'lgan bosh vazir o'rinbosari rahbarligida rivojlanishda sezilarli o'sishga erishildi. Xotin qizlar harakati dastavval Shimoliy Amerikada, 1775-1783 yillar davomida mustaqillik uchun kurash sharoitida va Fransiyada 1789-1794 yillardagi inqilob davrida vujudga keldi [4]. 1914 yil 8 martda xotin-qizlar kuni bayram sifatida bir vaqtning o'zida 6 mamlakat – Avstriya-Vengriya, Belgiya, Germaniya,

Niderlandiya, Rossiya va Shveysariyada ilk marta keng nishonlandi[5, B.121]. Dastlabki feministlar xotin - qizlarning ezilishi xamda ularning erkaklarga qaramligi sabablarini izlar ekan, ularni ham huquqiy va ijtimoiy jabhalarda ko'radi. Ularning qarashlari feministik dunyoqarash, keyinchalik feministik nazariya shaklini oldi. Biroq, feministlarning xotin – qizlarning huquqlarini himoya qilish va kengaytirish borasidagi chiqishlari jamiyat uchun kutilmagan bo'lib, hammada va hatto ayollar orasida ham ijobiy qabul kilinmagan. Erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikka erishish dunyo mamlakatlari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida vaziyat va muammolar har xil kechgan bo'lsada, shunga qaramay, xotin-qizlar va erkaklarning mehnat bozorida mavqei, ularning qadriyat va an'analariga asoslangan jamiyat hamda oilalarda ijtimoiy mavqeiifodalovchi umumiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonuniyatlar gender tenglikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. Gender bu umuman olganda - erkaklar va ayollarning umumiy tenglik nuqtai nazaridan farqlarini va tomonlarning barcha yo'nalishlardagi haqiqiy o'rnini aks ettiruvchi tushuncha hisoblanadi. Gender tushunchasida asosiy tayanch nuqta bo'lib, ikki tushuncha yani, "jins" va "gender" tushunchalari o'rtasidagi farq tushuniladi. Ayrim hollarda ushbu toifalar (jins – erkak, ayol; va gender – maskulin, femin) bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida aks ettiriladi[6; B.346]. Gender tengligi - bu har bir insonning huquqidir. Ayollarning huquqlarini kafolatlash va ularga o'z salohiyatlarini to'la namoyon etish imkoniyatlarini berish nafaqat gender tenglikka erishish uchun, balki rivojlanishning keng bosqichlariga erishish uchun ham muhimdir. Sir emaski teng imkoniyatga ega bo'lgan ayollar va qizlar o'z oilalari, xalqi va mamlakatlarining salomatligi va samaradorligiga hissa qo'shib, barchaga foyda keltiradigan kuch yaratishi mumkin. Gender tengligi shuni anglatadiki, xar bir jamiyatda erkaklar va ayollar moliyaviy mustaqillik, ta'lim va shaxsiy rivojlanish uchun teng kuchga ega bo'lishi lozim. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish gender tengligiga erishishning muhim jihatlaridan biridir. Bu ayolning o'zini o'zi qadrlash tuyg'usini, qaror qabul qilish qobiliyatini, imkoniyat va manbalardan foydalanish imkoniyatini, o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini oshirishni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, gender masalalari nafaqat ayol va erkak tengligi, balki

jamiyatdagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarga xam qaratilgan. "Kundalik xayotimizda jins bilan bog'lanmagan ko'plab tushunchalar "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" deb hisoblanadi. YA'ni o'ziga xos "jinsiy", gender xususiyatga ega bo'ladi. "Erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" tushunchalarni aniq farqlash uchun "feminlik" (ayollik) va "maskulilik" tushunchalari qabul qilingan. Gender fanida gender farqlarning tashkil topish jarayoni odatda ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'lanadi[7]. Tan olib aytish kerakki jamiyatda ayollarning xuquqlari tan olinishi shu jamiyatda xukumron bo'lgan erkaklar qaroriga bog'liq. Garchi dunyo gender tenglik borasida katta qadamlarni tashlagan bo'lsa-da, keng tafovut saqlanib qolmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra gender tengsizligi xali xamon muammoligicha qolmoqda va xayotiy muxim imkoniyatlarga ega bo'lishda gender tafovut mavjud. Bu ayniqsa sog'liqni saqlash, oliy ta'lim olish kabi jarayonlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jamiyatimizda ayollar va erkaklar huquqlari tengligi har doim ham bir xilda namoyon bo'lavermaydi, sababi erkaklarning ayol kishini ojiza deb bilishi ba'zi oilalarda tarbiya orqali an'ana sifatida singdirilgan[8, B.192-194]. Gender tengligini targ'ib qilarkan xalqaro nufuzli tashkilotlar barcha dunyo mamlakatlarini mavjud jamiyatlarda shakillanib kelgan jinsiy notenglikka oid steriotiplarni sindirib, jinslar o'rtasidagi tenglik g'oyasini qo'llab quvatlashga chaqirmoqda Keyingi paytlarda ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy erkaklarga xos va ayollarga xos deb hisoblangan tasavvurlar hatto bir jins rivoji tarixi davrda o'zgarishi mumkin. Shaxsning

erkaklarga yoki ayollarga xos deb hisoblangan xususiyatlari bugungi kungacha jamiyat tomonidan u yoki bu jinsga nisbat berilgan kiyim, odatlar, bosh kiyim kabi jinsga kam darajada taalluqli. Shunisi muhimki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari genderni moddiy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari va ko'rinishlariga qarshi kurashni nazarda tutadigan bir qator xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Bular - Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshka xalqaro-hukukiy aktlardir. Tabiiyki, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun faqat xalqaro miqyosdagi hukukiy talablarning belgilanishi yetarli emas. Bu masalaning yechimi ko'p jihatdan qonunchilik darajasida mustahkamlangan samarali hukuqni qo'llash faoliyatiga bog'liq.

Xulosa

Mamlakatimizning yangi qiyofasi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy - ahloqiy omillar va serqirra islohotlar jarayonida barpo etilmoqda, buning natijasida xalqimiz va mamlakatimizning zamonaviy qiyofasi shakllanib bormoqda. Ayni paytda ularning barchasi yangi jamiyatni barpo etish yo'lidagi islohotlarning ortga qaytmasligi, bu yo'ldan qat'iyat va sobitqadamlik bilan borilayotganini anglatadi. Yangi O'zbekiston Prezidentimizning hayotbaxsh g'oyalari asosida, xalqimizning fidokorona mehnati evaziga barpo etilmoqda. Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa bugungi kunda ayollarning teng huquqliligi borasida nafaqat Markaziy Osiyo yoki O'zbekistonda, balki dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida, bu soxada qilinishi kerak bo'lgan ishlar xali anchagina. Xotin-qizlar deyarli barcha davlatlar aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi, shuning uchun aholi yarmining huquqlari poymol qilinganda, amalda demokratiyaga asoslangan jamiyat to'g'risida gapirish qiyin. Garchi insonga nisbatan barcha turdagi zo'ravonlik va kamsitishlarni bartaraf etish taqozo etilsada, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik alohida ahamiyatga muhtoj, chunki bu holat butun jamiyatga tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini qo'llab -quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi", 2020 yil 20 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi", 2019 yil 2 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. "Xalq so'zi", 2019 yil 2 sentabr.
4. History of Woman in West. / Gen. eds. G.Duby, M.Perrot V.I Cambridge (Mass.), 1992.
5. Rajabov Q., Qandov B. Jahon tarixidagi sulola va davlatlar: qisqacha siyosiy tarixi va muhim sanalari. T.2. – T.: "O'zbekiston", 2015. - B. 121.
6. Большой толковый социологический словарь.Т.2. – Москва: «АСТ», 1999. – С. 346.
7. Воронина О.А. Феминизм и гендерное равенство. -Москва: Эдиториал УРСС, 2003. – 320с.
8. Normatov O.M. Jamiyatda yoshlar faolligini oshirishda ma'naviy tarbiyaning o'rnini. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya TO'PLAMI. Navoiy, 2021. -B.192-194.

“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali ilmiy maqolalariga qo‘yiladigan talablar

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining “TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnalga *iqtisodiyot, tarix, pedagogika, psixologiya, fizika-matematika, filologiya* fan sohalari (ruklar) bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi. Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal rukniga mos keladigan maqolalar qabul qilinadi. Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1,15 intervalda 7-10 bet tavsiya etiladi (15 betdan oshmasligi kerak). Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm. Shrift – Times New Roman. Shriftning kattaligi – 14. Qatorlar oralig‘i – 1,15. Xat boshi (abzats) – 1,25. Maqolalar o‘zbek (lotin imlosida), rus, yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Muallif(lar): mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: familiyasi, ismi, otasining ismi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi: Ushbu ma‘lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, OTM yoki ilmiy-tadqiqot instituti, shahar va mamlakat, elektron pochta manzili, telefon raqami keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning nomi: maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak (bosh harflarda). U o‘zbek, rus hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

Annotatsiya: Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 10-12 qatordan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va

amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi. Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

- tadqiqotning asosiy ma‘lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo‘lmagan faktlar bo‘lmasligi lozim;
- maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;
- natijalar aniq va lo‘nda bo‘lib, uzviylikda beriladi;
- annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jumalari” (muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo‘lmasligi lozim;
- annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;
- annotatsiya matnining hajmi 150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so‘zlar hisoblanadi. Annotatsiya ostida «Kalit so‘zlar» (8-10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so‘zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo‘lishi lozim. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so‘zlarning har biri asosiy matn tarkibida o‘rtacha 6-8 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm

Kirish:

maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilish vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak. Kirish qismida asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi (ushbu qismda Prezident asarlari va ma‘ruzalariga murojaat qilinishi tavsiya etiladi).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda ma‘lum xarita yaratishni anglatadi. Adabiyotlarning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O‘z mazmuniga ko‘ra har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negiziga quriladi. Adabiyotlar bo‘yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma‘lumot manbalari asosida amalga oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo‘lib, u o‘tkazilayotgan tadqiqotning umumiy xaritasi, tadqiqot yo‘li va manzilga (natijaga) olib boruvchi xaritaviy chizgilari hisoblanadi. Maqola metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo‘nalishini (deduksion yoki induksion) belgilash, tadqiqot dizayni, ya‘ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo‘llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot ob‘ektining tanlovi (sampling), birlamchi yoki ikkilamchi ma‘lumot manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo‘yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo‘yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo‘lni belgilashni anglatadi. Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo‘lning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) asoslash orqali namoyon bo‘ladi.

Tahlil, natijalar va mulohaza:

maqolaning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasida avvaldan belgilab olingan tahlil usullari (matematik modellar va boshqalar) orqali yig'ilgan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi. Bunda faqatgina tahlil usulining natijalari ifoda etiladi; topilgan natijalar bo'yicha muhokama maqolaning keyingi qismining vazifasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar:

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqot ishi yo'nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Maqolada foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati maqolaning oxirida matnda foydalanilganlik ketma-ketligi bo'yicha beriladi (1. ... 2. ...). Maqola iqtiboslari esa matn ichida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ketma-ketligida adabiyotning foydalanilgan sahifasi bilan yoziladi ([1, B.72-73] yoki [2, C. 153], [3, P. 25]).

Jurnal maqolalarining berilishi:

Дульзон А.П. Этнолингвистическая дифференциация тюрков Сибири // Структура и история тюркских языков. – Москва: Наука, 1971. – С. 198 – 208.

Elektron jurnalidagi maqolalarning berilishi:

Allamuratov Sh.A. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy-diniy aloqalarida Amudaryo suv yo'lining o'rni // O'tmishga nazar. №24. 2019. – B. 23-29. URL: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-24> [murojaat qilingan sana: 15.02.2023]

Konferensiya materiallarining berilishi:

Allamuratov Sh.A. Amudaryo bo'ylab Buxoro amirligi qishloq xo'jalik mahsulotlarining tashilishi // "Buxoro tarixi masalalari" (eng qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha). Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2021. – B. 72-76.

Kitoblar (monografiya, to'plam)larning berilishi (adabiyotning umumiy beti shu joyda yoziladi):

Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 186 б.

Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – Москва –

Ленинград: АН СССР, 1951. – 451 с.

Tarjima kitoblarning berilishi:

Абу-л-Аббос Аҳмад ибн Яхё ал-Балозурий. Футух ал-булдон (Хуросоннинг фатҳ этилиши) / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камалиддин. – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – 440 б.


Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы / Пер. с перс. С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной под ред. А.Н.Болдырева. М.: ИВЛ, 1963. – 174 с.

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak

Internet-resurslarning berilishi:

Лапшин Р.В. Флотилии в Туркестане периода гражданской войны (Прислала В.Лаврова) // <https://mytashkent.uz/2018/01/24/flotilii-v-turkestane-perioda-grazhdanskoj-vojny/> [murojaat qilingan sana: 15.03.2022]

Амударьинская военная флотилия (Материал из Википедии — свободной энциклопедии)[элект.рес.]/https://ru.wikipedia.org/wiki/Амударьинская_военная_флотилия [murojaat qilingan sana: 01.02.2022]



TISU ILMYIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

№3/2023



TISU ILMYIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2992-9016

№3/2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIYTA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI



**TISU ILMIY
TADQIQOTLARI
XABARNOMASI**

**ВЕСТНИК НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТУЭС
TUES BULLETIN OF SCIENTIFIC RESEARCH**



“TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI

№ 3/2023

Offline ISSN 2992-9113
Online ISSN 2992-9156

Dissertatsiya va avtoreferatning berilishi:
Qobulov E.A. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2019. – 284 b.

Юсуфи Шодипур. История путей сообщения и транспорта Таджикистана во второй половине XIX – начале XX в. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 1992. – 21 с.

Jadvallar: maqolada jadval nomlari uning yuqori qismida, chizma yoki rasm nomlari esa ularning quyi qismida yozilishi hamda ularning manbasi aniq ko‘rsatilishi lozim. Jadvallar raqamlanadi va maxsus nomlanadi. Jadvaldagi har bir ustun qisqa nomga ega bo‘lishi kerak (qisqartma so‘zlardan foydalanish mumkin). Har bir jadval matnda izohlanadi. Chizmalarning elektron versiyalari alohida fayllarda taqdim etiladi. Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo‘lishi kerak.

O‘zbek tilidagi o‘, g‘, q, h kabi harflar ilmiy maqola matnida gaplar tarkibida to‘liq yozilishi shart.

Ilmiy maqola tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a‘zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni qabul qilmaslik huquqi bor.

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.

Jurnal bosma shaklda chop etiladi. Jurnalning elektron shakli– Termiz iqtisodiyot va servis universitetining rasmiy web saytiga joylashtiriladi (<https://scientific.tu>). Maqolalar bosqichma-bosqich google scholar da indekslanadi.

Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo‘lishi kerak

Tahririyat joylashgan manzil (pochta manzili):
Termiz shahri, Bog‘ishamol MFY, Faravon massivi 4b-uy.
Tahririyat to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlar:
Pochta indeksi: 190101.
E-mail: eshbolta.kabulov@mail.ru allamuratovs@tersu.uz
Tel.: 91-966-00-44, 91-518-66-88.